



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



conferences.uz

No 18
31 июль

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 18-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
8 -ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
18-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ- 8**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
18-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART- 8**

ТОШКЕНТ-2020



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 18-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июль 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 136 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга багишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хукуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содикovich, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содикovich, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Chorieva Shakhnoza	
AUTOBIOGRAPHICAL ELEMENTS OF THE NOVEL “DEATH OF A HERO” BY RICHARD ALDINGTON	9
2. Usmanova Nigora	
IBRATNING IBRATLI UMR DAFTARI.....	11
3. Ataboyeva Zulkumor Axmedovna, Iskandarova Zebo Baxtiyorovna	
MATNAZAR ABDULHAKIM IJODIDA FALSAFIY QARASHLAR	13
4. Hoshimjon Ahmedov	
ULUG‘BEK HAMDAMNING “OTA” ROMANI HAQIDA MULOHAZALAR.....	15
5. Jamoliddin Yoqubov	
TASAVVUFNI TUSHUNISHDA MANBALARNING AHAMIYATI.....	17
6. Mirzaahmedova Nodiraxon Mamajonovna	
O’QUVCHILARDA KITOB O‘QISHGA QIZIQISH UYG‘OTISH	20
7. Sobirova Saodatjon Tohirjon qizi	
“GO‘RO‘G‘LI” TURKUMIDAGI DOSTONLARNING BADIYATI (“Gulshanbog” va turkumning xorazm versiyalari asosida).....	22
8. Алламбергенова Гулмира	
ПРОФЕССОР ҚУРБАНБАЙ ЖЭРИМБЕТОВТЫң САБАҚЛЫҚ ҲӨМ ОҚЫЎ ҚОЛЛАНБАЛАРЫНЫҢ ӘХМİЙЕТИ	23
9. Худайбергенова Мадина Шухратовна	
ЭЛЕГИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ М. Ю. ЛЕРМОНТОВА.....	25
10. Abdullayeva Nargiza Sultonbayevna	
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH DARSINI TASHKIL QILISH	27
11. Davlatova Gulnoza Sattorovna	
SHOIR ATOYI G‘AZALLARIDA QO‘LLANGAN SHE’RIY SAN’ATLAR	29
12. Oydinxon G‘oziyeva Mo‘minovna	
ALISHER NAVOIYNING “YORILA BIR XILVAT ISTARMENKIM...” G‘AZALI T AHLILI, TASAVVUFIY HAYOT AKSI	32
13. Jumayeva Ra’no Safarboyevna	
HAKIM NAZIR HIKOYALARIDA BOLALAR TARBIYASIGA OID MASALALAR.....	34
14. Qilichova Go‘zal Chorshanbiyevna	
NAVOIY IJODIGA NAZAR	36
15. Qobilova Yorqinoy Hosilovna	
BADIY ADABIYOT VOSITASIDA O‘QUVCHILARDA INSONIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH	38
16. Qosimova Il’mira Bagandikovna, Qosimova Oltinoy Bagandikovna	
BUYUK JASORAT SOHIBI	40
17. Rahmonova Saida Ismoilovna	
SO‘ZDAN SO‘ZNING FARQI BOR	42
18. Rahmatova Husnida Ochilovna	
G‘AFUR G‘ULOM LIRIKASI BADIYATI	44
19. Salomova Gulruh	
ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANINI O‘RGANISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR.....	47
20. Umurzakova Feruza Akramovna	
“O‘TKAN KUNLAR” ASARIDA MILLIY RUH IFODASI	49
21. Алимжанова Дилфузা Халижановна	
ПАТРИОТИЧЕСКИЕ ИДЕАЛЫ Н.В.ГОГОЛЯ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ТАРАС БУЛЬБА»	51
22. Алимжанова Лобархон Халижановна	
“КЕЧА ВА КУНДУЗ”НИ ЧҮЛПОН ЮЛДУЗИ КАБИ АЖРАТГАН АСАР	53

МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

23. Жуманиязова Мухаббат Болтаевна	
ПАХЛАВОН МАҲМУД ФАЛСАФАСИ	55
24. Низомова Лобар Файзуллаевна	
АДАБИЁТ ДАРСЛАРИДА КЕРН ЙИРАСЕК МЕТОДИКАСИНИ ҚЎЛЛАБ ЎҶУВЧИ ҚОБИЛИЯТИНИ АНИҚЛАШ	58
25. Сафарова Гулнора	
ЗУЛФИЯХОНИМ – МАЊНАВИЙ ЖАСОРАТ СОҲИБАСИ	60
26. Турдыева М.	
СЛАВЯНСКАЯ МЕЖЛИТЕРАТУРНАЯ ОБЩНОСТЬ. ВЗАИМОСВЯЗЬ РУССКОЙ, УКРАИНСКОЙ И БЕЛОРУССКОЙ ЛИТЕРАТУР	63
27. Eraliyeva Nilufar Mamiraliyevna	
О'ZBEK ADABIYOTIDA ERTAKCHILIK AN'ANALARI	65
28. Norboyeva Shoiraxon Rahimjanovna	
MILLIY MA'RIFAT RAHNAMOSI- МАHMUDXO'JA BEHBUDIY	67
29. Nuranov I.B	
JASLAR ARASÍNDA KITAPQUMARLÍQ MÁDENIYATÍN EN JAYDÍRÍW: USÍNÍSLAR HÁM MÁSLÁHÁTLER	69
30. Xurshida Berdiyorova Jambulovna, Xidirova Saodat Allayorovna	
NAVOIY IJODIGA BIR NAZAR	72
31. Abdullayeva Husnida	
BARCHANING KO'NGLIGA YO'L TOPGAN ASAR. (ADABIYOT O'QITUVCHILARIGA YORDAM)	73
32. Asalxon Mahmudxonova	
NAVOIY ASARLARIDA QO'LLANGAN AYRIM FITONIMLARNING BADIY-USLUBIY XUSUSIYATLARI	75
33. Asrorova Umidaxon Muxtorjonovna	
"QUTADG'U BILIG"DA QO'LLANGAN DINIY TERMINMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	78
34. Boboyeva Go'zal Qobilovna	
OGAHIYNING BADIY MAHORATI	79
35. Boltayeva Aysha Mavlonovna	
QUDDUS MUHAMMADIYNING BOLALAR ADABIYOTIDAGI O'RNI	81
36. Egamova Ma'suma	
«JALOLIDDIN MANGUBERDI» TRAGEDIYASINI O'RGANISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH	82
37. G'ayratova Gulzoda San'at qizi, Zuxro Rajab qizi, Ne'matova Dildora Rashidovna	
ABDULLA QAHHOR IJODI VA LINGVO POETIKASI	84
38. Hamrayeva Sevinch Komiljon qizi	
YURT MADHINI KUYLAGAN SHOIR	86
39. Ilyosova Feruza Bozorovna	
ADABIYOTNI O'QITISH: YONDASHUVLAR VA USULLAR	89
40. Jalilova Shahnoza Dilshodjon qizi	
ERKIN VOHIDOV SHE'RLARINING G'OYAVIY TALQINI	90
41. Jaynaqova Lutfiya	
BOBUR G'AZALLARI POETIKASI	92
42. Kucharova Dilbar Xolmatovna	
ABDULLA ORIPOV – O'ZBEK SHE'RIYATINING ZABARDAST IJODKORI	94
43. Madina Yo'ldasheva Yuldasbay qizi, Bobojonova Muhamyyo Qo'chqorboyevna, Sobirova Sanobar Allayarovna	
IMOM BUXORIY HADISLARIDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR	96
44. Mavlyanova Sayyora Norimanovna	
SADOQAT MULKINING MALIKASI	98
45. Mo'ydinova Yorqinoy	
ADABIYOT O'QITISH METODIKASINING ILMIY-TADQIQOT METODLARI	100
46. Qalbaeva Nawbahar Perdebaevna	
T.MÁTMURATOV LIRIKASÍNDA METAFORANÍN KÓRKEMLIK ÓZGESHELIKLERİ	102

МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

47. Ortiqova Gulnozxon Shukurjonovna	
SAID AHMADNING “SOBIQ” HIKOYASINI O’RGATISH	104
48. Qudratov Kamol Fayzali o‘g‘li	
DEVELOPING CROSS-CULTURAL COMMUNICATION IN TEACHING BUSINESS ENGLISH	106
49. Raximova Muqaddas Rajabovna, Raximova Yulduz Rajabovna	
BASHARIYAT TABIATINING IKKI TOIFASI:OQ VA QORA,MA’RIFAT VA JAHOLAT,ISTIBDOD VA OZODLIK...(ERKIN VOHIDOVNING “RUHLAR ISYONI” DOSTONI YUZASIDAN)	108
50. Razzoqova Damira Muldaliyevna	
ASQAD MUXTOR HAYOTIGA BIR NAZAR	110
51. Sharipova Hulkaroy Umrbekovna	
ERKIN SAMANDARNING “DARYOSINI YO‘QOTGAN QIRG‘OQ” ROMANIDA METAFORIKLIKNING NAMOYON BO‘LISHI	112
52. Siddiqova Kamola Rasuljon qizi	
ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARINI O‘RGANISH	114
53. Xajiyev San’atbek Marks o‘g‘li	
ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL- ABROR ” DOSTONI HAQIDA	116
54. Ё.Х.Жўраев, Г.С.Кувашева	
БАДИЙ АСАРЛАРНИ ЎРГАНИШДА АДАБИЙ ТАҲЛИЛНИНГ ЎРНИ	117
55. Максутбекова Умида Артиковна	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РАССКАЗОВ А.ЧЕХОВА “СТРАХ” И А.КАХХАРА “СТРАХ”	120
56. Мухтарам Нархонова	
ЁШЛАРДА КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ	123
57. Хуршида Бердиёрова Жамбуловна	
«ИБН СИНОНИ ҚАЙТА КАШФ ЭТГАН ДОСТОН»	126
58. Otamuratova Muyiba O‘ktamovna	
IQBOL MIRZO IJODIDA USLUB VA MAHORAT MUSHTARAKLIGI	128
59. Otamuratova Muyiba O‘ktamovna	
OMON MATJON ADABIY PORTRETIKA CHIZGILAR (JUMAGUL JUMABOYEVA TADQIQOTLARI MISOLIDA)	130
60. Inomjon Mamatov	
BADIY ASARLARDA QUSHLAR OBRAZI (ORNITONIMLAR) VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI	132
61. Nasriyeva Dilbar Muhiddinovna	
ADABIYOT DARSLARIDA „MUSTAQIL O’QILGAN ASARLAR MUHOKAMASI “ MAVZUSINI O’TISH	134



АДАБИЁТ

AUTOBIOGRAPHICAL ELEMENTS OF THE NOVEL “DEATH OF A HERO” BY RICHARD ALDINGTON

Chorieva Shakhnoza
PhD student,
Uzbekistan State World Languages University
chorievash@mail.ru

Annotation: In this thesis I shall not talk about a love theme or the theme of money, The theme of the work is war, or rather, what it leads to. Nevertheless, the element of war cannot be called central here, because the author of the work, Richard Aldington, did not think to describe to us the details of the First World War. His goal was completely different. As we know, the writer is deeply lyrical in nature, and the problems that he addresses are connected precisely with the human factor, with the human essence. In his novel, he portrays cynicism and hypocrisy before us, he writes about cowardice, that even such a tragedy as war is unable to cope with this.

Key words: “Lost generation” writers, First World War, shellshock, mothers, women, protagonist.

In this thesis I shall address to biographical features of the novel «Death of a hero» by Richard Aldington, who is one of the most prominent 20th century English writers and belongs to the so-called Lost Generation writers. In order to see how the novel “was born”, I would examine the links between novel and life of the author, the plot and major.

Richard Aldington began his literary route with his first collection of poems “Images Old and New” (1915). In later years Aldington devoted himself more to prose and produced several deservedly successful novels, such as “Death of a Hero” (1929), “The Colonel’s Daughter” (1931), “All Men are Enemies” (1933), “Very Heaven” (1937) and some other books.

Death of a Hero, first published in 1929, was Richard Aldington’s debut novel. Before the First World War, Aldington was known as a journalist, poet and editor of literary magazines. Like his colleague, Ezra Pound, Aldington was part of the Imagist movement. The early twentieth-century Imagist movement valued free verse, French Symbolism and more pronounced visual representations. In 1914, at the beginning of the First World War, Aldington wanted to enlist in the British army but was unable to do so due to a childhood hernia. In 1916, Aldington did enroll in the army as a private and later served as a signals officer during the Great War. The author was posted in Flanders and France. Aldington survived the war but suffered from posttraumatic stress disorder and chronic bronchitis afterwards. His novel Death of a Hero can be interpreted in many different ways as it includes characteristics of both a war memoir and a modernist novel. First of all, both the narrator and George Winterbourne, the protagonist, share some similarities with Aldington himself. Like Winterbourne, Aldington had a relationship with two women. Aldington was married to Hilda Doolittle and also had a mistress, Dorothy Yorke. This is clearly paralleled in Death of a Hero, as George Winterbourne is married to Elizabeth and simultaneously has a relationship with Fanny. In addition to these parallels to Aldington’s life, his colleagues and fellow artists, Ezra Pound, Ford Madox Ford, D. H. Lawrence and T.S. Eliot are also included in the novel. Aldington changed their names into Upjohn, Shobbe, Bobbe and Tubbe respectively; they are artists, the colleagues and peers of George Winterbourne. In addition, the novel’s reflection on art, the questioning of morals and Winterbourne’s search for the truth, display the modernist elements in Death of a Hero. I also would like to mention that the writer expressed his attitudes towards his mother and other women. “And my mother” Aldington relates, “would go indoors and sing some awful rot about the (long ‘i’) winds of summer blowing soft across the dark blue sea … ”(pp.28-29). Years after, when Aldington was living



in Kensington and struggling to eke out a livelihood as a poet, he told his friend, the Russian-born novelist and poet, John Cournos, that he thought his mother was a “...” and that she had just disgraced herself in earning a five-pound note by testifying as a witness to an adultery. The mothers depicted in Aldington’s novels – Mrs. Winterbourne in Death of a Hero and Mrs. Reeves in Seven against Reeves among others are invariably domineering, hypocritical types, corrupted by greed and ambition and almost wholly lacking in genuine sentiment, maternal or otherwise. Undoubtedly these bitterly satirical portraits owe something to Aldington’s antipathy towards his own mother.”¹

«Death of a hero» is dedicated to the so-called “lost generation”. The core of Aldington’s outlook is a deep-rooted disillusionment in a world seized by suicidal and homicidal madness. The novelist calls his book a threnody, a song of lamentation for the dead of the generation that went through the horrors of war.²

Initially we would analyze the form of the novel. Aldington called this book «a jazz novel». This jazz effect is achieved by kaleidoscopic change of contrasted images. The novel is characterized by multitude of emotional states. The style is rather nervous. He is easily overcome by despair and negation, carried to the very extreme. These feelings are the features of the lost generation people.

The novel on the whole consists of 5 parts:

1) the prologue called «allegretto» (a direction in musical notation indicating that the musical piece should be played rather fast and lively), which concerns the history of George’s childhood and adolescence;

2) Book I is named «vivace» (music is performed in a lively and fast manner) and depicts George’s family history;

3) Book II is entitled «andante cantabile» (a moderate tempo with some singing) and here George’s life in London is described, his marriage with Elisabeth and his later betrayal, and also English declaration of war on Germany takes place in this part;

4) Book III is called «adagio» (slow and graceful musical tempo), in which George joins the army, and when he returns home, he finds that he has been so affected by the war that he cannot relate to his friends, including his wife and lover; the story ends with George standing up during a machine-gun barrage, and he is killed.

5) The last part – the epilogue – is introduced in the form of the song of lamentation.

Further, considering content of the novel it important to mention that along with themes common for the literature of the Lost Generation, as disappointment and disillusionment, lost of values and immorality, the author builds his novel around the opposition of masculine and feminine ideals.

At the time of the First World War, the masculine ideal was that of the heroic soldier who fought bravely in the war to defend his country. The most valued qualities of the heroic soldier were endurance, adaptability, duty and courage. Even though, Death of a Hero is considered an anti-war novel, traces of the masculine ideal of the heroic soldier can be found in the narrative. The title alone refers to this ideal. However, it quickly becomes clear in the novel that George Winterbourne was not a war hero and certainly did not die as one. The narrator questions whether Winterbourne committed suicide by standing directly in the line of fire instead of seeking cover. In that sense alone, the title Death of a Hero is ironic and deviates from the masculine ideal of the heroic soldier, courageously fighting and dying for his country. The examination of the ironic title alone would suggest that the masculine ideal and ‘hegemonic masculinity’ are not represented in the novel.

REFERENCES:

1. Richard Aldington. “The death of a Hero.” Novel. Penguin Books Ltd., 2013.
2. <https://www.britannica.com/topic/Lost-Generation>
3. <https://ru.wikipedia.org/>

¹ “The literary career of Richard Aldington” by Selwyn Kittridge, 1976, February.

² Richard Aldington. Death of Hero. Penguin e-books.P-23.



IBRATNING IBRATLI UMR DAFTARI

*Usmanova Nigora
Namangan shahar 39-maktab
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
tel 993232320*

Annotatsiya: Dunyoda shunday insonlar borki, ularning hayot yo'li, bosgan izlari insonlar xotirasida saqlanib qoladi. Ana shunday ibratli umr yo'li egasi Is'hoqxon to'ra Ibrat edi. U butun umrini xalqning ma'rifatli bo'lishiga, ilm olishiga qaratdi. Ibrat najot yo'lini ilmda topdi va xalqining madaniyati, ilm olishi uchun esa jonidan ham kechishga tayyor edi. Maqolada Ibratning umr yo'li haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Turkiston viloyatining gazeti, "Sho'ro" jurnali, qozi, she'r, maktab, chopxona.

Milliy uyg'onish davrining yetuk ijodkorlaridan biri, serqirra ijod sohibi Is'hoqxon to'ra Ibrat nafaqt shoir, atoqli pedagog, tilshunos, tarixchi, sayyoh, go'zal husnixat sohibi - xattot ham edi. Namanganda tavallud topgan Ibrat dastlab mahalla maktabida o'qidi, ammo savodini onasi Huribibi qo'lida chiqardi. Shuning uchun Ibratning ko'pgina asarlarida onasi ustozni sifatida tilga olinadi. Keyinchalik Qo'qonda Tunqator madrasasida tahsil olgan Ibrat Qo'qon adabiy muhitining yetuk namoyondalari Muqimiy, Furqat, Zavqiy, NodimNamongoni, Xaziniy kabi ijodkorlar bilan mushoiralarda ishtirok etgan. Aynan madrasada o'qib yurgan chog'larida "Turkiston viloyatining gazeti" va Ismoil Gaspiralining "Tarjimon" gazetalari bilan tanishdi. Madrasani tugatib uyiga qaytgan Ibrat To'raqo'rgonda maktab ochdi, lekin bu maktab mutaassiblar tomonidan yopib qo'yildi. 1887-yili 25 yoshida onasini hajga olib borish uchun otlanadi, ammo onaizoriga ortga qaytish nasib qilmaydi. Huribibi Jidda shahrda vafot etadi.

Ibratning Sharq o'lkalari bo'y lab sayohati shu tariqa boshlanadi. Istanbul, Sofiya, Rim, Qobul shaharlarida bo'ldi, Hindistonda birmuncha vaqt yashadi. Chet eldan yurtiga qaytgach oltililni o'z ichiga olgan "Lugatisittaalsina" (Olti tilli lug'at) ni yaratdi. 1907-yil Orenburgga borgan Ibrat Rizo Faxriddinning "Sho'ro" jurnali faoliyati bilan tanishadi. Pulini o'n yilda to'lash sharti bilan litografik mashina sotib oladi va katta mashaqqatlar bilan poezdda Qo'qonga olib keladi. To'raqorg'onga esa tuyalarda olibkeladi. 1905-yil o'zi qudirigan hammom o'rnila chopxona tashkil etadi. Ibrat "bu ishdan maqsad erdi olamg'a ilm kasri" deb ta'kidlagan edi va darhaqiqat, matbaa o'z ishini ma'rifat tarqatishdan boshladи.

Is'hoqxon to'ra gazeta chiqarishga tuyishga bo'lmadi, lekin o'z uyida ancha boy kutubxona tashkil etdi.

Is'hoqxon to'ra Toraqo'rg'on qozisi lavozimida ham faoliyat yuritdi. Maqolalarida mustamlaka va mahalliy amaldorlarning qabih ishlarini fosh etdi. Mustamlaka tuzum qoidalariga qarshi fikrlarini bildirdi. "Yetti kundan ziyoda hibs bo'lмаган, о'tтиз со'mдан зиёда иштариғат толамаган, ўши югирма бешдан паст эмас одам қози бо'лар екан. Олим юки оми, ахмоқ юки доно киши, ўо шариатни биладиган юки низом биладиган демаган" deb davr "polojeniya"sin tanqid qiladi.

Ibrat jahon ilmi va madaniyatida yaratilgan har bir yangilikdan o'z xalqini bahramand qilishni xohlaydi. 1910-yil To'raqorg'onda istirohat bog'i qudiradi. Otasidan qolgan kattagina yerni gulzor qilib, favvora qudiradi. Bu maskanda dam oluvchilarini gulni uzmaslikka chorlaydi.

"Uzmagil behuda gul, bog'bondin andisha qil,

Ori-ori gul uzarsan, xoridin andisha qil".

Ibratning she'rlari ko'proq ishq mavzusida. Mumtoz adabiyotmizdagи yor, gul, bulbul obrazlaridan yangicha ohanglarni jilolantira olgan shoir hayotni, go'zallikni, muhabbatni madh etadi. "Sahar vaqtı chaman ichra" "radifli g'azali hayotsevarlik ruhida yozilgan. Bulbul sahar vaqtı gul ishqida gulzorda nola qilmoqda. U gul ishqida shunchalar mastki, tikondan tikonga qo'naverib, bag'ri qonga belanganidan behabar.

"O'shal bulbul qilar afg'on, sahar vaqtı chaman ichra,

Qo'nar gul deb tikon uzra, sahar vaqtı chaman ichra.

Minglab o'zbek ziyorolarining yostig'ini quritgan qatag'on dahshati Ibratni ham chetlab o'tmadi. 75 yoshli Is'hoqxon to'ra 1937-yil qamoqqa olindi. Ham jismoniy, ham ruhiy qiyonoqlar



o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmadi, albatta. Qamoqda ikki oy yotgan Ibrat vafot etdi.

Is’hoqxon To‘ra ma’rifatparvarligining mohiyati shunda ediki, u har bir hodisaga o‘z xalqi manfaatlari nuqtayi nazaridan munosabatda bo‘ldi, kelajak avlodning taraqqiy etgan millatlar safida ozod, erkin, farovon hayot kechirishini orzu qildi va bunga umid bog‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Milliy uygonish davri o‘zbek adabiyoti-Toshkent “Ma’naviyat” 2004
2. Is’hoqxon to‘ra Ibrat.Tarixi Farg‘ona.O‘z.F.A.Sh .I.qolyozmalar fondi.



MATNAZAR ABDULHAKIM IJODIDA FALSAFIY QARASHLAR

*Ataboyeva Zulkumor Axmedovna
Xorazm viloyati Tuproqqa'l'a tumani
19-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon:+998999066468*
*Iskandarova Zebo Baxtiyorovna
Xorazm viloyati Tuproqqa'l'a tumani
3-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon:+998973639476
qsultonov@list.ru*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Matnazar Abdulhakimning "Javzo tashrifi" saylanmasidagi bir qator she'rlar sujeti, o'ziga xos original qirralari, mazmun mohiyati hamda ularda mavjud muhitning, tabiatning tasvirini yoritish; falsafiy mushohadakorlikning o'ziga xos tomonlarini adabiy-estetik tahlillash xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: "Javzo tashrifi" she'riy to'plami, fasl, hayot, daraxt, qushlar, uy, shoir, haykal, qadriyat va tabiat.

Matnazar Abdulhakim Xorazm adabiy muhitining yorqin namoyondasi. Ijodining rang-barangligi bilan har qanday ijod kishisini ilhomlantira oladigan buyuk iste'dod sohibidir. Shoir she'rlarining jozibasi shundagi undaki ohang har qanday insoniy sezimlarni uyg'otib yuboradi, insonni o'yga toldiradi, fikrlashga undaydi. She'riyatning olamiga oshno etadi. Beixtiyor ijodkorning tuyg'ulari bilan hamdard bo'lgandek bo'ladi kishi. Har bir inson dunyo atalmish bu zaminda yashar ekan, tabiat, jamiyat, oila, farzand, do'st kabi bir qator atamalarning tub mohiyatini anglab yetadi va ular bilan murosa yo'lidan boradi.

Matnazar Abdulhakim she'riyatida falsafiy dunyoqarash , ayniqsa, sezilarli o'rincutgan.

Ana, oq tut qoqayotirlar,
Oppoq tutga to'la hammayoq.
Odamlar tut yemoqda to'yib,
Daraxt to'yib yemoqda...tayoq.

Ushbu hayotni o'zida aks ettirgan to'rtlikning ma'nolari olam-olam. Zero to'rtlikni falsafiy jihatdan tahlil qilsak, tut bu yerda hayot ne'mati, tut daraxti esa inson ramzidir. Kimlarningdir boshida tayoq sinib, ya'ni azoblanib, mehnati evaziga o'zgalarning rohatga erishgani aks etgandek go'yo. Bu xuddi jadid nomoyondalarining faoliyatini ko'rsatayotgandek tuyuladi.

Bir uy bor.
Bu uyda,
Qachon qaramang,
Sovuq hasham hokim,
Va qattiq tartib.
Bu uy juda toza.
Kiradilar unga
Faqat yuraklarga oyoqni artib...

Bir so'z bilan aytganda bu she'r nima xususda ekanligi insonni taajjubga soladi. Xo'sh, oyoqlar ostida qoladigan, bir vaqtning o'zida qattiq tartib,sovuq hasham hokim bo'lgan, ayni paytda toza bo'lgan bu uy vijdon . Zero vijdon tarozi bo'lib insonlardan toza sovuqqon bo'lib, his- tuyg'ularga berilmasdan xulosa chiqarishini talab etadi.

Qalamning ichida qora tosh emas,
Yozilajak qo'shiq yotibdi uxbab.
Shu qadar qattiqki, uning uyqusi
Uyg'otsa bo'ladi faqatgina tig'lab.

Haqiqatan ham, har qanday mo'jizaning asosida dard, har qanday muhabbatning asosida ishq yotganidek, o'sha asosga g'am va tashvish ta'sir o'tkazmasa, mo'jiza va muhabbat sayqallanmaydi. Azob ortidan, albatta, rohat topilishi bayon etiladi.

Yig'lasa yosh to'kmay yig'laydi qushlar,
Qushlar bir hikmatni sezadi.



Behuda to‘kilgan ko‘z yoshlar
Dastavval qanotni ezadi.

Darhaqiqat, chindan ham jamiki tirik jon o‘rtanib ,yosh to‘kmasdan yig‘lasa, albatta uning vujudi, tanasi ozor topadi, juftidan ayrilgan oqqush kabi o‘zini halok qiladi.

Nega sharaflaysiz?
Maqtovlarsiz ham
Bu haykal muqaddas,
Abadiy bir ganch.
Shunday muqaddaski,
Hamdu sanolar
Uning huzurida
Ko‘lansa,
Jirkanch.
Shohsupasi uning –
Muqaddas sukut.

“Haykal” she’rida ifodalangan, bu jumlalardan, shu a’yonki, haykal shundog‘am abadiy sa’at turi hisoblanadi, inson esa shunday haykallarni olqishlaydi. O’sha haykallar munosib ko‘rilgan zotlar o‘tmishini ochsak, hamd-sanolar ularga hech ta’sirini o’tkazgan emas. Uning qimmatli bahosi muqaddas vaqtidir.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. Matnazar Abdulhakim. Javzo tashrifi. Toshkent. “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2008.
2. Matnazar Abdulhakim. Fasllar qo‘shig‘i. Toshkent-2006.
3. Matnazar Abdulhakim. Qorachiqdagi dunyo” Toshkent-1994.



ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANI HAQIDA MULOHAZALAR

Hoshimjon Ahmedov

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

Adabiyot o'qitish metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

E-mail: ahmedov_60@list.ru, +998977077699

Annotatsiya. Mazkur maqlada yozuvchi Ulug'bek Hamdamning "Ota" romani badiiyati haqida fikrlar bildiriladi. Roman mavzusi, sujet voqealari talqini, qahramonlari taqdiri kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Asarning badiiy xususiyatlari haqida mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: o'zbek adabiyoti, roman, Ulug'bek Hamdam ijodi, "Ota" romani, badiiy xususiyatlari.

Adabiyotda mangu mavzular bor: sevgi-muhabbat, urush, tarixiy voqealar kabi... "Bir narsani aytishim mumkin: agar asarda jonli hayot aks etgan bo'lsa, uning yuragi urib turgan, yozuvchining qoni oqayotgan bo'lsa – bunday kitoblardan nimadir qoladi ..." [1. Jorji Amadu, 219-bet]

Ulug'bek Hamdamning yaqinda nashrdan chiqqan romani "Ota" deb nomlanadi. [2, Ulug'bek Hamdam. "Ota"] Va "Barcha otalarga bag'ishlanadi"-degan ustxat bilan chop etilgan. Dastlab xayolga kelgan fikr: "Nahotki barcha o'qiydigan otalarni hayajonlantira oladigan asar bo'lsa?"...

Asardan mana shu savolga javob izladim. Darhaqiqat, hayotda bir nozik muammo borki, u – barchani birdek hayajonga soladi, o'rtaydi, kuydiradi, quvontiradi, qo'yingchi – barcha histuyg'ularga oshno qiladi! Bu – farzand quvonchi! Avvalo hayotning tirkak-ustuni – ishq-muhabbat aslida. Chunki "Oila" degan mo'tabar tushuncha shu tufayli paydo bo'ladi. Ammo, muhabbat bo'lib ham, oila qurib ham, farzand bo'limasa – dunyo qorong'u... Baxt – o'tkinchi bo'lib qoladi..

Eslang, Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasini... Qoplon va Oysuluv. Havas qilgulik muhabbatli oila. Lekin – farzand yo'q. Bechora yigit-qiz bir umr farzand dog'ida yona-yona yashab o'tadi...[3]. Yoki uzoqqa bormaylik – "O'tkan kunlar"ni olaylik. Har ikki oilada ham yolg'iz suykli va "ko'zlarining oqu qorasini bo'lgan" yolg'iz farzandlar... Mana shu jihatning o'zi ham ko'p murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Hatto roman voqealrini ag'dar-to'ntar qilgudek... [4]. Yoki Said Ahmadning "Ufq" romanidagi Ikromjon-Jannat xola-Tursunboy uchligini olamizmi – yana shu hayot girdibodiga tashlaydigan o'y-xayollar, ruhiy zo'riqishlar va mutaassir lahzalarga bot-bot duch kelamiz. [5]

Savol tug'iladi: Xo'sh, bu "Ota" boshqa otalarga nimasi bilan o'xshash va nimasi bilan ular qatoridan joy olishga loyiq?

Avvalo, Bu romandagi ota – Po'lat xuddi Ikromjonga o'xshab haqiqiy jangda toblangan. Qolaversa urushdan keyin ham mehnat jabhasida halollik bilan kun kechirgan inson. Va yana shu fazilatlariga qo'shilib, u oilasini – ayoli Yog'duni ardoqlay olgan inson. Barchasi risoladagiday ko'rindi. Ammo toki mehru muhabbat ila oila qurilgan ekan – uning mantiqiy davomi – farzand bo'lishi kerak. Mana shu nuqtadan bular uchun yangi sinovli yillar, kunlar va oylar boshlandi. "Har yaxshiga bir yomon har yerda bor" deyiladi maqolda. Shunday. Bularning havas qilgulik baxtiga Yog'duga yetishishni orzu qilib, dog'da qolgan alamzada – Erboyga o'xshaganlar bor. Po'lat timsolida iymonli, halol, or-nomusli, oilasi, vatani uchun mas'uliyatni chuqur his qiladigan o'zbek adabiyotida mavjud otalarga o'xshagan qahramon paydo bo'lgan. Buni ishonch bilan aytish mumkin. Po'lat – "Ufq"dan keyin va mustaqillikning dastlabki yillari o'zbek adabiyotida ko'rinish bergen Ota obrazi sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Chunki barcha xatoyu nuqsonlaribidan ham Po'latni uzoq vaqt eslab qolasiz. Uning ichki izardorlari, kuyinishlari, oila sha'ni uchun qayg'urishlari odamni befarq qoldirmaydi. Romanning eng kulminatsion nuqtasi shubhasiz Po'latning xudodan tilab olgan yakka-yu yagona jigarbandi – Sevinchni zinodan bola orttirib olganlikda gumon qilib o'ldirgani, dahshatl xatosi – bu bechora, ko'ngli nurday toza, navnihol qizni o'z qo'llari bilan chavaqlab tashlagani... Odam seskanib ketadi.. Bir qalqib oladi... va allavaqtgacha karaxt qilib qo'yadi bu mislsiz manzara... Hazm qilish qiyin bo'lgan tafsilotlar... Harqalay otaning o'z surriyotini yo'q qilishga urinishi – bir tomondan olib qaraganda oqlab bo'lmaydigan gunoh... Shuni his qilgan rasmiyalar Po'latni 14 yillik qamoqqa ravona qilishadi...

Mahrumliklar birin- ketin, bamisolai baxtsizlik qo'sha kelganday: qamoqdaligida sevikli ayoli Yog'du Sevinchning alami, adoqsiz o'y-xayollar, g'am-tashvishlarga dosh berolmay olamdan



o‘tadi. Po‘lat qamoqdan chiqib, huvillab yotgan bo‘m-bo‘sh uyiga qaytadi. Va keyin bilsaki Sevinchning bolasi xaromdan emas, rozi-yu rizolik, nikoh ila tug‘ilgan ekan... Lekin endi kech. Juda ham kech...

Roman voqealariga, sujetiga va qahramonlariga munosabatda shubhasiz kitobxonlar ikki toifaga bo‘linib ketishadi: Po‘latni qoralaydiganlar va uni oqlaydiganlar. Mana shu tariqa yakdil bir umumiylar qarorga kelishning iloji yo‘q. Qoralay desa – yolg‘iz farzandi rasmana to‘y-nikohsiz elga ovoza qilmay, pinhona turmush qursa, otaning yuzini yerga qaratsa... Oqlay desa – odam o‘ldirish, ayniqsa o‘z farzandini qotili bo‘lish – gunohdan-da gunoh... Koshki shunday bo‘lmasaydi... Aslida tinch va xush orom kun kechirayotgan Po‘lat va Yog‘du oilasi bir chetda shunday baxtga yetisholmagan ko‘ngli kemtiklarning hasadini qo‘zg‘agan... Besabab biron kor-hol yuz bermaydi. Nogahonda tun yarmida birdan uylarining gurillab yonib ketishi-yu, joni-jahoni bo‘lmish norasida Sevinchning o‘t-olovda kuyib, bir kunda gulday qizdan xunuk qiyofali odamga aylanishi – qop-qora hasadning ishi albatta... Bu holatni “Bonu”ga sal mengzash mumkin. Bonu ham o‘zining go‘zal surati ila mehru muhabbatning limmo-lim sharobidan mast edi. Bir bedavo kasallik tufayli yuz-qiyofasi o‘zgarib, falak go‘yo uning uchun teskari aylanib ketdi....

Juz’iy xulosalarga keladigan bo‘lsam, Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanini ko‘tarilgan g‘oyasi, muammosi bilan “otaxon romanlar” qatorida turishga loyiqlik. Ikkinchidan, garchand ota o‘z farzandining mudhish qotiliga aylangan bo‘lsa-da, u hayotda or-nomus, diyonat, vijdon, halollik yashab qolishi uchun ham shu og‘ir, juda-juda og‘ir bo‘lgan izlab keldi va Po‘lat – nevarasi timsolida bir tozarib, hayot mayog‘ini shu bolaizorga topshiradi. Demak yaxshilarning yodi yo‘qolmaydi. Ularning ezgu amallari keyingi avlodlarda davom etadi... “Ijodkor eng avvalo tabiiylikka intilishi kerak. Majburiylik, qalb buyurganini yozmaslik – asarni sun’iylikka tomon buradi”. [1, Migel Otero Silva, 360-bet] Asarda tabiiylik va ishonarlilik shu darajadagi, kitobxon asar voqealari “ichiga kirib ketadi”. Adibning bayon usuli to‘g‘ri ta’kidlanganidek “obyektiv, xolis ifoda yo‘lidan, yanada aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, jarayonni roman ko‘zgusida gavdalantirish yo‘lidan boradi”. [6, Umarali Normatov]

Ko‘rinadiki, Ulug‘bek Hamdam mazkur romanini bilan o‘zbek milliy romanlari qatoriga yana bir o‘qishli, badiiy qimmati yuqori bo‘lgan asarini taqdim etdi.

Adabiyotlar ro‘yxhati:

1. «Писатели Латинской Америки о литературе». Перевод с испанского, португальского и французского под редакцией В. Кутейшниковой. Москва. «Радуга». 1982. – 400 с.
2. Улуғбек Ҳамдам. “Ота”. Роман. Тошкент, “Янги аср авлоди”. – 2020. 208 б.
3. Тоғай Мурод. “Ойдинда юрган одамлар”. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1980. – 160 б.
4. Абдулла Қодирий. “Ўткан кунлар”. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1980. – 382 б.
5. Сайд Аҳмад. “Уфқ”. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1976. – 632 б.
6. Умарали Норматов. /Бадиият кўзгусида миллат тақдири. – “Шарқ ўлдузи” – 2011, 3-сон. – www. Saviya.uz.



TASAVVUFNI TUSHUNISHDA MANBALARNING AHAMIYATI

Jamoliddin Yoqubov
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
mustaqil tadqiqotchisi
+99899 0861194

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotidagi eng asosiy masala bo'lgan – tasavvuf falsafasi haqida fikr yuritiladi. O'zbek va xorij tasavvuf manbalari qiyosiy-tahliliy o'r ganib chiqiladi. Xulosalardagi xar xilliklar va buning yechimi uchun takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: o'zbek mumtoz adabiyoti, tasavvuf falsafasi, mumtoz she'riyat, qiyosiy tahlil, asosiy tushunchalar.

O'ninchи asrdan boshlab tasavvufiy ruhni badiiy asarga singdirish keng avj oldi. Tasvvufdagi maqom, hol, marifat, haqiqat kabi darajalarni asarlarda bayon qilish imom G'azzoliyning "Risolat ut tayr" [1. Qushlar risolasi,] kitobidan boshlangan degan gapni ilgari suruvchi manbalar ham mavjud. Fariduddin Attorning "Mantiq – ut tayr" [2], hazrat Navoiyning "lison ut tayr" [3] asarlarining yaratilishiga imom G'azzoliyning yuqoridagi asari turtki bo'lgan.

Tasavvuf va badiiy adabiyotning o'zaro uyg'unlashishining bosh sabablaridan biri tasavvufda tariqatlarning yuzaga kelishidir. Har bir tariqat o'z g'oyalarini ilgari surish uchun badiiy ijodga ehtiyoj sezdi. Mavlaviya, Yassaviyya tariqatlarining asoschilar bo'l mish Jaloliddin Rumi va Ahmad Yassaviylar bevosita badiiy ijod bilan shug'ullanganlar. Boshqa tariqatlarda ham tariqat shayxlari yoki muridlar o'z g'oyalarini ilgari suruvchi ta'sirchan asarlar yaratdilar. Quyida ayrim tariqatlarga mansub, ularning fikr va qarashlarini ifodalagan asarlar ro'yxatini keltriramiz va ba'zilari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz.

G'arb olimlari talqinida tasavvuf tariqatlari J.Trimingem tasnificha: hududiy tasnif (asosiy tariqatlar): Bag'dod (Iraq-Mesopotamiya) maktabi: suxravardiylik, rifoiylik, qodiriylig; Misr va Mag'rib maktablari: shaziliylik; Eron (Xuroson), turk (Markaziy va Kichik Osiyo) va hind maktablari: kubraviylik, yassaviylik, mavlaviylik, xojagon-naqshbandiylik, chishtiylik, Hindiston suxravardiyligi. Hosila yoki oilaviy tariqatlar: ruzbihoniylilik, kizoniylik v.b. mazkur qarash tariqatlarning hududiy jihatdan tasnifi bo'lib, unda nomlari keltirilgan ayrim tariqatlar hozirda faol emas. [4]. 21 – asrda Naqshbandiylik tariqati O'rtal Osiyo hududlarida va butun dunyo bo'y lab keng yoyildi. Yassaviylik tariqati o'z vaqtida juda mashhur bo'lgan, Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" [5] asari hozirgacha turk dunyosida mashhur. Bu tariqatning asosiy manbasi "Faqirnama" kitobidir. Unda zuhd tarki dunyo hususida so'z boradi. Bundan tashqari Yassaviylikning quyidagi manbalari mavjud. "Maslaku-l-orifin", "Javohiru-l-abror", "Samaratu-l-mashoyix" v.b. Yassaviy shayxlari va ularning izdoshlari (XII-XX asrlar).

Yassaviy hayoti va ijodi to'g'risida juda ko'p badiiy asarlar yaratilgan Sa'dulla Siyoyevning "Ahmad Yassaviy" [6] romani alohida o'rin egallaydi. Ibrohim Haqqulovning "Tasavvuf va she'riyat" [7], "Ahmad Yassaviy", "Taqdir va tafakkur" kabi ilmiy risolalarida Yassaviy ijodi hususida keng ma'lumotlar berilgan. Abdurauf Fitratning Ahmad Yassaviy, Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar. [8. "Tanlangan asarlar" 2-jild. Nashrga tayyorl.H.Boltaboev]. Risolasida Yassaviy ijodi oz bo'lsada ilmiy tadqiq etilgan.

Najmaddin Kubro (1145-1221)ning hayoti (pirlari Ro'zbixon al-Vazzon, Ammor al-Bidlisiy), tariqati asoslari. Kubroviylikda solik va uning sulukdagi niyati. Kubroviy shayxlari (Sayfidin Boxarziy, Majididdin Bag'dodiy, Sa'diddin Hamuyi, v.b.). Kubroviylikdan kelib chiqqan tariqatlar: firdavsiylik, nuriylik, rukniylik, hamadoniylik, ihtishashiylilik, nurbaxshiylilik. Husayn Xorazmiy (XV asr boshlari) ta'limoti.

Xojagon tariqati va uning yaratilishida Abduxoliq G'ijduvoniy faoliyati. Sakkiz rashha (fasl) ta'limotning asosi sifatida. Silsilatu-t-tarbiya.

Naqshbandiylik ta'limoti. "Dil ba yoru dast ba kor"ning mohiyati. Maqomotlarda naqshbandiylikning suluk yo'li, darvishlik sifati, ahvol va axloqlari [9. Abul Muhsin Boqirning "Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband"]. Naqshbandiylikning yangilanishi (mujadiddiylik) va uning nazariy asoslari (Sufi Ollohyorning "Maslaku-l-muttaqin" asari). So'fi Ollohyorning "Maslak – ul muttaqin" va "Sabot – ul ojizin" asarlari g'oyaviy jihatdan har qanday yanglishishlardan holi kitoblar sirasiga kiradi [10]. Islom ulamolari Naqshbandiylik tariqatining eng to'g'ri va



haq yo‘ldagi tariqat ekanini bir ovozdan ta’kidlashgan. Mazkur tariqatning maqomat bosqichlari ularning tarifu tasnifi hususida Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Naqishbandiya vazifalar zikrlar”[11] kitobida atroflicha ma’lumot berilgan.

Mavlaviylik tariqati: asoschisi Mavlono Jaloliddin Rumiy (1207 – 1275). U kishi shoir bo‘lgan yeti jildlik “Masnaviy” asarining muallifi.[12] Mavlaviya tariqatiga hozirda Turkiyaning ba’zi hududlarida ergashiladi. Mavlono Rumiy haqida turk tilida yuzdan ortiq badiiy, ilmiy asarlar mavjud. Masnaviyning ikki mingga yaqin sharhlari bor, biroq, o‘zbek tilida hali bu asar to‘la sharhlanmagan. Jamol Kamol asarni nazmiy tarjima qilgan.

Tasavvufni islomdan ayro o‘rganish mantiqqa umuman zid bo‘lib, biz ilmiy ishimizda imkon qadar islom manbalari bilan sug‘orilgan kitoblar haqida fikr yuritamiz.

Najimiddin Komilovning “Tasavvuf” kitobida falsafiy tasavvufning g‘oya va qarashlarini ilgari surgan. Ayrim asarlar juda yaxshi tahlil qilingan. Biroq, islomiy nuqtai nazardan qaralganda kitobda aqidaviy masalalarda muallif katta xatoliklarga yo‘l qo‘ygan. Muallifning yana bir kitobi bo‘lmish “Tafakkur karvonlari” ilmiy jihatdan qimmatli asardir. Unda mumtoz adabiyotimizni jahonning mumtoz asarlar bilan qiyoslaydi. “Ma’nolar olamiga safar” kitobida Alisher Navoiyning ellik g‘azali sharhlangan. Olim g‘azllarni asosan tasavvufiy yo‘nalishda sharhlab bergen. [13] Ibrohim Haqqulovning ilmiy izlanishlarida Turkiya olimlarining fikrlaridan foydalanishi ko‘rinib turadi. Hamidulla Boltaboyevning “Islom tasavvufi manbalari”[14] kitobida juda ko‘p foydali ma’lumotlar mavjud. Sayfiddin Rafiddinov, Yoqubjon Xo‘jamberdiyevlar tasavvufga oid ko‘plab ilmiy monografiyalar va risolalar yozganlar. S. Rafiddinovning Mahmud Asad Jo‘shondan qilgan tarjimalari katta qiymatga ega.[15]. Homidjon Homidiyoning “Tasavvuf allomalari” kitobi hozirgacha ikki marta nashr qilingan.[16] Unda tobeinlardan tortib tasavvuf namoyondalarining hayoti haqida ko‘p narsalarni bilib olish mumkin. Komiljon Kattayevning ham shu nomda kitobi bor.

Ma’lumki mumtoz asarlarni o‘rganishning eng to‘g‘ri yo‘li ularni sharhlashdir. Bu borada Ergash Ochilovning mehnati salmoqlidir. E. Ochilov asarlardan olingan hikmatlarni alohida kitob tarzida nashr etgan. Masalan: “Rumiydan hikmatlar”, “Navoiydan hikmatlar” shular jumlasidandir.[17]

Abdumurod Tilavovning “Masnaviydan qirq rivoyatga qirq sharh kitobi”[18] xalqimiz tomonidan sevib o‘qiladi. U kishi Muhammad Nurulloh Sayyid al Jazariyning ikki jildlik “Tasavvuf sirlari” kitobini ham tarjima qilgan.

Tasavvuf borasida Turkiyalik olimlarning xizmatlari beqiyosdir. Mahmud Asad Jo‘shon, Mehmed Zohid Qutqu, Sayid al Jazariy kabilar tasavvufning asl mohijiyati hususida ko‘plab kitoblar yozganlar. Ustozlarimiz ularni o‘zbek tiliga tarjima qilganlar. Usmon Turarning “Tasavvuf tarixi” kitobi tasavvufning paydo bo‘lishi haqidagi yagona qo‘llanma desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. [19]

Mumtoz adabiyot, xususan, tasavvuf falsafasi bo‘yicha barcha mo‘tabar manbalar asoosida muayyan aniq bir xulosalarga kelish hamda tasniflash fanimiz oldidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Олим Д. Бир ҳикоя манбаси.// “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2001-йил, 6-сон.
2. Фаридиддин Аттор. “Мантиқут тайр”. Форсчадан Жамол Камол таржимаси. “Фан” нашриёти, Т.: 2006. – 398 б.
3. Алишер Навоий. “Лисонут тайр”. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 464 б.
4. Тримингем Д. Суфийские орденқ в исламе. М.: “Наука”, 1995. – 236 с.
5. Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. Нашрга тайёрловчи Р. Абдушукуров. Toshkent, 1992. 220 б.
6. Саъдулла Сиёев. Аҳмад Яссавий. Роман-дилогия. Т.: “Маънавият”, 2002. – 256 б.
7. Иброҳим Ҳаққул. “Тасаввув ва шеърият”. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 232 б.
8. Fitrat. Танланган асарлар. Икки жилдлик. 2 жилд. Нашрга тай. Ҳ. Болтабоев. Т.; “Маънавият”. 2000. – 208 б.
9. Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир Али. “Баҳоуддин Балогардон”. Т.: “Ёзувчи”. 1993. – 208 б.



10. Сўфи Оллоёр. "Саботул-ожизин". Т.: "Чўлпон", 1991. – 128 б.
11. Шайҳ Мухаммад Содиқ Мухаммад Юсуф. "Тасаввуф ҳақида тасаввур". - Т.: Sharq, 2012. – 276 б.
12. Жалолиддин Румий."Маснавий маънавий". – Т.: Маънавият, 2010. – 850 б.
13. Нажмиддин Комилов. "Тафаккур карвонлари". Т.; "Маънавият". 1999. -184 б.
14. Ҳамидулла Болтабоев. "Тасаввуф манбалари". "Ўқитувчи" НМИУ. 2005. – 400 б.
15. Маҳмуд Асьад Жўшон. "Юнус Эмро ва тасаввуф". С. Рафиддинов тарж. Т.: "Фан", 2009. – 200 б.
16. Ҳамидjon Ҳомидий. "Тасаввуф алломалари". "Ўзбекистон" НМИУ. 2016.-390 б.
17. Эргаш Очил. Навоий ҳикматлари. Т.: ШАРҚ НМАК. 2014.- 224 б.
18. Румий. Маснавий 40 ривоятига шарҳ. Т.: "Наврўз". 2016. – 404 б., Ал Жазари. Тасаввуф сирлари. А. Тиловов тарж. – Т.: Sharq, 2000. – 100 б.
19. Усмон Турап. "Тасаввуф тарихи". – Т.:Sharq, 2007. – 220 б.



O'QUVCHILARDA KITOB O'QISHGA QIZIQISH UYG'OTISH

Mirzaahmedova Nodiraxon Mamajonovna

Andijon viloyati Jalaquduq tumani

7-umumi o'rta ta'lim maktabi o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon : +998914793697

ANNOTATSIYA: Muallif maqolada o'qituvchining o'quvchilar ongiga kitob yordamida : mehr , ezungilik , tabiat va jamiyat hodisalariga mantiqiy fikrlash orqali munosabatda bo'lishini singdirish , o'qigan kitoblarining mazmunini tushunib , unga o'z munosabatini bildirish va qissadan hissa chiqara olish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha o'z fikrlarini bildirgan.

KALIT SO'ZLAR: Mehr , ezungilik , ilm , kitob , ruhiyat , singdirish , qissadan hissa , taqdir . tarbiya .

Kitob-bu insoniyat egallagan bilimlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi vositadir . Insoniyat egallagan bilimlar chuqur ildizlarga ega . Shu bois asrlar davomida insonlar ilm o'rgatib , o'rganib kelayapti. Buyuk olimlar , allomalar ,

shoirlar , yozuvchilarning hayot yo'liga nazar tashlasak kitobni inson hayotida roli katta ekanligini ko'ramiz . Kitob ularga tabiat va jamiyat sirlarini ochishida beqiyos yordam bergenini bilamiz . Dunyo xalqlari insoniyat egallagan ilmlarni har zamonda ham kitoblar orqali o'rganib , kelajak avlodlarga asrab-avaylab yetkazganlar .

Hozirgi tezkor zamonda elektron holatda ham kitoblar o'qilyapti . Bu juda yaxshi , albatta , lekin kitobni kitob holida o'qish butunlay boshqa . Fan-texnika qancha rivojlanmasin inson ko'ngliga tasalli bera olmaydi . Inson tabiatni bir bo'lagi bo'lganligi uchun tabiatdan taskin topadi . Qushlarning sayrashi , shamolning esishi , gullarning go'zalligi , maysalarning xushbo'y hidi inson ruhiyatiga ozuqa beradi . Ulardan ilhomlanib ko'nglidagini qog'ozga tushiradi . Oddiylik , mehr , ezungilik insonning bezagi ekanligini o'quvchilar ruhiyatiga singdirish kerak . Bunda bizga kitob yordam beradi .

O'quvchilarning ilmiy , badiiy kitoblarni o'qishga qiziqishini uyg'otish uchun o'qituvchilardan katta bilim talab etiladi . O'zi o'qimagan , uqmagan o'qituvchi kitobning mohiyatini yetkazib bera olmaydi . Adabiyot darslarida qo'shimcha manbaa sifatida badiiy kitoblar haqida ma'lumotlar berib boorish katta ahamiyatga ega . O'quvchilarga xalq og'zaki ijodi , o'zbek adabiyoti , jahon xalqlari adabiyotlari haqida ma'lumot berib borish kerak . Buning uchun manbaalardan lavhalar o'qib , o'quvchilarda qiziqish uyg'otib borish kerak .

Dars davomida badiiy kitob o'qigan o'quvchilarning asar haqidagi tushunchalari bilan o'rtoqlashib , yakuniy xulosalar chiqarishiga yordam berish kerak . Qissadan hissa chiqarish, dunyoga aql ko'zi bilan qarash kerakligini tushuntirish kerak . Ayniqsa , o'smir yoshdag'i o'quvchilarni to'g'ri , mantiqiy fikrlashga o'rgatish kerak . Taqdir ishlariga tafakkur bilan yo'l toppish kerakligini uqtirish lozim . Bunda bizga kitobdan olgan ilm va xulosalar yordam berishi aytib o'tiladi . O'quvchilarni tabiat,jamiyat haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lishlari uchun o'qituvchi yo'llanma berib borish kerak . Zero har qanday ilm ezgu niyyatlari kishilarning qo'lida yaxshilikka , yovuz niyatli kishilarning qo'lida yovuzlikka xizmat qilishini tushuntirish va izohlash kerak . Kitob o'qigan o'quvchining yozma va og'zaki nutqi ravon bo'ladi . Bahsmunozaralar , yozma ishlar orqali o'quvchilarning kitob haqidagi fikrlari o'rganib boriladi . Ma'lumki , nutq ikki -og'zaki va yozma shaklda bo'ladi . Og'zaki nutqning ma'nodorligi , to'g'riliqi hamda xilma-xilligi so'zlovchining dunyo qarashi va bilimiga bog'liq . Yozma nutqda ham xuddi shunday . Kitob o'quvchilarga mana shunday vaziyatlarda yordamga keladi . Hozirgi davrda kitobga , uni o'qishga qiziqish yanada kuchayib bormoqda . Har kuni yangi kitoblar chop etilyapti . Kitoblarning sifati . unga ishlangan rasmlar barchani birdek o'ziga tortayapti . Bu juda quvanarli radio va televideniyada olib borilayotgan targ'ibot va tashviqot ishlari xakqni kitobga bo'lgan mehr -muhabbatini ortirib borayapti . Mana shunday pallada , albatta , o'qituvchilar ham peshqadam bo'lishlari kerak . O'qituvchining chop etilayotgan kitoblardan doim voqif bo'lishi , ularni o'quvchilar bilan tanishtirib borishi , o'quvchida qiziqish ug'otishi kundalik ishi bo'lishi kerak . Zero hayot davomida o'qib , o'rganish o'qituvchining ham , o'quvchining ham asosiy vazifasidir .

Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq " asarida : "Har bir millatning saodati ,



davlatning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdur . Birinchi uy tarbiysi . Bu ona vazifasidur . Ikkinchi maktab va madrasa tarbiysi . Bu ota . muallim , mudarris va hukumat vazifasidur" deb yozgan edi . Demak , hukumatimizning kitob mutolaasi borasida olib borayotgan odilona ishlari tahsinga loyiqidir .

Foydalangan adabiyotlar:

- 1."Til va adabiyot ta'limi " журнали 2015-yil . 6-сон .
- 2."Taqdir va tafakkur" Ibrohim Haqqul ."Sharq" nashiryoti .Toshkent-2007.
- 3."Masnaviydan o'gitlar". "Nasaf"nashiryoti - 2010. Toshkent .
4. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq". Tashkent "O'qituvchi"- 1992



**"GO'RO'G'LI" TURKUMIDAGI DOSTONLARNING BADIYATI ("GULSHANBOG"
VA TURKUMNING XORAZM VERSIYALARI ASOSIDA)**

*Sobirova Saodatjon Tohirjon qizi
Xorazm viloyati Xonqa tumani 28-maktab o'qituvchisi
Telefon:+99893-7512870
Sobirova_1994@inbox.ru*

Annotatsiya: O'zbek folklorshunosligida doston janri, ularning badiiy-estetik qimmati, an'anaviy obrazlari, kompozitsion tuzilishi, ijrochilar, tili, tasviriy vositalari xususida ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Ushbu maqolada "Go'ro'g'li" dostonining badiiyati to'g'risida ayrim mulohazalar bildirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: "Gulshanbog"" dostoni, epik qoliplar, epik formulalar, to'liq sa'j(sa'ji mutavoziy, qofiyali sa'j(sa'ji mutarraf), vazndosh sa'j(sa'ji mutavozin).

"Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlar o'zbek xalq og'zaki ijodiga kiruvchi boshqa dostonlardan o'zining variantlari va versiyalaridagi o'ziga xos tasvirlar, badiiy san'atlardan foydalanishdagi mahorat bilan ham alohida ajralib turadi.

Xalq dostonlarni kuzatar ekanmiz, ularning aksariyati bir xil boshlanma bilan boshlanishini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga xalq dostonlarining variantlari turlicha bo'lsa-da, deyarli hammasida uchrovchi ifodali tasvirlar bor. Ular folklorshunoslikda epik qoliplar yoki klieshalar deb nomlanadi. Epik qoliplar xalq dostonlarida muntazam ravishda takrorlanuvchi holatlarni tasvirlashda ishtirok etadi. Masalan, dostonlarning boshlanishi, tugallanishi, qahramonlarning ko'rinishlari, bir-biriga qilgan nasihatlari, otlarga berilgan ta'riflar yoki jang tasvirlarida epik qoliplardan foydalaniladi. "Gulshanbog"" dostonida ham boshqa "Go'ro'g'li" turkumiga kiruvchi dostonlardagi kabi quyidagi epik qoliplar keltirilgan: "Chambil chambil bo'lganda, Chambil obod bo'lganda, qirq yigitnng ichgani qandu novvot bo'lganda, qanday Chambil edi. Shunday Chambil edi: oltmis oshxonali Chambil, yetmish jevaxonli Chambil, sakson sardobali Chambil, to'qson to'pxonali Chambil, oq darvozali Chambil, ko'k darvozali Chambil, yurtga ovozali Chambil".

1. Xalq dostonlarida baxshilar tomonidan qo'llaniluvchi badiiy unsurlardan biri bu epik formulalardir. Epik formulalar-To'liq sa'j(sa'ji mutavoziy)- vaznda va harfi raviydag'i moslikka asoslangan.

2. Qofiyali sa'j(sa'ji mutarraf)- vaznda emas, faqat raviydag'i moslik.
3. Vazndosh sa'j(sa'ji mutavozin)- hamvazn bo'lib, ravyda mos bo'lmaydigan.

To'liq sa'j: "Chambil Chambil bo'lganda, Chambil obod bo'lganda, qirq yigitnng ichgani qandu novvot bo'lganda, qanday Chambil edi. Shunday Chambil edi: oltmis oshxonali Chambil, yetmish jevaxonli Chambil, sakson sardobali Chambil,to'qson to'pxonali Chambil, oq darvozali Chambil, ko'k darvozali Chambil, yurtga ovozali Chambil".

Qofiyali sa'j: "Bu chorborg'ning kattaligi shunday ediki, bir yog'i guli-guliston, bir yog'i bog'i bo'ston, bir yog'i dasht bo'lsa, bir yog'i chorsi-registon, bir yog'i yoz bo'lsa, bir yog'i zimiston". Qofiyali sa'j namunasini turkum dostonlarining Xorazm versiyalarida ham uchratamiz: "Ana G'irotdi-da, tuyog'i qayrilib, tishdan ayrilib, beli mayrilib, o'lmas o'tini yeb yura berdi. Jasadi ajdarhoga o'xshaydi, bo'ylari minorday, har bir qo'llari chinorday. Shomurtlari shopday, og'zi ko'hna qopday, bitimi tog'larning cho'qqisining bitimiday, burnidan chiqqan dami tandirning tutuniday, har bir tushi ustunday, og'zi g'orday, lablari suv qazigan jarday..."

Xalq dostonlarida sa'jdan foydalanish vositasida dostonning ta'sichanligini oshirish, voe-hodisalar bayonining o'quvchilarga tezroq "yuqtirish"ga, nasriy bayonning emotsionalligini oshirishga va nasriy parchalarni ham ma'lum bir ritmga solinishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Gulshanbog'.O'zbek xalq og'zaki ijodi.T.: 1966. "Fan" nashriyoti
2. Саримсоков Б. Ўзбек адабиётида сажъ.- Тошкент:Фан, 1978.
3. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. T.: 1970. "O'qituvchi" nashriyoti



ПРОФЕССОР ҚУРБАНБАЙ ЖӘРИМБЕТОВТЫҢ САБАҚЛЫҚ ҲӘМ ОҚЫҰ ҚОЛЛАНБАЛАРЫНЫң ӘХМІЙЕТИ

Алламбергенова Гулмира
Бозатай районы 7-санлы улыұма билим беріү мектеби
қарақалпақ тили ҳәм әдебиятты пәни оқытышысы
+998975615783

Аннотация: Мақалада белгилі әдебиятшы алым, филология илимлери докторы Қ.Жәримбетовтың қарақалпақ әдебияттаныў илими ҳәм билимлендириў тарауына қосқан үлеси оның баспада жәрияланған сабактықтары, оқыу қолланбалары ҳәм олардың оқыушылардың, студентлердин билимин жетилистириудеги әхмійети сөз етиледи.

Таяныш сөзлер: Қ.Жәримбетов, қарақалпақ әдебияттаныў илими, илимий теориялық пикірлер, илимий жаңалық.

Қ.Жәримбетов қарақалпақ әдебияттаныў илимине әдебияттың бир қанша теориялық мәселелери бойынша өз концепцияларын енгизген күшли теорик алым болып табылады. оның улыұма қарақалпақ әдебиятты мәселелери бойынша 100 дең аслам мақалалар, илимий очерклер, монографиялар жәриялаған болса, солардан «Ашық Зийәр» (1998), «Бердақтың нәсиятлары - бизин руўхый ғәзійнеміз» (1998) илимий очерклері ҳәм «XIX әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық қәсийеттері ҳәм рауажланыў тарийхы» (2004) атамасындағы изертлеўлери әдебияттың дағы илимий ой-пикірлерди кенейтиүге айрықша үлес болып косылды. Соның менен бирге алымның әдебий сын тарауындағы мақалалары да оны қәлеми өткір сыншы сипатында танытты.

Қ.Жәримбетовтың илимий изленислери менен бирге қарақалпақ әдебиятты пәни бойынша бир қанша оқыу қолланбалары ҳәм сабактықтар, сөзликлер дүзиүгө қатнасқанлығын билемиз.

Қ.Жәримбетовтың «Adebiyattamwdan sabaqlar» (No'kis: «Qaraqalpaqstan», 2012) қолланбасында көркем әдебияттың пайда болыу ҳәм рауажланыў нызамлықтары, көркем шығарманы түсній ҳәм оны таллау жоллары хакқында кен түсніктер берилген болып, онда әдебий түрлер ҳәм жанрлар, көркем әдебий образ, көркем сюжет, көркем композиция, әдебий қаҳарман, әдебий процесс, көркем шығарманың тили мәселелери бойынша дәслепки таяныш мағлұмдатлар орын алған. Автор қолланбада әдебияттаныў илимииң соңғы жетискенліктері ҳәм дүнья әдебиятты менен қарақалпақ әдебияттың үлгилерине сүйенип жуу мақлар береди ҳәм оларды он төрт сабакқа жемлестиреди. Оқыу қолланбасының баянлау тили анық ҳәм женил болғанлығы ушын оқыушы ҳәм студентлер ушын да, оқытышылар ушын да түснікли.

Қ.Жәримбетовтың С.Ахметов, К.Мәмбетовлер менен биргеликте жазылған «Қарақалпақ әдебиятты» (10-клас ушын сабактық. Нөкис: «Билим», 2004), Қ.Оразымбетов пенен биргеликте «Қарақалпақ әдебиятты» (кәсип-өнер колледжлері ушын сабактық. Нөкис: «Билим», 2006) сабактықтары да өзинен алдыңғы баспаларынан бир қанша айрықшалықтары менен ажыралып турады. Олардың Қ.Жәримбетов тәрепинен жазылған қарақалпақ халқының фольклоры ҳәм классикалық әдебияттың үйрениүгө тиисли бөлімдеринде автордың миллий миyrасларының ғәрэзсизлик заманы көзқарасынан қатнас жасау арқалы талқыға тартқанлығы, материалларды оқыушыларының психологиялық жас өзгешеликтерине қарап көркем таллауға тартқанлығы сабактықтардың әхмійетин арттырып түр.

Қ.Жәримбетовтың алымлар С.Ахметов, Ж.Есеновлар менен биргеликте жәриялаған «Әдебияттаныў атамаларының орысша-қарақалпақша түснідірме сөзлиги» (Нөкис, «Билим», 1994) әдебияттың теориялық мәселелерин үйрениши барлық мектеп, лицей ҳәм колледж мұғаллимлери, жоқары оқыу орындарының оқытушылары, студент ҳәм магистрантлар, докторант ҳәм басқа да илимий хызметкерлер, улыұма көркем әдебият мәселелери менен қызығышылар ушын үлкен әхмійетке ийе оқыу қолланбасы хызметин атқарып келмекте. Бул сөзликте 1972-жылы профессор С.Ахметов тәрепинен баstryрылып шығарылған «Әдебияттаныў терминлеринң сөзлиги» китабындағы көпшиликтік атамалар автор тәрепинен жаңа дәйири талабына сай қайтадан исленип, көплеген әдебий атамалар жаңа түсніктер менен толықтырылған ҳәм мысаллар менен дәлділленген. Соның менен



бирге гейпара әдебий атамалар қарақалпақ, әдебияттаныўына жаңадан киргизилгенлиги оның илимий жаңалығын ҳәм қунын асырған.

Улыўма алғанда, илимпаздың әдебиятымыздың ҳәр қыйлы мәселелерин шешиўге бағдарланған пикирлери ҳәм теориялық жүўмаклары қарақалпақ әдебияттаныўы илиминде қунлы теориялық мағлыўматлар болып, әдебияттымыздың теориялық мәселелерин шешиўге бағдар берип қоймaston, мектеплерде, лицей ҳәм колледжлерде де оқыўшылардың толық илимий билимлөр менен қуралланыўына, әдебият илими бойынша анық ҳәм сапалы мағлыўматлар менен танысыўына тийкар болатуғын мийнетлер екенлигине исенимимиз кәмил.

Пайдаланған әдебиятлар

1. Турдыбаев Қ. Белгили әдебиятшы алым ҳәм педагог. Нөкис «Qaraqalpaqstan», 2018.
2. Жәримбетов Қ., Оразымбетов Қ. Қарақалпақ әдебияты. Қәсип-өнер колледж оқыўшылары ушын сабаклық. Нөкис: «Билим», 2006.
3. A'debiyattamwdan sabaqlar.Oqiw qollanba (Joqari oqiw orinlari studentleri ushin qollanba). №'kis: «Qaraqalpaqstan», 2012.
4. Жәримбетов Қ., Оразымбетов Қ. Қарақалпақ әдебияты. (Қәсип-өнер колледжлери қарақалпақ емес аудиториялары ушын сабаклық). Нөкис: «Билим», 2010.



ЭЛЕГИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ М. Ю. ЛЕРМОНТОВА

Худайбергенова Мадина Шухратовна

Учитель русского языка и литературы школы

№5 Ургенчского района Хорезмской области Телефон: +998937445278

madina.khudaybergenova.92@mail.ru

Аннотация: В статье рассматриваются «Элегии» раннего и зрелого периода творчества Лермонтова, созданные с очевидной ориентацией на жанровый канон. Устанавливается, что в этих образцах жанра проявляется лермонтовская индивидуальность поэта.

Ключевые слова: Лермонтов, жанр, элегия, романтизм, традиция, любовная коллизия, лирическая ситуация.

Михаил Юрьевич Лермонтов — один из самых известных русских поэтов, и признание к нему пришло еще при жизни. Его творческий путь был короток, но чрезвычайно продуктивен. Его произведения многообразны по тематике, настроению, жанрам.

В лирике М. Ю. Лермонтова элегия занимает значительное место, как в ранний, так и в зрелый период творчества. В античной поэзии элегией называлось стихотворение, написанное особым размером – элегическим дистихом; в новой литературе элегией признают всякое стихотворение, заключающее в себе размышления поэта и выражение его чувств, преимущественно печальных. В. Г. Белинский определял элегию как «песню грустного содержания». М. Ю. Лермонтов вошел в поэзию, когда уже были созданы лучшие образцы романтических элегий и появились некоторые кризисные признаки в развитии этого жанра. В. А. Жуковский и К. Н. Батюшков разработали систему тончайших приемов, позволяющих выразить в элегии различные оттенки чувства. А. С. Пушкин и Е. А. Баратынский обогатили, уточнили, детализировали средства раскрытия эмоций; в их элегиях место традиционной «задумчивости» или «печали» заняла единичная, определенная, психологически конкретная ситуация. Они, а также поэты-декабристы чрезвычайно расширили круг элегических тем, расшатывая, таким образом, рамки жанра, для дальнейшей судьбы которого лермонтовские элегии имели решающее значение.

В творчестве М. Ю. Лермонтова - поэта преимущественно мрачного мировосприятия, склонного к пессимистичной медитации, элегии, и - шире - элегические мотивы, играли, естественно, немалую роль. Его ранние элегии испытали существенное влияние школы Карамзина - Жуковского, для них характерны настроения меланхолии, разочарованности, неясные желания, мечтательно-грустные воспоминания и предчувствия. Двум стихотворениям «О! Если б дни мои текли» (1829) и «Дробись, дробись, волна ночная» (1830) поэт дал заголовки «Элегия». Для других подбирал названия, типичные для элегии раннего романтизма: «Опасение», «Разлука», «Одиночество», «Раскаяние», «Прощанье» (все 1830-1831). В элегическом стиле выдержаны и стихотворение «Письмо», «К.....» («Не привлекай меня красой!»), «К***» («Мы снова встретились с тобой»), «Дереву», «Арфа» и др. Однако уже в эти годы вместо абстрактного элегичного «я» в лермонтовских элегиях появляется наделенный индивидуальными чертами герой; поэта интересует не изображение чувства или настроения вообще, а психологический облик этого человека. Любовная коллизия предстает как эпизод в истории человеческой души, ее исканий и заблуждений. Типичный пример ранней элегии Лермонтова – стихотворение «Сон» («Я видел сон: прохладный гаснул день»), где в форме сновидения живописуется конкретная лирическая ситуация, а герою стихотворения приданы вполне определенные психофизические черты: «ребенок, может быть», рано начавший любить, «страдалец молодой» «с привязчивой душой», человек, не сумевший прочесть в глазах возлюбленной прореческий «судьбы завет» - предстоящие ему «мучение, заботы многих лет, / Болезнь души, потоки горьких слез», свою погибель, таящуюся во «взгляде тех очей...».

Позднее принципиально меняется характер лермонтовской элегии. Романтические по мироощущению, все они проникнуты глубоким, безысходным разочарованием, страстной и тревожной тоской, холодной, гордой и мрачной отрешенностью («Еврейская мелодия», «Гляжу на будущность с боязнью», «Как часто, пестрою толпою окружен...», «И скучно и грустно» и др.). В лермонтовских элегиях проявляются и лучшие черты этого жанра, при-



сущие гражданским течениям в русском романтизме. Утратив «пленительную сладость» стихов Жуковского, элегия в более поздние годы предстала у Лермонтова в форме думы; генетически она связана с распространенной в начале 19 века элегия на исторические темы («На развалинах замка в Швеции» Батюшкова и др.). Ранние думы Лермонтова («Наполеон» («В неверный час, меж днем и темнотой»)) сохраняли сходство с элегией на исторические темы, позднее же лермонтовская дума значительно видоизменилась, вовлекав в себя элементы философской лирики, сатиры, баллады, инвективы. Наиболее выразительным итогом этого процесса явились «Умирающий гладиатор» (1836) и «Дума» (1838), в которой исследователи видят образец сочетания у Лермонтова элегических и сатирических начал.

Одна из главных проблем анализа лермонтовской элегии — отношение поэта к характерному для этого жанра вектору развития лирической эмоции. Элегия выражала не просто скорбь, печаль, горесть, разочарование; в силу особой организации художественного времени, смешавшей переживаемое событие в прошлое. Переживание его лирического героя настолько всеобъемлюще, а обостренное «чувство личности» столь сильно, что элегическое настроение абсолютируется. При этом собственно элегическое переживание (воспоминание, грусть, тоска, размыщление о скоротечности бытия, печаль о невосполнимой утрате и т.п.) нередко значительно обогащается благодаря философской мысли, сам процесс зарождения и развития которой становится основой «лирического сюжета» многих лермонтовских Э. («1831-го июня 11 дня», «1830. Майя. 16 число», «1830 год. Июля 15-го», «Из Андрея Шенье» и др.). В полной мере эта тенденция раскрывается в элегии Лермонтова последних лет — «Гляжу на будущность с боязнью...» (1837), «Когда волнуется желтеющая нива» (1837), «Дума» (1838), «И скучно, и грустно...» (1840), «Отчего» (1840) и др.

Именно в зрелых элегиях поэта, по оценкам большинства исследователей, и возникает возможность вырваться «за пределы магического круга собственного «я». Отражением этой гармонизации миро- и самоощущения лирического героя Лермонтова становится идеальная композиционная уравновешенность зрелых элегий поэта — тенденция, ярче всего реализовавшаяся в стихотворении «Когда волнуется желтеющая нива...». В полной мере это новое ощущение элегического, открытие его возможностей и как философского, и как психологического постижения тайны жизни и смерти раскрывается в элегическом по своей жанровой природе стихотворении «Выхожу один я на дорогу...». По мысли исследователей, это итоговое в ряду лермонтовских элегиях, стихотворение объединяет в себе черты как собственно элегической, так и одической, и псалмодической традиции. Это произведение отражает мысли поэта, которых хотел бы продолжать жить в покое и счастье — и в некотором роде так и произошло, потому что душа Лермонтова осталась жить в его произведениях.

Список использованной литературы

1. Вацуро В.Э. Литературная школа Лермонтова // Вацуро В.Э. Пушкинская пора. — СПб.: Логос, 2000. — С. 466–516;
2. Гинзбург Л.Я. Творческий путь Лермонтова. — Л.: Худ. лит., 1940. —
3. Косяков Г.В. Ранняя лирика М.Ю. Лермонтова и образные модели «кладбищенской элегии» // Вопросы фольклора и литературы. — Омск. Лермонтовская энциклопедия / Главн. ред. В.А. Мануйлов. М.: Сов. энциклопедия, 1981. 784 с.
4. Рылеев К. Ф., Предисл. к «Думам», Полн. собр. соч., Л., 1934, с. 115;
5. Фризман Л.Г. Два века русской элегии // Русская элегия XVIII – начала XX века. Л.: Сов. писатель, 1991. С. 5–48.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSINI TASHKIL QILISH

*Abdullayeva Nargiza Sultonbayevna
Xorazm viloyati Tuproqqa'l'a tumani 19-maktab o'qituvchisi
Telefon: +998932327117
azamjonmatchonov1212@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qish darslarini tashkil etish, o'quvchilarning o'qish malakalarini takomillashtirishga oid ishlarni tizimli olib borish, bolaning o'qish tezligini oshirish, ifodali o'qish malakalarini egallash, badiiy matn ustida ishslash, she'r va kichik matnlarni yod olish, tushunganlarini gapirib berish xususida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lif, DTS, ovoz chiqarib o'qish, ichda o'qish, ichda o'qish, shivirlab o'qish, to'g'ri o'qish, ongli o'qish.

*"Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim
dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning
Ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday
ta'lif va tarbiya olishiga bog'liq".
Islom Karimov*

Boshlang'ich ta'lif umumiy o'rtalama ta'lifning asosiy poydevori sanalib, o'quvchilarning kelajakda komil inson bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlovchi asosiy ta'lif hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lif bo'yicha DTS O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-avgustdagagi 390-sonli qarori bilan tasdiqlangan bo'lib, unda boshlang'ich sinfni bitiruvchi o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy minimal talablar belgilab berilgan.

Ikkinci sinfga kelib o'quvchilar ifodali, ravon, tez va sidirg'a o'qishni o'rganib oladilar. Bunda ularning boshlang'ich sinf o'quvchilarining ahamiyati kattadir. Darslikda berilgan har bir matn o'quvchilarning fikrlash doiralarini o'stirish bilan birga, ularda tevarak-atrofga munosabat, odob-ahloq qoidalarini o'zlashtirish, insonparvar bo'lish, asardagi qahramonlar ishlariga taqlid qilish, ulardagi eng yaxshi hislatlarni egallash, irodali, mehnatsevar, kamtar, mehribon bo'lishga o'rgatadi.

O'quvchichi har bir darsni pedagogik, psixologik, metodik tomondan to'g'ri tashkil etib, didaktik talablarga amal qilgan holda o'tkazishi kerak. Bundan tashqari darslikdagi mavzuga vaqtini to'g'ri taqsimplashi lozim. O'qish darslarini tashkil qilganda ovoz chiqarib o'qish, ichda o'qish, shivirlab o'qish, to'g'ri o'qish va ongli o'qish kabi turlardan foydalilanadi. Ovoz chiqarib o'qish uchun avval o'quvchini ruhan tayyorlash lozim. U o'qiganida o'quvchichi, atrofdagilar, uyidagi yaqinlari eshitayotganini his qilishi lozim. Shundan so'ng u bo'gin, so'z va gaplarni to'g'ri talaffuz qilib, tinish belgilariga rioya qilgan holda o'qishni o'rganadi. Bu o'qish turi bilan har darsda uyda tez-tez takrorlansa, o'quvchichi va ota-onada tomonidan nazorat qilib borilsa yaxshi natijaga erishiladi.

O'quvchilarning ongli o'quv malakalarini o'stirish uchun matnlar ostida berilgan savol va topshiriqlarga ularning munosabatlarini bilish, matn mazmunini erkin so'zlab bera olish ko'nkmalarini shakllantirish lozim. O'quvchilarga ichda o'qish malakalarini singdirish o'qish turlari ichida eng qiyini hisoblanadi. Bu o'qish turini tez-tez mashq qildirish orqali o'quvchilarga o'rgatish mumkin. O'quvchilarda ichda o'qish malakasini qancha erta shakllantirilsa shuncha foydalidir. Chunki bu o'qish turi insonning hayot faoliyati uchun zarur bo'lib, hamma joyda o'qish uchun qulay hisoblanadi. Shivirlab o'qish- yarim ovoz bilan o'qishdir. Bu o'qish turi asosan darsning tashkiliy qismlarida, o'quvchilarni darsga tayyorlash bosqichlarida o'tkaziladi. To'g'ri o'qish o'quvchilarning matnni tushunarli qilib o'qishidir. Ma'lumki, ko'pchilik o'quvchilar harflarni tushirib, bo'g'in va so'zlarning o'rnini almashtirib o'qiydi. Bunday xatolarning sodir bo'lmasisligi uchunqiyalib o'qiydigan o'quvchilarga katta hajmdagi matnlarni qismlarga bo'lib o'qish tavsiya qilinadi.

To'g'ri o'qishni o'zlashtirishda tovush, bo'g'in va so'zlarni to'g'ri va aniq, sof talaffuz etish katta ahamiyatga ega.

O'quvchilar matnni o'qish jarayonida tushunib, asardagi ayrim so'z va qo'shimcha ma'noli so'zlarni izohlash, bu so'zlar ishtirokida gaplar tuzish, matnning tugallangan qismidagi asosiy



fikrni topish mashqlarini tez-tez o'tkazish matnni mustaqil so'zlab berish bularning barchasi ongli o'qishdir.

O'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish, ularning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish orqali o'qilayotgan matnlarning mazmunini o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi. Bunday matnlar tahlil qildirish orqali o'quvchilar nutqi o'stiriladi. So'zlashuv tili nutq o'stirishning dastlabki namunalari hisoblanib, u asta-sekin takomillashib boradi. So'zlashuvga o'rganish barcha darslar jarayonida amalgam oshadi, lekin o'qish darslari yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Nutq o'stirish bilan bog'liq bolalarning tasavvur va tafakkur qilish faoliyatları uzviy holda rivojlantiriladi:

- hikoya,ertaklarni so'zlab berishda , qahramonlar ovoziga taqlid qila bilish;
- rasm va narsalarni taqqoslab tasvirlash, sayr, tomosha va o'yinlar haqida hikoya qilish, misollar keltirish, matnda tasvirlangan voqealar haqida xulosalar chiqarish;
- badiiy matn ustida ishlashga o'rgatish, matnni qismlarga bo'lish, ular mazmuniga oid sarlavhalar toppish, ijodiy rasmlar ishslash.

O'qituvchi o'z nutqida murakkab uzun jumlalar yoki notanish qiyin iboralarni muntazam qo'llayvermasligi lozim. O'qituvchining samimiyl mazmunli nutqi bolalarni o'ziga yaqinlashtiradi, darsga qiziqishlarini oshiradi. Shunday ekan biz o'quvchilarimizga samimiyl, har doim e'tiborda bo'laylik. O'qish darslarida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Dars davomida ilg'or pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali o'qituvchi nazariy ma'lumotlarni berish bilan bir qatorda o'quv materiallarini zamonaviy texnika vositasida namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulzoda Boymurodova, Xadicha Sattorova...."O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma".
DTS
2. Boshlang'ich ta'lim jurnali.
3. www.edu.uz sayti.



SHOIR ATOYI G‘AZALLARIDA QO‘LLANGAN SHE’RIY SAN’ATLAR

*Davlatova Gulnoza Sattorovna
10-umumiy o‘rta ta’lim maktab ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi
Buxoro viloyati Kogon shahri*

Annotatsiya: "Atoyi g‘azallarida qo‘llangan she’riy san’atlar" mavzusidagi maqolani yozishda uzviylashtirilgan o‘quv reja va dasturga asoslandi. Badiiy adabiyotning inson kamolotidagi o‘rni, zamonaviy ta’lim adabiyot o‘qituvchilari oldiga qo‘yayotgan talab va vazifalarga ahamiyat qaratildi. Mumtoz shoir Atoyi haqidagi adabiyotimizdagi mavjud ma’lumotlar Maqolada asosisy e’tibor Atoyi g‘azallarida qo‘llangan she’riy san’atlarga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Badiiy tafakkur, she’riy san’at, ma’naviy san’at, lafziy san’at, g‘azal, Alisher Navoiy, "Majolis un-nafois", A. N. Samoylovich, tasdir, tazod, tashbeh, talmeh, irsolı masal, ishtiqaq, interfaol usullar.

Atoyi g‘azallarida qo‘llangan she’riy san’atlar tahlili jayanonida g‘azal baytlaridan parchalar keltirildi, har bir she’riy san’atga alohida ta’rif berib o‘tildi. Maktabda ushbu mavzuda tashkil etiladigan darslarda ilg‘or pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Maktabda Atoyi g‘azallarida qo‘llangan she’riy san’atlarni o‘tishda "Idrok xaritasi", "Tushunchalar tahlili" kabi interfaol usullar, turli jadvallardan foydalanish samara berashi asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: Badiiy tafakkur, she’riy san’at, ma’naviy san’at, lafziy san’at, g‘azal, Alisher Navoiy, "Majolis un-nafois", A. N. Samoylovich, tasdir, tazod, tashbeh, talmeh, irsolı masal, ishtiqaq, interfaol usullar.

Badiiy adabiyot obrazli tafakkur mahsuli bo‘lib, inson ruhini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. U o‘quvchilarning mantiqiy va badiiy tafakkurini shakllantiradi, unlarda hissiyotni tarbiyalaydi. Kishi hissiyotini shakllantirishda badiiy so‘zning o‘rni beqiyosligi isbotlangan haqiqat. Komil shaxs ma’naviyatining ruhiy qirralarini ezgu qarashlarga muvofiq kamol toptirish badiiy adabiyotning bosh maqsadidir.

Adabiyot darslarida atoqli mumtoz shoir Atoyi hayoti va faoliyati haqida ma’lumot berilib, o‘quvchilarda ijodkor tarjimayi holiga qiziqish uyg‘otiladi, cheksiz hurmat, faxr tuyg‘ulari tarbiyalanadi. Shoir ijodini o‘rgatish orqali o‘quvchilarning ijodiy o‘y-xayollari, individual imkoniyatlari badiiy asarlardagi yuksak badiiyat va takrorlanmas san’atkorona tasvirlar orqali kengaytiriladi, ularda she’rdan zavqlanish, go‘zallikka intilish kabi estetik jihatlar tarbiyalanadi.

She’riy san’atlar o‘quvchining badiiy so‘z qudratini his etishida, estetik didining o‘sishida muhim ahamiyat kasb etadi. Atoyi g‘azallaridagi soddalik va samimiylilik yuksak san’atkorlik namunasidir, ulardagi she’riy san’atlar esa ma’no va shaklning uyg‘unligi, takomilidan dalolat beradi.

XV asrning mashhur shoirlaridan, nozik so‘z sehrini egallagan is’tedodli adiblardan biri shoir Atoyidir. Bu shoirning she’rlari Movarounnahr hamda Xurosonda juda mashhur bo‘lgan.

Buyuk so‘z san’atkori Alisher Navoiy ham «Majolis un-nafois» asarida Atoyi hayoti va ijodi haqida to‘xtalib o‘tganligini bilamiz

Atoyi g‘azallarida muhabbat bilan bir qatorda boshqa hayotiy mavzular ham kuylangan. She’rlarini, asosan, aruzning turli bahrlarida yozgan, ular orasida ramalda yozilganlari ko‘proq; uslubi sodda va ravon, vazni yengil, misralari qisqa, so‘zlar xalqqa yaqin. Shoir ijodi bizgacha to‘la yetib kelmagan. Atoyidan yetib kelgan devon 260 g‘azalni o‘z ichiga olgan. Taxminan XV asarda ko‘chirilgan devonning qo‘lyozma nusxasi Sankt-Peterburgda saqlanadi. Shoir g‘azallaridan namunalar 1927- yilda A. N. Samoylovich tomonidan e’lon qilingan edi.

Atoyi – lirik shoir. U o‘z she’rlarida sinchkov nigoh, baland did egasi ekanligini namoyish etadi. Shoir go‘zal **tashbehlar**, esda qoladigan o‘xshatishlar, kutilmagan mubolag‘ali tasvirlar yaratadi. Mumtoz she’riyatni tashbeh (o‘xshatish) san’atisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shoir Atoyi ijodi ham bundan mustasno emas.

Tashbeh – she’rda biror obraz yoki voqeani boshqa biror narsa yoki voqeaga qiyoslash orqali o‘xshatish san’ati.

Bu pari paykar sanam go‘yoki mahzi ruhdur ,



La'li *Xizr obi hayoti, qaddi umri Nuhdir.*

Shoirning "Bu elda bordur ikki moh paykar" deb boshlanuvchi g'azali boshdan-oyoq tashbeh san'ati bilan ziynatlangan:

Bu elda bordur ikki moh paykar,
Biri qandu, birisi shahd-u shakkar.

Atoyi she'rlarida **talmeh** san'atining go'zal ifodalari juda ko'p uchraydi

Talmeh – she'rda o'tmishdaagi mashhur zot, mashhur qissa, yoki maqolga ishora qilish, mashhur tarixiy va adabiy qahramonlar nomini keltirish san'ati.

Nasime yor kuyindin topilsa,
Sulaymon mulkini barbob o'qurlar.

Shoirning qator she'rlarida real yor, dunyoviy ishq, ya'ni insonning insonga bo'lgan muhabbatini ko'rish mumkin.

Belini har nechaki, sinchilasam,
Ko'zlarimga hamin kamar ko'rinxur

Qarang, qanday ajoyib jozibali manzara, sehrli shoirona talqin va xalqona o'tkir o'rini ifoda! Bir baytda **mubolag'a** san'atining noyob namunasi hosil qilingan bu shohbaytdagi shoir mahoratiga tan bermay iloj yo'q .

Mubolag'a – she'rda tasvirlanayotgan narsa, shaxs va voqe-a-hodisaning muayyan jihatlarini bo'rttirish, kuchaytirib tasvirlash san'ati.

Mutafakkir shoir xalq maqollari, iboralaridan o'rini foydalanib, **irsoli masal** san'atining go'zal namunalarini yuzaga keltiradi. Xalq donishmandligi mahsuli — fikriy javohir har qanday baytga xuddi uzukka yarashiqli ko'z bo'lib tushadi:

G'animat tut jamoli husn davrin,
Masaldurkim."Yana bu dam topilmas".

Irsoli masal – she'rda maqol, matal, hikmatli so'zlarni muayyan maqsad bilan ishlatalish san'ati.
Endi e'tiborni shoirning:

Ey bodi sabo, o'tsang o'shal Zulfi dutodin,

Yod ayla meni bastayi zanjiri balodin, – matla'li g'azaliga qaratsak. Bu g'azal shoirning eng go'zal she'rlaridan biri. Birinchi baytda ajoyib bir manzara chizilgan: lirik qahramon – shoir tong (Sharqdan esadigan) shamolidan so'raydi: "Agar o'sha duto zulfl (soch) yor yonidan o'tsang, balo zanjiriga bog'langan men-oshiqni yodga ol"-deb. Chunonchi, bu yerda shamolning oshiqni yodga olishi insonga xos xususiyatni tabiat hodisasiga ko'chirilganini ko'rsatadi. Bu **tashxis** san'atiga xosdir.

Tashxis – she'rda odamlarga xos bo'lgan xususiyatlarni jonsiz narsa, tabiat hodisalariga, jonzotlarga ko'chirish orqali hosil bo'ladigan tasvir usuli.

Boshqa bir g'azalga e'tibor qaratsak: **Istiora** arabcha so'z bo'lib, «qarz olish» ma'nosida keladi. Istiora ikki narsa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanadi. Tashbehdan farqli ravishda, o'xshatish vositasi va o'xshatish sababi qo'llanmaydi.

Bovujudi *la'li* jonbaxshu o'shal huriliqo,

Odam ermas ul kishikim, obi hayvon orzular.

«La'l» qimmatbaho qizil tosh. ayni paytda, yor labidan chiqadigan shirin so'zni ham anglatadi. Yorning labi qip-qizil bo'lgani uchun ham la'lga o'xshatiladi. Modomiki, la'l qimmatbaho tosh ekan, u so'zni anglatganida nihoyatda mo'tabar va qadrli so'z nazarda tutiladi. Demak, bu yerda o'zi ishlatilmagani holda so'zning inson ko'ngli uchun qanchalik qadrli ekanligi ta'kidlanmoqda.

Yana bir she'rda baytda «naqsh» va «naqqosh» o'zakdosh so'zлari takrorida ham xislat bor. Buni **ishtiqoq** san'ati deydilar:

To musavvar bo'ldi *naqshing* xomayi taqdirdin,
Yig'di xijlatdin ilik *naqqoshi* Chin tasviridin

Ishtiqoq – she'rda o'zakdosh so'zlarni qo'llash orqali hosil bo'ladigan tasvir usuli.

Mumtoz adabiyotda yana keng qo'llanadigan san'at bu zidlik – **tazod** san'atidir,

Tazod – baytda o'zaro zid, qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni qo'llash orqali ta'sirchan badiiy timsollar yaratish san'ati.

Ey xayoling to abad hamroz-u yo'ldoshim maning.

Qaygakim bo'lsa ayog'ing andadir boshim maning.

Yoki Gunoh qildim, ki hajringda tirildim,

Vale mendin *gunah*, sendan *karamdir*.



Ushbu baytlarda tanosib san'atiga xos xususiyatlarni ham kuzatish mumkin.

Tanosib – baytda o'zaro bir-biriga bog'liq, yaqin tushunchalarni anglatuvchi qo'llash orqali ta'sirchan badiiy timsollar yaratish san'ati.

Makr-u fan aylab meni, sayd etti derlar el seni,

Men azaldan mubtaloman, makr-u fandin kim desun?

Ushbu baytdagi "makr-u fan" so'zlariga e'tibor bersak, bu so'zlar bayt boshi va oxirida takrorlanib tasdir san'ati yaratmoqda.

Tasdir – badiiy san'atning eng ko'p tarqalgan, so'zlar takroriga asoslangan turi. Bu san'atning mohiyati shunday: baytni boshlagan so'z, uning oxirida ham takrorlanadi.

Bir qarashda tasdir juda sodda usul sifatida ko'rinsa-da, shoirlar uni turli maqsadlarda qo'llar ekan, uning xilma-xil ko'rinishlarini hatto ancha murakkab turlarini ham kashf etishgan.Tasdir so'zlar bir xil shaklda qo'llansa ham, ular mazmunan farq qiladi, ya'ni ular ifodalagan ma'no ayni bir narsani emas, balki boshqa-boshqa tushunchalarni ifodalaydi. Bunday holda tajnis – shakldoshlar yuzaga keladi.

Insonning ichki tuyg'ulari po'rtana misoli junbushga kelganida lirik qahramon olamdag'i har qanday narsa-hodisalarga, tabiatdagi istalgan narsaga, o'zining qalbiga, suhbatdoshiga murojaat etishi mumkin.

Nido - bevosita inson qalbidagi his va hayajonlarni ochiq va kuchli tasvirlab bera olish imkoniyati bilan ajralib turadigan, murojaatdan iborat she'riy san'at.

Quyidagi «Ayirma» radifli g'azali ko'p ma'noliligi bilan diqqatga sazovordir. Undagi xilma-xil ma'nolar tavsif va talqin qilinar ekan, nido va tazod san'atlaridan o'rinli foydalanilgan

Yo Rab, meni ul sarvi xiromondin ayirma,

Bulbulni o'shul bog'u gu;istondin ayirma...

Bularning barchasi Atoyining badiiy mahoratning nihoyatda yuksakligi, o'zbekcha so'z kuchi va qudratini teran his etgani, uning latofatini ko'rsatish uchun katta kuch va mehnat sarflaganini ko'rsatadi.

Zero, g'azallardan badiiy-estetik zavq olish kitobxonadan, avvalo, har bir baytni tushunish, "qiyin" so'zlar ma'nosini aniqlagan holda g'azal tahliliga kirishishni talab etadi. Ya'ni ohorli o'xshatish yoki istiora, kutilmagan mubolag'a, maqol va matal vositasida fikrni jonlantirish, favqulodda yangi fikr ifodasi bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiyo o'rta ta'limgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili va adabiyot... Toshkent-2017
2. Adabiyot.10-sinf uchun dars-majmua.N., "O'zbekiston".2017.
- 3."Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at".T.,O'zbekistonRespublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti, 2008.
6. "Devoni Shayxzoda Atoyi".T.,O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "Fan" nashriyoti, 1992.



ALISHER NAVOIYNING "YORILA BIR XILVAT ISTARMENKIM..." G'AZALI TAHLILI, TASAVVUFIY HAYOT AKSI

*Oydinxon G'oziyeva Mo'minovna
Andijon viloyati Shahrixon tumani
44-IDUMning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Tel: +99890 147 31 71 Email : hgoziev001@gmail.com*

Annotatsiya: Buyuk mutafakkir A.Navoiy g'azallarida tasavvufiy qarashlarni bir g'azal sharhi orqali tahlil etish va o'quvchilarga g'azal mazmun –mohiyatini anglatish.

Kalit so'zlar: Adabiyot fanidan to'garak mashg'ulotlari, badiiy adabiyot o'qish madaniyati, tayanch so'zlar ustida ishlash

Tasavvuf va badiiy ijod haqida gap ketar ekan , Alisher Navoiy ijodiga ,albatta,bir sayr etiladi. Asarlar,g'azallar bo'stoni insonni mushohadaga undaydi. A.Navoyning tasavvufiy qarashlarini bir necha adabiyotshunoslar o'rganib qayd etganlar. Adabiyotshunos N.Komilov shunday yozadi: “ A.Navoiy o'zining tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq g'oyalarni , Allohning hamma narsaning tashqarisida emas, balki ichida, o'zida ekanini ko'rsatish va isbotlashga harakat qiladi. Insonning ulug'vorligi majoziy uslub bilan , ta'sirli qilib, real ijtimoiy, axloqiy hodisalar ila bog'lab tasvirlangan. Tasavvufning vaxdat ul vujud nazariyasi ham shu tarzda o'zining badiiy in'ikosini topgan. Bu bilan Navoiy tasavvuf g'oyalarini keng kitobxonlar ommasiga badiiy ko'rak va jonli yetkazishda oliy darajada san'atkorlik ko'rsatgan”.

Ibrohim Haqqul tasavvuf va A.Navoiy she'riyatiga doir o'z fikrlarini bildirar ekan, shunday deydi:"Ruh va yurakning mushohada quvvati va quvonchini aks ettiruvhi hol Navoiy nazdida ham eng yaxshi amaldan-da ustun va sharafli sanalgan. Chunki ko'ngli zarif, ruhi latif, axloqi go'zal, ma'naviy hayoti jo'shqin hol sohiblari ishq va haqiqatning yuksak cho'qqilarini egallahga musharraf bo'lishgan”.

Haqiqatdan ham, Alisher Navoiy tasavvufiy g'oyalarini go'zal satrlarda ta'sirli ifoda etadi, ruhiyat latifligiga intiladi, Keling, buni biz "Yorila bir xilvat istarmanki..." g'azalini tahlil qilish orqali ko'rib chiqaylik.

Yorila bir xilvat istarmenki , ag'yor o'limg'ay,

Balki ul xilvatning atrofida dayyor o'limg'ay.

Shoirning bu satrlarini o'qir ekanmiz , eng avvalo, xilvat o'zi nima , qanday makon?- degan savollar tug'iladi. ” Xilvat quyosh shu'lalari va kunduz yorug'ligi kirmaydigan qorong'u bir yerda turli xil mashg'ulotlardan yiroqlashib ibodat qilmoqdir. Xilvatga chekinmoq-til va dilni ofatlardan asramoq, ko'ngilga ziynat, vujudga osoyish bermoq, tafakkur va muroqaba chegaralarini behad kengaytimoq demak”,-deb yoziladi Najmiddin Kubro "Tasavvufiy hayot" kitobida. A.Navoiy g'azalning birinchi satrida yor bilan (Alloh bilan)birga bo'lmoq uchun bir xilvat istayotganini ta'kidlar ekan, u begonalar, o'zgalar bo'lmasligini aytadi. Begonalar, o'zgalargina emas, hatto u yerda turuvchilar-istiqliomat qiluvchilar ham bo'limg'ay,-deydi.Demak, shoir shunday makonda yor-olloh bilan yolg'iz qolishni istaydi.

Eldin andoq yoshurun istarmen ul xilvatnikim,

Ko'nglim andin voqifu jonim xabardor o'limg'ay.

Ikkinci baytda shoir shu o'zi izlagan , yurak-yuragidan istagan xilvatini eldan shunday yashirishni xohlaydiki, hatto o'z ko'ngli ham uni biluvchi , joni ham xabardor bo'lmasin. Ko'rinish turibdiki, bu xilvatdan shoir hatto o'z ko'nglini ham, jonini ham xabardor bo'lishini lozim topmayapti.U ruhi bilan qolmoqchi; butun ruhiyati bilan yor ishqila bo'lmoqchi.

Ko'zga ko'nglim dardidin yig'larg'a imkon qolmag'ay,

Tilga dardim sharhini aylarg'a guftor o'limg'ay.

Ko'ngilda dard to'lganda ko'zga yosh ilinadi.Ammo shoir bu satrlarda ko'ngil dardini to'kib soladigan ko'z uchun yig'lashga imkon bo'lmaydi. Tilga dildagi dardlarini izohlash uchun, sharhlashga so'z, ibora bo'limgay,-deydi. Nega? Chunki xilvat holati qalbga sokinlik, xotirjamlik bag'ishlaydigan bir holat. Shu sababdan dardini bildirgani ko'z yosh, guftor bo'lmaydi.

Yor budi ichra nobud o'lg'aymenkim, o'rtada,

O'zgalikdin demakim, o'zlikdin osor o'limg'ay.

Bu misralarda shoir shunday deydi: Yor budi, ya'ni yor vujudi uchra nobud bo'lg'aymanki,



o‘rtada o‘zgalik, begonalikni aytmagin, o‘zlik-menlikdin nishona yo‘qdir. Menlik-kibr-havo, g‘urur, nafs... Inson shu jihatlarni yengishi, ya’ni menlik ustidan g‘alaba qozonishi lozim. Demak, shoir o‘zgalik, begonalikkina emas, o‘z menligidan ham noshona yo‘q makon-xilvatni istaydi.

Buki, derlar bordurur devor keynida quloq,

Ul fazo davrida ko‘z yetguncha devor o‘lmaq‘ay.

Bunda, shoir yashab turgan makonda “Devor ortida quloq bordir”, -deyishadi. Ya’ni devor bor, kimsa bor, eshitar quloq bor, ammo ul xilvat makonida ko‘z ilg‘aguncha devor yoqdir. Demak, to‘rt tarafi o‘ralgan uyda yolg‘iz bo‘lsangda, seni o‘rab turgan devor ortida quloqlar bo‘lishi, ya’ni sen haqingda turli mish-mishlar tarqalishi mumkin.U yer devori yo‘q, eshitar quloqlari ham yo‘q keng fazodir.

Maxfiy asrorimg‘a bo‘lg‘ay yor lafzidin ado,

Yordin ayru va lekin sohib asror o‘lmaq‘ay.

Sir –yashirin, pinhon narsa. Tasavvufda Alloh ila qul orasidagi yashirin haqiqat. Til ila izhor etilmas ma’no. Puh-ishq, qalb-ma’rifat, sir-mushohada manzili erur. Sir inson vujudidagi ruhga o‘xshash bir latiflik. Ruh qalbdan ustun bo‘lganidek, sir ruhdan ustun mavqega ega. Sirni sirga ularash-ilohiy birlikka yetishmoqlikni anglatadi. Shuning ushun shoir bu baytda yashirin sirlarimni eshitgan yor so‘zini ifodalay olmay qoladi. Yordan (Allohdan) o‘zgasi menga sohibi asror-sirdosh bo‘lmaydi,-deydi shoir.

Ey Navoiy, qilma har yor ollida siringni fosh,

Bormudur imkonikim, ul yorg‘a yor o‘lmaq‘ay.

A.Navoiy g‘azalni yakunida o‘ziga murojaat etgan holda , har yor oldida bu sirini fosh etmasligini ta‘kidlar ekan, ul yorga, ya’ni Alloha yor bo‘lmaslikni imkonibor mudur ,-deya ta‘kid bilan yakunlaydi. Yaratganga bo‘lgan muhabbat , unga yor, oshiq bo‘lish, har ko‘ngilda ertami kech ishq jilvasi o‘rin topishini uqtiradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, A.Navoiy o‘z g‘azali orqali insonlarni o‘z “men”ligini yengishga, nafs bilan kurashishga o‘zini chog‘lash, qalbini poklash va bu poklik sabab ruhni ko‘klarga ko‘tarishga chorlaydi. Haqiqiy yorga oshiqlik, unung bilan birlikka erishish va bunda xilvatning , xilvatni zikrlarning beqiyosligi o‘z ifodasini topadi.

Alisher Navoiy g‘azallarida berilgan fikrlarni anglashga harakat qilayotgan o‘quvchining ruhiyati tozarib borayotganini, qalbida nafs , yovuzlik, jaholat bilan kurash borayotganini his qiladi. Insoniylik tuyg‘ulari yuksalib boradi va komillik sari qadam qo‘yadi.

“Navoiyni tushunish uchun Navoiy bilgan va foydalangan bilimlarni ,ya’ni Qur‘on, sunnat, shariat, tariqat, tasavvuf va boshqa ilmlarni o‘rganish kerak bo‘ladi,-deb yozgan edi Husaynxon Yahyo “Navoiyni qachon tushunamiz?” nomli maqolasida. Shundek ekan , buyuk shoir so‘z durlarini fahm etish, fikrlash , anglash va his qilish uchun ilm izlamog‘imiz darkor. Zero, bu ilm ila Navoiyni anglasak, qalbimizga nur, ongimizga shuur, ruhiyatimizga yuksak parvoz olib kelgay.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Alisher Navoiy “**Qaro ko‘zim**” O‘zbek adabiyoti bo‘stoni Toshkent
2. Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot . Toshkent -2004 “Mavarounnahr”
- 3.Najmiddin Komilov. Timsollar timsoli. www.kh-davron.uz sahifasidan olindi
4. Husaynxon Yahyo “Navoiyni qachon tushunamiz?” nomli maqolasi.”Yoshlik” 2013-yil 2-son.



HAKIM NAZIR HIKOYALARIDA BOLALAR TARBIYASIGA OID MASALALAR

*Jumayeva Ra'no Safarboyevna
Surxondaryo viloyati Boysun tumani
6-son umumta'lif maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon: +998912345271*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb vazifasi –yosh avlodning tarbiyasi masalasiga doir fikrlar badiiy so‘z ustasi Hakim Nazir nasriga murojaat qilish orqali ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: ocherk, kechinma, reallik, mushohada, mufarrahlik, abgorlik, faromush, tarbiya ildizi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, iste’dodli adib, atoqli ijodkor Hakim Nazir o‘tkir qalam ustasi. U o‘nlab hikoyalari, qissalar, pyesalar, ocherklar muallifidir.

Yozuvchi badiiy asarlarida-ular xoh hikoya, xoh bolalar uchun qissalar bo‘lsin, barcha-barchasida insonlardagi ma’naviy-axloqiy fazilatlarni ardoqlashga, ulug‘lashga intilgan. Hakim Nazir hikoyalarda turli xarakterdagi insonlarning taqdiri, kechinmalari, o‘y-fikrlari, voqeahodisalar o‘ziga xos sa’natkorona tarzda hayotiy tasvirlangan. Ayniqsa, adibning hayot– mamot masalasi bo‘lmish farzand tarbiyasi ildizining tub asoslari zaminiga qurilgan sababiyatlarni tahlilga tortgan, realikka qorishgan, g‘oyatda ta’sirli hikoyalari kitobxonni chuqur mushohada ummoniga g‘arq qilishi tabiiy. Negaki, hamma zamonalarda ham odam bolasi o‘zidan faqat yetuk surriyodni voyaga yetkazishni, komil farzand oyoqqa qo‘yishni maqsad qilib kelgan. Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich ham bejizga:

“Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda yoshlar haqida e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga davlat siyosatining eng asosiy va ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qarab kelinmoqda. Chunki yoshlar- bizning kelajagimiz”, - deya ta’kidlab o‘tmagan edilar. Barchamizga kun yangligi ravshanki, keljak avlodimizning kelgusida tafakkur dunyosi boyishida, chuqur mulohazalar dengizida erkin suza olishida, har qanday qiyinchilikni sabr-toqat ila yenga olishida adabiyot fanining o‘rnini havodan ham kerakli, suvdan ham zarur.

Hakim Nazirning “Ayb kimda” hikoyasi maktab direktori huzuriga militsiya xodimining tashrif buyurishi bilan boshlanadi. Maktab direktori Hamida Ubaydullayevaning militsiya uzatgan konvertni olgandagi ahvoli, ixcham yelkasining uchishi, ko‘z qorachiqlari kengayishi, peshonasining tirishishi uning hech bir narsaga loqayd qaramasligini isbot etsa, konvertning o‘qigandan keyingi vujudini egallagan g‘ashlik bolalarga dars o‘tish jarayonida ham tarqamagani bu jonkuyar xodimning maktabdagisi har bir o‘quvchi uchun astoydil qayg‘urishi, ularning har birini o‘z farzandidek sevishini isbot etadi. Hikoyani o‘qiyotgan kitobxonda to‘qqizinchi sinf o‘quvchisi Turg‘unning bezoriligi maktab direktoriniki shu qadar qo‘rquiv-u hayajonga soldi, ota-onasi qay ahvolga tusharkin, degan ichki qiziqish paydo bo‘ladi.

Maktab direktori darsdan chiqib oq qaror qilib, sinf rahbarini chaqirishga qaror qilib, sinf rahbari Asror Yunusovich bilan batafsil gaplashib oladi. Direktorning bor pedagoglik mahorati, ishiga sidqidildan yondashishi, ko‘pni ko‘rganligi Asror Yunusovga aytgan quyidagi jumlalarida o‘z isbotini topadi:” –Sizga o‘rgatguligi bormi, tajribali pedagogsiz. Darrov og‘riqni oldini olish kerak edi-da. Pasod boylamasdan. Muni kutmovdim, Asror Yunusovich. Agar turmushning achchiq-chuchugini totmagan yosh bir muallim shunday qilsa boshqa gap edi. Ochig‘i, sovuqqonlik o‘tgan sizdan, ha, beparvolik”. Asror Yunusovichning direktorning xitoblariga kuyunib aytgan so‘zları bu insonning ham o‘qituvchilik kasbiga qalban yondashishini, jisman nogiron bo‘lsa-da pedagoglik ishini nechog‘lik ulug‘ martabalarga ko‘tarishini asarni o‘qish jarayonida sezaga boramiz. Lekin Asror domladan ham talabchan, o‘z ishiga sidqidildan yondashuvchi direktor mahalla oqsoqoli bilan Turg‘unning uyiga kirib boradi. Natijada biz tarbiyaning yemirilish ildizlari bo‘lgan xonadon ahllari bilan ilk daf‘a tanishishga musharrraf bo‘lamiz.

Bejizga ota-bobolarimiz tarbiyaning tamal toshi oiladan boshlanishini aytib o‘tmaganlar. Asarni o‘qib tugatgach, ko‘nglimizni bir savol jizg‘anak qiladi. Direktor va mahalla oqsoqolining kirib borishi bilan o‘zini bir zumda “bezantirgan” ayol beradimi bolaga tarbiyani yoki kunda- kunora “gap” qilib do‘st-yoronlari bilan maishat qilishdan boshqani bilmaydigan, bolasiga ichkilik uchun pul berib, keyin butun aybni hech qanday istiholasiz zavjasiga ag‘daradigan subutsiz, oriyatsiz



erkakdan kutamizmi risoladagi tarbiyani?!

Tarbiya- behad ulkan mas'uliyat. Oldida oppoq qog'oz turgan har bir inson unga istaganini yozadi, kimdir qora chiziqlar bilan qog'ozni bulg'aydi, yana kimdir nafis naqshlar va beg'ubor so'zlar ila qog'ozga rozlarini yozadi. Tarbiya ham shunday, oppoq qog'oz shaklida in'om etilgan mittigina go'dak qalbiga biz kattalar istagan urug'imizni ekamiz va ba'zan "faqat ekkanimizni o'rishimiz" xotirimizdan faromush bo'ladi. Bola tarbiyasida ijtimoiy hayotning o'rni nechog'lik katta bo'lsa, oila tarbiyasi birinchi tarozi pallasining posangisini bosib ketishini hech kimsa e'tiroz eta olmaydi. Hikoyadagi maktab direktori Hamida opa bolalar uchun nechog'lik g'amxo'r, jonkuyar, fidoyi bo'lmasin, Polvon kabi otalar, uning rafiqasi yanglig' onalar bor ekan, biz ertanggi kunimizning nurafshonlikka tomon yo'g'rlishidan umid qilmasak ham bo'laveradi. Hakim Nazir shu kichkinagina hikoyasida bizga shu oddiyagina va lekin umrlarga daxldor haqiqatni eslatishga musharraf bo'lgan.

Farzand tarbiyasida xato qilish o'sib borayotgan daraxtni ildizi ila qo'porish bilan teng. Demak, tarbiya masalasi- bizning umr tartibimizdagi eng asosiy, eng dolzarb, eng zaruriy masalamizga aylanmog'i darkor. Farzand atalmish bog'dan shirin mevalar iste'mol qilish har bir bog'bonning shijoatiga, mehnatiga bog'liq. Yaxshi tarbiya bizning ertanggi mufarrah kunimizning butun umrlik garovidir.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev."Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. III bob (Sh.Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqidan parcha).
2. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmash kuch.-Toshkent:Ma'naviyat,2008.
3. Hakim Nazir. Nomi chiqmagan xotin.Toshkent: O'zbekiston, 2018.



NAVOIY IJODIGA NAZAR

*Qilichova Go'zal Chorshanbiyevna
Toshkent viloyati Qibray tumani
17-son maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon: +998998248871*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ijodi keng yoritilgan. Bu buyuk siymoning axloqiy, ahillikka chorlovchi asarlari va lirikasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Janr, nazm, ruboiy, ahillik, tahlil, hikmatli so'zlar.

Har bir xalq adabiyotini yuksak cho'qqilarga ko'taradigan daho ijodkorlar bo'ladi. Ularning ijodiyoti qancha vaqt, zamon o'tmasin, hech qachon eskirmaydi. Millatni ruhlantiradigan g'oyaviy –badiiy qimmatini aslo boy bermaydi. Alisher Navoiy xuddi shunday buyuk ijodkorlardan biri hisoblanadi. Nazm gulshanidagi bu buyuk shaxs yaratgan bu buyuk shaxslar yaratgan duru-u javohirlar asrlar osha insoniyatning qalbidan joy olgan. Alisher Navoiyning ma'naviy xazinasidan bahra olgan har qanday ko'ngil esa ilm-u ma'rifatning qudratidan quvvat topib, butunlik tomon, yuksaklik, kamolot sari olg'a intilishini bilamiz. O'zbek adabiy tili asoschisi alisher Navoiyni adabiyotimizning zalvorli ustuni ekanligini yozgan barcha ash'orlaridan ham ilg'ab olamiz. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, shan-u sharafini dunyoga tarannum qilgan beqiyos so'z sa'natkoridir. Alisher Navoiy taniqli adabiyotshunos olim sifatida ham bir qancha durdonalar yaratdi. U 1942-yilda o'zbek tilida she'riyat nazariyasi, aruz vazni qoidalari haqida "Mezon ul-avzon" ilmiy qo'llanmasini, 1485-yilda muammo yozish qoidalari haqida "Mufradot" maxsus asarini yozdi. 1490-1492-yillarda "Majolis un-nafois" tazkirasini yozdi. Navoiy o'zbek tilida yaratgan she'rlarini yig'ib, 1491-yilda "Muhokamat ul-lug'atayn asarini yozdi. Unda turkiy tillarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi o'rni, uning grammatic mukammalligi, so'zlarga boyligi fors tili qoidalari va hodisalariga qiyoslangan holda chuqur va aniq misollar orqali tahlil etilgan. Turkiy tilning boshqa tillardan kam joyi yo'qligini ko'rsatib bergan. Dunyo adabiyotida eng ko'p g'azal yaratgan liriklardan biri hisoblanadi. Ma'lumotlarga qaraganda jahonning ko'zga ko'ringan shoir va yozuvchilari tomonidan ishlatalgan so'zlar miqdori jihatidan ham Alisher Navoiy dunyo adabiyotida eng yuqori pog'onada turib, 26035 ta so'zdan foydalangan. Uning g'azal va ruboilyarida vatanga muhabbat, yor-u do'stga do'stona munosabatda bo'lish kerakligini uqtiradi.

Kimki bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay,

Oncha borkim, Ka'ba vayron bo'lsa obod aylagay.

Kimki ko'ngli buzulgan bir mazlumning ko'nglini olsa, buning savobi vayron qilingan Ka'bani tuzatgan bilan tengdir, deya aytgan. Bobomizning quyidagi satrlari Milliy bog'dagi Navoiy yodgorlik gumbaziga yozilgan:

Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig', yor o'ling bir biringizgakim, erur yorlig' ish.

Ushbu hikmati barcha xalqlar, millat va elatlarni hamjihatlikka, do'stlikka da'vat etadi. Navoiy ijodida xalq she'riyatining 16 turi mujassam. G'azallar, qit'alar, ruboilyar, fardlar, tuyuqlar, muxammaslar, musaddaslar, muammolar, masnaviyalar, chistonlar, tarjebandlar, mustazodlar, tarkibbandlar, qasidalar, soqiyonomalar, muammolar yozgan. Alisher Navoiy mashhur ruboynafis shoirdir. Uning quyidagi ruboysiда hayotga va insonga bo'lgan muhabbatni mohirona tasvirlangan.

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,

Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

Har neniki sevmak ondin ortiq bo'lmas,

Ondin seni ko'p sevarmen ey umri aziz.

Navoiyning quyidagi qit'asida olamdan g'amsiz o'tay desang ilm-u hunar o'rgan. Dunyodan kamolotga yetishmay o'tish hammomdan toza bo'lmay chiqishning xuddi o'zi deydi:

Kamol et kasbkim, olam uyidin

Senga farz o'limg'ay g'amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o'tmak biaynih

Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Navoiy ijodi bebaho hikmatlar xazinasidir. Uning hikmatlari xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan.



Odamি ersang, demagil odami
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Ko‘ngil maxzanning qulfi til va ul maxzannin kalidin so‘z bil.
Hunarni asrabon netkumdir oxir, olib tufroqqamu ketkumdir oxir?
Yolg‘onchi kishi emas, Yolg‘on aytmoq mardlar ishi ermas.

Navoiy she’riyati mavzularining boyligi, kengligi, xalqchilligi, nihoyatda go‘zal va nafisligi bilan barchamizni o‘ziga maftun etadi. Barcha insonlarni she’riyat olamiga oshno etadi. Buyuk shoirimiz Abdulla Oripov Alisher Navoiy haqida ushbu satrlarni bitgan:

Jahonki muqaddas neni ko‘ribdi
Bariga onasan, ey qodir hayot.
Besh yuz yil nardan boqib turibdi.

Foydalaniman adabiyotlar.

1. Til va adabiyot ta’limi jurnali. 2013-yil 1-sон. 25-bet.
2. Adabiyot darslik 8-sinf. 2014.
3. Navoiy asarlari lug‘ati. A. Navoiy asarlarining o‘n besh tomligiga ilova.



BADIY ADABIYOT VOSITASIDA O'QUVCHILARDA INSONIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH

*Qobilova Yorqinoy Hosilovna
Namangan shahar 37-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon: +998913636910*

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy adabiyotning inson hayotidagi muhim o'rni va ahamiyati. Adabiyot fanining yoshlari tarbiyasiga bevosita tasiri haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Badiiy adabiyot, Abdulla Qahhor hikoyalari, Chingiz Aytmatov «Qiyomat» romani, oila, jamiyat yuksalishi.

*Adabiyot atomdan kuchli, faqat uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak!
Abdulla Qahhor*

Ko'kka bo'y cho'zayotgan daraxt ildizdan ozuqa oladi. Ildizi mustahkam bo'lsa osmon-u falakka qarab intiladi. Tabiatga o'zgacha fusun bag'ishlaydi. Meva beradi. Yosh avlod ham nihol kabitdir. Uning qanchalar to'g'ri unib o'sishi, kamolga yetishida ota-onas, maktab, mahalla butun bir jamiyat o'rni beqiyos. Bu borada O'zbekistonda juda keng qamrovli, natijasi ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilgan va davom etmoqda. Ma'lumot uchun 5 tashabbus fikri 2019-yilning 19-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan bildirilgan. Yoshlarimizga yanada qulayliklar yaratgan ushbu loyiha katta qiziqish bilan kutib olindi. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha har bir viloyat, tuman, shaharda tizimli ishlar olib borildi. To'rtinchchi tashabbus yoshlari ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlik keng targ'ib qilish bo'yicha edi. «Yosh kitobxon» tanlovi tashkil etildi. Kitobxonlik tanlovlari qiziqadigan yoshlari safi sezilarli kengaydi. Kitob karvonlari kirib keldi. Badiiy adabiyotlar qaytadan nashr qilindi.

Internet olami rivojlangan hozirgi zamonda badiiy kitob mutolaasiga vaqt ajratish ko'p yoshlarga malol kelayotganday edi. Lekin sovrinli tanlov o'quvchilar sonini ortishiga sabab bo'ldi. Aslida badiiy adabiyot yosh tanlamaydi, til, din, millat tanlamaydi. O'zbek adabiyotimi, Jahon adabiyotimi qiziqarli asar o'quvchi qalbiga kirib boradi. O'sha millat, xalqi, turmush tarzi haqida tassavvur uyg'otadi.

Maktab darsligidan o'quvchilar shoir, yozuvchilarini taniy boshlaydi. Biroq darslikda yozuvchini barcha asarini berishni iloji yo'q. Bir yoki ikkita hikoyasi yoki romanidan parcha beriladi. Qolganini esa kutubxonadan olib o'qish tavsiya qilinadi. Afsuski, hamma o'quvchi ham topib o'qiy olmaydi. Adabiyot o'qituvchisidan yuksak mahorat talab qiluvchi jihat, o'quvchisini badiiy adabiyotga qiziqtira olishidir.

To'rtinchchi tashabbus ham aynan shu mavzuda qo'l keldi.

Darsliklarda Abdulla Qahhorning «Bemor», «Dahshat», «O'g'ri» hikoyalari berilgan. Bu hikoyalari o'quvchilarga tanish. Ammo yozuvchining «Asror bobo» «Ming bir jon», «Ayajonlarim» kabi yana ko'plab hikoyalari bor. «Sinchalak» qissasi ham aynan yosh qizning katta jasoratlari haqida yozilgan asar.

«Asror bobo» hikoyasida ham o'zbek xalqining odamiyligi, farzand dog'iday og'ir dardga bardoshliligi Asror bobo va kampiri obrazida ochib berilgan. Qora xatni chol kampiridan, kampir cholidan yashiradi. Bir birini asraydi, avaylaydi. Shu birgina hikoya odamni o'ylantiradi. Yozuvchining mahorati tufayli o'quvchiga tasir ko'rsatmay qolmaydi. Hozirgi oddiy narsadan ayb topib ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar ko'paygan bir paytda o'tmishda yashagan bobuvilarimiz hayotini o'zimizga o'rnat qilsak arziydi. Ularni sabrini, vafodorligini o'qib, beihtiyor ko'zingizga yosh keladi. Oila muqaddas dargoh ekanligiga yana bir bor amin bo'lasiz.

Ota-onas uchun farzand aziz ne'mat. Farzandlarimizga hamisha eng yaxshisini ilinamiz. Ularni baxtini, kamolini ko'rishlikni niyat qilamiz. Ming afsuslar bo'lsinki, shu ne'matni pulga sotayotgan onalar ko'paymoqda. Shunday ayollarni ona deyish mumkinmi? Jamiyatimizga isnod emasmi. Har bir o'zbek ayolini o'g'rig'i bunday onalar.

Atoqli adib Chingiz Aytmatovning «Qiyomat» romanida Akbara va Toshchaynar nomli bo'rilar hayoti berilgan. Bo'rilar bolalarini shunday himoya qiladi-ki hayron qolasiz. Asar haqida gap ko'p. Aytmoqchimanki, biz insonmiz. Qizlarimizni ilm olishiga bugungi kunda hech



qanday to'siq yo'q. Ularga har tomonlama imkoniyatlar bor. Besh tashabbus bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlardan maqsad ham ularni ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashdir. Shunda balki o'z jigargo shasini pullaydigan ayollar chiqmas. Ahir , bir burda nonga zor bo'lgan qahatchilik paytida ham o'zbek ayollarini bunday jirkanch ish qilmaganlar. Urush davrida boshqa millat bolasini bolam deb bag'riga olgan ham o'zbek ayollarini emasmi. Bu holat, bolasini pullash o'zbek ayollarini ham g'azabini keltirmoqda. Albatta , kelajakda bu kabi holatlarni oldini olishimiz kerak. Hozirda ham butun jahon o'rnak olsa arziyadigan onaxonlarimiz, ayollarimiz, qizlarimiz bor. Ular bizning yorug' yuzimiz. Shunday ekan shukronalik tuyg'usini unutmaylik, yoshlarga o'rgataylik. Bu borada badiiy adabiyot katta mакtab bo'la oladi. Bitta hikoya orqali inson kechinmalari o'zgarib ketadi. Qissa, roman orqali dunyo qarashi yuksaladi. Bunday insondan yomonlik chiqmaydi. Kutubxonalar kitoblarga to'ldi. Kerakli badiiy kitobni internet orqali olib ham o'qish mumkin. Demak, maqsadimiz bir o'zbek degan nomni oqlash va xalqimizga munosib o'g'il-qizlarni tarbiyalab voyaga yetkazish.

Buyuk adibimiz Abdulla Qahhor bejizga aytmagan: «Adabiyot atomdan kuchli, faqat uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak!» -deb. Shunday ekan, so'z san'ati bo'lgan adabiyotimiz yoshlari tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. O'z kelajagini qurishda mustahkam poydevor vazifasini o'taydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdulla Qahhor. «Anor» hikoyalar to'plami Yangi nashr. Toshkent. 2019.
2. Chingiz Aytmatov. «Qiyomat» romani Toshkent. 1986.



BUYUK JASORAT SOHIBI

*Qosimova Il'mira Bagandikovna
Xorazm viloyati Tuproqqa'l'a tumani
19-maktabning tarix fani o'qituvchisi
Telefon: +998995501526
xudargansodiqov@gmail.com*
*Qosimova Oltinoy Bagandikovna
Xorazm viloyati Hazorasp tumani
44-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon: +998996792686*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberdining yurt tinchligi, vatan himoyasi yo‘lida olib borgan kurashlarini, mardligi, buyuk jasoratini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga bobomiz jasorati biz kelajak avlod qalbida vatanparvarlik, mardlik, sodiqlik, tuyg‘ularining yanada rivojlanishida mustahkam narvon vazifasini o‘taganligi haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Jaloliddin Manguberdi, Alouddin Muhammad, Takinaxotun, Chingizzon, Parvon,

Bor-yo‘g‘i o‘ttiz ikki yilgina umr ko‘rgan bu bahodir zotning mo‘tabar nomi o‘z zamonasida dunyo boylab qanchalar dovrugqan bo‘lsa, oradan ko‘p asrlar o‘tgach hammardlik va ozodlik uchun kurash, el-yurtga fidoyilik timsoli sifatida yashab kelmoqda. Uning qahramonligi kelajak avlodlarga, birinchi galda siz bilan bizga tarixiy xotira oldida boshimizni mag‘rur tutib yashamog‘imiz uchun to‘la huquq beradi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov

Jaloliddin Manguberdi (to‘liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad) 1198-1231- yillarda yashab o‘tgan. Xorazmshohlar davlatining so‘nggi huhumdori sifatida 1220-1231-yillarda hokimiyatni boshqargan. Jaloliddin burnida xoli (mank) bo‘lgani uchun Mankburni nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o‘zgarib “Manguberdi” nomi bilan atala boshlangan. Otasi Sulton Muhammad (Alovuddin Muhammad, Xorazmshoh) ning qo‘l ostidagi davlatda qo‘sh hokimiyatchilik vujudga kelgan edi. Ya’ni Xorazmshohning voliydasi Turkon xotun mamlakat boshqaruvida katta siyosiy nufuzga ega. Turkon xotun mamlakat boshqaruvida o‘z urug‘i hisoblangan qipchoq oqsuyaklariga tayanardi. Davlat boshqaruvidagi yuqori lavozimlar qipchoqlar qolida edi. Ana shunday siyosiy vaziyat og‘irlashgan davrda Jaloliddin Manguberdini otasi voris qilishga harakat qiladi lekin hukmdorning bu harahati kuch ko‘zlagan natijani bermaydi. Chunki Jaloliddinning onasi Oychechak turkon xotun urug‘idan emasdi. Manguberdining kuch g‘ayratga to‘lgan davrida mamlakat siyosiy jihatdan tang ahvolga kelib qoldi. Bir tomondan Turkon xotun, ikkinchi tomondan Chingizzon bosqini bunga sabab bo‘ldi. Mo‘g‘ullar bosqini davrida ham Jaloliddin nafaqat oilasi, balki butun mamlakat tinchligi, ozodligi uchun mardonavor kurash olib bordi. 1221-yil 25-noyabrda Sulton Jaloliddin vaziyatning g‘oyat og‘ir va mushkulligini hisobga olib, rafiqasi, onasi va farzandlarining dushman qo‘liga tushishini istamay ularni Sind daryosiga cho‘ktiradi. Chunki o‘sha kuni mog‘ullar Jaloliddinning qo‘lga tushirilgan 7 yoshli o‘g‘lining yuragini tiriklayin sug‘irib ilgan edilar. Dushman qo‘liga asir tushishni istamagan Xorazmshoh ot bilan daryoga sakrab narigi tomonga o‘tib oladi. Buni ko‘rgan mo‘g‘ul hukmdori “Otadan dunyoda hali bunday o‘g‘il tug‘ilmagan. U sahroda sher kabi g‘olib jangchi, daryoda esa nahang (aqula) kabi botir. Qanday qilsinki, hali hech kim taqdir bilan hech bir majaroda teng kelolmagan, lekin u mardlikning dodini berdi. Qazoyi qadar qarshisida qudrat qo‘lini ochdi” degan ekan. Jaloliddin Ozarbayjonda markazi Tabriz bo‘lgan davlatga asos soladi. Jaloliddin hayotligi davrida Sharqiy Yevropa va O‘rta Sharqqa ham mo‘gullarni yaqinlashtirmaydi. Jaloliddin jangu jadallardan keyin kurdlar qo‘liga asir tushib 1231-yilda fojiali halok bo‘ladi. Shihobiddin ibn Ahmad an-Nasaviy “Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni” (“Sulton Jaloliddin Manguberdining tarjimayi holi”) nomli asarini yozadi. Muallif asar voqealarining aksariyatini o‘z ko‘zi bilan ko‘rganligini, haqqoniy, xolisona yoritganini takidlaydi. Bundan tashqari, buyuk sarkardaga bag‘ishlab Ibn al-Asir, Alouddin Atomalik Juvayniy, Mirxon, Mirzo Ulug‘bek ham o‘z asarlarida ma’lumotlar yozib qoldirgan. 1944-yilda Maqsud Shayxzoda “Jaloliddin Manguberdi ‘dramasini yozdi. Mustaqillika erishganimizdan keyin buyuk bobomizning mo‘g‘ul



bosqinchilarga qarshi kurashda ko'rsatgan mislsiz jasorati, Vatanga va o'z xalqiga sadoqat va cheksiz muhabbatini qadrlash, uning porloq ruhini abadiylashtrish maqsadida "Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligini nishonlash haqida" 1998-yilda qaror qabul qilindi. Qarorga ko'ra azm Xorazmda Jaloliddin Manguberdi haykali o'matildi. Bu haykal har bir yosh avlod qalbida ozodlik, mehr-muhabbat, tinchlik, shukronalik tuyg'ularining rivojlanishida, kamol topishida, milliy merosimiz, qadriyatlarimizni asrab avaylashda o'ziga xos maktab vazifasini o'taydi. Shu bilan birga yirik ko'cha, jamoa korxonasi va xiyobonga uning nomi qo'yildi. 1999-yili 800 yillik yubiley tantanasida birinchi prezidentimiz quyidagilarni takidlab o'tgan edilar. "Jaloliddin Manguberining hayot yo'lini tahlil qiladigan, o'sha tarixiy voqealarga bugungi kun ko'zi bilan qarab baho beradigan bo'lsak, ular bizni mana shunday tabiiy va ibratli saboq xulosalar chiqarishga undaydi.

Hayot bor ekan, davlat, el-yurt bor ekan, shu erkin, osuda hayotni ko'rolmaydigan, zo'ravonlik bilan o'z hukmronligini o'matishga, xalq tinchini buzishga urinadigan yovuz kuchlar hamisha bo'ladi. Bu-hayotning achchiq haqiqati. Uni hech kim inkor etolmaydi. Buni faqat o'z tariximiz va hayotimizda, balki boshqa xalqlar tarixi va hayoti misolida ham ko'rish mumkin". Shunday ekan biz yoshlar ajdodlarga, bu jasorat sohiblariga munosib avlod bo'lib turli xil yot g'oyalardan ogoh bo'lib, yurt tinchligi, xalq farovonligi yo'lida bir tan-u bir jon bo'lib harakat qilaylik, zero, biz buyuklar avlodimiz.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yhati:

1. Islom Abdug'aniyevich Karimov, Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi.(1995-yil 5-noyabr).
2. Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov " Vatan tarixi".
- 3.A.Muhammadjonov "O'zbekiston tarixi".



SO'ZDAN SO'ZNING FARQI BOR

*Rahmatova Husnida Ochilovna
Xalq ta'limi a'lochisi. Qashqadaryo viloyati
Chiroqchi tumani 27-umumiy o'rta ta'lif
mektebi Oliy toifali ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi Telefon: +998914681962*

Annotatsiya: Maqola matnimda yosh, navnihol o'quvchi yoshlarning pok, hali tiniq qalblarini iyomon nurlari bilan dunyoda eng mukammal inson deya tan olingen Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam timsolida, chin musulmonlik ila yo'g'rilgan muborak so'zlar yordamida yoritish maqsad qilingan. O'quvchilarimizning kelgusida o'zlar tanlagan kasblarining, hunarlarining bilimdoni bo'lish bilan birga o'z ishlariga iyomon bilan, vijdonan, mas'uliyat ila yondashsalar el-yurt ravnajiga hissa qo'shishlari, ota-onalari-yu ustozlari, asosiysi, xalqimiz oldida yuzlari doimo yorug' bo'lishi ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: sehrli so'zlar ta'siri, iyomon nuri, kelajak avlodning xushsurat, xushxulq, xushzabon, ya'ni zohiriy va botiniy go'zal bo'lishlari.

Bismillahir rohmanir rohimiy. Bandalariga zikr, duo, istig'for va tavba eshigini ohib qo'ygan Allohg'a Uning maqomiga yarasha hamdu sanolar bo'lsin. Ummatlariga zikr, duo, istig'for va tavbada namuna bo'lgan sayyidimiz va Rasulimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamga Qiyomat kuniga qadar salavotu salomlar bo'lsin.

Mir Alisher Navoiyning aksariyat asarlari, xususan, "Xamsa"dagi bir necha boblar so'z ta'rifiga bag'ishlangan. Ularni mutolaa qilar ekanmiz, so'zning qudrati, ta'sir kuchi, jilvasiga alohida urg'u berilganligiga guvoh bo'lamiz.

Men ham so'zning kuchini muallim sifatida har kuni har soatda, ya'ni har bir darsimda his qilsam, oddiy inson sifatida jamiyatda, ona sifatida oilada ham yaxshigina ta'sirini sezaman. Hozir esa o'qituvchi sifatida dunyoning eng sirli mo'jizasi hisoblangan so'zning ta'sirini o'z tajribalarim asosida misollar keltirmoqchiman.

Ollohg'a ming shukrki, bir necha yillardan buyon o'zim sevib tanlagan faxrli va sharafli kasb bilan shug'ullanib kelaman. Bu kasbni tanlashimga onajonim(Oolloh rahmat qilsin,78 yoshlarida olamdan o'tdilar) To'rayeva Saida, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, sababchi va namuna bo'lganlar. So'zning ta'sirli kuchini u kishida amalda ko'rganman. Yillar davomida esa Hadislар to'plamidan va ulug' shoir A.Navoiy asarlaridan, mashhur ijodkor yozuvchi, shoir va faylasuflarning quyma fikrlaridan o'qib, teranroq his qilganman.

O'qituvchilik kasbini mashaqqatli va sharafli kasb ekanligi barchaga ma'lum. Bu kasbning haqiqiy egalarining qaddini va qadrini yanada balandroq tutishiga keyingi yillarda turli ko'lamli islohotlar bilan ish ko'rayotgan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev va O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri Sh.Sermatovga barcha ustozlar qatori men ham chin dildan minnatdorchilik bildiraman. O'qituvchilikning sharafli kasbligini bejizga bir necha marotaba ta'kidlamayapman. Haqiqiy sharaf egasi bo'lishimiz uchun o'z fanimizning bilimdoni, izlanuvchan, mohir pedagog bo'lish bilan birga o'quvchilar bilan bo'lgan muomalada, murosada Hadislardan (albatta, avvalo, o'qituvchining o'zi o'qib, o'rganib to'g'ri mushohada qilishi lozim) namunalar keltirib dalillasak, ta'siri yanada kuchayadi.Ma'lumki, darslarda ba'zan muammoli vaziyatlar bo'lib turadi. Qaysidir o'quvchi yolg'on gapirishga urinsa, qaysidir o'quvchi kibr-u havoga berilgan bo'ladi, qaysidir o'quvchi esa bir necha bor kechikib keladi. Ana shunday kezlarda har doimgi ba'zan jahl aralash, ba'zan pand-nasihat ko'rinishidagi so'roq-qistovlardan ko'ra Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning hayotlaridan va muborak Hadislardan qisqa, lo'nda namunalar keltirganimda eng bezbet, eng kibrli yoki loqayd o'quvchi ham ko'zlarini hayrat-la katta ochib, keyin yerga qaraganini, yuzlari qizarganini kuzatganman. Yuqori sinf o'quvchilarim yozgan insholarida: "...o'qituvchimizning Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam hayotlarida qilgan amallari, aytgan so'zlaridan namunalar keltirganlaridan keyin shu paytgacha qilgan noto'g'ri ishlarimdan, ota-onamga, ustozlarimga ba'zan qilgan qo'pol muomaladan, aytgan yolg'on so'zlaridan uyalib ketaman. Endi hech qachon bunday qilmaslikka harakat qilaman...", - deya fikrlashadi. Maktabimizdagi o'quvchilar, ayniqsa, sinf rahbarlari: "Husnida opa, siz darsga kirgan sinflarda aksariyat o'quvchilarning dunyoqarashlari, o'zini tutishlari,



odob-axloqlari, bilim olishga ishtiyoyqlari ham ko‘ngildagidek, boshqa sinflarga nisbatan ajralib turadi”, -deyishadi. Bularga sabab esa yuqorida yozganimdek, so‘zning sehrli kuchida. Shu sehrli kuchning haqiqiy egasi Ollohning buyurgan amallariga imkon qadar rioya etishda, deb bilaman.

Men yana shuni aytib o‘tmoqchimanki, Hadislardan namunalarni barcha fan o‘qituvchilari o‘z fanlari doirasida qo‘llasalar, albatta, ijobiy tomonini yanada his qiladilar. Masalan, biologlar insonning barcha jonzotlarga munosabati, kimyo, geografiya fanlarida tabiatga munosabat, matematika fanida esa hisob-kitobda birovning haqiga xiyonat qilmaslik qanday bo‘lishi haqida Hadis namunalaridan foydalansalar nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi. Zero, yurtimizdan turli sohada yetishib chiqqan ulug‘ ajdodlarimizning ustozlari ham Quronni Karim ilmini ham, Hadis ilmini ham juda yaxshi bilishgan va shogirdlariga dunyoviy bilim bilan hamnafas singdirishgan. Shogirdlari uchun chin dildan duolar qilishgan.

Biz ham ularning tajribalarini qo‘llasak, Hadis o‘gitlariga avvalo o‘zimiz nafaqat so‘zimizda, ishimizda, ya’ni haqiqiy sharaf egasi bo‘lishimizda rioxalot qilishimizda etsak, inshaolloh yurtimizdan doimo ulug‘ ajdodlarimizning davomchilari, elimiz, xalqimiz shon-shavkati uchun ildam harakat qiladigan komil insonlar yetishib chiqishiga yanada hissa qo‘shamiz. Xalqimizning, Prezidentimizning, O‘zbekiston Xalq ta’limi vaziri Sh.Shermatovning ishonchlarini oqlashga barchamizga Yaratganning o‘zi madadkor bo‘lishini tilab qolaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.Navoiy “Hayrat ul-abror” (nasriy bayoni) XIV .
2. Buxoriy Hadislari.
3. Bismillahir rohmanir rohiym.
4. Zulmkorlik haqida kitob.
5. Topilmalar haqida kitob.
6. Sahih Buxoriy 1-jild.



G‘AFUR G‘ULOM LIRIKASI BADIYIYATI

Rahmonova Saida Ismoilovna
Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani
35-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ijodkorning ijodi uning asarlari badiiyati bilan, mavzu va g‘oyasining xalqchilligi bilan baholanadi. So‘z san’atkorি G‘afur G‘ulom ijodini barcha birdek sevib mutolaa qiladi. Ushbu maqolada G‘afur G‘ulom she’riyati badiiy tahlillaridan namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: She’r, barmoq vazn, turoq, sarbast, oq she’r, takror, tazod, qofiya, sifatlash sinekdoxa, savol-javob, mubolag‘a

G‘afur G‘ulom ijodiy merosini o‘rganar ekanmiz ijodkorning ham nasrda, ham nazmda birdek samarali qalam tebratganligiga guvoh bo‘lamiz. Adib o‘zbek adabiyotini hikoyalar, poemalar, balladalar, qissalar va she’rlar bilan boyitdi. She’rlari: “Bilib qo‘yki seni Vatan kutadi”, “Surnay”, “Anor”, “Sog‘inish”, “Vaqt”, “Bog”, “Sen yetim emassan”, “Chin arafa”, “Turksib yo‘llarida”...

G‘afur G‘ulom, asosan, barmoq vaznida ijod etgan. Quyida she’rlaridan namunalar tahlil qilamiz:

“Sog‘inish” Zo‘r karvon yo‘lida / yetim bo‘tadek, Intizor ko‘zlarda / halqa-halqa yosh. Eng kichik zarradan / Yupitergacha Q‘zing murabbiysan / habar ber, Quyosh! “Bilib qo‘yki, séni Vatan kutadi” Sen bu kun sinfda shod yurak bilan, Sinov navbatini kutib turasan. A’lo mamlakatning a’lo farzandi,	Turoqlanishi— 6+5=11 Turkumlanishi— o‘n birlik turkumda Qofiyalanishi— a-b—d-b 19 baytdan iborat.
	Bandi— 6 banddan iborat Turoqlanishi— 5+5=10; 6+5=11; Turkumlanishi— 10-11 lik turkumda Qofiyalanishi— a-a—b-b; v-v—b-b;

“Sen yetim emassan” badiiy jihatlari:

Cho ‘chima jigarim,

O‘z uyingdasan

Bu yerda

na g‘urbat

na ofat,

Baroqsoch ma’lun

Gitler oqpadar

Toleying-quyosh.

}

Sarbast—(fors, tojikcha “erkin”)
janr bunda vazn, qofiya, band
qurilishida ancha erkinlik,
qadimiylar qoidalardan chetga
chiqish yuz beradi, so‘zlarni
kuchaytirish maqsadida zinapoya
tartibida joylashtiriladi

Sifatlash:



Bir qo‘ng‘iz mo‘ylovli,
Baroqsoch ma’lun,
Jigarrang bir mundir
Istagi uchun,
Nahotki yerimiz
Chappa aylanib
Nahotki daryolar
Oqsa teskari,

Sinekdoxa:

“qo‘ng‘iz mo‘ylovli”, “baroq soch”, “jigarrang mundir”- portretik belgilar butun bir ijtimoiy illat-fashizm

“yerimiz”, “daryolar”-tabiiy unsurlari orqali qudratli mamlakatimizni nazarda tutyapti, bo‘lak orqali butunni, qism orqali butunni ifodalamoqda.

“Xalq otlandi”

Yurganda yer titrar, o‘kirsa osmon
Bu safda arslonlar keradi umrov

Mubolag‘a-bo‘rttirish
san’ati

“Umid ko‘klami”

Olcha shaftolining burtaklarida
Ochilgan gul izlab yurar arilar
Ne-ne yaxshilik bor tilaklarida
Dalada kuymanar **yoshlar, qarilar**

Tazod (qarshilantirish)

“Kuzatish”

--Dada, --deydi. --Gitler qachon o‘ladi?
Men deymanki:--Eng katta bayram kunida.
--Bayram o‘zi qachon? --deydi, so‘raydi.
--Bayram fashizmning o‘lgan kuni-da!

Savol-javob

“Vaqt”

Quyosh-ku falakda kezib yuribdi,
Umrimiz boqiyidir, umrimiz boqiy

Takror



Sevimli ijodkor G‘afur G‘ulom yodi hamisha yodimizda! Shoир she’rlari badiiyati tahsinga loyiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘afur G‘ulom “Tanlangan asarlar 1 том” Т-1994
2. Tanlangan asarlar 2 том Т-1994
3. A.Hojiahmedov She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. Т-1998



ABDULLA QODIRIYNING “O’TKAN KUNLAR” ROMANINI O’RGANISHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR

Salomova Gulruh

*Qashqadaryo viloyati Kasbi tumaniga qarashli
21-maktabning ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi*

Annotatsiya: Maktabda Abdulla Qodiriyning hikoya va romanlario‘rganiladi. Adibning “O’tgan kunlar” romani 9-sinfda o‘rganiladi. Maqolada yosh xususiyatidan kelib chiqqan holda badiiy tahlil qoidalari asosida asarni o‘qitish va o‘quvchilar ongiga singdirish uchun metodik tavsiyalarimizni o‘rtoqlashmoqchimiz

Kalit so‘zlar: obraz, adabiy tahlil, badiiy to‘qima, prototip, metod, tushunchalar tahlili, zig-zag, blits so‘rov

“O’tkan kunlar” romanini o’rganishdan avval kirish mashg‘uloti tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday kirish mashg‘ulotida o‘quv dasturida belgilangan vazifalar qisman hal etiladi: – Abdulla Qodiri o‘zbek romanchiligining asoschisi ekanligi; –o‘zbek nasrida realistik metodning qaror topishida Abdulla Qodiriyning xizmatlari; –XX asr millat ma’naviy hayotida “O’tkan kunlar” romanining o‘rni; Demak, romanning ijodiy tarixi va taqdiri kabi masalalar yoritilayotganda, o‘qituvchi adabiyotshunos olimlardan O.Sharafiddinov, U.Normatov, N. Karimovning “O’tkan kunlar” haqidagi risola va maqolalaridan ayrim ko‘chirmalarni o‘qib bersa, dars yanada mazmunli o‘tadi. Shuningdek, Abdulla Qodiriyning o‘g‘li Habibullo Qodiriyning “Otam haqida”, shoir Shukrulloninng “Kafansiz ko‘milganlar” tarixiy hujjatli asarlaridan ham qiziqarli ma’lumotlarni keltirib o‘tish foydalidir.

Romanda turli ijtimoiy guruh vakillarining obrazlari mavjud. Hech kimga sir emaski, obraz yaratish murakkab jarayondir. Har bir obraz tarixiy, hayotiy voqeа va badiiy to‘qima faktlarning tajassumidir. Otabek, Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor, Ziyo shohichi, Homidlar–davlamand va savdogarlar muhitni vakillari; Azizbek, Musulmonqul, Xudoyorxon, O’tabboy qushbegilar–hukmdor sinf vakillari bo‘lib, adib bu obrazlarni yaratar ekan, real protiplarga va tarixiy xronikal materialga tayangan; Usta Olim, Hasanali –fuqarolar sinfigan bo‘lishsa, xilma–xil xarakterdagи xotin–qizlar obrazi: Kumush, Oftob oyim, Xushro‘y, O‘zbek oyim timsolini yoritish yozuvchidan ancha mahorat talab qilgan va shuni e’tirof etmoq joizki, buni adib uddasidan chiqqan. Bu haqda: “Men,— deydi Izzat Sulton— Qodiriyan: “O’tkan kunlar romaningiz voqeiy asarmi?” deb so‘radim. “Yo‘q,—dedilar u kishi,—romandagi besh–o‘n foiz, ayrim tarixiy voqealar, shaxslargina voqeiy. Qolganlari yozuvchining mahorati. Endi, bevosita “O’tkan kunlar” mavzusini o‘qitishda metodik tavsiyalar berimoqciman:

“Birgalikda o‘qiymiz” texnikasidan foydalanib, yozuvchining “O’tkan kunlar” romani tahliliga kirashamiz.

“O’tkan kunlar” romanida ro‘y bergen chigal hodisalar tarixi qanday?

Yozuvchining obraz yaratish mahoratini Kumush va Jannat xola obrazlari misolida qiyoslang.

Kumush portreti aks etgan lavhani o‘qing va badiiy tasvir vositalarini toping.

Portret tasvirini yaratishda Qodiri qahramon yuzini, kiyimlarini qanday ranglardan foydalanib tasvirlagan?

Otabek ota-onasi rizoligi uchun bosh egib to‘g‘ri qildimi? Uning o‘rnida siz nima qilgan bo‘lardingiz?

BLITST O‘YINI O‘quvchi uchun mo‘ljallangan blist o‘yini har biri alohida–alohida o‘quvchilarga tarqatiladi.

1–raqam ostidagi kataklarda berilgan savollar joylashgan. 2–raqam ostidagi kataklarda talaba javoblari beriladi. Bunda talaba har bir to‘g‘ri deb bilgan javobiga “+”, noto‘g‘ri deb bilgan javobiga “–“ alomatlarini qo‘yib boradi. 3–raqam ostidavgi kataklarda o‘qituvchi tomonidan aytilgan to‘g‘ri javoblar belgilanadi. Bunda ham “+”, “–“ alomatlaridan foydalilanadi. 4–raqam ostidagi kataklarda esa har bir to‘g‘ri va noto‘g‘ri topilgan javob uchun baho belgilanadi, va bu baholar javob uchun ajratilgan baholar ustuniga qo‘yib boradi.



Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini bilamanmi?"

1	2	3	4
Savollar	O'quvchining javobi	To'g'ri javob	Javob uchun ajratilgan baho
Asar janri			
Uslubi			
Asar qurilishi			
Asar komponentlari			
Obrazlari			
Asar tili			
Tabiat tasviri			
Milliy mentalitet			
Xarakter			
Mahorat masalasi			

Zig-zag metodidan foydalanish. Bunda avvaldan tayyorlangan kartochkalar o'quvchilarga tarqatiladi. Masalan "Taqnidchi", "Tadqiqotchi", "Yozuvchilar", "Muxlislar", "Kitobxonlar" kabi 5ta guruhga bo'linib olishadi va har biri uchun berilgan vazifalar ustida ishlashadi. Masalan:

Asardagi milliy xarakterlar

Romanda tarixiylik va badiiy to'qima

Asardagi ijobjiy obrazlar

Salbiy obrazlar

Asardagi obrazlar tasviri

Xulosa o'rniда aytish mumkinki, darsning qizziqarli va jonli o'tishida turli zamonaviy metodlardan foydalanish o'rnlidir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev Q., Qodirov V., J.Yo'ldoshbekov. Adabiyot. Umumta'lim maktablarining 9–sinf uchun darslik. –T.: "O'zbekiston" NMIU-2019.

2. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy–nazariy asoslari. –T.: O'qituvchi, 1996. – 151 b



“O’TKAN KUNLAR” ASARIDA MILLIY RUH IFODASI

*Umurzakova Feruza Akramovna
Yunusobod tumani 17- mакtab ona тили va adabiyot o'qituvchisi*

Annotatsiya: Adabiyot darslarida Abdulla Qodiriy asarlarini o'rganishdan maqsad, yosh avlodga milliy qadriyatlarimizni asrab –avaylashga o'rgatish, ularni ma'naviy yuksaltirish hamda tarixiy taqdirlari anglatishdan iborat.Ushbu maqolada 9-sinf darsligida berilgan “Badiiy adabiyotda milliy ruh ifodasi” mavzusini Qodiriyning “O’tgan kunlar” asari asosida o'rganish masalalarida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Roman, “O’tkan kunlar”, Otabek, Kumush, Yusufbek hoji, Hasanali, Xomid, ma’naviy ruh, insoniy fazilatlar.

Yosh avlodni ezgulik, mehr–muhabbat, odamiylik, imon–e’tiqodli qilib tarbiyalashda, shoir Abdulhamid Cho’lpon ta’riflagandek, adabiyotni “o’tkir yurak kirlarini yuvadurg’on toza ma’rifat suvi”deb hisoblasak, badiiy adabiyotni o’qib, bu ma’rifat chashmasidan bahra olsakkina barkamollikka erishamiz, deb o’ylaymiz. Shu bois yozuvchi Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanida milliy ruh ifodasini tahlil qilishga jazm etdik.

Dars ta’limiy-tarbiyaviy maqsadi- milliy ruh to‘g‘risidagi nazariy ma’lumotlarni o‘quvchilar ongiga singdirish; ajdodlarimizdan meros qolgan milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash; o‘quvchilarning erkin, ijodiy mulohaza yuritish ko‘nikmasini rivojlantirishdan iborat.

Abdulla Qodiriyning yozuvchilik talanti, badiiy salohiyati “O’tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlarida namoyon bo‘lgan. “O’tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari voqealari sirtdan sevgi qissalariga o‘xshasa–da, ularning zamirida Vatan taqdiri, Vatan qayg‘usi yotadi. “O’tkan kunlar”ning ma’no – mundarijasi doirasi keng, unda xilma–xil ijtimoiy, ma’naviy muammolar aks ettirilgan. “O’tkan kunlar” romanida xalqimizning muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, ahvol–ruhiyati, ma’naviy dunyosi, bo‘y–basti, qiyofasi keng ko‘lamda aniq–ravshan gavdalantirilgan, xalqning dunyoqarashi bor holicha ko‘rsatilgan.O‘zbekning urf – odatlari, oila qurish, uy–ro‘zg‘or tutish, mehmon kutish, er–xotin, ota–bola munosabatlari, to‘y–u aza, har xil majlislar, quvonchli, zavqli damlar, dramatik–fojiaviy voqealar, kechinmalar, hayot –mamot ahamiyatiga molik ulkan ijtimoiy–tarixiy hodisalar, o‘rda hayotidan tortib, oddiy miskin kimsalarning xilma–xil tabaqaga mansub kishilarning turmush tarzi, tashvish–quvonchlari mujassam.A.Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanida pok muhabbat tarannum etilgan.Adib romanda yaxshi odamlar qalbidagi zakovat va saxovat, ular orasidagi mehr–ehtirom, bir – biriga muhabbat, samimiyat, sevgi – sadoqat, fidoiylik tuyg‘ularini topib tasvirlaydi. Romanda o‘tmishdag‘i ulug‘ allomalar, so‘z san’atkori nomi hurmat bilan tilga olinadi. Yusufbek hojining “Boburnoma”, Otabek bilan Kumushning Fuzuliy g‘azallariga mehri alohida ta’kidlanadi. Asar qahramonlari haqida to‘xtalar ekanmiz, ularga qo‘yilgan ismlar ham o‘ziga xos ramziylik kasb etganining guvohi bo‘lamiz. Mirzakarim qutidor oilasiga nazar tashlasak, Oftoboyim va Kumushbibi obrazlarida ham o‘ziga xoslik mavjud. Darsni “Tarmoqlash” metodi qo‘llash bilan boshlash maqsadga muvofiq. Shu orqali, o‘quvchilarda “O’tkan kunlar” romani xususidagi tushunchalari shakllantiriladi.

“O’tkan kunlar” romani milliy ruh juda bo‘rtiq aks etganligi bilan ajralib turadi. Bu xususan, Otabekning ota– onasi bilan Qutidor va Oftob oyimlarning qudalari hamda kuyovlari bilan munosabatlari tasvirlangan o‘rinlarda faqat o‘zbekkagina xos fikrlash va ta’sirlanish yo‘sini juda go‘zal ko‘rsatilgan. Dars davomida mana shu milliy ruhni o‘quvchilar ongi va qalbiga singdirish uchun videotasmalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Yusufbek xoji va Otabekning suhbati, Kumushbibining qaynona–qaynotasiga bo‘lgan hurmatini aks ettirgan lavhalar namoyish etiladi. Shundan so‘ng ushbu lavha yuzasidan o‘quvchilarning fikr–mulohazalari tinglanadi va to‘ldiriladi.

“O’tkan kunlar” birinchi o‘zbek milliy romani deb e’tirof etilgani ham bejiz emas. O‘zbek adabiy tili imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanib, milliy xarakterlar, milliy ruhiyat aks ettirilganligi; milliy hayot manzaralarini, urf–odat, odob–axloq qirralarini milliy madaniyat nuqtai nazaridan tasvirlashga erishganligi adibning ulkan ijodiy yutug‘idir. O‘z asarida yozuvchi milliy ruh va milliy tafakkurni aks ettirish orqali milliy hayot tarzini, maishiy hayot muammolarini gavdalantirdi hamda Otabek, Kumush, Mirzakarim qutidor, Yusufbek hoji kabi obrazlarni milliy xarakterlar darajasida jonlantirishga erishdi. Romanni o‘rganish jarayonida shunga amin bo‘lamizki, bu roman



tom ma'noda o'zbek xalqi farzandlariga milliy ruh hissini oilada singdirishga harakat qiladi.

Shu o'rda o'quvchilar bilan ranglar asosida "Obrazlar tasviri" vazifasini berish mumkin.

Yorqin ranglar:

Xomid, Sodiq, Jannat.....

Otabek, Kumush, O'zbek oyim....

Bu vazifani bajarib bo'lgan o'quvchi izoh berishadi. Sabab? Nega?

Darsda zamonaviy yondoshuv PBL asosida ham muommoli ta'lif usulidan foydalanish mumkin. P-problem-muommo, B-based-asoslangan, L-learning-o'rganish. Muommoli vaziyatlarni muhokama tarzida o'rganish.

Muommoli vaziyat: Otabek va Kumush munosabati fojeasi nimada?

Xulosa shuki, Abdulla Qodiriyning milliy ruh ufurib turgan yuksak badiiy ifodalarga boy asari o'quvchi yoshlarimizning ma'naviyati boyishi uchun beqiyos qimmatga egadir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy O'tkan kunlar. T-2019

2. Q.Yo'ldoshev va boshq. Umumta'lif maktablari uchu 9-sinf adabiyot darsligi. T 2019



ПАТРИОТИЧЕСКИЕ ИДЕАЛЫ Н.В.ГОГОЛЯ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ТАРАС БУЛЬБА»

Алимжанова Дилфузада Халижановна
Учительница русского языка и литературы
средняя школа №5 города Карасув
Кургантепинского района Андижанского области
Телефон:+998 (90) 549 98 47 Alimjanovad72@mail.ru

Аннотация: Исторические реконструкции Н.В. Гоголя в произведении «Тарас Бульба» как историка с национальной эпопеей, народной поэзией, формулирование национальных идей.

Ключевые слова: Н.В. Гоголь, Бог , отчизна , казачье товарищество, казаки, «Тарас Бульба», эпопея.

Гоголь как исторический романист оставил русской литературе трагические и кровавые картины столкновений «казаков» с «ляхами». Не придерживаясь документов соединив три века , писатель создал эпическое произведение , прославляя товарищество и братство , силу и отвагу. Но помимо общей правды живет в гоголевской повести личная правда , которая приносится в жертву первой . поэтому гибнут и Андрей ,влюбившейся в красавицу –полячу ,и Тарас Бульба ,не желавший ,чтобы даже его люлька-трубка досталась врагам . Писатель избрал идею победы жизни над смертью-Воскресение ,весеннее возрождение всей природы . Но не только поэтическое ощущение светлого праздника объясняет выбор темы. Произведение значимо как эволюция писателя .Гоголь глубоко изучал историю Украины и России. Литературоведы сравнивают повесть «Тарас Бульба» с национальной эпопеей , народной поэзией ,с украинской исторической песней, отмечают явное влияние гомировского эпоса. Гоголь пишет так ,как чувствует и понимает окружающий мир. Его слух воспитан певучей Украиной ,её самобытным эмоциональным языком ,легко доходящим до самых высоких нот и в любви ,и в ярости ,и ласке ,и отчаянии . Таковы природные картины «страшной мести» с «чудным» и «страшным» Днепром, Днестром в финале «Тарас Бульбы», где также подчеркнуты слова о блестящем речном зеркале Возможно, он написал то ,о чем хотел сказать о себе.

Высокая поэзия священных книг вдохновляла Гоголя и раскрывала его гениальный художественный дар . Он ,наконец , нашел предмет глубоко исторического смысла .Повесть «Тарас Бульба» очень интересна как факт поиска и формулирования национальной идеи , чем и объясняется её насыщенность очевидными идеалами – облечеными в слово мировозренческими установками . Представляются оправданным ,назвать ключевые три идеалы Гоголя –«только православие – истинная христианская вера» ,«единая православная Русь», «Бог, Отчизна и казачье товарищество – превыше всего» .Сравним тост Тараса : «Перед нами дела великого поту , великой казацкой доблести ! Итак, выпьем ,товарищи , разом выпьем и за нашу собственную славу , чтобы сказали внуки и сыны тех внуков , что были когда-то такие ,которые не постыдили товарищества и не выдали своих».

Перед решающим сражением ,когда Тарасу «хотелось высказать всё ,что было на сердце» , он говорит о родной земле и об основах товарищества : «Нет уз святое товарищество! Отец любит своё дитя . Но это не то, братцы: любят и зверь своё дитя . Но породниться родством по душе , а не по крови может один только человек . Бывали и в других землях товарищи , но таких ,как в Русской земле , не было таких товарищей» . Атаман Бульба убежден , что только русская душа способна « любить не то чтобы умом или чем другим , а всем , чем дал бог».

В эпизодах ,стилизованных под исторические песни («долго бандуристы прославляли») , казаки гибнут , но успевают сказать : Пусть же стоит на вечные времена православная Русская земля и будет ей вечная честь !». Портрет Тараса , его сыновей и запорожцев (внешность , характер , думы, слово и дело)дают основание говорить об идеалах « русский дух» , «русский характер» , «казачество» , усиленных реалией «Запорожская сечь». Сечь, «эта странная республика» была ,по мнению писателя , именно потребностью того века» .Гоголь сравнивает Сечь с ярмаркой , собравшей людей всех наций «со всего раз-



гульного мира восточной России», называет гнездом , «откуда вылетают все те гордые и крепкие , как львы», « откуда разливается воля и казачество на всю Украину» . Казачество писатель называет «широкой , разгульной замашкой русской природы» , «необыкновенным явлением русской силы : его вышибло из народной груди огниво бед». В казачьей вольнице русский характер получил «могучий, широкий размах ,дюжую наружность». Иноzemцы дивил «необыкновенным способностям» «вольного казака», потому что «не было ремесла ,которого бы не знал казак: накурить вина , снарядить телегу ,намолоть пороху, спрятать кузнецкую, слесарную работу и , в прибавку к тому ,гулять напропалую ,пить и бражничать ,как только может один русский , -всё это было ему по плечу». Для Гоголя нет сомнений в том ,что «уже известно всем из истории»: «вечная борьба и беспокойная жизнь» запорожцев «спасли Европу от неукротимых набегов , грозивших ее опрокинуть.

За красотой внешней постепенно открывается красота духовная . Гоголю надо достичь понимания читателя ,у которого душевное просветление от восторга и упоения красотой должно прийти к осознанию невозможно жить без неё . В минуты таких размышлений Гоголь вновь художник , служащий великой идеи.

Список использованной литературы:

1. Сочинение Н.В.Гоголя....Т.8. – С.78-79.
2. Н.А.Купина. Тоталитарный язык: Словарь и речевые реакции. – Екатеринбург , Пермь ,1995.
3. Н.В.Гоголь .Тарас Бульба. – Собр. Соч. в 4 т. Т.2. – М.: ГИХЛ,1953 С.247- 321. Далее цитирую по этому изданию.



“КЕЧА ВА КУНДУЗ”НИ ЧҮЛПОН ЮЛДУЗИ КАБИ АЖРАТГАН АСАР

*Алимжанова Лобархон Халижсановна
Андижон вилояти Кўргонтепа тумани Қорасув шаҳар
5-умумий ўрта таълим мактаби Она тили ва Адабиёт фани ўқитувчиси
Телефон: +998 (99) 607 25 74 Alimjanova74@mail.ru*

Аннотация: Ушбу мақола Чўлпоннинг “Кеча ва Кундуз” асарини ўрганишда юқори синф ўқувчиларида юзага келувчи муаммолар ва уларни хал қилишга қаратилган.

Калит сүзлар: Диалогия, адабий журнал, "Кеча ва Кундуз", Чўлпон, Зеби, Мирёқуб, XX аср адабиёти.

Адабиёт дарслари ўқувчини Ўзбек адабиётининг буюк ва тақрорланмас асарлари билан таништирибгина қолмай уларни тахлил қилишни, тушунишни, хис қилишни ўргатади. Бундай асарлардан бири атоқли адаб Абдулҳамид Сулаймон ўғли Чўлпон қаламига мансуб «Кеча ва кундуз» асарига «Ўткан кунлар» асари даражасида деб баҳо берилган. У ўзбек адабиётидаги илк роман — дилогия бўлиб, икки китобдан иборат. Биринчи қисми «Кеча» 1933-34-йилларда Москвада ёзилган. Дастраси боблари 1935-йилда Тошкентдаги адабий журналнинг 1-сонида босилган, асар 1936-йилда тўлиқ ҳолда нашр этилган. Асардаги воқеалар илк баҳорда бошланиб, қиши чилласида тугайди. Чўлпон романига «Ҳамал келди — амал келди» мақолини эпиграф қилиб олган. Романинг «Бугун» ёки «Кундуз» деб аталган иккинчи қисмининг тақдирини тўғрисида маълумот йўқ. Ҳолбуки «Кеча» да тасвирланган воқеаларнинг мантиқига кўра романнинг «Кундуз» қисмида Зебининг Сибир сургунидан, Мирёқубнинг эса Крим сафаридан кейинги ҳаётлари тасвирланиши лозим эди. Биринчи китобдаги тасвир этилган воқеа биринчи жаҳон уруши эндиғина бошланган кезларида Ўзбекистон вилоятларининг бирида бўлиб ўтади. Асардаги асосий фоя мавжуд тузумни таг — томири билан ўзгартиришdir ва шуни тақидлаш жоизки, адаб асарда мавжуд тузумнинг қанчалик қолоқ эканлини тақидлашга унинг устидан беғараз кулишга ундейди, бу даврда ўзбек халқининг турмуш тарзини Мингбоши ва унинг хотинлари ва айнан Зеби тақдирини билан янада аниқроқ қилиб кўрсатиб бера олди ва ўша давр ўз ичига олган мураккаб ва бир вақтнинг ўзида жирканч бошқарув тизимини Мирёқуб ва Ноиб тўра сухбатидан хам илғаб олиш мумкин. Чўлпон асарларидаги мураккаблик ва сирлилик ва шунинг билан бирга соддалик ва оддийлик шунчалик ўйғунлашганки ўқувчи уларни фақатгина бир бутун яхлитликда қабул қиласи холос ва айнан шу юқори синф ўқувчиларининг «Кеча ва кундуз» асарини бор бўй басти билан тушунишларида мұаммоларни келтириб чиқаради.

Асар қаҳрамонларининг сұхбатлари, баҳс-мунозараларининг биз күніккан сұхбатлардан, шунчаки кайфий мунозаралардан фарқи шундаки, асардаги диалоглар адібнинг бадиий ниятига алоқадор бўлгани боис эстетик ёқимли ва асарнинг яхлитлигини таъминловчи бадиий унсур бўлиб бу ўқувчиларга бадиий асарнинг туб замирида яширин бўлган маънени тушунишларини кийинлаштиради. Бадиий асар таҳлили ҳам бадиий асар устида ишлаш босқичларининг энг муҳимларидан биридир. Таҳлилнинг мақсади, вазифаси, таркиби ва ўзига хос мазмуни мавжуд. Бироқ уларни ҳар доим бир хилда бўлади, деб тасаввур қилиш тўғри эмас. Ҳар бир ижодкор, ҳар бир асар билан боғлик ҳолда таҳлил ҳам ўзига ҳослик касб этади. Шу сабабли ўқувчиларга қаҳрамонларнинг хатти-ҳаракатларинигина эмас, қалби ва қиёфаси, ботини ва зоҳири, маънавий ва моддий мавжудияти ўртасидаги мувофиқликни тушунишлари учун устозлар ўқувчиларининг тафаккур тарзи, дунёқараши, ижтимоий савиясига муносиб шархлаш йўлларини топишлари шартдир. Бунинг учун характер ва ҳаёт мантигини жиддий кузатиш ва моҳиятини равшан ифодалай олиш зарур бўлади. Зеро асар тилининг таржимони ва ўқувчиларни қанчалик тушунишига жавобгар бу устоздир.

«Кече ва кундуз»даги диалоглар силсиласида қаҳрамонларнинг ички дунёси, ақлзаковати, фаҳм-фаросати ва ахлоқий қиёфаси ўзининг барча кирралари билан намоён бўлади, ва бу ўқитувчига асарнинг моҳиятини янада очиб беришга хизмат қилади. Чўлпон асарини ўқувчига тушуниришда айнан ўша давр рухиятини англаш ва хис қилиш керакдир ва хусусан синф хонада эркин мулокот, баҳс, мунозаралар ва давр рухиятига мос мухит яратса билиш керак. Ўқувчиларни асарнинг рухиятини янада яхшироқ тушунишла-



ри учун реал фактлардан фойдаланиш, шунингдек ўқувиларни мавжуд холатни англашда тарих фанидан ортирган билим-кўнинмалар ва малакаларидан унумли фойдаланиш эса нафақат асар гоясини чуқурроқ англашга, балки ўқувчининг Чўлпон асарлари тарихини ва асарда ёритилган даврни ҳам яхшироқ ўрганишга ундиади. Асарни тушуниш ва уни яхшироқ ўрганиш ўқувчиларда асарнинг гояси ва мақсадига оид умумий компетенсияларни ҳам шакллантиради. Юқори синф ўқувчиларининг XX аср адабиётини ўрганишда ва айнан Чўлпон асарларини ўрганишда барча таҳлиллар учун қўйиладиган асосий талаб –илмийликдир. Реал назарий асосларга, бадиий-эстетик мантиқ талабларига жавоб бера оладиган таҳлил ўқувчининг ҳақиқий ёрдамчиси бўла олади.

Хулоса қилиб айтганда ўқувчиларга Чўлпон асарини тўлиқ тушунтириш нафақат Чўлпон асарлари балки XX аср Ўзбек адабиётини моҳиятини, унинг туб замираидаги қандай улкан гоялар борлигини тушунтира олсан уларнинг адабиётга хусусан миллий қадриятларимиз, анъана ва одатларимизга бўлган чуқур хурмат асносида тарбиялашга улкан ҳисса қўшган бўламиз.

Фойдалнилган адабиётлар рўйхати:

1. Йўлдошев Қозоқбой. Адабиёт: Умумий ўрта таълим мактабларининг 9-синфи учун дарслик.-Т: Янги йўл полиграф сервис, 2014.-200 б.
2. Кеча ва кундуз. Чўлпон.-Тошкент :Faafur Гулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2017-272 б.
3. Н.Каримов, С.Мамажонов, Б. Назаров, У.Норматов, О.Шарофиддинов “XX аср ўзбек адабиёти тарихи”, Т-1999.



ПАҲЛАВОН МАҲМУД ФАЛСАФАСИ

Жуманиязова Мухаббат Болтаевна
Хоразм вилояти Хива шаҳар Оғаҳий номидаги ижод мактаб-интернати
олий тоифали она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси Телефон: +9989993471970

Аннотация: Ушбу мақолада улуғ пир, куч-қудратда тенгсиз паҳлавон, шоир ҳамда мутафаккир Паҳлавон Маҳмуд ва унинг рубоийнавислиқда тутган ўрни ҳақида сўз боради. Айниқса, рубоийларининг фалсафий, ахлоқий-таълимий жиҳатларига алоҳида эътибор қаратилади.

Калит сўзлар: Паҳлавон Маҳмуд, Умар Хайём, Хоразм, мақбара, рубоий, форс тили, "Канзул ҳақойик" маснавийси, Пурёйвалий, Пурёрвалий, Қитоли тахаллуслари, фалсафий, ахлоқий-маърифий қарашлар.

Юртимизда Хоразм аҳлиниң буюк фарзанди – улуғ пир, кураги ерга тегмаган паҳлавон, ҳассос шоир ҳазрат Паҳлавон Маҳмудни билмаган, танимаган инсон бўлмаса керак. Ҳозирда бу улуғ зот мақбарасини зиёрат қилиш учун нафақат Ўзбекистоннинг турли вилоят шаҳар ва туманларидан, балки дунёнинг кўпгина мамлакатидан меҳмонлар зиёратга келиб кетишади.

Аввалом бор, шуни эътироф этиш жоизки, рубоий жанри улуғ Умар Хайём шарофатидан, унинг мўъжизакор қалами қудратидан шуҳрат топгани ҳаммага аён. Паҳлавон Маҳмуд устоз Умар Хайём анъанасини Хоразмда давом эттирган рубоийнавис шоирларимиздан саналади. Бироқ Паҳлавон Маҳмуд Хайёмнинг оддий тақлидчиси эмас, аксинча, улар ўзининг заковати ва истеъодди, мушоҳада кучи жиҳатидан Хоразм Хайёmdir. Форсий тилда бир-биридан гўзал, бадиий жиҳатдан юксак фалсафий рубоийлар яратган бўлиб, улардан бир қанчаси қабри устига ўрнатилган мақбара деворлари пештоқларига бадиий нақш сифатида ўйиб ёзилган. Уларнинг бизгачи етиб келишида ана шу мақбарадаги ёзувлар муҳим ўрин тутади. Шоирнинг рубоийлари бошқа турли қўллэзмалар орқали етиб келишига қарамай, улар, асосан, XIX асрда кўчирилган. Ижодида форсий рубоийларидан ташқари "Канзул ҳақойик" ("Ҳақиқатлар хазинаси") номли маснавийси ҳам ўрин олган. П. Маҳмуд рубоийларини Т. Жалилов, А. Боқир, М. Муинзода, И. Улфат, Васфий, Ш. Шомуҳаммедов, М. Абдулҳаким, Э. Очилов каби бир қатор шоирлар маҳорат билан ўзбек тилига таржима қилишган.

Машҳур турк олими Шамсиддин Сомибекнинг "Қомус ул-аълом", Лутф Алибек Озарнинг "Оташкадай Озарий", Камолиддин Ҳусайн Фаноийнинг "Мажолис ул-ушшоқ" сингари тазкиралари ва бошқа бир қатор манбаларда Паҳлавон Маҳмуд ва унинг рубоийлари ҳақида сўз борганининг гувоҳи бўламиз. Уларда кўрсатилишича, адебнинг "Паҳлавон" унвони машҳур бўлишига сабаб унинг жисмоний жиҳатдан бакувватлиги, шарқона курашнинг катта вакили бўлганидир. "Пурёйвалий", "Пурёрвалий" тахаллуслари ҳам паҳлавонлиги билан боғлик. Адеб "Қитоли" тахаллуси билан ҳам ижод қилган бўлиб, унинг бу тахаллуси ҳам паҳлавонлик сифатига боғлиқ еканлиги эътироф етилади.

Паҳлавон Маҳмуд ва унинг юксак инсоний сифати ҳақида шундай ривоят юради. Ҳазрат Ҳиндистон сафари пайтида ҳиндлар тарафида туриб жанг қилиб, подшо Рай Рапой Чўнани ўлимдан куткариб қолади. Шоҳ унинг бу иши учун тақдирлаш мақсадида, "тила тилагингни" деганида, Маҳмуд унга қараб: "Шоҳим, менга бир мол терисига сиғадиган собиқ асир юртдошларимни берсангиз, мен уларни озод қилиб ўз юртимга олиб кетсам" – деган экан. Шоҳ розилик бергач, Паҳлавон Маҳмуд ўз пўстиндўзлик хунарини ишга солиб, теридан нозик ип толалари ҳосил қиласи ва ундан анча катта холқа ҳосил қилган ҳолда унинг ичига барча юртдошларини сиғдириб олиб кетади.

Шоир ва олим Матназар Абдулҳаким айтганларидек: "Паҳлавон Маҳмуднинг рубоийлари ҳам руҳларимиз қасрига чатилган ўзига хос тафаккур иплариридир. Уларнинг ичига ҳаммамиз сиғамиз".

Шарқ адабиётида теран мазмунли, нафис ва ўйноқи рубоийларни "ҳайёмана" деб аташ одат бўлиб кетган. Шу мантиқдан чиқиб баҳо бергандা, Паҳлавон Маҳмуднинг санъаткорона рубоийлари ҳаммаси ҳам ҳайёмонадир. Бу рубоийлар ёнма-ён турганда, баъзан қайси бири Хайёмникую, қай бири Паҳлавон Маҳмудники эканини фарқлаш қийин. Ҳусусан, ҳаётнинг мураккаблиги, чигалликлари, чархдек айланиб турган бу фалак ташвишларидан, озорларидан зорланган Умар Хайём бир рубоийсида шундай ёзади:



Эй чарх, дилимни бўйла ғамнок яратдинг,
Кўксимни алам тифи билан чок этдинг.
Бағримга шамол уфурса, оташ этдинг,
Оғзимга чу сув олдим, уни хок этдинг.
Паҳлавон Маҳмуд эса бу ҳақда шундай ёзади:
Давронда кўп кўзни мен гирён кўрдим,
Неки бало бўлса, беомон кўрдим,
Нух-ку минг йил яшаб кўрди бир тўфон,
Мен Нух бўлмасам ҳам кўрдим минг тўфон.

Шоир яна бир руబойисида дунёning яралиши ҳақида кишини мушоҳадага чорлайди. Бу чорловда ўқувчига аниқ ва тўғри йўлни белгилаб беради. Кимки яратганинг назарига тушса, қимматли гавҳар кабидир. Ақл-тафаккурдан йироқ кимса эса умри бесамар эканлигини уқтиради. Косани яратишдан мурод асли косагар дея оламни, инсонни яратишдан мурод асли яратган эканлиги, бу йўлда ишқ-муҳаббатсиз камолга етиб бўлмаслигини таъсирчан ифодалайди:

Назар топган кимса – қимматли гавҳар,
Кам ўйлаган кимса бўлур дарбадар.
Ишқиз камон бўлмас ушбу оламда,
Косадин муроддир асли косагар.

Паҳлавон Маҳмуд ўз асрининг донишманди эди. У ўзининг бутун умри давомида ҳаётни мушоҳада этиб, тўғри хулосалар чиқарган. Бу ҳол унинг руబойларида ёрқин акс этиб, уларни ҳикматли сўзлар даражасига кўтарган.

Қора тош сира ҳам бўлмас ложувард,
Тоза қалбга юқмас асло чангур гард.
Қулоқ солгин Пурёйвали сўзига,
Қўрқоқлардан бирон чиқғанмиди мард.

Рост айтади бу улуғ донишманд, ёмон одамдан фақат ёмонлик кутиш мумкин, мардликка, езгуликка у қобил эмас.

Ҳаёт ҳақидаги бундай фалсафий қарашлар ифодасини шоирнинг қўйидаги руబойисида ҳам яққол кўриш мумкин:

Ей дил, шоҳи тўнни қилмағил ҳавас,
Эски киймоқликни ҳам этмагил бас.
Енгил ўтсин десанг ўз қунингни сен,
Қарам қилма ўзни бирорвга абас.

Шоир руబойларида донолик, билимдонлик, меҳр-шафқат, муруват, садоқат, мардлик, олийҳимматлик каби ижобий хислатли кишилар улуғланади. Инсонга хос бўлган баъзи бир салбий жиҳатлар эса кескин қораланади. Паҳлавон Маҳмуднинг нодонлардан, жоҳиллардан нафроти шу кадар кучлики, бунга шоирнинг қўйидаги руబойисида гувоҳ бўламиз:

У юз кўхи қофни келида туймоқ,
Дил қонидан бермоқ фалакка бўёқ,
Ёйинки бир аср зинданда ётмоқ,
Нодон сұхбатидан кўра яхшироқ.

Паҳлавон Маҳмуд шеърияти ҳаёт фалсафаси билан йўғрилган. Уларни ўқиши орқали ҳаётдаги сабаб ва оқибат, бутун ва қисм, тасодиф ва қонуният орасидаги боғланишлар таҳлилига дуч келамиз:

Гуркираган олов дилим йўлдоши,
Тўлқин урган дарё - кўзларим ёши.
Кўзагарлар ясаётган ҳар кўза-
Кўхна дўстлар хоки –қўли ё боши.

Бу ерда бадбинлик, тушкинлик кайфиятлари емас, балки ҳаёт ҳодисаларига очиқ қўз билан қарашга даъват мавжуд. Умр инсонга берилган екан, уни ғафлатда ўтказмаслик лозим, деган ақида руబой асосини ташкил етган. Паҳлавон Маҳмуд руబойларини ўқиган киши ўзини қандайдир маънавий покиза, руҳий тетик ва улуғвор хис етади. У инсонни маънавий жиҳатдан юксак бўлишини истайди ва буни ундан талаб ҳам қиласди. Бундай киши бошқаларнинггина эмас, ўзининг ҳам қадрига етмоғи, ўз қадрини баланд тутмоғи лозим.

Борма айтмаганинг дастурхонига,



Кўл узатсанг, қадринг тушар нонига.
Кўшма ўзгаларнинг барра кабобин,
Қотган нону совуқ сувнинг сонига
Маънавий комиллик даражасига етмоқ учун эса инсон оқиллик даражасига кўтарилимоғи
керак. Шунда у таъма, хирс ва ҳасаддан ҳоли бўлади. Ҳаёт қийинчиликларини енга олади.
Ҳаёт майи бўлур тиник, қуйка ҳам,
Кийим ҳам гоҳи бўзу, гоҳи бекасам.
Булар оғир емас оқил олдида,
Зор ўлмоқлик бўлур жуда оғир дам.
Буларнинг барчаси Паҳлавон Маҳмуднинг инсон маънавиятини нақадар теран ва нозик
хис этганини, уларнинг ана шу буюк фазилатлар билан зийнатламоғини қанчалик орзу
қилганини кўрсатади. Шунингдек, шоир ўз рубоийлари орқали чукур маънога эга бўлган,
оддий инсоннинг ақл-идроқига сифмайдиган илмнинг моҳиятини содда мисраларда равон
иғодалайдики, ўқувчи уни ўқиб, маъносини қийналмай тушуниб, ҳазм қилиш имконига эга
бўлади.

Сўзим ниҳоясида шуни айтмоқчиманки, севимли шоиримиз Абдулла Орипов ўз
шеърларидан бирида таъкидлаганидек: “Паҳлавон Маҳмуддан сўрайлик мадад...”. Токи
уларнинг нафақат жисмоний қучи, балки маънавий олами бизга руҳий мадад, мустаҳкам
ирода, қалбимизга осойишталик баҳш этсин!

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Паҳлавон Маҳмуд. Рубоийлар. Тўхтасин Жалолов. Тошкент -1979
2. Жасурбек Маҳмудов. Паҳлавон Маҳмуд Пурёвалий. “ЎЗБЕКИСТОН”
3. Паҳлавон Маҳмуд.”Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти,
Тошкент-2013



АДАБИЁТ ДАРСЛАРИДА КЕРН ЙИРАСЕК МЕТОДИКАСИНИ ҚЎЛЛАБ ЎҚУВЧИ ҚОБИЛИЯТИНИ АНИҚЛАШ.

Низомова Лобар Файзуллаевна
Бухоро шахар 13-мактаб ўқитувчи
тел: +998(93)-625-71-11

Аннотация: Мақолада 5-синф адабиёт ўқитувчиларининг адабиёт тўғаракларида ўқувчилар билан қўшиимча шуғулланиши жараёнида уларнинг қобилияти ва иқтидорини аниқлаб, шунга мувофиқ дарс жараёнларини ташкил этишга доир тавсиялар берилган.

Калим сўзлар: иқтидор, интеллект, замонавий дарс, Керн Йирасек методикаси.

Тараққиётни ҳаракатга келтиришда ва турмушда рўй бераётган жараёнларга ўз таъсирини ўтказиша жамият, ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, маданий-маърифий янгиланишларнинг муҳим субъекти бўлган ёшларни баркамол шахс қилиб тарбиялаш масаласи муҳим аҳамиятга эга. Бугунги кунда юртимизда таълим тизимини сифат жиҳатдан янги босқичга кўтариш давлат сиёсати даражасига кўтарилид. Бу жараёнларда янги шаклдаги дарсларга доир назарий маълумотларни чуқур ўрганиб, бойитиб, амалиётга тадбиқ этиш долзарб вазифалардан биридир.

Янги шаклдаги дарслар, уларни ташкил этиш ва амалиётга қўллаш борасида юртимизда бир қанча методист олимлар ўз фикр-карашларини баён этганлар. Айниқса, дарсларда педагогик технологиялар, инновацион технологиялар, турли интерфаол усусларни қўллаш борасида бир катор ўқув-услубий қўлланмалар яратилган. Булар орасида, айниқса, Равшан Ишмуҳаммедов, Мақсуджон Юлдашев, С.А.Усмоновларнинг, вилоятимизда Д.Йўлдошева, Н.Бекова, Ш.Олимовларнинг ишлари эътиборга сазовор.

Бугунги таълим тизимида ўқувчи қобилиятларини аниқлаб, ҳар бир ўқувчига иқтидори доирасида топшириклар бериш ва муносиб боҳолаш ўқитувчи олдида турган долзарб вазифалардан биридир. Дарс жараёнида тоншириқнинг барча учун бир хилда тақдим этилиши синфдаги тез ўзлаштирадиган ўқувчиларни зериктириши, ёки аксинча, пастроқ ўзлаштирувчи ўқувчиларни қийнаб қўйиб, дарсга бўлган қизиқишини сўндириши мумкин. Шу сабаб, ўқитувчи аввало, ўқувчиларнинг қобилияти даражаларини аниқлаб олиши лозим. Буни амалга оширишда “**Керн Йирасек методикаси**” она тила ва адабиёт ўқитувчиларига қўл келади. Ушбу методика асосан ўқувчиларнинг мактабга тайёргарлигини баҳолаш учун бўлсада, бошланғич синфдан ўрта синфга ўтган ўқувчининг дарсларга муносабати ва иқтидорини ушбу методикани фанга мослаштирган ҳолда қўллаши мақсадга мувофиқ. 5-синф адабиёт дарслари мисолида ушбу методика асосида айрим таклифларни ҳавола этамиз.

5-синфда адабиёт дарсларида ўқувчилар дастлаб мақоллар, топишмоқлар, масаллар ва эртаклар билан танишадилар. “Уч оға-ини ботирлар” эртаги ўтилганда ушбу методикани қўллаймиз. Демак, 1-топшириқ: Кенжа ботирнинг расмини чизиш. Топшириқ 5 баллик тизимда баҳоланади. **5 балл-** расмда Кенжа ботирнинг боши гавда ва қўл-оёқлари тўғри чизилган бўлиши керак. Бўйин, қўл ва оёқлар узунлиги мутаносиб ва симметрик тўғри жойлашган. Юз аъзолари ҳам тўғри ва чиройли тасвирланган. Қўлнинг беш бармоқлари жойлашуви ҳам дид билан ва мутаносиб ишланган. Расмда Кенжа ботирга мос кийимлар ифодаланган. **4 балл-** 5 балл баҳога қўйилган талаблар ҳаммаси бажарилган, аммо расмда аъзоларни тасвирлашда мутаносиблик бироз бузилган. **3 балл-** 5 балл баҳога қўйилган талаблар ҳаммаси бажарилган, аммо расмда 3 та аъзо етишмаслиги мумкин: бўйин, соч, қўлда битта бармоқ. Юздаги аъзоларнинг ҳаммаси бўлиши шарт. **2 балл-** Қаҳрамон расмиди боши, гавдаси ва қўл-оёқлари мавжуд. Қўл ва оёқлар иккита чизик билан тасвирланган. Расмда бўйин, қулоқ, соч, кийим ва қўлида бармоқлар бўлмаслиги мумкин. **1 балл-** Расм жуда содда бош ва қўл-оёқлар чизилган бўлиб, гавда бўлмаслиги мумкин. Қўл ва оёқлар бир чизик бўлиб кўрсатилган. Шуни таъкидлаш лозимки, ўқувчилар топшириқни бажараётган вақтда уларни шошилтирилмаслик керак.

Иккинчи топшириқ: Матн ёзиш. Бунда эртакдаги отанинг ўғилларида тарбия беришда айтган қуидаги жумлани оламиз: “**Дангасалик қилманг – баҳтсиз бўлмайсиз.**” Ушбу матн орқали, нафақат ўқувчи қобилиятни текшириш, балки унинг шахсий фазилатларини



ривожлантириш ҳам кўзланади.

5 балл- жумла ҳусниҳат билан ёзилган, хат унчалик катта ҳам кичик ҳам эмас. Хатолар йўқ. **4 балл-** Сўзлар бир-бираига қўшилмасдан ёзилган. Гапнинг тўғри чизиқ билан ёзилишида пастга ёки юқорига қараб қийшайиб кетиши 30 градусдан ошмайди. **3 балл-** Гапни ўқиш мумкин. Ҳарфларнинг катталиги намунага яқин. Гапнинг тўғри чизиқ бўйича ёзилишига эътибор берилмайди. **2 балл-** Сўзлар кўшилиб кетган ва ҳарфлар икки гурухга ажратиб ёзилган бўлиши мумкин. Ҳеч бўлмаганда 16 та ҳарф тўғри ёзилган.

1 балл - Намунага ҳеч бўлмаганда 8 та ҳарф ўхшайди. Боланинг ёзганлари озми кўпми хатга ўхшайди.

Ҳар бир топшириқнинг бажарилиши тўғри бажарилиши 5 ва ёмон бажарилиши 1 баҳога тенглаштирилади. Ўқувчиларнинг топширикларни бажаришидаги тоза, чиройли, ҳусниҳат қоидаларига риоя қилган ҳолда ёзилиши, Кенжаботир расмидаги кийимларнинг, аъзоларнинг нафис, чиройли чизилиши, қўшимча нарсаларнинг киритилганлиги, кийимларнинг шакли, унинг ҳаракатланаётганлиги ва ҳокозолар алоҳида ҳисобга олиб қўйилади. Булар одатда иқтидорли ўқувчилардир. Керн-Йирасек тестида юқори балл олган ўқувчилар билан алоҳида ишлаш, уларга синфдаги қолган ўқувчиларга нисбатан мураккаброқ топшириклар ишлаб чиқиш унинг келажакда ўз исътедоди ва қобилиятини янада кенгроқ намоён этишда кўмаклашади.

Шунингдек, ҳар бир топшириқни алоҳида назарга олиб, ўқувчининг қайси соҳада камчиликлари кўпроқ эканлигини аниқлаш ва у билан шунга доир қўшимча машғулотлар олиб бориш назарда тутилиши лозим.

Кўриб ўтганимиз, биринчи топшириқ – болаларнинг хотираси, тасаввuri ва интеллектуал қобилиятларини аниқлашга мўлжалланган. Иккинчи топшириқ эса, асосан, болаларнинг ёзув, чизув малакалари, майда қўл мускулларининг қанчалик ривожланганлиги аниқлашга мўлжалланган.

Адабиётлар рўйхати:

1. Адабиёт. 5-синфлар учун дарслик. Тошкент-2015 й.
2. Metodist.ru интернет саҳифаси.



ЗУЛФИЯХОНИМ – МАЊНАВИЙ ЖАСОРАТ СОҲИБАСИ

Сафарова Гулнора
1-умумий урта таълим мактаби рус тили фани ўқитувчи
Сурхондарё вилояти Шўрчи тумани

Аннотация: Ушбу мақолада Ўзбекистон Халқ шоири Зулфия Исроилова ҳақида маълумотлар берилган бўлиб, унинг адабиёт ривожидаги етакчилик ўрни, мањнавият ривожига қўшган ҳиссаси, камтарин инсон, салоҳиятли раҳбар, фидоий она, садоқатли ёрликни юксак эътиқод даражасига кўтарган шахс эканлиги тўғрисида фикрлар баён қилинган.

Калит сўзлар: миллий адабиёт, халқ мањнавияти, фидоий раҳбар, мањнавий жасорат, инсоний фазилатлар, шеърият ва эътиқод, тарих ва маданият, муҳаббат ва садоқат тушунчалари.

Ўзбек шеъриятининг оташнафас шоираси, инсон руҳияти дунёсининг бетакрор куйчиси Зулфияхоним ҳаёт бўлгандарида бу йил 105 ёшга тўлган бўлардилар.

Ўзбекистоннинг биринчи Президенти Ислом Каримовнинг "Ўзбекистон халқ шоири Зулфия таваллудининг 100 йиллигини нишонлаш тўғрисида" ги қарори 2014 йил 31 октябрь куни эълон қилинди. Унда эзгулик, муҳаббат ва садоқат куйчиси Зулфиянинг бетакрор истеъдоди, Ватанга муҳаббат, вафо ва садоқат туйғусини, олижаноб инсоний фазилатларни юксак пардаларда тараннум этган етук бадиий асарлари, ибратли ҳаёти ҳамда ижтимоий фаолияти билан миллий адабиётимиз ва маданиятимиз ривожига, халқимиз мањнавиятини юксалтиришга қўшган ҳиссаси алоҳида эътироф этилган.

Зулфия Исроилова халқимизнинг атоқли ва ардоқли вакили, Ўзбекистон халқ шоири, халқаро "Нилуфар", Жавоҳарлал Неру номидаги ҳамда Давлат мукофотлари соҳибасидир. У 1915 йили 1 март куни Тошкент шаҳрининг қадимий Дегрез маҳалласида таваллуд топган. Аввал бошланғич мактабда, сўнг хотин – қизлар билим юртида, 1935 – 1938 йилларда Ўзбекистон Фанлар академиясининг Тил ва адабиёт институти аспирантурасида ўқиган. Шундан кейин турли нашриётларда ишлаган. У 1953 йилдан 1980 йилгача қарийб 30 йилга яқин республикамида кенг тарқалган "Саодат" номли хотин – қизлар журналида бош муҳаррир бўлиб ишлади.

Ўзбекистон халқ шоири Зулфия адабиётга ўзига хос овози билан кириб келди ва ўзбек адабиёти тараққиётiga муносиб ҳисса қўшди. Унинг "Шеърлар", "Қизлар қўшифи", "Уни Фарход дер эдилар", "Ҳижрон кунларида", "Юрагимга яқин кишилар", "Куйларим сизга", "Ўйлар" каби ўнлаб шеърий тўпламлари, "Қуёшли қалам", "Мушоира", "Хотира синиклари" каби поэмалари, "Семурғ", "Зайнаб ва Омон" достонлари асосидаги пьеса ва опера либреттоси адабиётимиз хазинасидан муносиб ўрин олди. Шоиранинг уйғониш фасли, борлиқни янги ва ажойиб либос билан безатувчи баҳорга муносабати ўзгача бўлиб, ушбу мавзуга кўплаб бетакрор шеърлар бағишилади. Унинг "Кўклам куи", "Баҳор", "Баҳор келди сени сўроқлаб", "Софиниб", "Боғлар қийғос гулда" шеърларида ҳаётни куйлаш шоира ижодининг етакчи руҳини, бош оҳангини белгилайди.

Боғлар қийғос гулда – яхлит бир чаман,

Ҳар дараҳт анвойи бир тароватда.

Бир кафт боғ меҳнату ҳосилга ватан,

Ўзга кўрк, ўзга ранг ҳар бир дараҳтда.

1995 йилда биринчи Президентимиз Ислом Каримов шоиранинг 80 ёши мубарокбод этилган табрикномада: "Сиз замонамизнинг забардаст шоири ва жамоат арбоби сифатида Ўзбекистоннинг жарангдор овози бўлдингиз... Жаҳон мингбарларида янграган шеърларингиз – Шарқ аёлининг ақлу – закоси, фазлу камолидан ноёб нишонадир... Латиф ижодингиз билан миллионлаб кишиларга эзгулик, муҳаббат ва садоқатдан сабок бердингиз. Ғам – андуҳларни матонат билан маҳв этган, армонларидан тирик орзулар яратган, тоғдек бардоши билан садоқат ва вафо рамзига айланган сиз каби аёллар жуда кам топилади. Сиз Гулбаданбегим, Зебуннисо, Увайсий, Нодирабегим каби Шарқнинг буюк фозила аёллари бошлаган анъаналарни бойитиб, янги поғонага кўтардингиз. Меҳрибон ва талабчан устоз Зулфияхонимнинг маҳорат мактабидан кўплаб ёш истеъдодлар баҳраманд бўлдилар", -



деган сўзлар битилганди.

Дарҳақиқат, “Бахтим шул – ўзбекнинг Зулфиясиман” деб ифтихор этган шоиранинг ижоди, фаолияти, ўзи яшаган аср тарихининг барча оғир ва мураккаб синовларини юксак инсоний фазилатларга садоқат билан мардона енгиб ўтган умр йўли ибратлидир.

Атоқли ўзбек шоири Ҳамид Олимжон билан турмуш қурган шоиранинг ёш бошига кутилмаганда оғир фалокат тушди. Улар орзуларга тўла ҳаёт кечираётган бир пайтда – 1944 йилда машина ҳалокат туфайли у турмуш ўртоғидан айрилди. Ўшанда Зулфия 29, Ҳамид Олимжон эса 35 ёшда эдилар...

Гарчи йиллар чанги ҳар нега қодир,
Мени қилолмади ёдингдан нари.
Яна хузурингда турибман, шоир,
Қўлимда бир қучоқ баҳор гуллари...

Сен баҳтлар водийси атаган диёр,
Икки дарё ювган икки кокилин –
Бу кун етти иқлим махзанича бор,
Бу кун ўн беш кунлик ой каби тўлин...

Зулфия бутун умри давомида оташин муҳаббатига, ўша оловли ишққа, вафога содик қолди, Ҳамид Олимжоннинг ишларини сабот билан давом эттириди, садоқатни юксак эътиқод даражасига кўтарди. “Токи мен ҳаётман, тириксан сен ҳам” дея шеърларида хитоб қилиб, ҳеч қачон бирор марта ҳам қийинчиликлардан нолимай меҳнат қилди, армонлардан орзулар ясади, фарзандларини ёлғиз ҳавас билан тарбиялади, уларни комил инсон бўлиб вояга етказишга ҳаракат қилди ва элга қўшди.

Зулфия кенг танилган жамоат арбоби эди. У Осиё, Африка ва Европанинг ўнлаб давлатларида бўлиб, ҳалқаро хотин – қизлар ҳамда адабиёт намоёндаларининг ҳаракатларида фаол иштирок этган. Ҳамма жойда ҳалқимизнинг тарихи, маданияти, маънавияти, ишлари, қадриятлари билан фахрланиб уларни тарғиб этди.

Йўл узок, йўл яқин, бошсиз, сўнгсиз йўл,
Бири тор, бири кенг, равон ва сўқмоқ.
Тинглаб кўр, қаричи минг эртакка мўл,
Туғилмоқдай фарздор бирини ўтмоқ...

Сафар! Оз кездими адиб ҳаётда,
Қишлоқлар, шаҳарлар, элларга сафар.
Мудом шай сиёҳдай – хаёл – қанотда
Тақдирларга сафар, дилларга сафар...

Зулфияхоним табиати баҳор осмони каби тиник, у кибрни, манманликни ўзига раво кўрмас, жуда камтар инсон эди. Каттаю кичик давраларда шахсий ютуқларидан сўз очмас, аммо ҳалқимизни, адабиётимизни ўз даражасига муносиб қилиб доим шарафлар эди. Раҳбар аёл сифатида ҳам унга ҳавас қилса арзигулик фаолият юритар эди. Ҳамкаслари Зулфиянинг доим ним табассум билан кулиб туришларини, сўзларни териб – териб танлаб ишлатганларини, ҳатто қатъият билан жиддий масалалар муҳокама қилинаётгандан ҳам мулоҳиймлик билан, ҳеч қачон овозларини баланд қилмай шижаот билан сўзлай олиш қобилиятларини мамнуният билан эслайдилар. Зулфияхоним раҳбар сифатида таҳририятда ишлайдиган барча ходимларга нисбатан бирдек яхши муносабатда бўлар, қўлидан келганича ҳаммага ҳар томонлама ёрдам қўлини чўзар, ҳар бир Ўзбекистон аёли унинг хузурига ўз дарду ташвишлари билан кела олар, у киши уни тинглай олишини, дардига малҳам бўла олишини биларди. Зулфияхоним ҳеч қачон “раҳбарман” деб ўз кабинетларида узоқ ўтириб қолмаган экан. У ўзи севган ҳалқ орасига шошилар, пахта шийпонларида, далаларда, хонадонларда бўлиб ўзбек аёлларининг шодон ва ғамгин кунларига шерик бўлар, таълим муассасалари ва олий билим юртларида ёшлар билан учрашиб, истеъодод эгаларини топиб, уларнинг ижоди ривожланиши учун шарт – шароитлар яратиб берган эканлар. Бугунги кунда ҳур Ўзбекистонимизнинг забардаст шоираларига айланган Мухтаорама Улугова, Ойдин Ҳожиева, Қутлибека Раҳимбоева, Шарифа Салимова, Гулчехра Жўраева, Инобат Ойдин ва кўпгина бошқа шоиралар Зулфияхоним “кашфиётлари” дир. Зулфияхони ҳам раҳбарликни, ҳам оналикни, ҳам камтарин инсонликни, ҳам садоқатли ёрликни олий даражада ўзида



уйғунлаштира олган хассос шоира эдилар.

Биринчи Президентимиз Ислом Каримов ўзларининг "Юксак маънавият – енгилмас куч" китобида Зулфияхонимни маънавий жасорат соҳибаси сифатида мисол келтириб: "... Нафақат ўз шеърлари, балки бутун хаёти билан ўзбек аёлининг маънавий қиёфасини намоён этган атоқли шоирамиз Зулфияхонимни ҳам мен ана шундай фидойи инсонлар қаторига кўшган бўлардим..."

...бу мураккаб ҳаёт қалби ўз халқи ва Ватанига меҳр – муҳаббат билан тўлиб – тошган, дунёдан эзгулик ва гўзаллик излаб яшаган бу аёлни ҳамма вакт ҳам аягани йўқ. Аслида, бу дунёда айрилиқ ва ҳижрон азоби барчанинг ҳам бошида бор. Аммо ғам – андуҳ ва хасратларни матонат билан енгиб, тоғдек бардоши билан вафо ва садоқат рамзига айланган Зулфия опа сингари аёллар хар қандай юксак ҳурмат ва эҳтиромга муносибидир" – деб ёзгандилар.

Дарҳақиқат, ўзбек халқи Зулфиясининг овози, қалби, аёл назокати, мўътабар инсон орзусини куйлаган шеърлари факат Ўзбекистондагина эмас, бутун Осиёда, жаҳонда ардоқлидир. Ҳалқимиз иззатига сазовор бўлган шоиранинг хотираси абадийдир, чунки унинг издошлари бисёр. 1999 йил 10 июнда юртимизда Зулфия номидаги Давлат мукофоти таъсис этилди. Ҳозирги кунда 200 нафардан зиёд иқтидорли қизлар ушбу мукофотга сазовор бўлдилар. 2007 йил 13 сентябрда давлатимиз раҳбарининг "Тошкент шаҳрида Ўзбекистон халқ шоираси Зулфиянинг ҳайкалини ўрнатиш тўғрисида" ги қарори қабул қилинди. 2008 йил 1 март куни пойтахтимизда Ўзбекистон халқ шоираси Зулфияхоним ҳайкали очилди. Зулфияхоним шеърларидан бунёд этилган самимият, садоқат, вафо, эзгулик, фидойилик ҳайкали шуъласи дилларимизни ҳамиша ёритиб турсин ва нурларга тўлдириб турсин.

Эъзозлар, ардоқлар учун ташаккур

Асли Сиз офтобим, мен зиёсиман.

Тонгларингиз кулсин, дориломон, ҳур

Бахтим шул – ўзбекнинг Зулфиясиман.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият.
2. Зулфия. Бахор келди сени сўроқлаб. Янги аср авлоди. Тошкент.
3. Жалилова Ф. Бу назм боғига киролмас ҳазон. Тонг юлдузи. Тошкент.
4. Назирова А. Зулфияхоним-муҳаббат куйчиси. – Маърифат. Тошкент.



СЛАВЯНСКАЯ МЕЖЛИТЕРАТУРНАЯ ОБЩНОСТЬ. ВЗАИМОСВЯЗЬ РУССКОЙ, УКРАИНСКОЙ И БЕЛОРУССКОЙ ЛИТЕРАТУР

Турдыева М.
Студентка Узбекского государственного
университета мировых языков
madinaturdiyeva56@gmail.com
+998972625888

Annotation: This article discusses the meaning of the term «Slavic interliterary community», as well as the stages of formation, mutual influence of related Slavic literatures. Russian, Ukrainian and Belarusian national literature, originally formed as a single system, as a result of the separation of peoples, the development of each of them proceeded at different rates.

Key words: Slavic studies, system of literatures, national literature, language, Eastern Slavs, Ukrainian folklore, Belarusian literature.

Д.С.Лихачевым был введен в научный оборот термины «система литературы» и «структура литературы», при этом они были применимы как к национальной литературе, так и к группе литератур. Восточно- и южнославянские литературы IX–XIII веков, по мнению Д.С.Лихачева, представляли собой единую систему. Возникает новая самостоятельная научная дисциплина — славяноведение, появляется понятие «славянская межлитературная общность» [1]. Данное понятие обозначает существование генетических связей между славянскими литературами. Общность литературного процесса родственных славянских литератур можно объяснить племенным единством славянских народов, каждый из которых начал обособляться лишь в позднюю историческую эпоху. В дальнейшем общность языка, культуры, быта способствовала возникновению литературных связей, общих тенденций, образов.

Украинская литература или литература, написанная на украинском языке, считается одной из литератур мира, зародившаяся в условиях отсутствия государственности. Произведения начали писаться на украинском языке сравнительно поздно, а современная украинская литература, которая представляет собой систему различных школ и направлений, начала развиваться с конца 80-х XX века. Появление подлинно художественной украинской литературы связано с открытием первого университета на территории Украины. Благодаря студентам этого университета, украинский язык, который считался языком крестьян, приобретает статус языка образованного городского общества. Романтизм пробуждает интерес к изучению украинского народного творчества, появляются тексты на украинском языке в духе романтических тенденций. Украинский фольклор преобладал над письменностью и книжной литературой, что отражается и в русской литературе XIX века, в частности в творчестве А.С.Пушкина, Н.В.Гоголя. В эпоху романтизма в русской литературе 1820-х – 1830-х гг. обязательной литературной тенденцией было широкое использование элементов, образов, мотивов украинского фольклора (украинские баллады Н.Маркевича, «Вечерами на хуторе близ Диканьки» Н.В.Гоголя) [2]. Рядом с этим украинский песенный фольклор использовался и русскими писателями, разрабатывавшими исторические украинские сюжеты: Рылеев («Войнаровский»), Пушкин («Полтава», «Гусар»). В Петербурге благодаря усилиям Евгения Гребинка был издан первый литературный альманах на украинском языке, что способствовало повышению интереса к литературе этого народа.

Белорусская литература развивалась в нескольких этапах. На территории Белоруссии долгое время не было государственного суверенитета. В таких условиях белорусская письменная литература возникла только в конце X века. Современный белорусский язык сформировался на основе западнорусского языка, который был признан государственным Литовского княжества. В результате белорусская литература развивалась на территории этого княжества, однако переняла различные традиции древнерусской литературы. Процесс формирования белорусской национальной литературы был завершен к XVI веку. Значимую роль играла переводная литература, в частности переводы Библии, важнейших памятников светской западноевропейской литературы, возникает жанр летописей, перенявшей черты древнерусских произведений. Белорусская литература выражала стремление народа к



сохранению самобытности языка, культуры. Также темы национально-освободительной борьбы, свободы были актуальными в произведениях белорусских писателей и поэтов разных периодов (Франциск Скорина, А.Мицкевич, Семион Погоцкий, Богданович и т.д.). В XVIII веке развитие белорусской литературы значительно замедлилось в результате запрета издания книг и обучения на этом языке. Также белорусской литературе характерен полилингвизм: многие писатели будучи представителями белорусской и русской культур, создавали свои произведения на польском, латинском, старославянском языках. В этот период происходит приобщение белорусского народа к русской культуре, обе национальные литературы взаимодействуют друг с другом [3].

В белорусской литературе особое место занимает творчество Адама Мицкевича, произведениям которого были характерны поэтизация народного быта, интерес к этнографии, вольность в выборе стиля, жанра, стремление к гиперболизации кульминационных моментов произведений. Белорусская литература XX века представлена творчеством таких крупных мастеров слова, как Я. Колас, М.Богданович, Я.Купала. Они выступали за сохранение национальной культуры, широко пропагандировали произведения польских, украинских, русских писателей. Переводы многих произведений на белорусский язык были сделаны именно в этот период. М.Богдановичем были разработаны новые для белорусской литературы стихотворные формы: октавы, сонета, рондо и др. В 20-х годах XX столетия на основе русской психологической прозы развивается белорусская проза, одновременно идет интенсивное развитие национальная поэзия, драматургия.

Таким образом,

несмотря на разные темпы и условия национального развития, все родственные славянские литературы находились в постоянном взаимодействии, обогащая друг друга новыми тенденциями.

Список использованной литературы

1. Лихачев Д.С. Древнеславянские литературы как система // Славянские литературы // . – М.,1968.
2. Лихачев Д. С. Два типа границ между культурами / Д.С.Лихачев // Русская литература. 1995. - № 3.
3. Институт белорусской культуры и становление науки в Беларуси: к 90–летию создания Института белорусской культуры:материалы Международной научной конференции, Минск, 8–9 декабря 2011 г. / сопред. А. А. Коваленя, В. В. Данилович ; ред. М. Г. Жилинский [и др.]. – Минск: Беларуская навука, 2012.



O'ZBEK ADABIYOTIDA ERTAKCHILIK AN'ANALARI.

*Eraliyeva Nilufar Mamiraliyevna
Farg'onah shahar 32-maktab
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
tel:
e-mail: eraliyeva@mail.ru*

Annotatsiya: maqolada o'zbek adabiyotda ertak janri va uning o'ziga xos xususiyatlari, ertakchlik an'anasi, bolalarni tarbiyalashda ertakning ahamiyati to'g'risida fikrlar bayon etilgan

Kalit so'zlar: o'zbek adabiyoti, ertak janri, kichik ertaklar, ertakchilik an'anasi

Ertak xalq og'zaki ijodidagi badiiy nasrning eng qadimiy va ommaviy namunasi hisoblanadi. Bola juda yoshlikdan ertak eshitib o'sadi. Bolalarni ovutish uchun kattalar ertak aytib beradilar, bolalar ham ulg'ayib, maktabga bora boshlagan vaqtlaridan kichik-kichik ertaklarni o'zlarini ayta boshlaydilar. Bu bolaning bir-biriga aytgan ertaklari qisman kattalardan eshitgani qisman esa o'zi to'qigani bo'ladi. Yu. Sokolovlar shuni nazarda tutib bo'lsa kerak: «Bolalarning bir-birlariga aytib bergen ertaklari esa, deyarli yozib olinmadi», deb afsus qilgan edilar¹. Haqiqatan ham to'plangan xalq ertaklarini aytib beruvchilarni ko'zdan kechirar ekanmiz, aksariyat kattalar tomonidan aytiganining guvohi bo'lamiz.

Ertaklar professional ijrochilikka asoslangan. O'tmishda ertaklar yilning ma'lum davrida, belgilangan paytda ijrochilik salohiyatiga ega bo'lgan yoshi ulug', dono, hurmatli va e'tiborli kishilar tomonidan aytigan. Ertak aytuvchilarni qadimda «ertakchi», «matalchi» deb atashgan. Odadta, bunday professional ijrochilar ertakchi deb yuritiladi. Xalq ertak aytmoqqa jiddiy qaragan. Epik turning doston, ertak, naql singari janrlariga oid folklor asarlar muayyan epik xotira, epik bilim va ijrochilik salohiyatiga, ya'ni maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan professional ijrochilar tomonidan aytildi. Rivoyat va afsonalar esa keng xalq ommasi tomonidan ijro etiladi. Professional aytuvchiga ega bo'lmaslik afsona janrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ekanligini qayd qilgan K.Imomov «afsonani faqat professional ertakchi yoki dostonchi aytishi shart emas, balki eshitgan, bilgan shaxs xohlagan formada hikoya qila oladi», - deb yozgan edi². Folklorshunos U.Jumanazarov «professional aytuvchilarga ega bo'lmaslik, keng ommaviy ijro xarakteriga ega bo'lish xususiyati afsona va rivoyat janrlarining muhim belgisi ekanligini qayd qiladi³.

Shu haqdagi nuqtayi nazarini «Ertak ermak emas, ertakchi og'ziga kelganini demas» maqolida ifodalagan. Ertak ertakchi tomonidan yo bir kishiga, yo butun bir jamoaga qarata aytildi. Bunda aytish mohiyatan ijroga teng. Ertak, umuman folklor namunalarini aytish jarayonlari ham juda qiziq va o'ziga xos. Folklorshunos olimlar B. Karimov, H. Zarifov, M. Afzalov, M. Alaviya, Z. Husainovalarning ma'lumot berishicha, og'zaki ijod asarlarini ijro etishda ijrochilar qat'iy odatlarga amal qilganlar. Xususan, ertak aytuvchilar tinglovchilari yig'ilganidan so'ng o'z oldiga suv, kul, tuproq, isiriq, supurgi, taroq, cho'p va boshqalarni ma'lum tartibda qo'yib ertak aytishni boshlaganlar. Topishmoq aytishda esa g'olib va mag'lub taraflarni belgilovchi shartlar e'lon qilingan. Doston ijrosida Samarcand, Xorazm, Farg'onah, (Namangan) an'analari mashhur bo'lgan. Demak, turli janrlarga oid asarlar ijrosi davomida doimiy ravishda takrorlanuvchi an'analalar muhim rol o'ynagan. Shubhasiz, folklorshunoslikda matniy an'analarga e'tibor berish muhimroq hisoblanadi. Biz bu o'rinda doston, ertak janrlariga mansub asarlarning nasriy va nazmiy shakllarini, asar boshlanmasidagi an'anaviy o'rinnarni nazarda tutamiz. Adabiyotshunoslikda obraz yaratish, konflikt badiiy tasvir vositalari kabi tushunchalar etakchi xususiyatlar sanaladi. Xalq qo'shiqlaridan tortib dostonlargacha, maqollardan tortib ertaklargacha obraz yaratish, voqeani bayon qilish, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish kabilalar o'ziga xos ko'rinishlarga egadir. Aytaylik, ertakchi tinglovchilar diqqatini qozonmoq uchun ertak mazmuniga mos ruhiy holatlarga kiradi, ertak sirli olamini ta'minlash uchun ovoz jilosiga, yuz va gavda harakatlariga (mimika va pantomimikaga) alohida e'tibor beradi, ertakni baqirib-chaqirib aytmaydi, balki

¹ B.Sokolov «Poeziya derevni». Rukovodstvo dlya sobirateley proizvodeniy ustnoy olovestnosti. «Novaya Mosva» 1936.

² Imomov K. O'zbek xalq prozasi. -T.: Fan, 1991. -B. 67.

³ Jumanazarov U. Tarixiy voqyelik va o'zbek folklori. -T.: Fan, 1991. - B.174.



goh shivirlab, goh ovozini ko'tarib, ko'zlarini har xil holatga solib, yumshoqlik bilan samimiy hikoya qiladi. Hayvonlarga xos ovozlarni taqlid qilsa, mifologik obrazlar ovozi vahmkor ohangda bo'lishini ta'minlaydi. Shu taxlitda butun bir ertakni bir o'zi ijro etadi, asardagi ruhiy olamni o'z kechinmalari bilan to'ldiradi va hayajonbaxshligini ta'minlaydi. Shu ijro xususiyatiga ko'ra ertak ijrochiligi xalq yakka aktyor teatrini eslatsa-da, aslida har qanday dekoratsiyalardan va boshqa sahnnaviy atributlardan xoliligi bilan undan farq qiladi.

Ishlab chiqarishning dehqonchilik turi yetakchilik qilgan davrlarda ertak, odatda, dehqonlarning dala yumushlari tugagan paytda — kuz va qish mavsumlarida, uzun va zerikarli oqshomlarda aytilgan va bu o'ziga xos an'ana tusini olgan. Ertakchilik oqshomlari shomdan tonggacha davom etgan. Shundandirki, xalqning o'zi bu hodisani «Doston kunda aytildi, ertak tunda» degan maqolida maxsus ta'kidlab qo'yishni unutmagan.

Garchi ertak eng qiziqarli nuqtasiga — kulminatsiyasiga kelib qolganiga qaramay, tong otgan zahoti uni aytish to'xtatilgan. Xususan, sehrli-fantastik ertaklar ijrochiligidagi bunga qat'iy amal qilingan. Sababi — sehrli-fantastik ertaklarda mavjud dev, pari, ajina singari qorong'ulik olamingning mavjudotlari yorug'lik olamiga chiqib, insonlarga, ayni paytda ertak tinglovchilariga ziyon-zahmat yetkazishlari mumkin, degan e'tiqod tufayli shunday yo'l tutilgan. Qolaversa, ertaklarga xos sirlilikning yo'qolishidan, uning moddiy hayat qobig'iga singib ketishidan qo'rnilgan. Shomdan boshlanuvchi qorong'ulik tonggacha hukmron bo'lganligidan ertaklar olamiga xos sirlilikni kuchaytirgan omilga aylangan. Ertakning kechqurun aytilishi an'anasi aslida ana shu asosda qaror topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo'rayev M. O'zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar. -Toshkent, Fan, 1991.-152 b.
2. Imomov K. O'zbek xalq prozasi. -T.: «Fan», 1981.-104 b.
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: 1999..
4. Imomov K. va b. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: 1990 yil.



MILLIY MA'RIFAT RAHNAMOSI- MAHMUDXO'JA BEHBUDIY

*Norboyeva Shoiraxon Rahimjanovna,
Namangan ixtisoslashtirilgan Olimpiya zaxiralari
maktab - internatining ona tili va adabiyot fani
oqituvchisi. Tel: +998 939475969*

Annotatsiya: Mahmudxo'ja Behbudiy o'z davrida ziylolilarning yetakchisi, ma'rifat fidoyisi, millatparvar sifatida taniladi. Butun umrini jaholat va zulmatni ilm-ma'rifat yog'dusi bilan yoritishga bag'ishlagan Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va faoliyati bugungi yoshlarga o'rnak bo'lishga arziydi, albatta.

Kalit so'zlar: adabiyot, ma'rifat, mutafakkirlar. Maktab, jadidchilik, ilm-fan

Taniqli dramaturg, publisist, din va jamoat arbobi, jadidchilik harakati yetakchilaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy 1875 yili 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan. Mahmudxo'ja tog'asi Muhammad Siddiqning tarbiyasini olgan. Arab tili grammatikasini kichik tog'asi Mulla Odildan o'rgangan. Behbudiy 1899–1900-yillarda hajga boradi; 1903–1904-yillarda Moskva, Peterburgga hamda 1906-yili Qozon, Ufa, Nijniy Novgorod, Misr va Turkiyaga safar qildi. Yoshligidan ilm-ma'rifatga, adabiyotga, siyosatga qiziqib, shu yo'lida o'qib-izlangan, o'zi ham yozishga, elga ma'rifat ulashishga harakat qilgan. Bir necha xorij tillarini o'rganib, chet mamlakatlarda safarlarda bo'lган. Ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib etib, maqolalar, kitoblar yozgan. Xalqni ilmli bo'lishga, o'z huquqlarini anglashga da'vat etgan.

Behbudiy XX asr o'zbek adabiyoti tarixida munosib o'ringa ega. Uning hayoti va ijodiy faoliyati jamiyat hayotidagi jiddiy o'zgarishlar davriga to'g'ri keldi. Behbudiy Turkistonda maktab va maorif, matbuot va teatr, jurnalistika sohalarda ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma'rifiy faoliyat olib bordi. Qishloqlarda tashkil qilingan maktablar uchun bir qancha darsliklar yozdi. Turkistondagi maktablar islohoti Behbudiy nomi bilan bog'liq. Behbudiy yangi usuldagagi maktablar tashkil etish ishida jonbozlik ko'rsatadi. Tirikchilikka o'zini urgan xalqni dunyoning eng ilg'or millatlari qatoriga qo'shish uchun maktablarning o'zi kamlik qilar edi. Shu bois Behbudiy Samarqand shahrinda 1913-yili «Samarqand» nomli gazeta va «Oyna» jurnalini nashr ettira boshlaydi. Ularda millat ahvoli, uning haq-huquqi, milliy til qadri, chet tillarini o'rganish va tarix masalalariga doir maqolalar e'lon qiladi.

U ma'rifat, ilm-fan, badiiy ijod sohasidagi butun faoliyatida millatimiz madaniyati, ma'naviyatining ravnaqi uchun kurashib, buyuk siymo sifatida shuhrat qozongan holda ta'lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr-mulohazalarni bayon etdi. Ustoz ta'lim-tarbiya haqida fikr bildirar ekan, mustamlakachilik davrida bu ishda muvaffaqiyatga erishishning birdan-bir yo'li o'lkada o'zaro ixtiloflarga barham berib, ahillik bilan ilm-fanni rivojlantirish kerakligini bayon etadi. Kattalar va muallimlarga murojaat qilib, ularni yoshlarni bilimli qilishga, mehnatga jalb etishga da'vat etadi. M.Behbudiy o'qituvchilarga qarata ta'lim-tarbiya ishlarini ijtimoiy hayot, jahon miqqosida sodir bo'layotgan voqealar bilan bog'liq holda olib borishni talab etadi. Shunday qilib, O'rta Osiyo mutafakkirlari va o'zbek ma'rifatparvarlari o'qituvchi kuchli xotiraga, iroda va tafakkurga, aql-zakokatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi, ko'zlangan maqsadni amalga oshirish yo'lida jonbozlik, qat'iyatlilik ko'rsatishi, o'quvchilarining ruhiy dunyosiga to'g'ri yo'l topa olishi, ularga ta'sir o'tkazishi, vijdonli, samimi, odobli, nazokatli, ishchan, mas'ul shaxs sifatida faoliyat ko'rsatishi zarur ekanligini o'z asarlarida ta'kidlab o'tadilar. Sharq mutafakkirlari o'qituvchi o'zi o'qib tursagina - o'qituvchi bo'la oladi, agar o'qishni to'xtatib qo'yar ekan, unda o'qituvchilik ham o'ladi, deb haqqoniy aytgandir. Bu haqiqatni yoshi qancha bo'lishidan, Педагогик маҳорат ва техникадан, qanday dars berishidan qat'iy nazar barcha o'qituvchilar yaxshilab bilib olishlari lozim. Yurtimizda matbuot va noshirlik faoliyatining yo'lga qo'yilishi, teatr san'atining asosi va rivoji Mahmudxo'ja Behbudiy nomi bilan bog'liq. Bu ulug' siymo tavalludiga 145-yil to'ldi. Ma'rifatparvar bobomiz ma'naviy merosini o'rganish va nomini ulug'lash borasida keyingi paytda salmoqli ishlar amalga oshirilaypti. "O'zbekkino" Milliy agentligi Buxoroda buyuk tarixiy shaxs, o'zbek dramaturgiyasining asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiy haqidagi tarixiy dramani suratga olish ishlari boshlangan edi. Film o'sha davrning haqiqiy voqealariga asoslangan bo'lib, XIX asr oxiridan XX asrning 20-yillarigacha bo'lган davrni o'z ichiga oladi. Filmning badiiy mohiyati katta epizodli xotiralardan iborat bo'lib, ular orqali Mahmudxo'ja Behbudiyning butun hayot



yo‘liga chuqur nazar solish mumkin. Film haqiqiy tarixiy voqealarga to‘la bo‘lib, unda Qo‘qon xonligining mag‘lubiyati, qochqinlar va harbiy to‘qnashuvlar haqida hikoya qilinadi. Buxoroda Behbudiyning qamoqdagagi so‘nggi kunlari, zindondagi epizodlari suratga olinadi. Bundan tashqari, filmning suratga olish ishlari Toshkent, Samarcand va yurtimizning boshqa shaharlarida ham bo‘lib o‘tdi. Ssenariy mualliflari va film rejissyorlari – Baqo Sodiqov va Ulug‘bek Sodiqovlardir.” Ushbu film “O‘zbekkino” Milliy agentligining maxsus buyurtmasi asosida ma’rifatga yo‘g‘rilgan Islom asoslari va uning asl mohiyatini butun dunyoga ko‘rsatib bergan jadidchilar va xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning fidokorona xatti-harakatlariga ehtirom sifatida suratga olinmoqda. Bunday daholar insonparvar millatimizning asl in’ikosi va ularning yorqin xotirasini tiklash biz uchun farzdir! Filmda aks etgan. Bu yil 145 yilligi keng nishonlanishi kutilayotgan taniqli olim va publisist Mahmudxo‘ja Behbudiy haqidagi mazkur tarixiy drama tomoshabinlar uchun ajoyib sovg‘a bo‘lishi kutilmoqda. Mahmudxo‘ja Behbudiy 1937 yilga kelib qataq‘on qilinadi va 1956 yili oqlanadi.

Xulosa shuki, Behbudiy kabi buyuk alloma va mutafakkirlarimizning ilmiy, ma’naviy va ma’rifiy merosini chuqur o‘rganish yoshlarni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalashda, ularni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida ulg‘aytirishda muhim omil bo‘ladi. Shunday ekan, biz o‘qituvchilar ham Yurtboshimiz fikrlariga javoban Behbudiy o‘gitlarini hayotiy misollar orqali o‘quvchilarimizga tushuntirishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boqijon To‘xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova Adabiyot O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua Birinchi nashr II QISM Toshkent–2017.

2. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2015 yil 3-son.



JASLAR ARASÍNDA KITAPQUMARLÍQ MÁDENIYATÍN EN JAYDÍRÍW: USÍNÍSLAR HÁM MÁSLÁHÁTLER

Ilimiy basshi: Ph.D. Turdieva G.Ó.

Talaba: Nuranov I.B, 1 kurs studenti

*Tashkent mámlekетlik agrar universiteti Nókis filiali
gulaidaturdieva@yandex.ru*

Annotaciya: Kitap bul bilim baylıǵı – tek ǵana elimizdiń jasların kitap arqalı bilim alıwǵa erisiwi arqalı ǵana sana sezimin bayıtılımımız mümkin. Usı maqalada, kitaplardı saylap oqıw, olardı tańlawda belgili, ózi qızıqqanday tarawlar boyinsha tájriybelerin arttırıw mümkin.

Tayanış sózler: kitap, bilim, jaslar, maǵlıwmatlar bazası

Fizikalıq jaqtan salamat, tereń bilim hám zamanagóy dúnnyaqarasqa iye Watanımızdiń táǵdırı hám keleshegi ushın juwakershilikti óz moynına alatuǵın barkamal jas áwladtı tárbiyalaw hámde jetistirip shıǵarıw jolında mámlekетimizde keń kólemlı isler alıp barılmaqta.

Ózbekstan Respublikası Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-jıl 3-aprel kúni jaslar tálim – tárbiyası ushın qosimsha shárayıtłar jaratiw, hayal-qızılar bándligin asırıwǵa qaratılǵan kompleks is-ilájlardı óz ishine alǵan 5 baslamani ámeliyatqa engiziw másseleleri boyinsha jiynalis ótkizdi hám aldaǵı isleniwi kerek bolǵan eń áhmiyetli wazıypalardı belgilep berdi. [1]


Bes baslamani ámeliyatqa engiziw respublikamızda jedel pát penen ámelge asırılıp atırǵan social-siyasiy, social-ekonomikalıq hám basqa tarawlardaǵı reformalar ósıp kiyatırǵan óspirin qábiliyetin jáneďe rawajlandırıw, joqarı tájiriybeli kadrlardı tayarlaw, jurtımız rawajı jolında olardıń belseendi qatnasın támiyinlewdi búgingi kúnniń birlemshi wazıypalarınan biri etip belgilemekte. [2]

Mine usı Prezidentimizdiń 5 baslamasınıń tórtinshi baslamasına tiykar xalqımız, ásirese jas áwladtıń mánawiy intellektual qábiletlerin, sana-sezim hám dúnnyaqarasın keńeytiwde, ana Watanı hám xalqına muhabbat hám opadarlıq tuyǵısı menen jasaytuǵın jetik shaxstı tárbiyalawda teńsiz áhmiyetke iye bolǵan kitapqumarlıq madeniyatin asırıwǵa ayriqsha itibar qaratılmaqta. [3]

Biz ne ushın jaslar arasında kitapqumarlıq mádeniyatin asırıw, dúnnyaqarasın keńeytiw, olardıń sana-sezimin ósiriw siyaqlı wazıypalardı eń áhmiyetli dep sanaymız, sebebi búgingi bilimge qumar, intellektual jetik jas áwlad erteńgi parlaq kelesheğimiz quriwshıları, mámlekетimiz tırnaǵın qalawshı jigerli, tasqın ǵayratlı shaxs esaplanadı.

Jas áwladtı bilim alıwǵa, ilim úyreniwge baǵdarlaw bizge uzaq ata-babalarımızdan miyras. Xalqımızda gáp bar: "Besikten qábirge shekem ilim úyren". Demek insan ómirde óz ornın taba alıw ushın, mánawiy hám ruwxıy jaqtan salamat hám jetik bolıp qáliplesiwi ushın oǵan ilim kerek, ilim úyreniw ushın bolsa kitap oqıw lazım. Kitap oqıw arqalı biz ózimizdi mánawiy rawajlandıramız, sanamızdı bayıtamız. Sonıń ushın da biz bilimge quştar jas áwladtı turaqlı kitap penen támiyin etiwimiz lazım.

Kóphshilikke belgili jaqın bes jıllıqta oqıwshı jaslar, talabalar, keń kitapqumarlar jámiyeti kerekli ádebiyatlardı, ózleri mútájlik sezgen shıgarmalardı jámiyetlik kitapxanalardan, kitap sawda orınlarınan tabıwları müşkil is edi jáneďe uzaq aymaqlarda kitapxanalardıń da jetispewshılıgi bir qatar qolaysızlıqlardı tuwdırar edi. Biraq búgingi künde bular júdá hám mashqalalı iske aylanbay qoysı. Sebebi, búgingi globallasiw hám jetik texnologiyalar ásirinde Internet tarmaǵı arqalı hárqanday kitap hám jahán ádebiyatınıń eń sara dúrdanaların elektron tárizde qálegen jerde turıp júklep alıw hám paydalaniw mümkinshılıgi payda boldı. Endi kitapxanalarda náwbet kútiw, kerek ádebiyatlardı dúkan ba dúkan aralap izlew shárt emes úyimizde otırıp-aq millionlap kitap fondına iye jahánnıń eń iri kitapxanalarına virtual sayaxat etiw imkaniyatı bar. Usınday milliy virtual kitaplar portalumız ziyonet.uz, kitob.uz siyaqlı internet saytları da keń oqırmanlar jámiyetshılıgine birneshe jillardan beri xizmet kórsetip kelmekte.



1-suwret. Kitaplar hám paydalaniwshilar sanı [4.7]

Bir qansha jaslarımız mürujet etedi: Kitap oqıwǵa qızıǵaman biraq oqıǵan kitaplarımıń mazmunın kitaptı tolıq oqıp bolmay turıp-aq esten shıǵarıp qoyaman. Este saqlap qalıw ushin ne islew kerek, onıń jasqa baylanısı barma? Buǵan juwap retinde usını aya alamız, siz qanday da bir kitaptı qolǵa alıp onı oqıwǵa kiristińiz, dáslepki eliw betti oqıp shıqtıńız biraq hesh narse túsinbedińiz be onda bul kitaptı oqıwǵa ele siz tayın emessiz. Yaǵni siziń sana astı qabıǵıńız bul kitaptaǵı maǵlıwmatlardı alıwǵa ele tayın emes. Siz endi bul kitaptı bir shetke alıp qoyıń hám úsh-tórt aydan keyin jáne bir márte oqıp kóriń, jáne túsinbedińizbe onda jáne oqıwdı toqtatıń, mazmunın túsinbew heshqanday kemshilik emes. Qashan siziń sanańız bul kitaptaǵı maǵlıwmatlardı alıwǵa tayyar boladı, sonda bul kitap jeńil oqıladı, ańsat hám tez oqıladı, misli shóllegen adam quniǵip suw ishkendey zawiqli oqıladı.

Ayırımlı ata-analar perzentleriniń kitapqa degen qızıǵıwshılıǵınıń joqlığı, bos waqıtlarınıń quri ótıwi hám erinshekligin aytıp mürujet etedi. Bunday jaǵdaydiń kelip shıǵıwında álbette ata-analarımızdıń ózleri baslı sebepshi boladı. Yaǵni jas áwlad hárdayım ata-anaǵa qarap elikleydi úlgi sıpatında qabil etedi, olarǵa qarap turmız kónlikpelerin iyeleydi, uqsawǵa háreket etedi. Sonlıqtan birinshi náwbette ata-analarımız kitap oqıwı kerek balalarına hár qıylı qızıqlı erteklerdi, hikayaladı oqıp beriwi, kewlinde kitapqa bolǵan ózgeshe súyispenshilikti oyatiwi lazım. Perzentlerine kitap oqıp beriwi ata-analardıń tek ǵana balalarına ruwxıy azaq berip qoymastan ózlerin de mánawiy bayıtadı, erk-ıqrarın bekkemleydi, perzentleriniń kóz aldında jetik tulǵa retinde sáwlelendiredi.

Bir qatar jaslarımız, men kitap tańlawda qıynalaman, ózime kerek maǵlıwmatlardı kitaplardan izlep tabıwım müşkil qalay isleymiz degen sorawlar menen mürujet etedi. Bunday jaǵdayda tiykarınan máslahát beriledi, siz qolıńızǵa túskenn kitaptı alıp oqıybermeń, onıń ornına kitaptı betler aralap bir kózden ótkerip shıǵıń. Yaǵni bir bettiń ústki qatarlarından, keyingi bettiń astıńğı qatarlarından bir kóz juwirtip ótiń. Bul kitaptaǵı maǵlıwmatlar siziń izlegen yaki siziń maqsetli auditoriyańızǵa tuwrı kelse usı kitaptı oqıw usınıs etiledi. Bolar-bolmas, siziń maqsetli auditoriyańızǵa tuwrı kelmeytuǵın maǵlıwmatlar jazılǵan kitaplardı oqıw sizdi tez sharshatıp yaki zeriktirip qoysiwi mümkin. Bunday kitaplardı oqıwdan waz keshkenińiz maqlı.



Tiykarin alip qaraǵanda kitap oqıwdıń bir neshe usılları bar. Solardan biri sózbe-sóz oqıw, mektep dáwirinen baslap úyretiledi kitaptı bir shetten, qoldı basıp qashan kitaptı tolıq oqıp bolmaǵansha oqıwdı dawam ettiriledi. Ekinshi usılı bar, informaciyalıq kitap oqıw, bunda siz qandayda informaciyanı izlep, gilt sózlerdi qarap betler aralap oqıysız, kerekli maǵlıwmattı tappaǵansha betlerge kóz juwirtip shıǵasız. Kitap oqıwdıń jáne basqa usılı intellektual kitap oqıw. Endi siz kitap oqıw procesinde qolnízda qálem boladı. Siz kitaptıń ekinshi avtorına aylanásız, kerekli pikirlerdiń astın sızıp qoyasız, jańadan tuwilǵan pikirlerińzdi sol jerdiń ózine jazıp qoyasız, hár túrli juwmaqlar shıǵarasız. Aradan bir qansha waqt ótkennen keyin usı kitabińzdi jáne bir oqıp kórseńiz aldınlı ózińzdiń qanday pikirlegenińzdi, qanday qızıq juwmaqlar shıǵarǵanıńzdi kórip tań qalasız. Ózińzdi basqasha tärepten qayta elesletesiz. Endigi siz ushın eń qızıqlı mine usı kitap boladı. Kitap oqırmanlarımıǵa usı usillardıń hár úshewin de usınıs etken bolar edim.

Kitap oqıw procesinde biz hárdayım tinish, ózgelerden uzaqta, qolaylı hám jaqtı jerde kitap oqıwdı usınıs etemiz. Sebebi sırtqı ortalıqtın natınıshlığı, qolaysız shárayat, ózgelerdiń kesent etiwi kitap oqıwǵa birqansha kesent beredi. Oqıw procesi mazmunlı hám jaǵımlı boliwı ushın usı faktorlardı da esapqa aliw orınlı.

Kitap oqıw poziciyası qansheli qolay bolsa siz sonshelli kitapqa tereń kirip barasız. Betlerde jazılǵan hár bir jazıwdı sanańızda reallıqqa aylandırasız misli usı hikaya yaki qubılışlar kóz aldińzda júz berip atırǵanday túyiledi. Hámme waqıyalar birme-bir janlana baslaydı, siz endi sol qaharmanlar menen jasay baslaysız, olar endi siziń turmisińzdiń bir bólimin quray baslaydı. Hár bir kitap ózgeshe bir álem, bunı kitapqumar jaslarımıǵ jaqsı túsinse kerek.

Kitap ózi ne ushın oqladı? Kitapta biz bilmegen hár qıylı maǵlıwmatlar jámlengen boladı. Kitap jazıwshıldıń maqseti óz bilgenin basqalar menen de bólisiw, olardı da óz bilimleri menen tanıstırıw xabardar etiwden ibarat. Soniń ushın da jazıwshi hám shayırlar bul dúnyada eki márte jasaydı delinedi sebebi olardıń jazıp ketken ruwxıy hám mádeniy miyrasların biz qásterlep abaylaymız, jas áwlad tárbiyasında qollanamız, qálbimizde saqlaymız. Sonday kitaplar boladı qayta-qayta oqısańzda kemlik etedi, sonday kitaplar bar dúnyanıń iygiligin qálbińzge jaylaydı, al sonday kitaplar bar ayırım adamlar usı kitaptı uslawdı bir ómir árman etedi.

Qalay oylaysız, jas áwladı jaslayınan kitapqumarlıqqa úyretiw sonshelli áhmiyetlime, mektep sabaqlıqlarınan arman ótpegen, ádebiy kitap oqıwǵa ádetlenbegen ayırım jaslarımıǵ da ómirde óz soqpaǵın tawıp ketip atır degen sorawlar tuwiliwı mümkin. Durıs sonday adamlar aramızda barshılıq, olardıń pikirinshe aqsha tapsam boldı, shańaraǵım toq bolsa bunnan artıq nárse kerek emes degen pikir bar. Biz olardıń tutqan jolın qáte dey almaymız biraq, olarǵa aytarımız materiallıq baylıq ótkinshi nárse, búgin bar erteń joq al ruwxıy baylıq bolsa hesh qashan tawsılmayıdı, oni heshkim sizden tartıp alıwǵa qádir emes, ol bir ómirlik baylıq, tek ǵana pul tabıwshı mashina bolmań, ózińzdi turaqlı rawajlandırıń, ruwxıyatıńzdi úzliksız bayıtıp barıń.

Joqarıda aytqanımızday jaslarımıǵdı kitapqumarlıqqa úyretiw dúnyaqarasın keńeytiwde baslı maqset – maǵlıwmatlar bazasın bekkemlew, yaǵnıı hárqanday tarawda bilimge iye boliw, kólikpeler payda etiwden ibarat. Búgingi künde dúnyada globallasıw procesleri kúsheyip, tinishlıq hám tatiwlıqqa qarsı jańa qáwipler bargan sayın kúsheyemekte. Atap aytqanda ruwxıy hújimler, kiber hújimler, eskremistik qáwipler ásirese jaslar sanasın záhárlewge qaratılǵan boladı. Ózleriniń gárez niyetlerin ámelge asırıwdı sanası ázzi, ruwxıyatı jarlı jaslardı óz torına ilindirip aladı. Mine usı sıyaqlı bilimsizlik, nadanlıqtıń aldin alıwdıń eń baslı joli jaslardı bekkem erk-iqrarlı, erteńgi parlaq keleshekke ullı maqsetler menen qádem taslaw, mehir-múriwbet hám insaniylıq paziyletlerge bay etip tárbiyalap shıǵarıwdan ibarat. Bul jolda uzaq ásirlerden miyras ulıwma insanıy qádiriyatlardı, tereń ilim-bilimdi ózinde jám etken kitap teńsız áhmiyetke iye.

Ádebiyatlar:

1. <https://president.uz/uz/lists/view/2471>
2. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń Qararı PQ-4467 2019-jıl 30-sentyabr
3. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń Qararı PQ-3271 2017-jıl 13-sentyabr
4. <https://library.ziyouz.uz/uz/book/index/20>
5. <https://kitob.uz/about-us>
6. <https://ziyouz.uz/portal-haqida/portal-tarixi/>
7. www.natlib.uz/bbs/content/94_538644



NAVOIY IJODIGA BIR NAZAR

*Xurshida Berdiyorova Jambulovna
Qashqadaryo viloyati Koson tumani
95- IDUM ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.
Telefon: +998 99 380-85-13
Xidirova Saodat Allayorovna
Qashqadaryo viloyati Koson tumani
21- umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon: +99897 229-72-72
xurshida.berdiyorova@mail.ru*

Annotatsiya: Ushbu maqolada g'azal mulkining sultonı Alisher Navoiyning turkiy tilga qo'shgan hissasi va Navoiy asarlarining mazmuniy g'oyasini o'rganish haqida so'z boradi.

Kalit so'z: Komil insonni tarbiyalashga bag'ishlangan „Hamsa” asari

Odami ersang, demagil odami,
Oniki, yo'q, xalq g'amidin g'ami...

Yuqorida misralarning o'ziyoq Alisher Navoiyning nechog'li daholigi, yurtparvarligidan, inson qadr-qimmatini bebaho darajaga qo'yishidan dalolat berib turibdi.

Birinchi Prezidentimiz yurtboshimiz Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimizning yuksak minbaridan turib, atoqli shoir Erkin Vohidovga qarata «Erkin aka, biz, o'zbeklar, buyuk bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiyni qanchalik bilamiz? Navoiyni yaqindan bilishimiz uchun nimalar qilishimiz lozim?» deb savol bergandi. Shunda Erkin Vohidov: «Muhtaram Prezident, Siz bizning ma'naviyatimizning eng katta muammosini ko'targaneringizdan butun xalqimiz behad mammun bo'ldi. Biz, albatta Navoiyni o'rganishimiz, yoshlarga o'rgatishimiz lozim» deb javob qaytargan edi.

Shu tariqa, yurtimizda hazrat Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Xususan, shoirning o'zbek tili taraqqiyoti uchun bevosita amaliy jihatdan bebaho xizmat qiladigan, ayniqsa, ona tilimiz-turkiy tilda yaratilgan „Xamsa” asarining g'oyalarni o'rganish o'zbek tili va adabiyotini o'qitishning asosiy dasturidan o'rin oldi.

«Hayrat ul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sabbai Sayyor», «Saddi Iskandariy» singari besh mukammal dostonдан iborat bo'lgan «Xamsa» ning asosiy g'oyasi komil insonni tarbiyalashga qaratilgandir. Jumladan, «Hayrat ul-abror»ni yaratganda shukronalik hamda dunyoning go'zalligiga go'zallik qo'shish, «Farhod va Shirin»da mukammal inson tarbiysi, «Layli va Majnun»da yorga nisbatan vafoli va sadoqatl bo'lism, «Sabbai Sayyor»da oshiq va shoxlik o'rtasidagi mutanosiblik va nihoyat, «Saddi Iskandariy» da adolatli podshoh g'oyalari ilgari surilganki, bu g'oyalarni o'rganish yuksak mahorati orqali bir biri bilan nihoyatda uyg'unlashib ketgan. Ularni o'qiganingizda, xalqimizning daho shoiriga tasannolar aytmasdan, ijodining mukammalligiga lol qolmasdan ilojingiz yo'q.

Buyuk allomalar Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy hamda Abduraxmon Jomiylar tomonidan forsiy tillarda yaratilgan shakllardan farqli o'laroq Alisher Navoiy «Xamsa»si inson mukammalligiga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Navoiyning buyuk bunyodkorlik ishlari uning yetuk jamoat arbobi sifatida Hirotda bunyod etgan «Ixlosiya», «Xalosiya», «Unsiya» kabi madrasalari, «Shifoziya» singari tibbiyot muassasi, o'nlab robotlari, sardobalari, bog'lari, rastalari, karvonsaroylari timsolida ham yaqqol namoyon bo'ladi.

Xullas, hazrat Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o'rganish uning davridan to hozirga qadar davom etib kelayotganligi kishini hayratga solishi tabiiydir. Biz bevosita ulug' bobokalonimizni «Xalqning buyuk dahosi» deb atashga ming bora xaqlimiz.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Alisher Navoiy „Hayrat ul-abror” Toshkent G'ofur G'ulom nashryoti 2017-yil.



BARCHANING KO'NGLIGA YO'L TOPGAN ASAR.
(ADABIYOT O'QITUVCHILARIGA YORDAM)

*Abdullayeva Husnida
Namangan viloyati Namangan shahar 2-DIUMI
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola barcha kitobxonlarda O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asariga bo'lgan qiziqishni oshirish, asarni ma'naviy jihatdan to'g'ri tahlil qila olishga, kitobxonlarda zaruriy va hayotiy ko'nikma paydo qilishda, asar voqealarini bugungi kun bilan bog'lay olishida ahamoyati katta.

Kalit so'zlar: sakkizinchi mo'jiza, novella, qissa, insonni qadrlash, onalarga bo'lgan mehr, hamjihatlik, alla, umr o'tkinchiligi, kitobxon olami va yozuvchi olami.

Har bir kitobxonning o'zi yoqtirgan, doimo qalbiga taskin bera oladigan bir kitobi bo'ladi. Kitobxon ana shu kitobni qo'lga olganda qalbida o'zgacha bir iliqlik, o'zgacha bir kayfiyat, o'zgacha bir his-tuyg'u paydo bo'ladi. Kitobni o'qiy boshlaganda esa kitobxon yozuvchi kashf qilgan olamga singib, kirishib boraveradi. Bu holat har birimizni hayratga soladi. Ajab, bu ne holat? Buning siri nimada? Nega o'z olamimizni butunlay unutib, yozuvchi yaratgan olamda yashay boshlaymiz? Bu savollar har bir kitobxoni o'ylantirishi, tinchlik bermasligi tabiiy. Badiiy asar yozuvchi iqtidori va xayoloti mevasidir. Asar muallifi qanchalik iste'dodli bo'lsa, asar ham kitobxoni shunchalik o'ziga rom etadi va kitob sakkizinchi mo'jiza ekanligiga yana bir bor amin bo'lamiz.

O'tkir Hoshimovning barcha asarlari o'zining hayotiyligi, soddaligi, inson ichki olaminining keng olib ber olishi bilan kitobxonlar ko'nglini zabit eta olgan. Adib asarlarini har qanday kasb egasi mutolaa qilsa ham undan rohatlana oladi. Har gal adibninig "Dunyoning ishlari" asarini o'qishga kirishsam, asar voqealarini meni o'ziga rom qilib, bir zum bo'lsa ham shu voqealar ichida yashay boshlayman. Asardagi har bir qahramon men uchun azaldan tanishdek, u bilan yonma-yon yashayotgandek, u bilan ko'p marotaba suhbatlashgandek his qilaman o'zimni. Asarni bir necha bor o'qigan bo'lsam ham har gal yangi-yangi fikrlar tug'ilaveradi va taniqli adib O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmadning gaplari yodimga tushadi: "Dunyoning ishlari" asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib, o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlarimizning aqalla bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi". Asarni qo'lga olganimda, albatta, kirish qismini takror o'qiymen. Chunki kirish qismidagi jumlalarning o'ziyoq asar voqealarini bilishga undaydi.

Adib asarning kirish qismini mana shunday jumlalar bilan boshlaydi: "Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz odam-onam siyomosi bor. Bundagi odamlarning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Faqat ba'zilarining ismi o'zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihat bilan onamga bog'langan. Dunyodagi hamma onalar farzandiga munosabat bobida bir-biriga juda o'xshaydi. Bas, shunday ekan, bu asar sizlarga bag'ishlanadi, aziz Onajonlar!"

Adibning yuqorida so'zlariyoq asar mohiyatini olib ber olaadi. Asardagi har bir novella alohida voqelik asosida yoritiladi. Yozuvchi tanlagen har bir qahramon o'z ichki dunyosi, o'z tashvishi, o'z o'tmishiga ega. Lekin har bir novellada butun bir asarni birlashtirib turadigan ona obrazi uchraydi. Adib o'z onasi orqali dunyodagi barcha onalarning mehrini, farzand o'stirishdagi zahmatini, soddaligini, samimiyligini, ma'yusligi va quvonchini aks ettira olgan. Har bir go'dak ilk marotaba ko'zlarini ochganda qarshisida mehr bilan uni qarshilayotgan onasini ko'radi. Shu paytdan boshlab farzand qalbida mehr paydo bo'ladi. Onaning mehri esa o'z farzandi vujudida paydo bo'lgandayoq uyg'onadi. Asarning "Alla" deb nomlangan qismida tunlari bilan mijja qoqmay o'z farzandining kamolini ko'rish uchun alla aytayotgan ona timsoli gavdalanadi. O'z orzu-umidlarini allalariga singdirib:

Yigitlarni sardori bo'l, jonim-a,

Yuragimni madori bo'l, alla...

deb nola qilayotgan onaizorni ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda yozuvchining bir fikrini



aytib o‘tishni joiz deb bilaman.” Ona uchun bolaning katta-kichigi bo‘lmaydi. Endi yana bir haqiqatni angladim. Bola uchun ham onaning katta-kichigi bo‘lmas ekan. Ona ona ekan. Unga boshqa sifat kerak emas”. Haqiqatan ham, onalar farzandlari uchun hech qachon qarimaydi. Adibning asarlarini yoshligimdan qiziqib o‘qiganman. Bilasizmi, har bir asarni turli yoshda o‘qisangiz, turlicha xulosalar chiqarasiz. Masalan, asaridagi “Gilam paypoq”degan hikoyani yoshlik paytlarimda o‘qib, o‘z onamni ko‘z oldimga keltirib, juda ta’sirlanar edim. Keyinchalik bu hikoyani ona bo‘lganimdan keyin o‘qiganimda yana ham o‘zgacha ta’sir qila boshladи. Chunki farzandni ulg‘aytirish mashaqqatini o‘z boshimdan o‘tkaza boshladim va yanada hikoyadagi onaning holatini tushuna boshladim. Har bir ona o‘z farzandi uchun barcha narsaga bardosh bera oladi. Hatto farzandlari tufayli orttirgan dardlari uchun ham hech qachon ularni ayblamaydi. Bu faqat onalargagina xosdir. Doimo onalarimiz barcha farzandlarini ahil va inoq bo‘lishina xohlashadi. Asardagi “Haqqush” hikoyasida ham yozuvchi ana shu jihatga alohida to‘xtalgan. Ushbu hikoya farzandlarni doimo hamjihatlikka chorlaydi. Bugungi kun uchun ham bu hikoya juda ahamiyatli. Chunki farzandlarimizni hamjihat yashashga o‘rgatish, bir-biri bilan ahil bo‘lishi uchun doimo har birimiz qayg‘uramiz.

Asarning yakunlovchi qismida adib shunday jumlalar keltiradi: Esingizdam , oyi, siz bir marta , atiga bir marta o‘shandayam hazillashib.” Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o‘g‘lim”, degandingiz. Men:” Sizning nimangizni kitob qilaman, oyi?” degen edim. Xafa bo‘lmang, men hazillashgandim. Mana, o‘sha kitob. Yo‘q, uni men yozganim yo‘q. Uni siz yozgansiz. Men uni qog‘ozga tushirib, odamlargatarqatdim, xolos. Men uni dunyodagi hamma onalar o‘qishini xohlayman. Bilaman, dunyodagi hamma onalar yaxshi. Shunday bo‘lsayam, ularning hammasi sizga o‘xhashini xohlayman...

Har bir kitobxon asarni yakunlar ekan, albatta, ko‘zlarida yosh qalqimay iloji yo‘q. Chunki asardagi ona obraqi orqali barchamiz o‘z onamizni ko‘z oldimizga keltiramiz. Bizning shu yoshga yetguncha erishgan yutuqlarimizda onalarimizning chuqur zahmati yotganligini yana bir bor his qilamiz. Bugungi kunda farzandlarimga juda ko‘p marotaba bu asarni o‘qib beraman. Asardagi voqealarni ular ham tahlil qilishga urinishadi. Birgalikda xulosalar chiqaramiz. Adibning bu asari farzandlarim tarbiyasiga juda yaxshi ta’sir ko‘rsatyapdi.

O‘tkir Hoshimovning nafaqat “Dunyoning ishlari” asari, balki boshqa asarlari ham kitobxonlar ko‘nglini zabt eta olgan. Adib asarlari har qanday zamonalarda ham muhlislар qо‘lidан tushmaydi, takror-takror mutolaa qilinaveradi. Kitobxon asarni o‘qiy boshlashi bilan adib o‘zining ikkinchi umrini yashay boshlaydi. Bu umrning esa chegarasi yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yangi asr avlodи, 2015.
2. Sunnat Musamedov. Dunyoning ishlari tugamaydi. Sinfdosh jurnali, 2016
3. Zamira Ro‘ziyeva. Dunyoning ishlari qissasidan parchalar Manba:www.qashqadaryogz.uz/



NAVOIY ASARLARIDA QO'LLANGAN AYRIM FITONIMLARNING BADIY-USLUBIY XUSUSIYATLARI

*Chust tuman
40-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot o'qituvchisi
Asalxon Mahmudxonova*

Annotatsiya: Mir Alisher Navoiy ijodiyotiga murojaat qilganimizda, undagi soddalik va murakkablik, xalq tili va adabiy til unsurlarini birgalikda, uyg'unlikda ko'rishimiz mumkin. Navoiy oddiy xalq tili vositasida ham rang-barang ma'noli jumlalar tuzadi. Oddiygina rang nomlari, meva nomlari orqali ham ramziy ma'no yaratadi.

Mevalarning rangi, ta'mi, tuzilishini inson holatlariga qiyoslaydi.

Boshimni ko'p atrofida mayfurush,

Uzum jismidek poymol ayladi.

(“G‘aroyib-us sig‘ar”693)

Uzumning ko'rinishi barchamizga ayon bo'lib, o'nlab shingillari, yuzlab donalari bor. Yuqoridagi misrada “boshimni poymol ayladi” deganda, ko'pchilik oldida yuzini yerga qaratganini, uzum jismidek poymol qilganini aftyapti.

Navoiy asarlarida insonlarni xarakteri va xususiyatlarga ta'rif berishda ham meva nomlaridan foydalangan:

“Bir sabat uzum uchun bir bog‘ni kuydurmakdin g‘ami yo‘q va bir botmon bug‘doy uchun xirmonni sovurmoqdin alami yo‘q”

(“Mahbub ul-qulub”)

Yuqoridagi misrada o‘z manfaati yo‘lida barcha yomon ishlarga qodir, dunyo ne’matlarini isrof qiluvchi odamga ta'rif berilgan.

Qobilg‘a¹ tarbiyat erur ul nav² kim, guhar,

Tushsa najosat³ ichra yug‘ay kimsa oni pok.

Gar it uzumig‘a kishi may birla bersa suv,

Bu tarbiyat bila qila olg‘aymu oni tok.

(“Mahbub ul-qulub”)

Bu jumlada ritorik so‘roq gap mavjud bo‘lib, ya’ni yovvoyi, ko'rinishi uzum shodasini eslatuvchi mevani may bn sug‘orilsa ham tok bo‘ladimi? Yo‘q hech qachon u tok bo‘la olmaydi. Aslida Navoiy it uzum haqida emas insonlarni ko‘zda tutgan holda bu misrani yozgan. Ya’ni bilimga, tarbiyaga intilmaydigan tanbal odamga qancha ta’lim- tarbiya bersa ham uning o‘zida layoqat bo‘lmasa, barchasi zoya ketadi.

Ko‘p asarlarda ma’shuqaning ko‘zlarini bodomga, ohu ko‘zlariga qiyoslanadi. Navoiy asarlarida ham bu holatni ko'rishimiz mumkin:

Ko‘zlarining bodomi hajridin bo‘lub jismim saqim⁴,
Chiqti jonim ey qorako‘z, baski hajring berdi biym⁵.

Bu vasiyat qilmishamkim, mushfiq⁶ yoru nadim⁷,

Na’shma ul ko‘y tufrog‘ini qilg‘aylar karim⁸.

Chun qaro bodom tobut uzra rasmedur qadim,

Ko‘z janozam sori solkim, sensizin bo‘ldum qatl.

(“Badoye ul bidoya”)

Parchada ko'rinish turibdiki oddiygina bodom mevasi tobutga qiyoslangan. Hazrat Navoiyni hayolot dunyosi o‘ta keng bo‘lganligi, haqiqiy so‘z ustasi bo‘lganligidan dalolat beradi.

¹ Qobil-qobiliyatli.348 b

² Nav-yangi mohi-yangi oy.196 b

³ Najosat-kir iflos. 198 b

Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at.Toshkent. Fan,1993

⁴ Saqim-kasal. 248 b

⁵ Biym-xavf,xatar,qa‘rinch.48b

⁶ Mushfiq-shafqatli. 192 b

⁷ Nadim-yaqin do‘st. 198 b

⁸ Karim-sahiy,mehribon. 130 b



Quyidagi misrada esa pistani inson og‘ziga qiyosangan :

Og‘zing bila pista o‘chashur puchuqlug‘idin,
Bilmonki, o‘shul og‘zi ochuq qayda bo‘lubtur?
(“Badoye ul bidoya”)

Nima uchun Navoiy pistani inson og‘ziga o‘xshatgan? Badiiy adabiyotda yorning og‘zi judayam kichikligi haqida aytishadi. Yuqoridagi jumlada ham Navoiy yorning og‘zi kichikligini pistaga qiyoslayapti.

Hazrat Navoiy insonning ichki kechinmalarini, dard xastarlardan o‘rtangandagi holatini meva rangi orqali qiyoslab bergen:

Sebki¹ davri orazin² rangi birov hijronidin,
Olmadek bo‘lmish qizil bir yoni ashkim³ qonidur.
(“Navodir un-nihoya”462)

Olmaning qizil rangi qonga o‘xshatilyapti, hijron sababli shu holatda tushgan insonga ta’rif berilgan. Inson kimnidir sog‘insa, yoki unda yeta olmasa, ko‘ngliga hech nima sig‘may qoladi. Achchiq ko‘z yosh to‘kib o‘zini ovutishga urinadi. Shu paytda ko‘nglida bir olov yonadiki, butun vujudini qizdirib, kuydiradi. Shuning uchun ham hijron azobida qolgan kishining yuzi qizil olmaga qiyoslangan.

Seb so‘zi fors-tojik tili leksikasi bo‘lib, u eski o‘zbek tilida ko‘p o‘rinlarda olma so‘zining sinonimi sifatida qo‘llanilgan.

Shuningdek, Navoiy yorga ta’rif berish uchun ham meva, shirinliklar nonlaridan ham ko‘p foydalangan:

Ne uchun bazmi visol ichinda ichmay bodakim,
Ko‘ziyu og‘zi bugun bodomu shakkardur mango.
(“G‘aroyib us sig‘ar”)

Yorning ko‘zini bodomga, labini esa shakarga qiyoslayapti.

Navoiy asarlarini o‘rganish davomida ko‘plab meva nomlarini o‘sha davrdagi muqobilini o‘rganishga tuyassar bo‘ldim. Masalan hozirgi kundalik so‘lashuvda foydalaniladigan g‘o‘ra so‘zi Navoiy asarlarida g‘ura tarzida qo‘llanilgan ekan. Bu so‘z asli fors-tojik tilidan eski o‘zbek tiliga o‘tib o‘zlashgan.

Taammul⁴ bila kom⁵ paydo bo‘lur ,
Tahammul⁶ bila g‘uradin halvo bo‘lur.
(“Saddi Iskandariy”)

Misraning tub ma’nosi shundaki, nimagadir erishmoqchi bo‘lsang o‘ylab, mulohaza qilib unga erishishing lozim. Buning uchun eng asosiy narsa sabrdir.

Ko‘rinib turibdiki, Navoiy asarlarida tarbiyaviy, ibratomuz g‘oyalar juda ham ko‘p.
Shuningdek, asarlarni kuzatish davomida zardoli meva nomiga ham duch keldim.
Shayx ul-islom debdurki, bir kun, medin nafs zardolu tiladi.
(“Nasoyim ul-muhabbat”)

Meva nomi zardolu shaklida qo‘llanilgan ekan. So‘zlarda, ko‘pincha, uni tashkil qiluvchi bo‘laklarning asosi ma’lum bo‘lmaydi. Qo‘shma so‘zlarning ko‘pchiligidagi esa bo‘laklar u darajada o‘zaro kirishib ketmagan bo‘ladi. Zardolu so‘zi ham shu formada ekan. Lekin bu so‘z XV asrgacha bo‘lgan turkiy yozma manbalarda uchramaydi.

Olisha esa ~olu shaklida qo‘llanilgan.
Husnu ra’noliq bila dastori uzra sonchibon,
Vahki, shaftolu gulidur, yo erur olu gul.

(“Badoye ul-vasat”)

Olu so‘zi fors tilidan turkiy tillarga o‘tib o‘zlashgan va o‘zbek tilida faol qo‘llanilgan so‘zlardan biridir.

¹ Seb-olma. 249 b

² Oraz-yuz. 215 b

³ Ashk-ko‘z yosh. 30 b

⁴ Taammul-o‘ylab ko‘rish,mulohaza qilish. 262

⁵ Kom-maqsad,istak. 134 b

⁶ Tahammul-sabr,chidam. 277 b



Anor so‘zi bir vaqtning o‘zida ikki xil shaklda foydalanilgan. Bular ~anor va ~nor shakllaridir. O‘z ilgida bir anor bo‘lsa bilmaski, necha parda va necha xonasi bor va har parda va har xonasida necha donasi bor va ul dona achchiqmudur yo zumuxtvash yo chuchukmudur va yo mayxush. (“mahbub ul-qulub” 26)
Quyidagi misrada esa nor shaklida qo‘llanilgan:

La’li rummoniy¹ tilarsen dam-badam ziynat² uchun,
Qatra-qatra bag‘ring andin nor dek qon bo‘ldi tut.
("G‘aroyib us-sig‘ar"89)

Ko‘rinib turibdiki, Navoiy asarlarida bir mevaning bir necha tillardagi nomlari qo‘llanilgan. Hazrati Navoiyning har bir kichik g‘azaldan tortib katta bir dostonlarigacha bir sehr borki, insonni mahliyo qilib qo‘yadi. Men ham shu ajib misralarning bir zarrasi bilan tanishgan holda Navoiy bobomni yana bir marta o‘zim uchun kashf qildim. Bir bisrani takror o‘qib ko‘ringa, har safar yangi bir jumboqni kashf etasiz go‘yo. Ul zotning nomlari doimo bizning qalbimizda ekan, demak ular tiriklar. 577 yoshingiz muborak.

1 Pummon –arabcha-anorlar
2 Ziynat-bezak. 100 b



“QUTADG‘U BILIG”DA QO’LLANGAN DINIY TERMINLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

*Asrorova Umidaxon Muxtorjonovna
Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on tumani
63 sonli maktabning Ona tili va adabiyot
fani o‘qituvchilari Tel raqam:+998993016971*

Annotatsiya: Mustaqillik sharofati bilan ko‘plab ilmiy, diniy-tasavvufiy ma’naviy boyliklarimizni o‘rganish hamda tadqiq etish imkoniyatiga ega bo‘ldik.Ushbu maqolada “Qutadg‘u bilig” asarida qo’llangan diniy terminlarning semantik xususiyatlari haqida o‘z fikr va mulohazalarimizni bayon etamiz.

Kalit so‘zlar: termin, didaktik, hamd, na’t, bayt, sano, diniy,dunyoviy, asar. “Qutadg‘u bilig” asari o‘sha davr uchun an’anaga aylangan hamd va na’t qismlaridan boshlanadi. Aynan shuni asarda diniy terminlarning ko‘plab uchrashiga sabab deyishimiz mumkin.Biz bugungi tadqiqotimizda “Qutadg‘u bilig” asarida qo’llangan diniy terminlarning ma’nolari xususida fikr yuritib, ularning lug‘aviy hamda terminologik ma’nolarini izohlashga harakat qilamiz. Asarda qahramonlarning nomlanishida ham diniy-tasavvufiy tarzda yondashilganini ko‘rishimiz mumkin.

Asar didaktik xarakterga ega bo‘lganligi sababli hamda ana’naviy hamd va na’t qismlari mavjudligi uchun ko‘plab o‘rinlarda diniy istilohlar qo’llangan:Ug‘an bir bayat-ul qamug‘dan uze O’kush hamdu ogdi anar-oq saza(Qodir bir xudo barchadan ustundir,

Talay hamd-u sanolar untagina sazodir.)

Yuqoridagi baytda qo’llangan xudo, hamd va sano so‘zлari diniy termin sanalib, bu so‘zlarga “Diniy atama va iboralar” izohli lug‘atida shunday ta’rif berilgan. Xudo- butun olamlarni yaratuvchi zot, parvardigor, alloh. Hamd- maqtov, maqtash, ulug‘lash, sharaflash degan ma’nolarni bildiradi:Hamd ul zotg‘akim Robbu jahon,Xoliqi arz-u samo-u ins-u jon Sano-Alloh taoloni maqtovchi, ulug‘lovchi, madh etuvchi kalimalar va duolar. Sano duosi ham mayjud bo‘lib, u quyidagicha: “Subhonaka allohumma va bihamdika va tabaro kasmuka va taolo jadduka va la ilaha g‘oyruk”, ya’ni “Allohim! Sening noming muborakdir. Shon-sharafingulug‘dir. Sendan o‘zga iloh yo‘qdir”.Ulug‘lug‘ idisi ug‘an zuljalal

Yaratqan to‘ratqan ma qadir kamal(Ulug‘lik sohibi, qodir zuljalol,Yaratuvchi, bino qiluvchi hamda qodir kamol.)

Zuljalol- ulug‘lik, sharaf va karam egasi, ya’ni Alloh, xudo. E yer ko‘k idisi xalayiq bile

Rozini anutmish yegil sen kule(Ey, xaloyiq bilan yer-u ko‘kning egasi,

U rizqni hozirladi, sen kulib yegin.)

Rizq- arabcha.- Ulush Yashash uchun zarur narsalar, ulush, hissa. Alloh taolo odamlar va hayvonlardan iborat o‘z maxluqotlariga bergen va ular manfaat olgan dunyoviy va uxroviy har bir narsa “rizq” deyiladi. Insonlar o‘zлari uchun berilgan rizqni ikki xil yo‘l bilan topishi mumkin: halol yo‘l bilan yoki harom yo‘l bilan.

Dorud ul o‘durmiss rasulqa salam

Yeme eshlerike salam ham ulam

(Saylangan rasulga durud va salomlar,Shuningdek, chahoryorlariga ham cheksiz salomlar.)

Rasul- arabcha, elchi. Allohning amr va yo‘l-yo‘riqlarini insonlarga yetkazadigan va kitob, yangi shariat sohibi bo‘lgan hamda bandalar ichidan tanlab olingan payg‘ambar.

“Qutadg‘u bilig”da diniy terminlar umumiste’moldagi so‘z maqomida qo’llangan. Ilmiy jihatdan yondashilganda esa ular terminologik sistemadan o‘rin oladi. Mazkur asarda qo’llangan so‘zлarning ko‘p qismi diniy-tasavvufiy terminlar sanaladi. Demak, bitta so‘z bir matnda oddiy so‘z bo‘lsa, boshqa bir matnda termin hisoblanadi. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, mumtoz adabiyot namunalarida diniy sohaga oid terminlar ko‘plab qo’llangan. “Qutadg‘u bilig”da qo’llangan terminlar terminlik ma’nosidan tashqari alohida lug‘aviy ma’noga ham egadir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Мухторхон Эшон Умархўжа. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. Тошкент, 2016.

2. Shayx Zohidxon Qodir Otaxon o‘g‘li. Payg‘ambarlar qissasi. T.:// Qomuslar bosh tahririysi, 1993, 7-b.

3. Yusuf Xos Hojib Qutadg‘u bilig. Toshkent “Fan”, 1971.



OGAHIYNING BADIY MAHORATI

*Boboyeva Go‘zal Qobilovna
Toshkent shahri. Uchtepa tumani
296-maktab o‘zbek tili va adabiyot o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ta’lim olish jarayonida adabiyot fanini san’at darajasida o‘rganish uchun badiiy mahorat masalalarini kengroq tushunish va badiiy asarlarni chuqurroq tahlil etish zarur. Ushbu maqlada Ogahiy ijodiy me’rosi-she’riyati badiiyati xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, san’at, she’riyat, g‘azal, badiiy san’at, iyhom, tanosib, irsolis, masal, tamsil, husni ta’lil.

Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy barakali ijod qilgan san’atkor sifatida haqli ravishda Alisher Navoiyga qiyoslanadi. XIX asr Xorazm adabiyotining yirik namoyandasasi Ogahiy serqirra iste’dod sohibi bo‘lib, u shoirlilik iqtidori, tarixnavis salohiyati, tarjimonlik mahorati bilan o‘zbek madaniyati ravnaqiga katta ulush qo‘shtan.

Ogahiydan bizga katta ijodiy merosi qolgan. Uning salkam 500 ga yaqin g‘azali, mumtoz she’riyatimizning o‘nlab boshqa janrlarda yozilgan muxammas, musaddas, ruboiy, qit’a, tuyuq, qasidalar, forscha bitgan she’rlari, ko‘plab tarixiy asarlari tarjimalari olti jildda chop etilgan.

“Ta’viz ul-oshiqin “ o‘zbek mumtoz adabiyoti xazinasidagi eng yirik va qimmatli devonlaridan hisoblanmish she’riy merosidir. Ogahiy “til tiyg‘i tortib, maoni mulkini olgan” sanatkordir. Uning badiiy qudrati haqida fikrashdan avval, shuni ta’kidlash lozimki, yosh Muhammadrizoning “Til tiyg‘i” Alisher Navoiyning mahorat muktabida charxlangan, sayqal topgan. Ulug‘ Navoiyga ergashish, uning asarlaridan iqtibos olish, fikr-g‘oyalalarini sharhlash barcha Navoiyga izdosh o‘zbek mumtoz shoirlari qatori Ogahiyga ham fazl-u iftixon sanalgan:

*Ogahiy, kim topqay erdi so ‘zi nazmingdin navo,
Bahra gar yo‘qtur Navoiyning navosidin sango.*

Badiiy so‘zning ma’no miqyoslaridan keng foydalanish, ya’ni ma’no qirralarini topish jihatidan ham Ogahiy Navoiydan keyin “eng ko‘p va eng xo‘b aytqon” shoirlardandir. U ataylab badiiy san’at qo‘llamaydi, uning qalamiga tushgan so‘z san’at bo‘lib muhrlanadi:

*So‘z labidin ul ado birla chiqorkim, rashkidin
Tushgusidur la ‘li serob-u duri maknung‘a o‘t.*

Mazkur baytda kamdan-kam san’atkor yaratishga tuyassar bo‘lgan nodir ma’naviy san’at – iyhom yuzaga kelgan. Iyhom san’atining sehri shundaki, shoir forsiy tildagi “so‘z”ning ma’nolarini ham bir yo‘la mujassamlashtirgan. Tavoze‘g‘a ham o‘lmoq sarbaland o‘lmoqqa mujibdur,

Falakka xamdurur ushbu jihatdin borho qomat.

Tamsil san’ati talabiga ko‘ra, shoir birinchi misrada hurmat, odob to‘g‘risidagi fikrini ifodalaydi va ikkinchi misrada shu fikrining hayotiy isboti tariqasida tabiatning hikmatli bir holatini misol keltiradi. Husni ta’lil san’atida ham shunga yaqin usul qo‘llaniladi. Shoir badiiy fikrni chiroyli asoslash, dalillash yo‘lidan boradi:

*Kelgil ,ey o‘tlug‘ ko‘ngil, eski chopong‘a qone’o‘l
Kim, hamisha jismig‘a kuldin qilur axgar libos.*

Ushbu baytni nochor holda, eski chopon yopinib yashagan shoirning o‘z-o‘ziga tasallisi o‘rnida qabul qilish mumkin. Irsoli masal san’ati, aynan shu misralarni uchratar ekanmiz, shoirning xalq og‘zaki ijodi boyliklarini nechog‘li o‘zlashtirgani va adabiy muddao ifodasi yo‘lida ulardan qanchalik o‘rinli foydalanish mahoratiga ishonch hosil qilamiz:

*Xunob ichar vaqtimda xush kelding,ko‘ngulkim,xalq aro
Yaxshi masaldurkim: “Kelur yaxshi kishi osh ustina”.*

Qiziqarli topilma- maqol qo‘llashdan tashqari, lirik qahramonning og‘ir ahvolini shundayin yengil, qochirimli kulgi, o‘ynoqi ohang vositasida aks ettirishning o‘zi bir san’at:

*Karam ahli diram ahli diramg‘a sochsa, tong yo‘qim,
Masaldur: “Yog‘ agar tomsa, tomor, albatta,yog‘ uzra”*

Ogahiy badiiy so‘z imkoniyatlaridan bahramand bo‘lgani va she’r ixlosmandlari bahramand etganidan ogoh bo‘ldik. Ogahiy asarlari harfiy san’at:

*Dog‘ uzra alifdurm u ko‘ksim iza chekmish hajr,
Yo dard sipehrida mevharmu ekan oyo?*



Mazkur baytda shoir "dog'" va "dard" so'zlarining yozilishi shaklidan kelib chiqib, harf o'yini qilgan bo'lsa, keyingi baytda "jon" so'zining imlosi badiiy fikr izhoriga vosita bo'lgan:

Qading hijronida jonim xarob o'lsa, tong ermaskim,

Latofatda sanga zebo alifdur "jon" aro qomat.

Harfiy san'at shunday mazmun ifodasini ta'minlagan: "Jon" so'zining butunligi "alif" bilan bo'lgani singari, sening go'zalliging boisi ham alifdek qomatingdir.

Ogahiyning adabiy merosi xalqimiz ardog'idagi mo'tabar ma'naviy xazina.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ogahiy. Asarlar (n. tayyорl. G'. Karimov va S. Dolimov). Olti jildlik -T.: 1971
2. A. Hojiahmedov She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. Sharq. T-1998.
3. R. Majidiy. Ogahiy lirikasi. — T.: 1961;



QUDDUS MUHAMMADIYNING BOLALAR ADABIYOTIDAGI O'RNI

Boltayeva Aysha Mavlonovna
Bog'ot tumanidagi 26-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.
Tel: +998943139087

Annotatsiya: Mazkur maqlada bolalarning suyukli shoiri Quddus Muhammadiy hayoti va ijodi haqida so'z boradi. Uning ijodini o'rghanishda ushbu maqola juda asqotadi.

Kalit so'zlar: Bolalar adabiyoti, "Tong o'yini", "Paranji", "Ahmad va asalari", "Selektsiya stantsiyasi".

Quddus Muhammadiy butun umrini, ijodini kichkintoylarning katta adabiyotiga bag'ishladi. Uning ijodi nihoyatda serqirra, mahsuldor, bolalar dunyosiga xos va mosdir.

*She'r yo'lin o'rgatgan quyoshim, oyim,
Kunduzim, yulduzim, ilhomim, so'zim,
Shu Vatan, shu xalqim, shu o'gil-qizim,
She'rimming asosiy mavzui sizlar.
Asarim ovozi – parvozi sizlar;
O'zingiz ilhomim oltin o'zagi,
O'zingiz she'rimming husn-bezagi,
Chunki siz men uchun, men-chi siz uchun...*

Haqiqatan ham shoir she'rlarining mavzui bepayon Vatani, uning mehnatsevar xalqi, shirin "o'g'il-qizlari"dir, asarlarining ovozi ham, "parvozi" ham, "ilhom"ning "oltin o'zagi", she'rinning "husn – bezagi" ham shulardir.

Shoir o'z asarlarida bolalarning yurak tuyg'ularini, orzu va intilishlarini, o'qishdagi yutuqlarini aks ettirish bilan birga, ulardagи kamchiliklarni qoralaydi, uni yo'qotish yo'llarini izlaydi, topadi, o'z o'quvchisiga talabchan o'rtoq, qattiq qo'l ustoz sifatida yo'l ko'rsatadi.

Shoirni bolalarning hamma tomoni qiziqtiradi. U bolalarga nima xunigu nima chiroylik, nima yaxshi-yu, nima yomon, juda go'zal nima-yu, juda qiziq nima ekanligi haqida yozadi. U o'z she'rlari bilan bolalarda estetik didni o'stirishga, go'zallik haqida tasavvur hosil qilishga harakat qildi. To'qson yillik umrini bolalarga she'r, qo'shiq, doston, doston – ertak yaratishga qaratgan Quddus Muhammadiy 1907-yilda Toshkent shahrida mehnatkash dehqon oilasida dunyoga keldi. Bo'lajak shoirning otasi Muhammad Alibek Abdurahmonbekov ancha savodli kishi edi. Shu sababli u dastlabki ma'lumotni otasidan oldi.

1925-yilda otasi vafot etgach, Quddus Muhammadiy avval amakisinkida, so'ngra esa maktab-internatda tarbiya oladi. Shu ilk mashqlaridayoq bo'lajak shoirning nafosat olamini kuzatish va badiiy idrok etish talanti hamda umumlashtirish mahorati yaqqol ko'rindi.

U yetti yillik maktabni muvaffaqiyatli tamomlab, Toshkent qishloq xo'jalik texnikumiga o'qishga kiradi. Bu yerda bolalar uchun she'rlar yoza boshlaydi. Uning "Tong o'yini", "Paranji", "Ahmad va asalari", "Selektsiya stantsiyasi" nomli she'rlari vaqtli matbuotda bosilib chiqadi.

1931-yildan Q.Muhammadiy maktabda botanika o'qituvchisi bo'lib ishlaydi, shu bilan birga O'rta Osiyo Davlat universitetining biologiya fakul'tetida o'qiy boshlaydi. Bolalar uyi va universitetdagi hayot, mehribon murabbiy va muallimlarning g'amxo'rliklari Q.Muhammadiy qalbida bir umr o'chmas iz qoldiradi. Bu yerdagi o'zaro do'stlik bo'lajak shoir qalbini tog'dek ko'tarib yuboradi.

Quddus Muhammadiy Oybek, O'.Olimjon, G'.G'ulomlarni o'zi uchun ustoz deb bilgan, ulardan o'rgangan, ular bilan doimo ijodiy muloqotda bo'lган. Ilk she'rlaridan biri "Tong o'yini" orqali ulkan adib Oybek bilan tanishadi. Oybek bu iste'dodli bolalar shoirini hamisha qo'llab-quvvatlab, ijodiga g'amxo'rlik qilib kelgan.

Quddus Muhammadiy ijodiga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri hozirjavoblikdir. Shoir asarlarida ona – Vatanga muhabbat, a'lo o'qish, xulq-odobda boshqalarga namuna bo'lishga da'vat etish, fan va texnikani o'rghanish muammolari asosiy mavzulardan hisoblanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. –T.: O'qituvchi, 2002.
2. www.kitob.uz sayti.



«JALOLIDDIN MANGUBERDI» TRAGEDIYASINI O'RGANISHDA INTERFAOL
USULLARDAN FOYDALANISH

*Egamova Ma'suma
Asaka tumani 57-umumta'limgan
maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasini o'rganishda foydalanish mumkin bo'lgan interfaol usullar haqida misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Jaloliddin Manguberdi, tragediya, tarixiy shaxslar, to'qima obrazlar

Ma'lumki, Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" tragediyasi Vatanimiz tarixining eng suronli davridan hikoya qiluvchi mukammal sahna asari sifatida har qancha o'qib o'rgansak arziyidigan ijod namunasidir. Shu bois ham 8-sinf adabiyot darsligida "Jaloliddin Manguberdi" dramasini o'rganishga dars soatlari ajratilgan desak adashmagan bo'lamiz. Ushbu asarda o'z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashgan Xorazm shohining jangovar jasorati tarixan aniq va haqqoniy tasvirlangan.

Buyuk ajodolarimizning jasorati aks etgan bunday tarixiy asar namunalarini o'rganish, yoshlarning ongiga ular ilgari surgan vatanparvarlik, mardlik, ma'rifatparvarlik g'oyalarini singdirish biz pedagoglarning asosiy vazifalarimizdan biridir.

Taniqli yozuvchi Maqsud Shayxzoda "Jaloliddin Manguberdi" tragediyasini 1944-yilda, 2-jahon urushining qizg'in bir davrida yaratdi. Asar o'tmishda chet el bosqinchilariga qarshi xalqimiz olib borgan mardonavor kurashning yorqin sahifalarini sahna asari shaklida yoritish va uni xalqimizning fashizm bilan olib borgan kurashi o'rtasidagi mushtaraklikni ko'rsatish borasida muhim targ'ibiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etdi. O'qituvchi darsni boshlashdan avval shu jihatlarini tushuntirib o'tishi va Jaloliddin Manguberdi shaxsi, qaysi sulolaga mansubligi haqida ma'lumot berib o'tishi kerak. Buni "**Ma'lumotlarni eslab qoling!**" o'yin mashg'uloti asosida tashkil qilish mumkin.

Asardagi Jaloliddin Manguberdi shaxsi, uning taqdiri hozirgi kungacha kishilarni hayratga solib kelyapti. Buyuk sarkarda, mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashgan Jaloliddin Manguberdining to'liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad bo'lib, Xorazmshohlarning so'nggi hukmdori hisoblanadi. Jaloliddin otasining harbiy yurishlarida qatnashadi va o'zining jasur jangchi, iste'dodli sarkardalik qobiliyatini namoyish etadi. Mo'g'ul istilochilarining haybatidan cho'chigan otasi Muhammadshoh dushmanga qarshi kurashish o'rniga, go'yo mamlakat xalqi hayotini saqlab qolish bahonasida Samarqandni tashlab orqaga chekinadi. Kasbiy dengiz bo'yidagi Obeskun shahriga yo'l oladi, u yerdan panoh topadi. Yosh sarkarda kuchli mo'g'ul lashkarlarini yengib, dushmanga qiron keltiradi, umrining oxirigacha Vatanimiz hududini yovdan tozalashga harakat qiladi. Buyuk tarixchi Shahobiddin Muhammad al-Nasaviyning "Tarixi Jaloliya", Mirxonning "Ravzat us-safo" asarlarida Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyatini mufassal yozib qoldirganlar. Mamlakatimizda Jaloliddin Manguberdi xotirasi abadiylashtirildi. O'lkamizda qahramon tavalludining 800 yilligi keng nishonlandi. O'qituvchi yuqorida ma'lumotlarni o'quvchilarga slaydlar, videolavhalar yordamida tushuntirib bo'lgach, tragediya matnini o'rganishni boshlasa maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki bu ma'lumotlar o'quvchilarning asarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi. Asar matni bilan tanishib bo'lgach, "**BO'SHLIQLARNI TO"LDIRAMIZ**" usulidan foydalanib, o'quvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlash mumkin. Buni quyidagicha tashkil qilamiz:

1	M.Shayxzoda "Jaloliddin Manguberdi" tragediyasi yaratilgan	
2		Jaloliddin Manguberdi hayoti va faoliyati mufassal yoritilgan
3	"Jaloliddin Manguberdi" ordeni ta'sis etildi	
4		Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad
5	Jaloliddin Manguberdiga haykal o'rnatildi	
6		Sulton Muhammad Alovuddin Xorazmshoh



7	Jaloliddinning o‘z otasi bilan kelishmovchiligining sababi	
8		800 yilligi nishonlandi

Ma’lumki, asar tarixiy asar bo‘lgani bois unda badiiy to‘qima obrazlar bilan bir qatorda tarixiy shaxslar, hayotiy obrazlar ham juda ko‘p qo‘llangan. Asar o‘qib bo‘lingandan so‘ng o‘quvchilarga quyidagicha topshiriq berish mumkin: “Asardagi hayotiy obrazlar va badiiy to‘qima obrazlarni ikki guruhgaga ajrating.” O‘quvchilar bajarib bo‘lganlaridan so‘ng quyidagi jadval bilan solishtiradilar.

T/r	Tarixiy shaxslar	To‘qima obrazlar
1	Xorazmshoh	Elbors pahlavon
2	Jaloliddin Manguberdi	Devona chol
3	Temur Malik	Qodog‘on no‘yon
4	Chingizxon	Yaroqbek
5	Sultonbegim	Sayfiddin Ag‘roq
6	Muhammad Nasaviy	A’zam

Bu jadvalni asarni to‘liq matnini o‘qiganlar davom ettirishlari ham mumkin bo‘ladi. O‘quvchilar yozgan obrazlarini asar voqealaridan kelib chiqqan holda ta’riflaydilar. Bu o‘yin mashg‘uloti asar qahramonlarini ochib berishda yordam beradi. Bu esa o‘quvchi shaxsni tarbiyalashning eng muhim shartlaridan biridir. Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslarida har bir asar va ijodkor hayotini o‘rganar ekanmiz, bugungi zamon talablariga mos interfaol usullar, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalana bilishimiz va ular orqali kelajak vorislarni komil inson etib tarbiyalash bosh maqsadimiz ekanligini unutmasligimiz kerak.



ABDULLA QAHHOR IJODI VA LINGVO POETIKASI

G‘ayratova Gulzoda San’at qizi
Buxoro davlat universiteti filologiya va tillarni o‘qitish
o‘zbek tili birinchi bosqich talabasi
gayratovaguli@gmail.com+998919792319Ostonova
Zuxro Rajab qizi
Buxoro viloyati Peshku tumani 30- muktab
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Ne’matova Dildora Rashidovna
Buxoro viloyati Peshku tumani
30- muktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Abdulla Qahhor ijodi XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin va sermazmun sahifalaridan birini tashkil etadi. Ko‘p qirrali bu iste’dod sohibi turli janrlarda rang-barang badiiy asarlar yaratib, o‘zbek adabiyoti xazinasini durdonalar bilan boyitdi. A. Qahhorning hikoyalari maqsadning aniqligi, sujetning siqiqligi, kompozitsiyaning puxtaligi, xarakterlarning yorqinligi, psixologik tahlilning kuchliligi bilan katta estetik ahamiyatga ega. Bu fazilatlar adibning zamonaviy mavzudagi hikoyalarda ham ko‘zga yaqqol tashlanib turadi.

Kalit so‘zlar: hikoyachilik, poetika, obraz, hikoya, tushuncha, ezgulik g‘oyalari, Gogol, Tolstoy, badiiy qarash, asar tili.

Abdulla Qahhor hikoya janrida juda katta muvaffaqiyatga erishdi. 30-yillarda o‘zbek realistik hikoyachiligi ustalaridan biri sifatida tanilgan adib bu janrda qariyb 40-yil ijod qildi. A. Qahhor bir maqolasida: «Men hikoyachilikni juda yaxshi ko‘raman va shu bilan birga, hamma vaqt qalamimning qayrog‘i, deb qaraganman», — deb yozgan edi.

Abdulla Qahhor o‘z ijodiga o‘ta talabchanlik bilan tanqidiy yondashib, dastlabki asarlarida yo‘l qo‘ygan kamchiliklarini o‘z ustida qunt bilan ishlash, ustozlar ijodini, xususan, badiiy mahorat «sir»larini sinchiklab o‘rganish orqali yo‘qota boradi. Boshqacha qilib aytganda, adib hayot haqiqatini, odamlar xarakterini, ruhiyatini chuqur o‘rganish, A. Chexov va A. Qodiriy kabi buyuk yozuvchilar mahoratini ijodiy o‘zlashtirish bilan yetuk, go‘zal hikoyalalar yaratish san’atini egalladi. Adib: «Uslubda menga hech kim domla Chexovchalik ta’sir ko‘rsatgan emas.

Agar men uslubda biron darajada kamolotga erishgan bo‘lsam, buning uchun, shubhasiz, ustod Anton Pavlovichga qulluq qilaman», — deb qayd etgandi. Abdulla Qahhor 30-yillardayloq kichik hikoyachilikning katta ustasi sifatida mashhur edi. Uning bu davrda yozgan hikoyalarni mavzu jihatidan o‘tmish haqidagi («Bemor», «Anor», «0’g‘ri», «Tomoshabog‘», «Millatchilar»), yangi voqelik to‘g‘risidagi («Maston», «Qanotsiz chittak», «San’atkor», «Jonfig‘on», «Yillar», «Adabiyot muallimi») kabi ikki guruhga bo‘lish mumkin. Abdulla Qahhor hikoyalari, mavzusidan qat’i nazar, bir maqsadga - kishilarni ezgulik ruhida tarbiyalash, ularga estetik zavq berishga qaratilgan. Muhimi shundaki, adib hikoyalarda bu maqsadga nasihat qilish, bayon etish yo‘li bilan erishilmaydi. Balki obrazlar faoliyati, asarning umumiy ruhidan ustalik bilan keltirib chiqariladi.

A.Qahhor ijod sirlarini chuquroq o‘rganish uchun ko‘p o‘qidi vako‘p o‘rgandi. O‘zining aytishicha, ja’on adabiyotining ulkan namoyandalari J.London, L.Tolstoy, A.Chexov, Gogolp, Turgenev asarlarini ixlos bilan xatm qildi. Bo‘lar orasida ayniqsa, rus yozuvchilari CHexov bilan Gogol ijodi bo‘lajak yozuvchiga katta tasir qildi. Bu haqda uning o‘zi shunday yozadi: «Men qulimga qalam olib, rus adiblaridan madad suragan vaqtlarimda bo‘larning ko‘piga erishganman, lekin uslubda hech kim menga domla CHexovchalik taosir kursatgan emas. Agar men uslubda biron darajada kamolotga erishgan bo‘lsam, buning uchun shub’asiz, ustod Anton Pavlovichga qulluq qilaman». Mana shu izlanishlar natijasida 30- yilga kelib A.Qahhor taniqli yozuvchi bo‘lib goldi.

A.Qahhorning birinchi kitobi «Qishloq hukm ostida» 1932 yilda bosilib chiqdi. Bu kichik qissa bo‘lib unda kolxoz to‘zilishi va unga fidoyi yangi jamiyat kishisi obrazi yaratilgan. A.Qahhorning hikoyanavislik mahorati to‘g‘risida ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan va ularda adibning o‘ziga xosligi etarli ochilgan deyish mumkin. Biroq shunisi borki, har bir kitobxon bu hikoyalarni mutoala qilar ekan, o‘zini tamoman yangi hamda se’rli olamga kirib qolgandek sezadi. Yozuvchining hikoyanavis sanoati o‘zidan keyingi butun bir ijodkorlar avlodи uchun iboratli muktab bo‘lib qolmoqda. Uning



ayniqsa, hikoya arxitekturasini qurishi va so‘z ustida ishlash tajribasi tunganmas saboq bo‘lib kelyapti. Mana, bu haqda davrimizning ulkan adibi O.Yoqubov shunday deydi: «...til masalasida o‘zim uchun biror narsa olish maqsadida Abdulla Qahhorni qo‘lga olaman». haqiqatdan ham A.Qahhor hikoyalarini umrboqiy qilgan fazilatlardan biri so‘z ustida ishlashidir. Yozuvchi xalq tilini beni’oya chuqur bilar, kadrlar va unga masouliyat bilan yondashardi. Shu boisdan uning asarlaridagi mualif no‘tqi ham, personaj no‘tqi ham o‘quvchiga o‘ta tushunarli, tabiiy tuyiladi. SHunisi borki, asar organizmidagi biron ta so‘z ham ortiqcha bo‘lmaydi, aksincha, ixcham so‘zlardan tashkil topgan iboralar o‘zining siqqligi, ma’nodorligi bilan istalganidan ko‘ra ko‘proq mazmun kasb etadi. Masalan, yozuvchining «Tomoshabog» hikoyasida shunday episod bor: tobi qochib qolgan qadoqchi Hamroqulni sha’rdagi «Romanska» tomoshabog‘ining qorovuli Usta kulol /Stokgulov/ boqqa olib kiradi. Zodagonlar sayrkulol hisoblangan bu boqqama’lliy odamlar, ayniqlashtirilgan qashshoqlarning kirishi mumkin emasdi. SHu payt bu erga etib kelgan «xotinchalish bir ofiçer» ikkala qariyani tepadi va mirshabni chakirib, ularni ‘ibsga oladi. Yozuvchi bu epizodni ortiqcha izohlar bilan tasvirlab o‘tirmay, «Churrr... Mirshab!» degan ikkita so‘zni ishlatadi xolos.

Adib «Botirali», «Ko‘k konvert», «Qizil konvert» hikoyalarida bosqinchilarga qarshi mardona jang qilgan oddiy o‘zbek askarlari obrazlarini yaratdi. «Asror bobo», «Xotinlar», «Sep» hikoyalarida esa front orqasidagi fidokor kishilar obrazlarini tasvirladi. Ayniqlashtirilgan qashshoqlarning kirishi mumkin emasdi. SHu payt bu erga etib kelgan «xotinchalish bir ofiçer» ikkala qariyani tepadi va mirshabni chakirib, ularni ‘ibsga oladi. Yozuvchi bu epizodni ortiqcha izohlar bilan tasvirlab o‘tirmay, «Churrr... Mirshab!» degan ikkita so‘zni ishlatadi xolos.

A. Qahhorning «Asror bobo» hikoyasidagi bosh qahramon Asror bobo urush yillarda front orqasida fidoyilik namunasini ko‘rsatgan oddiy kishilar vakilidir. Asror bobo — sabotli va mustahkam irodali kishi. U inson ko‘nglini ko‘tarish, unga ishonch solish har narsadan muhim ekanligini yaxshi biladi. Shuning uchun ham so‘lim bir joyda choyxona ochib, uni targ‘ibot o‘chog‘iga aylantiradi. Yozuvchi Asror boboning ma’naviy qiyofasini ochishda uning o‘g‘li Yodgordan qora xat kelishi voqeasidan juda o‘rinli foydalangan. Ota o‘g‘lining o‘limi haqidagi xabardan qattiq eziladi. Biroq u o‘zidan ham ko‘ra ko‘proq kampirini o‘laydi. Bu mudhish xabarni eshitsa, kampiri chiday olmasligidan havotirlanib, qora xatni ayoliga bildirmaydi. Buning ustiga, o‘zini hech narsadan xabari yo‘qday, quvnoq ko‘rsatishga urinadi. Hikoyadagi Haydar ota va kampir obrazlari ham asar g‘oyasini ochishda bevosita ishtirot etadi. A.Qahhor o‘z hikoyalarining xulosasiga ham alo‘ida e’tibor bergan. Bu xulosalar voqealarning shunchaki tugallanmasi bo‘lib qolmaydi, balki bosh g‘oyani yanada burtirib, yarqiratib ko‘rsatishga buysundiriladi. Ayniqlashtirilgan qashshoqlarning xulosasiga portlovchi moddani ko‘prok joylashtiradi. Sanoatkor asarlarining yoqimtoyligini taominlovchi fazilatlardan yana biri qahramon ru’iyatini tasvirlashda ko‘rinadi. Bunda ham yozuvchi ortiqcha so‘z ishlatib o‘tirmaydi, balki ko‘proq detallarga suyanadi, portretdan ‘atti harakatlardan foydalanadi. Bu jihatdan ayniqlashtirilgan qashshoqlarning xulosasiga portlovchi moddani ko‘prok joylashtiradi. Muhimi shundaki, adib hikoyalarida bu maqsadga nasihat qilish, bayon etish yo‘li bilan erishilmaydi. Balki obrazlar faoliyati, asarning umumiy ruhidan ustalik bilan keltirib chiqariladi

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov.I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch.T.“Ma’naviyat”. 2008.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. I jild. T., Fan, 1978.
3. Boboev.T. Adabiyotshunoslik asoslari. T. «O‘zbekiston», 2002.
4. Salaev F.Qurbaniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi.T. Yangi asr avlodni. 2010.
5. DTS. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali 2008-yil, 8-soni.



YURT MADHINI KUYLAGAN SHOIR

*Hamrayeva Sevinch Komiljon qizi
Qashqadaryo viloyati Qarshi shaxri
Abdulla Oripov nomli ijod maktabining
10- sinf o'quvchisi
Tel: +998978037683 hamrayevasevinch@gmail.com*

Annotatsiya: Ona yurt, jonajon Ozbekiston Abdulla Oripov eng baland maqomlarda qalamga olgan mavzudir. Unda asarlarida chinakam vatanparvarlik va kindik qoni to'kilgan zaminga sadoqatini, muhabbatini his etmaslikning iloji yo'q. Sababi, milliy qadriyatlarimizni ko'z qorachig'oday asrab, tuyg'ulari va betakror ijodi bilan sug'orilganini yana bir bor ta'kidlashning ziyoni yo'q.

Kalit so'zlar : Abdula Oripovning she'rlari, Ona yurt. Abdulla Oripov vatan kuychisi.

**Men shoirman istasangiz shu,
o'zimniki erur shu so'zim
birovlardan olmadim tuyg'u ,
o'zgaga ham bermam ovozim.**

"She'riyatda kutilmagan yangi nafas paydo bo'ldi". Tomchini kuzatgan bo'lsangiz, to'lishganidan keyin tomadi. Abdula Oripovning she'rlari ham shunday. Oldin so'zma so'z , keyin satrma satryuragi qonida qaynab pishadi" degan edi Abdulla Qahhor. Aslida ham shunday, Abdulla Oripov ijodi xalq yuragida iz qoldiradigan sehrli , samimiy satrlardir. Shoir she'rlarida xalq qalbiga yaqinlikni , xalq dilidagi quvonch va shodlik, armon va dardlarini juda chuqur his etilishi tabiiy. Atoqli shoir xuddi qum barxanlaridan oltin zarralarini saralab olgандек, bir qarashda oddiy xalqona , ammo mazmun jihatidan nodir sozlarni topib, o'rниda ishlatishi bilan ularni dilni yayratadigan sehrli kuy, ohangga aylantira oladi. Zero , buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatov bu ulug' shoir haqida shunday deydi: " Katta shoir hamisha oz vaqtida maydonga keladi, u hamisha tarixiy. Abdulla Oripov menga 21 – asrga qadam qo'ygan davrlarimizning buyuk madaniy ahamiyatiga molik ana shunday shoiri bolib gavdalananadi" .



Ona yurt , jonajon Ozbekiston Abdulla Oripov eng baland maqomlarda qalamga olgan mavzudir. Unda asarlarida chinakam vatanparvarlik va kindik qoni to'kilgan zaminga sadoqatini, muhabbatini his etmaslikning iloji yo'q. Sababi, milliy qadriyatlarimizni ko'z qorachig'oday



asrab, tuyg‘ulari va betakror ijodi bilan sug‘orilganini yana bir bor ta’kidlashning ziyoni yo‘q. Ona zaminga bo‘lgan muhabbatini qalamda tebratib , “ O‘zbekiston Respublikasi madhiyasi” muallifi degan ulug‘vor nomga sazovor bo‘ldi. Shu asnoda adabiyotshunos olim, akademik Matyoqub Qo‘sjonov “Abdulla Oripov vatan kuychisi, u Vatanni borligicha , butun go‘zalligi bilan ko‘radi. Va xalqi ham uni shundayligicha sevadi” degan edi. 1995 – yil bitilgan “ Sohibqiron” she’riy drammasi ijodida ham, adabiyotimiz rivojida ham , alohida o‘rin tutadi. Shoiring o‘zi Sohibqiron asarimni o‘tmishga boqib, bugun uchun yozganman degan edi.

Unda shoir Amir Temur hayotining so‘ngi yillari tasviri orqali “ Kuch Adolatda” degan aqidani o‘ziga shior qilib olib , tarqoq uluslarni birlashtirib , buyuk davlat tuzgan , qadami yetgan yerda bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan , harbiy sarkardalik bobida bebafo meros qoldirgan , elsevar buyuk inson qiyofasini yorqin gavdalantirgan.

Atoqli shoirimiz mohir tajimon sifatida ham mashxur. U buyuk Italian shoiri Dante Aligerining shoh asari bo‘lmish “Ilohiy komediya” ning Do‘zax qismini to‘laligicha tarjima qilib, A’rof qismidan 9 qo‘sinqni mahorat bilan o‘zbek tiliga o‘girgandir.



Xalqimiz qadim – qadimdan shoir tabiat ekanligi hammaga ma’lum. Biz to‘y qilsak , quvonchimizni she’rga solib “yor – yor” aytamiz. Hatto boshga musibat tushgan paytlarda ham azamiz – hasratlarimiz qofiyalanib, she’rga aylantirib bo‘zlaymiz.

Faqat unvoniga ko‘ra emas , haqiqatan ham butun vatandoshlarimiz suygan, ardog‘ida bo‘lgan Xalq shoiri Abdulla Oripov o‘lmas satrlari bilan qalbimizda mangu saqlanib qolishi shubhasiz. Vatanimiz , Presidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Abdulla Oripovning el – yurt oldidagi hizmatlarini hisobga olib, uning nomini abadiylashtirishga juda katta e’tibor qaratdi. Xususan Qarshi shahrida tashkil etilgan Abdulla Oripov nomli ijod maktabi hamda shoir hayotiga doir muzey buning yorqin dalilidir.



Ushbu matabning faol o‘quvchisi sifatida judaham faxrlanaman. Sababi shunday buyuk shoir nomi berilgan ijod maskani menga yanada ilhom baxsh etadi.

Bugungi kunda 200 ta o‘quvchisi ta’lim oladigan ijod maskani Abdulla Oripovdek insonlarni yetishtirish niyatida belini mahkam bog‘lagan. “ Matabimizda barcha sharoitlar mavjud. Bu esa



meni yangidan yangi marralarni zabt etishimning devochasi" deydi shu maktabning 10 – sinf o‘quvchisi Daminova Sevara.

Bu imkoniyat uchun davlatimiz rahbariga minnatdorchilik bldiramiz.
She’r shoir ijodida barhayotdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov.I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.T.“Ma’naviyat”. 2008.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. I jild. T., Fan, 1978.
3. Boboev.T. Adabiyotshunoslik asoslari. T. «O‘zbekiston», 2002.
4. Salaev F.Qurbaniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi.T. Yangi asr avlodи. 2010.



ADABIYOTNI O'QITISH: YONDASHUVLAR VA USULLAR

*Ilyosova Feruza Bozorovna
Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani
275-maktab ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Shu kunlarda o'rta maktab o'quvchilari o'rtasida adabiyotni o'rganishga qiziqish sezilarli darajada yo'qoldi. Bu bir qator omillarga bog'liq. Ushbu maqola adabiyotning ta'lif jarayonidagi ahamiyatini yana bir bor ta'kidlaydi, maktab darslarida yillar davomida qo'llanilgan yondashuvlar va usullarni baholaydi va adabiyotni o'qitish va o'rganishni yengillashtiradigan zamonaviy uslublarni tavsiya qiladi.

Kalit so'zlar: ko'nikma, anglash, intellektual, dunyoqarash, xulq-atvor.

Adabiyotning maktab ta'lif jarayonida o'quvchilar uchun va hayotimiz davomida barchamiz uchun ahamiyati shunchalik ulkanki, uni esdan chiqarib bo'lmaydi. Masalan, adabiyot:

- Dunyoning buyuk fikrlari, shaxslari va har qanday yoshdagi buyuk ustozlari bilan mashhur.
- Adabiyotni anglagan shaxs o'zini va boshqalarga tushunishda qiyalmaydi.
- Ijtimoiy, intellektual va diniy hislarni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi.
- ongni tarbiyalaydi va bolani mustaqil ishlashga va xolisona fikrlashga, ya'ni tahlil va tanqidga o'rgatadi.
- Bitta mantiqiy ob'ektdan foydalanishga yordam beradi. Bu aslida insonni sog'lom insoniy qadriyatlar va munosabatlarga, xulq-atvorga ta'sir qiladi va insonning murakkab tabiatini tushunishda yordam beradi.
- Haqiqat dunyosini tahlil qilishda, izohlashda va muomalada bo'lishda yordam beradi.
- Til ko'nikmalarini egallash va mustahkamlashda yordam beradi.
- Bolaning madaniy ehtiyojlari va dunyoqarashini kengaytiradi.
- Bolani tilning go'zalligi va potentsiali bilan tanishtiradi (ya'ni adabiyotning estetik qiymati).
- Ijodiy jarayonlarni tushunish va ijodkorlik prinsipini qadrlashdan kelib chiqadigan ijodiy yozishga bo'lgan urinislarni rag'batlantiradi.

Bu shuni anglatadiki, boshqa fanlar o'quvchilarning ma'nani rivojlanishiga qo'shsa ham, adabiyot ongni ochishda va uni yoritishda noyob ta'sirga ega. Qisqacha aytganda, adabiyot bolaning tabiatiga ko'ra boshqa predmetlarga qaraganda samaraliroq shakllanadi. Yuqorida aytilganlarni hisobga olgan holda, quyidagi usullar adabiyot fanini o'qitishda tavsiya qilindi va shuni ta'kidlash kerakki, hech qanday yondashuv yoki usul boshqalariga nisbatan yaxshiroq deb bo'lmaydi. Tanlov jarayonida o'qituvchi o'ziga mos keladigan va samarali usulni qo'llashi kerak.

- Tematik yondashuv: bu markaziy mavzuni va keyingi mavzularni tushunishga asoslangan adabiyotni o'qitish.

- Stilistik yondashuv: bu matnga muallifning uslubi va boshqa muallif bilan taqqoslagan holda o'qitish.

- Guruhga yondashish: Bu zaif va kuchli o'quvchilarni umumiyligi faoliyatda, ehtimol kuchsizlarni mustahkamlash uchun qo'llaniladi.

- Javob yondashivi: bu tanqidiy usulni tasvirlaydi. Bu talabaga matn uchun haqiqiy bo'lishi va stereotiplarsiz erkin faoliyat olib boorish imkonini beradi.

- Integratsiyalashgan yondashuv: Ushbu yondashuv, til va adabiyotni o'qitish uchun matndan foydalanishni o'z ichiga oladi.

O'qituvchi adabiyotlarni o'qitish va o'rganishni yengillashtirish uchun turli xil texnikalarni ishlab chiqishi mumkin. Uning usullari bir qator omillarga bog'liq; o'quvchilarning yoshi, o'qitish / o'qish jarayonia sodir bo'lgan muhit, o'qilishi kerak bo'lgan matn, moddiy resurslar va albatta dars uchun vaqt. Barcha omillarni hisobga olgan holda aniq va to'g'ri yondashuvni tanlash dars samaradorligini oshiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Teaching Literature to Children, Russell, D. L. (2009), Department of English, National Kaohsiung First University of Science and Technology, Taiwan.
2. The Teaching of Literature, Irene Pieper, October 2006.



ERKIN VOHIDOV SHE'RLARINING G'OYAVIY TALQINI

Jalilova Shahnoza Dilshodjon qizi
Guliston davlat universiteti magistranti
Telefon:+998(94)9189195

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalqining atoqli farzandi, qalami o'tkir ijodkor Erkin Vohidov hamda shoir qalamiga mansub she'rlar mohiyati hususida fikr yuritilib, tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: badiiy adabiyot, so'z san'ati, iste'dod, g'oja, mohir,mahorot, ilm, amal, ishq, oshiq, she'r,shuur, kamtarlik, qasida, Vatanni ulug'lash.

Badiiy adabiyot inson qalbini go'zallashtiruvchi, mushohadaga chorlovchi so'z san'atidir. Badiiy asarda ilgari surilgan g'oja, qalamga olingan fikr va unga mos shakl asar qiymatini oshiradi. Shunday ekan ijodkordan yuksak zehn va istedod talab qilinadi. Ana shunday yuksak istedod sohibi, serqirra ijodkorlardan biri Erkin Vohidovdir. Uning asarlari soddaligi, tushunarligi hamda kitobxonga qalban yaqinligi bilan ajralib turadi. "ErkinVohidov va uning ijodi - yirik mavzu. Bu asl shoir va asl she'r haqida gapirish demak. Asl she'r noyob gavhar, ko'ngil mo'jizasi, ilohiy hodisa. Hammaga ham, hamisha ham nasib etavermaydi. E.Vohidov ana shu nasibaga muyassar bo'lgan ijodkor. Nafis so'z, go'zal xayol, husni-dil sohibi." Yuqoridagi bildirilgan fikrlardan ko'rinadiki, o'zbek xalqining suyukli farzandi Erkin Vohidov va uning ijodi- tugamaydigan xazina. She'rlarida hayot haqiqati bilan birga jamiyatdagi ko'ngilsiz hodisalar, ayol go'zalligi-yu, oshiqning mashaqqatlari to'g'risida fikr yuritadi.

" To tirikdirki tabiat,
To quyosh sochgayki nur.
Uch egiz bordir tushuncha ,
Uch bu so'z yondosh bo'lur:
Mohiru mehru mahorat,
Olimu ilmu amal,
Oshiqu ishqu mashaqqat
Shoiru she'ru shuur,- "

Shoirning ushbu she'ri kitobxonni vazn soddaligi, so'zlarning ohangdorligi bilan jalg etadi. Badiiy tafakkurning mahsuli bo'lgan bu she'rda biri birini taqazo qiladigan so'zlarni foydalilanigan. Va ular bir birini izohlaydi, to'ldiradi. Misol uchun, 2- bandning birinchi misrasida keltirilgan , mohir, mehr, mahorat so'zları bir o'zakdosh so'zlar hisoblanib, inson o'z ishiga mehr bilan yondoshmasa mahoratli bo'lmaydi singari fikrni berishda qo'llanilgan. Keyingi misradagi olim, ilm, amal so'zları olim odam ilmini boshqalarga ham ularish amalini bajarishlari zarur kabi g'oyani ifodalagan. Ijodkorning yutug'i shundaki, 3-misrada hayotdagi, insonlar orasidagi azaliy tuyg'u hisoblangan ishqni ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Mumtoz adabiyot namoyondalarining ijodida an'ana tusiga kirgan oshiq va uning ahvoli hususida to'xtalib, oshiq inson ishqning kuyida mashaqqat chekishini qalamga olgan. She'rning so'ngida shoirlarga da'vatni ham ko'rishimiz mumkin. Ijodkor o'z ijod namunasini qalban his etishi, shuuriga singdirishi kabi tushunchani tasvirlagan. Ushbu tahlildan ko'rinadiki, shoir hayotdagi har bir hodisa boshqa bir hodisaga bog'liq degan g'oyani ilgari suradi.

Uning ijod namunalarida Vatanga muhabbat, sadoqat, insonparvarlik, o'tmishni xotirlash-u, bugungi kun qadriga yetish kabi da'vatni ham his etamiz.

" Garchi shunch mag'rur tursa ham,
Piyololaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibru havo nimaga kerak.
Kamtarin bo'l hatto bir qadam,
O'tma g'urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning-chun

O'par doim peshonasidan." ,- deya kitobxonga kamtarlik va mag'rurlik kabi hislatlarni yaxshi hamda yomon ekanligini oddiy, hayotda uchraydigan misollar orqali tushuntirib beradi. Ushbu she'rda kundalik hayotimizda ishlatadigan choynak kibrli, mag'rur illatlarini o'zlariga odat qilgan insonlarning majoziy obrazi bo'lib, bu illat hech qachon obro topmasligi haqidagi g'oja



hamda payola kabi samimiy, kamtar insonlar doimo olqishga erishishi singari da'vat o'z ifodasini topgan. Yuqoridagi she'rda piyola kamtarligi uchun yuksak sharafga sazavor bo'lganligi qalamga olingan. V a o'quvchilarga ham kamtar ham samimiy bo'lish kerakligi uqtirilgan.

E.Vohidov ijodida vatanni madhetish g'oyasi ustuvorahamiyat kasbetadi. "O'zbegim" qasidasida Vatanni ulug'lash bilan bir qatorda, vatan uchun kurashgan, jasorat ko'rsatgan qahramonlarni ham tarannum etadi. "O'zbegim" qasidasida badiiy g'oyani uyg'unlashtirish maqsadida adabiyotdagi badiiy san'atlardan biri talmeh san'atidan foydalilanilgan. Ijodkorning maqsadi faqatgina Vatanni ulug'lash bo'lmay, Vatan uchun sharaflı xizmat qilgan bobokalonlarimiz, shuningdek, o'zbek xalqining o'tmishi, tarixini qalamga olish va uni tasvirlash bo'lgan. Zaxmatkash o'zbek xalqi obrazini ushbu qasidada aks ettirib, o'zbekning qadr – qimmatini yanada ko'klarga ko'targan:

” Tarixing bitmakka, xalqim,

Mingta Firdavsiy kerak.

Chunki bir bor chekkan ohing

Mingta doston o'zbegim.”

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov ijodi jozibadorligi, mavzu ko'lami hamda obrazlarining xilma xilligi bilan kitobxonni o'ziga jalb qiladi. She'rlarida jonsiz narsalarga ham poetik o'xshatish keltirib, insonlar qalbini yaxshilikka, insoniylikka, samimilligu sof dallikka boshlaydi. Rus shoiri Pobert Rojdestvenskiy keltirganidek: "...bular juda yaxshi va aniq she'rlar. Shuningdek ularda dono xotirjamlik va kenglik mavjud. Yana og'riq ham bor. Haqiqiy inson og'rig'i." Erkin Vohidov she'rlaridagi o'sha og'riq insonning o'ziga nazar solishi va o'zini tuzatishidir.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Badiiy tahlil asoslari. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Kamalak.
2. D.Quronov va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. Akademnashr.T.;2010.
3. To quyosh sochgayki nur. T., O'ZBEKİSTON . 2016.
4. E.Vohidov. Tanlangan asarlar.T., Sharq. 2016.



BOBUR G‘AZALLARI POETIKASI

*Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani
22-umumiy o‘rta ta’lim maktab
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Jaynaqova Lutfiya*

Annotatsiya: Sharq xalqlari mumtoz she’riyatida keng tarqalgan lirik janrlardan biri g‘azaldir. G‘azal arabcha so‘z bo‘lib, “ayollarni vasf etmoq” degan ma’noni bildiradi. Keyinchalik, bu so‘z adabiy istiloh sifatida keng qo‘llana boshlandi. G‘azal, asosan, ishq-muhabbat tuyg‘ulari, tabiat va jamiyatdagi go‘zallikdan zavqlanish, yovuzlikdan nafratlanish tuyg‘ulari ifodalangan, o‘ziga xos qofiyalanish tizimiga ega bo‘lgan lirik asardir.

Kalit so‘zlar: Turli hayotiy masalalar, inson ruhiyatining tasviri, yor va diyor, ona vatan, ishq-muhabbat mavzulari.

Uzoq asrlar mobaynida g‘azalning turli shakllari paydo bo‘lgan. Shuning uchun o‘zbek mumtoz adabiyotida g‘azallar mavzu va g‘oya jihatidan quyidagicha tasniflanadi:

1. Oddiy g‘azallar. Bunga mumtoz adabiyotda keng tarqalgan a-a, b-a, v-a, g-a... tartibida qofiyalanuvchi g‘azallar kiradi.

2. Husni matla’ g‘azallar. Uning oddiy g‘azallardan farqi shundaki, matla’dan keyingi bayt ham o‘zaro qofiyalanadi: a-a, a-a, b-a, v-a... .

3. G‘azal-qit’a. U xuddi qit’adek qofiyalanadi: b-a, v-a, g-a, d-a... tarzida.

4. G‘azal-musajja’. G‘azalning bu turi ichki qofiyalarga ega bo‘ladi. Uning chizmasi quyidagicha:

	a
	a
b	b
b	a
Ey yuzi nasrin, qomati shamshod,	a
Necha qilursen jonima bedod?	a
Sen kibi purkor /b/, shevasi bisyor,	b
Bilmadi, ey yor /b/, hech kishi yod ¹ .	a

5. G‘azal-mulamma’. G‘azalning bu turi “shiru shakar” (ikki tilda, masalan, fors-tojikcha – o‘zbekcha) uslubida yozilishi bilan g‘azalning boshqa shakllaridan farqlanadi.

6. G‘azal-muvashshah. Unda har bir baytning birinchi misrasidagi birinchi so‘zning birinchi harflaridan biror shaxsning ismi kelib chiqadi.

7. G‘azal-mushoira. Ikki yoki undan ortiq shoir tomonidan dialog shaklida yaratiladi. Masalan, Nodira va Fuzuliyning “Mushoira” g‘azali.

8. G‘azal-zulqofiyatayn. G‘azalning kam uchraydigan bu ko‘rinishida har bir band o‘zaro qofiyalanadi.

9. G‘azal-zebqofiya. Uning qofiyalanish tartibi a-a, a-a, a-a, a-a. Bunday g‘azallar juda kam uchraydi.

G‘azalning birinchi bayti matla’, oxirgi bayti maqta’ deb yuritiladi. An’anaga ko‘ra maqta’da shoir o‘z ismi yoki taxallusini eslatadi. Binobarin, maqta’ga qarab g‘azal muallifini aniqlash mumkin:

Har nechaki muhlikdur, dardingni dema elga –
Kim, yig‘lamog‘ing, Bobur, bu elgadurur kulgu².

O‘zbek mumtoz adabiyotida g‘azal janrida samarali ijod qilgan shoirlarimizdan biri Boburdir. Boburning bizgacha 119 ta g‘azali etib kelgan bo‘lib, ularning mavzu doirasi xilmashil. Turli hayotiy masalalar, inson ruhiyatining tasviri, yor va diyor, ona vatan, ishq-muhabbat mavzulari Bobur g‘azaliyotining asosidir.

So‘zlardagi ma’no tovlanishi, o‘z va ko‘chma ma’nolarda qo‘llanilishi, turli tasviriy

¹ Zahiriddin Muhammad Bobur. Sochining savdosi tushdi. Nashrga tayyorlovchi va so‘z boshi muallifi E. Ochilov. T.”Sharq” 2007 37-bet

² O’sha asar 115-bet



vositalar yordamida yaratilgan badiiy timsollar g‘azallardagi ta’sirchanlikning oshishiga xizmat qiladi. Bu o‘rinda ma’naviy va lafziy san’atlar muhim ahamiyat kasb etadi. Biz tahvilga tortgan Bobur g‘azallarida ma’naviy san’atlarning ajoyib namunalarini kuzatishga muvaffaq bo‘ldik.

Mumtoz she’riyatimizda keng qo‘llanilgan badiiy tasvir vositalaridan biri laff va nashr bo‘lib, “yig‘ish va yoyish” ma’nosini ifodalovchi bu san’at she’r yoki g‘azal baytining birinchi misrasida bir yoki bir necha narsa, tushuncha nomini ketma-ket keltirib, ikkinchi misrasida har biri haqidagi hukmlarni, ularning sifatlarini bayon qilishni nazarda tutadi. Bundan asosiy maqsad esa nomlari keltirilgan narsa yoki tushunchalarni ta’kidlab, kuchaytirib chiroqli tasvirlashdir.

Avval sanalgan (“yig‘ilgan”) nomlar tartibi bilan ular haqidagi hukmlar tartibi munosabatiga ko‘ra laff va nashr murattab (“tartibli”) va “nomurattab” yoki “g‘ayri murattab” (tartibsiz) turlarga bo‘linadi¹. Masalan, Bobur qalamiga mansub quyidagi g‘azalning har bir baytida laff va nashrning takrorlanmas namunalarini ko‘rshimiz mumkin:

Xating birla yuzungu kokulung sening, ey jon,
Biri – binafsha, biri – yosuman, biri – rayhon².

Ushbu g‘azalda laff va nashrning har ikkala turi (murattab hamda nomurattab) namunasini ko‘rshimiz mumkin

Xating birla yuzungu kokulung sening, ey jon,
Biri – binafsha, biri – yosuman, biri – rayhon.

Tanu ko‘ngul bila ko‘z vaslu nozu husni uchun
Biri – xarobu biri – volayu biri – **hayron**.

Baytdagi “tan”, “ko‘ngul”, “ko‘z” timsollari ikkinchi misrada “xarob”, “vola” (shaydo), “hayron” so‘zleri orqali izohlanmoqda. Bu tartibli laff va nashrdir.

Takallum aylarida **tiliyu tishiyu labi**,

Biri – aqiqu biri – injuyu biri – **marjon**.

baytining birinchi misrasidagi laffda avval til, so‘ngra tish, keyin esa lab, ikkinchi misradagi “nashr”, ya’ni mahbuba a’zolari haqidagi hukmlar tartibi birinchi misradagi so‘zlar tartibiga nomuvofiq. Birinchi turgan “til” so‘ziga ikkinchi misradagi “marjon” tashbihi, ikkinchi turgan “tish” so‘ziga ikkinchi bo‘lib kelgan “inju” (dur, marvarid) tashbihi, uchinchi turgan “lab” so‘ziga esa “aqiq” tashbihi mos tushadi. Binobarin, ushbu baytda nomurattab, ya’ni tartibsiz laff va nashr qo‘llangan.

Yana bir g‘azalidagi

Og‘zi-yu ikki zulfiyu qadi bo‘lmasa manga
Rayhonu sarvu g‘uncha ko‘rardin maloldur.

baytda ham laff va nashrning nomurattab namunasini uchratamiz.

Hadisu la’lu raftoru jamolingdin erur har dam,

Tilim go‘yo, so‘zum rangin, ko‘ngul xurram, ko‘zum ravshan.

Ushbu baytda laff va nashrga tortilgan so‘zlar miqdorining ko‘pligi bilan e’tiborni tortadi.

Shoir g‘azallarida ma’naviy va lafziy san’atlarning yana ko‘plab ko‘rinishlarini uchratamiz. Bularning barchasi Zahiriddin Muhammad Boburning benazir so‘z ustasi va mahoratli ijodkor ekanligini ko‘rsatishga dalil bo‘la oladi.

¹ A. Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat lug‘ati. T: “Yangi asr avlod” 2008 34-bet

² Zahiriddin Muhammad Bobur. Sochining savdosi tushdi. Nashrga tayyorlovchi va so‘z boshi muallifi E. Ochilov. T:”Sharq” 2007 105-bet



ABDULLA ORIPOV – O'ZBEK SHE'RIYATINING ZABARDAST IJODKORI

*Kucharova Dilbar Xolmatovna
Surxondayo viloyati Uzun tumani
14-umumta'lim maktabi
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
tel: 91-518-15-81
e-mail:kucharova@mail.ru*

Annotatsiya: maqolada buyuk shoirimiz Abdulla Oripovning she'riyati, hayot yo'li, adabiyot oldida tigan ulkan xizmatlari, asarlarining o'ziga xosligi bo'yicha fikrlar yoritilgan

Kalit so'zlar: buyuk shoir, istedod sohibi, so'z ustasi, ijod yo'li

Oolloh qaysi shoirga yuksak talant, iste'dod bergen bo'lsa, u buyuk shoir bo'lib, badiiy barkamol asarlar yaratadi. Agar shoirga ana shunday talant nasib etmagan bo'lsa, u nechog'lik mehnatsevar bo'lmasin, hamisha izlanishda bo'lmasin, o'rtamiyona maqomidan nariga o'ta olmaydi.

O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov esa yuksak talant sohibi bo'lib, badiiy barkamol, umrboqiy asarlar muallifi edi.

Abdulla Oripovning bolaligi dov-daraxtlar kam, lekin zavq-shavq ko'p, suv oz, biroq sarrin shaboda-yu ertaklari mo'l Qo'ng'irtov etaklaridagi qir va shuvoq-zorlarda o'tdi. Maktabga borar-bormas akalariga qo'shilib, molga o't, uyga suv tashidi, g'alla o'rди.

Urushdan keyin qiyinchilik, yo'qchilik bo'lishiga qaramay, biror kishi, biror oila o'z qishlog'ini tashlab ketmadi. Buni yosh Abdulla o'z ko'zi bilan ko'rди. Vatan degan ilohiy qudrat va tushuncha uning murg'ak tasavvurida shu yillardan mustahkamlangan bo'lsa ajab emas.

Bo'lajak shoirning onasi Turdi Karvon qizi tabiatan g'oyat ta'sirchan, she'r va go'zallikka oshufta ayol edi. Abdullaning bolalikdagi dastlabki o'yinqaroq satrlari ham mehribon onasining xalq yo'lida xirgoyi qilib yurgan qo'shiqlari ta'sirida tug'ilди, akalari uyda yiqqan badiiy kitoblarni o'qib, asta-sekin kurtak otdi.

Serfarzand oila – to'rt qiz, to'rt o'g'il, ular ichidagi kenjatoyi Abdulla nainki oila yoki maktab, balki, umuman qishloqda o'tkir zehni va qobiliyati bilan ajralib turar edi. U o'n yetti yoshida maktabni oltin medal bilan tugatib, 1958-yilda Toshkent Davlat Universiteti filologiya fakultetining jurnalistika bo'limida tahsil ola boshladi.

Universitetdagi qaynoq hayot, muhit Abdulla Oripovning shaxs sifatida tarbiyalanishida, talabalik dunyoqarashi shakllanishida, shoir bo'lib oyoqqa turishida, chiniqishida muhim rol o'ynadi. Ayniqsa Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Umarali Normatov singari mehribon ustozlar – she'riyatning nozik, talabchan bilimdonlari qo'lidagi tahsil; Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimov, Shukur Xolmirzayev, Rauf Pari kabi shu yillardayoq qalami charxlangan talabchan ijodkorlar muhiti, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor singari adiblar bilan uchrashuvlar, adabiyot to'garagidagi qizg'in bahslar, umuman, poytaxtning adabiy-madaniy havosi iste'dodi g'unchalab turgan Abdulla Oripovga g'oyat barkamol ta'sir ko'rsatdi.

Mana shu muhitda shoirning izlanish jarayoni kechdi. Uning dastlabki, "Umr duch qilarkan", "Hali oldindadir go'zal kunlarim", "Sendan yiroqda", "Shovulladi tun bo'yi shamol" singari she'rlarida bir oz sayozlik alomatlari sezilgan bo'lsa, 60-yillarning o'talariga kelib, kamchiliklar barham topib, yangi shoir tug'ilayotganidan darak berdi. Uning "Mitti yulduz" nomli mittigina she'riy to'plamida yulduzlardek mo'jaz, porloq, so'nmas she'rlari bisyor edi.

Shoir ijodi davomida ko'pdan-ko'p asarlar e'lon qilib, O'zbekistonning peshqadam shoirlaridan biriga aylandi. "Onajon", "Ruhim", "O'zbekiston", "Hayrat", "Yuzma-yuz" to'plamlariga kirgan she'rlarida O'zbekiston va uning xalqi boshidan kechayotgan voqealarga, tashvishlarga dahldor his-tuyg'ular, shoirona nuqtayi nazarlar, zamondoshlarimiz qalbi va tafakkurida ro'y berayotgan o'zgarishlar, orzu umidlar olamidagi talotumlar, qiyinchiligu ziddiyatlar, sevinch-u iztiroblar aks ettirildi.

Shoirning katta janrdagi asarlarining ko'pi yovuz va qora kuchlarning ayovsiz kurashiga bag'ishlanadi. "Ranjkom" nomli dramatik doston ham oshkoraliq va qayta qurish deb nomlangan 80-yillarning ikkinchi yarmida avj olgan g'iybat, tuhmat, ig'vo, hasad sigari yaramas illatlarni keskin fosh etadi.



Asarda mualliftinch ishlab, yashab yurgan halol, vijdonli kishilarni ranjitishdan, haqoratlashdan, ularga azob berishdan rohatlanuvchi va maqsadlarini izchil ravishda amalga oshirish uchun, hatto maxsus qo‘mita tuzishga bel bog‘lagan razil kimsalarni umumlashtirilgan jirkanch basharalari aks ettirildi.

So‘nggi yillarda jamiyatda ro‘y bergen o‘zgarishlar, ularning zamondoshlarimiz qalbi va tafakkuriga ko‘rsatayotgan ta’siri shoirning “Ishonch ko‘priklari”, “Munojot”, “Hikmat sadolari”, “Haj daftari” kabi to‘plamlariga kirgan she‘rlarida yorqin aks ettirildi. Shoirning mustaqillik yillarda yozgan she‘rlari Vatanimiz va xalqimizni ulug‘lovchi yuksak saviyadagi asarlar bo‘lib, o‘zbek adabiyoti ravnaqiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

Abdulla Oripov qizg‘in ijod qilish bilan birga, “Sharq yulduzi” va “Gulxan” jurnallarida, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida turli darajadagi rahbarlik lavozimlarida mehnat qildi. U O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi noibi, Yozuvchilar uyushmasi raisi bo‘lib ishladi. Shoirning asarlari el-yurt va hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nazarov B. Abdulla Oripov, O‘zbek adabiyoti, Toshkent, 1997.
2. Oripov A. Ishonch ko‘priklari. – Toshkent.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989.
3. Oripov A. Yillar armoni. – Toshkent.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
4. Oripov A. Sohibqiron. – Toshkent.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996.
5. Oripov A. Surat va siyrat. – Toshkent, 1996.



IMOM BUXORIY HADISLARIDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR

*Madina Yo‘ldasheva Yuldasbay qizi
Xorazm viloyati Xonqa tumani 52-som maktabning
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Telefon: 998975291892*

*Bobojonova Muhayyo Qo‘chqorboyevna
Xorazm viloyati Xonqa tumani 52-som maktabning
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Sobirova Sanobar Allayarovna,
Xorazm viloyati Xonqa tumani 52-som maktabning
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon - +998 99 74191 29*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Imom Buxoriy hadislarida umuminsoniy qadriyatlar mavjudligi haqida ma’lumot berilgan. Imom Buxoriy hadislaridan namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: muhaddis, sahih, g‘ayrisahih, sahoba, Rasululloh, salollohu alayhi vassallam, Abdulloh ibn Amr, Anas ibn Molik

Hadis ilmining rivojlanishiga, ayniqsa, bizning yurtimizdan yetishib chiqqan muhaddislar ulkan hissa qo‘sishgan. Imom Buxoriy, Termiziyy, Samarcandiy o‘z umrlarini hadis to‘plash va ularni o‘rganishdek muqaddas ishga bag‘ishlaganlar. Mashhur muhaddislar orasida Imom Buxoriy eng oldingi qatorda turgan. Uning yozgan kitoblari orasida eng mashhuri esa „Al-jome’ as-sahih” asaridir. Imom Buxoriygacha o‘tgan muhaddislar (hadis biluvchi) hadis kitoblariga barcha hadislarini kiritar edi. Hadislarni barcha shartlari bilan tekshirib, ularni sahih(ishonchli) yoki g‘ayrisahih(ishonarsiz) qismlarga ajratishmas edi. Birinchi bo‘lib bu uslubni Imom Buxoriy joriy etgan.Imom Buxoriy islam dunyosining eng mashhur kishilaridandir. Hadis payg‘ambarimiz so‘zlaridir. Bundan kelib chiqadiki, u kishi payg‘ambarimiz so‘zlarini yig‘gan, o‘rgangan, aytgan allomadir. Imom al- Buxoriyning ismi – Ismoil bo‘lib, 810- yilning 21- iyunida Buxoro shahrida tug‘ildi. Otasi Ismoil Buxoriy ham muhaddis edi, goho tijorat bilan shug‘ullanar edi. Lekin juda halol va hudojo‘y odam edi. Zamondoshlari uning xonardoniga mehnatsiz topilgan biror dirham ham pul kirmaganligi haqida yozadilar.

Onasi ham diyonatli , qalbi Allohdha, qo‘li duoda yuruvchi pokiza ayol bo‘lgan. Aytishlaricha, Muhammadning ko‘zi yoshligida jarohatlanib, ojizlanib qoladi. Tabiblarga qaratadilar, foyda bermaydi. Bir kuni ona tush ko‘radi. Ibrohim alayhissalom unga qarata:,,Ey olida, duolaring sharofatidan Alloh o‘g‘lingga ,ko‘rish qobiliyatini qaytardi”- deb xitob qilayotgan mish. Cho‘chib uyg‘ongan ona o‘g‘lidan xabar olibdi. Muhammadning ko‘z qaroqlarida nur o‘ynardi.

Kichkinaligidan hadis ilmiga ko‘ngil qo‘ydi. O‘n yoshlaridan o‘z zehni va yod olish -quvvati bilan ustozlarini shoshirib qo‘ya boshladi.Krsh bilan Marvdan Makka-yu Madinagach, Balx bilan Hirotdan Bag‘dod-u Basragacha, Nishopurdan Misr va Shomgacha yurtma- yurt, shaharma-shahar kezib ilm o‘rgandi. Buyuk bobomiz to‘plab, saralab bergen minglab hadislar, mana, necha asrlarki, avlodlar uchun yo‘llanma va qo‘llanma bo‘lib kelmoqda. Mumtoz adabiyotimizning juda ko‘p namunalari, minglab she’rlar, yuzlab dostonlar payg‘ambarimiz so‘zları va amallaridan ilhom va ozuqa olib maydonga kelgan. Hadislar sharhiga bag‘ishlangan asarlarning esa sanog‘iga yetib bo‘lmaydi. Imom Buxoriyning hadislarini hayotning xilmasalalariga doir ko‘rsatmalardir

Odam ota- onasini haqorat qilmaydi!

Abdulloh ibn Amr(sahabalardan biri) rivoyat qiladi: „Rasululloh sollallohu alayhi vassallam: „, Odam qiladirgan gunohi azimlardan biri- ota- onasini haqorat qilmoqdir!”, - dedilar. Shunda : „Yo Rasululloh, odam o‘z ota-onasini qanday qilib haqorat qilmog‘I mumkin?!”,- deyishdi.

Janob Rasululloh :,, Birovning ota- onasini so‘kkан odam o‘z ota-onasini haqorat qilgan bo‘lur”,- deb javob berdi

Qarindoshlariga mehr- oqibatl odamning rizqi ulug‘ bo‘lmog‘i haqida

Abu Hurayra roziyallohu anhu: „, Men Rasululloh sollallohu alayhi vassallamning : alayhi vassallam: „, Kimki rizqim ulug‘, umrim uzoq bo‘lsin desa, qarindosh- urug‘lariga mehr-oqibatl bo‘lsin!”- deganlarini

Anas ibn Molik (sahabalardan biri) rivoyat qiladi: „, Rasululloh sollallohu



alayhi vassallam : „Kimki rizqim ulug‘, umrim uzoq bo‘lsin desa, qarindosh-urug‘lariga mehr-oqibatli bo ‘lsin!”, - deganlar

Barcha ishda xushmuomalalik darkorligi haqida

Nabiy sollallohu alayhi vassallamning jufti halollari- Oysha roziyallohu anho Urva ibn az-Zubayraga bunday deb aytib bergen ekanlar:,, Bir to‘da yahudiylar Rasululloh sollallohu alayhi vassallamning huzurlariga kirib:,, As-somu alaykum!”(ya’ni „Sizga o‘lim!”) - dedi. Men ularning gapini anglab:,, Vaalaykumu-s-somu va – l-la’na!” ya’ni sizga ham o‘lim va la’nat dedim.

Janob Rasululloh „Yo Oysha, shoshmay turg‘il! Alloh taollo barcha ishda xushmuomalalikni yoqtiradi” , - dedilar. Men: „Yo Rasululloh, ularning nima deganini eshitmay, anglamay qoldingiz!” - dedim.

Janob Rasululloh : „ Sizlarga ham dedim-ku, axir!” - dedilar

Hadislarda islom dinining qonun-qoidalari bilan birgalikda insoniy fazilatlar ham keng tashviq qilinadi, insoniylik sha’niga dog‘ tushirayotgan yomon sifatlar qoralanadi.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. “Al-jome’ as-sahih”1-2-jiddlar.T: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, Toshkent-2015
2. 5-sinf adabiyot “Sharq”nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi Toshkent-2015



SADOQAT MULKINING MALIKASI

*Mavlyanova Sayyora Norimanovna
Xorazm viloyat Gurlan tuman
17-maktab ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi +998 941190867
Sayyora.norimanovna@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada vafo va sadoqat mulkining malikasi Zulfiyaxonimning she'rларидаги самимият ва о'зига хослик ва бу haqida ijodkorlarning fikrlari o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: sadoqat, vafo, she'r, shoira, ijodkor, mukofot, abadiyat

Biz bilamizki, har bir shoir va nosir nomini tilga olishimiz bilan ularning qilgan xizmatlarini va shaxsiy sifatlarini hayolimizda tiklaymiz. Masalan, Mahmud Koshg'ariy desak, turkey til grammatikasi asoschisi, Navoiy desak, g'azal mulkining sultoni, Abdulla Qodiriy desak, o'zbek romanchiligining asoschisi, Ogohiy deganda esa mukammal mustazod kashfiyotchisi, Pirimqul Qodirov deganda, kuchli tarix bilimdoni, Abdulla Qahhor deganda qisqa fikrga teran ma'no singdiruvchi shaxs, Muqimiy desak, sayohatnomani, Turdi desak, hajviyotni mustaqil janr maqomiga olib chiqqan shoirlar, Muhammad Yusuf deganimizda esa xaqona nazm sardori ko'z oldimizda gavdalanadi.

Endi mashhur o'zbek shoirasi sanalgan Zulfiyaxonim haqida bir fikr yuritib ko'raylik. Zulfiyaxonim deganimizda, ko'z oldimizda qanday inson gavdalanadi? Shoiran qisqagina nom bilan qanday atamoq mumkin. Zulfiyaxonimni sadoqat mulkining malikasi, vafo qasrinig binokori, ko'klam faslining qaldirg'ochi deb atasak bo'ladi. Shoira she'rларини rus tiliga tarjima qilgan mashhur rus shoiri Konstantin Simonov shoira Zulfiya haqida quyidagicha iliq fikrlar bildiradi: " Men o'z vaqtimda Zulfiyaning she'rларини sevib, quvonch bilan tarjima qilganman. Zero bu she'rлар beqiyos, otashin muhabbat haqidagi she'rларdir. Mening nazarimda Zulfiya o'zining butun ayyollik nafosati va nafisligi bilan birga mana shunday barkamol inson baquvvat va mustahkam irodali insondir.

Shoiraning mehnatlari, tinimsiz izlanishlari besamara ketmadi. Uning ijod namunalari ko'plab chet tillarida, shuningdek, qardosh turkey xalqlar tillarida nashr etilgan. Zulfiyaxonim 1968-yilda "Xalqaro Javoharlal Neru", 1971-yilda "Nilufar", 1970-yilda Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti shuningdek 1972 -yilda Bolgariyaning "Kirill va Metodiy" ordeniga sazovor bo'lgan. O'zbekiston hukumati atoqli shoiraning madaniyatimiz taraqqiyotidagi katta xizmatlarini e'tiborga oigan holda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etdi.

Toshkentdagи maydonlardan biriga Zulfiya haykali o'rnatildi, ko'chalardan biriga uning nomi berildi.

Ijodkor ahli uchun bundan hurmat bo'lmasa kerak.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: "Zulfiya ijodi millionlab kishilarga muhabbat va sadoqatdan saboq bermoqda, sadoqat va vafo ramzi bo'lib yashamoqda".

Shoira she'rларини mutolaa qilar ekanmiz , unda bahor nafasini onaning cheksiz mehrini, ayol dardini, hijron olovida yongan oshiq zorini, vatanni sevgan asl farzand izhorlarini his qilamiz. Yurtimizda har yili 1-mart Zulfiyaxonimning tavallud kuni keng miqyosda nishonlanib kelinadi. Uning muborak nomlari tilga olinib,muhtasham haykallari poyiga guldstalar qo'yiladi.Shoiraning she'riy to'plamlari qayta nashr qilinib , she'riyat ixlosmandlariga tuhfa qilinadi.Shoira nomini abadiylikka muhrlash maqsadida xalqning cheksiz muhabbat namunasi sifatida shu kabi qator ishlar amalga oshiriladi.

Zulfiyaxonimni bilmagan,sevmagan va she'rларidan yod olmagan o'zbek farzandi topilmasa kerak.Shoiraning "Kechir qoldim g'aflatda" , "Ne baloga etding mubtalo" , "Xotiram siniqlari" , "Bahor keldi seni so'roqlab" , "Sensiz" , "Men o'tgan umrga" va boshqa shu kabi she'rлари xalq qalbidan munosib o'rin egallagan va o'zida vafo,sadoqat tuyg'usini insoniylikning, komillikning bosh me'zonini,oily insoniy qadriyat va samimiyligi hislarni tarannum etgan.Uning hayot yo'li ham,ijodiy faoliyati ham ibratlidir. Zulfiya urushdan keying yillarda ham tinch ijodiy mehnatda kishilarning matonati va qahramonligining yuksak namunalarini ko'rsatayotgan zamondoshlari haqida , tinchlik va do'stlik haqida kitobxonlarga manzur bo'ladigan ajoyib she'rлар yaratdi.Shoiraning "Hulkar" , "Men tongni kuylayman" , "Dugonalar bilan suhbat" kabi



to‘plamlaridagi she’rlarida asl o‘zbek qizi – Zulfiyaning ovozi- onalik qalbini, ayol nazokatini, inson orzusini, so‘ngsiz muhabbatini kuylagan otashin she’rlari nafaqat O‘zbekistonda balki butun Osyo, Afrika va Evropa mamlakatlarida ham kitobxonlar nazariga tushgan . Zulfiya badiiy tarjima bilan ham shug‘ullanib katta ishlarni amalga oshirdi. A.S.Pushkin , M.Y.Lermantov, N.A.Nekrasov, M.Voqif, L.Ukrainka, M.Dilboziy, S.Kapukyan, Mustay Karim, Amrita Pritan va boshqalarning asarlarini o‘zbek tiliga zo‘r mahorat bilan tarjima qilgan.

Zulfiyaxonim nomi vafo va sadoqat, samimiyat ufurib turgan go‘zal namunalari bilan abadiyatga muhrlangan.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Zulfiya “Saylanma” “Sharq” T:2016
2. N.Qobul “Zulfiyaxonim yoxud Hamid Olimjonning so‘ngsiz armoni” T:2018
3. [www. ta’lim.uz](http://www.ta'lim.uz)



ADABIYOT O'QITISH METODIKASINING ILMIY-TADQIQOT METODLARI

*Mo'ydinova Yorqinoy
11-umumiy o'rta ta'lif maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Jalaquduq tumani*

Annotatsiya: Ijtimoiy-siyosiy hayotimizning barcha sohalari qatori xalq ma'naviyatining ko'zgusi bo'lmish badiiy ijod, xususan, badiiy adabiyot rivoji ham davlatimiz, jamiyatimizning doimiy e'tiborida bo'lib kelmoqda. Navqiron avlodni har jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda kitobning o'rni va ahamiyatini yanada kengaytirish maqsadida maktablarda adabiyot darslarini yuqori sifatda tashkil etish, ta'lifning yangi usullaridan foydalanish o'qituvchilar oldida turgan asosiy masaladir. Ushbu maqolada adabiyot fanini o'qitishda qo'llaniladigan ilmiy-tadqiqot metodlari haqida yoritiladi.

Kalit so'zlar: ma'ruza, konservator, progressive, sifat, samara, maqsad, badiiy, individual.

O'qituvchilarning qanday ta'lif berishi har qanday sinfda o'quvchilar bilim olishga ta'sir qiladi. O'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan usul yoki manbalar o'quvchilar faol yoki passiv bo'lishini belgilaydi. O'quv yurtlarida o'qituvchi asosan ma'ruza uslubidan foydalanadi, bu o'qituvchilarning diqqat markazida bo'lgan usul bo'lib, o'quvchilar passiv va o'rganish yuzasi bo'lishga moyil bo'lishi mumkin, Ma'ruza eng qadimgi o'qitish usullaridan biri bo'lib, hanuzgacha eng keng tarqalgan qo'llaniladigan o'qitish usuli hisoblanadi.

Adabiyotni o'qitishning ikkita asosiy yondashuvi mavjud. Ushbu yondashuvlar yillar davomida adabiyotni o'qitish an'analari sifatida teng ravishda qabul qilinadi. Ular konservatorlar va progressivlar. Bundan tashqari, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, konservatorlar quyidagicha tavsiflanadi:

- Adabiyotning didaktik funksiyalariga emas, faqatgina adabiy asarlarning o'ziga qiziqish;
- Keng qamrovli o'qishni afzal ko'rish; boshqacha qilib aytganda, miqdori bo'yicha sifat talabalarga ular uchun matn tanlashda kelib chiqishini hisobga olish;
- Ular individual farq prinsipini mensimaydilar va matnlarni tanlashda o'quvchilarni passiv holga keltiradilar;

Progressiv yondashuvda:

- O'quvchilarning jamiyatga moslashishiga yordam berish uchun adabiyotlardan didaktik ravishda foydalanish;
- Sifat va miqdoran ko'p ta'lif berish;
- O'quvchilarning har biri alohida bilim va ko'nikmaga ega ekanini hisobga olish;
- Talabalarga ishonib – dars jarayonini birgalikda rejalashtirish;
- O'quvchilarni baholash jarayonida darslar qanday tashkil etilganligi va natija qanday bo'lgani, ta'lif samaradorligiga ko'proq e'tibor qaratishni ifodalaydi va mavzuga kompleks yondoshish uchun imkoniyatini beradi.

Adabiyot o'qitish boshqa fanlarni o'qitishdan keskin farq qiladi. Shunga ko'ra, uni fan sifatida qaraydiganlar bir guruhi tashkil etsa, adabiyot o'qitishni san'at turi sifatida baholab, adabiyot o'qituvchisining ishini ham san'atkorona bir ish sifatida baholaydiganlar kam emas.

Badiiy adabiyot yaxlit estetik hodisa bo'lganligi uchun ham uning nazariy jihatlari yaxlit holda o'rganilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqori sinflarda ko'proq murakkab nazariy masalalar, tushunchalar xususida bahs yuritish ularning fikrlesh doirasini kengaytirish hamda ijodkorligini oshirishga xizmat qiladi. Adabiyot darslarida ayrim ilmiy, ilmiy-ommabop jurnallarda, jumladan, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Ma'rifat", "Yozuvchi" va boshqa gazetalarda "Til va adabiyot ta'limi", "O'zbek tili va adabiyoti" jurnallarida e'lon qilingan adabiy-tanqidiy va ilmiy maqola va materiallardan, foydalanishning imkonlari ko'p. Tanqidchilarning maqolalari, adabiy qaydlar o'quvchilar uchun mazmun va metodik jihatdan badiiy matnni tahlil qilishning namunasi bo'lib xizmat qiladi

Adabiyot o'qitish usuli pedagogika fanining uzviy qismi bo'lib, badiiy adabiyotni tadqiq etadi, adabiyot fanini o'qitish shartlari va usullarini ilmiy asosda ishlab chiqish va tadbiq etish, sinfdan tashqari mustaqil o'qish, shuningdek maktabdan tashqari mashhg'ulotlarning shakli va usullarini ishlab chiqadi.



Maktabda adabiyot darslarining asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarning anglash faoliyatini boshqarishning samarali yo‘llarini aniqlash va ularni amaliyotda qo‘llash va rivojlantirishdan iboratdir.

Adabiyotlar:

1. The Teaching of Literature: Approaches and Methods, Ugochi Happiness Ikonne Ph.D National institute for Nigerian Languages, B: 75-76.
2. Adabiyot o‘qitish metodikasi, Toshkent 018, B: 41-43.
3. To‘xliev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent, “Yangi asr avlod”, 2007 yil.



**T.MÁTMURATOV LIRIKASÍNDA METAFORANÍ KÓRKEMLIK
ÓZGESHELIKLERİ**
(Shayirdiň «Ashılısw» toplamı tiykarında)

*Qalbaeva Nawbahar Perdebaevna,
Nókis rayoni 1-sanlı qániqelestirilgen
mámlekетlik ultiwma orta bilim beriw mektebi oqtiwshısı*

Annotatsiya: Qaraqalpaq xalqınıń súyikli shayırı T.Mátmuratov lirikalıq qosıqlarınıń kórkemlik dárejesi, shayirdiň óz shıgarmalarına bolǵan dóretiwshilik qatnasi, qosıqlarınıń kórkem mazmunlılıǵı menen basqa dóretiwshilerden ajiralıp turadı. Ol óziniń lirikalarında kórkem sóz qaymaqlarınan utımlı paydalanydı. Óz náwbetinde T.Mátmuratovtıń qosıq qatarlarında metaforalardan orınlı paydalanyw sheberligin de ayriqsha atap ótiwimiz lazı̄m.

Metafora – waqıyalardı ashiw, zaman shinligin, turmis konfliktlerin súwretlewde qollanılatuǵın kórkemlew qurallarınıń biri. Metaforalar basqa janrlarǵa qaraǵanda poeziyada ayriqsha rol atqaradi. Metaforalar arqalı hár qanday jeke sózdiń kórkemligi, obrazlılıǵı dóreydi.

T.Mátmuratovtıń 1977-jılı baspadan shıqqan «Ashılıw» toplamınan orınlı alǵan lirikalarında metaforlar koóphilikti qurayı̄. Demek, biz bul jumısımızda «Ashılısw» toplamındaǵı metaforalardı úyrenemiz.

*Kewillerge jelip turǵan arǵımaq,
Kókiregi iyip turǵan zer bulaq,
Sózleriniń pátlerinen taw qulap,
Gawqildasar keshte qaraqalpaqlar (11-bet).*

Shayır bul qosıq qatarlarında «zer bulaq» metaforasınan paydalanydı. Sózdiń awısiw usılı arqalı qosıqtıń kórkemligi asıp, pikirdiń ótkirliliǵı támiylnlengen. Bulaq degende kóz aldımızǵa tolıt-tasıp aǵıp turǵan suw keledi. Sóz sheberi bolsa, zer menen bulaq sózlerin qatar qollanıw arqalı óz pikirin kúsheyte alǵan. Metafora qosıqqa giperbolalıq mazmun jiklegen dep te aytı̄lazı̄m.

*Bul sheksiz álemge sen
Kishkene esik boldiń.
Jańam da, góñem de sen,
Sen maǵan qosıq boldiń (14-bet).*

Keltirilgen qatarlar «Jabanım - jasıl dalam» dep atalǵan qosıqtan úzindi. Shayır tárepinen bunda metaforalar sheber qollanǵanın kóriwimizge boladı. Qosiqtı ol óziniń tuwilip ósken jerin, awılin súwretley otırıp, onı kishkene esik dep ataydı. Bul «Shańaraq - kishkene watan» dep kündelikli turmista keń qollanılatuǵın pikirge oǵada únles bolıp keledi. Haqıqatında da, hárbir insan ushin tuwilǵan jeri - barlıq imkaniyatlarǵa jol ashatuǵın mákan. Bunu shayır óz qosıǵında kishkene esik sózi arqalı jetkerip beredi. Bul qosıqtı bunnnan basqa metaforalar jumsalǵan:

*Awılım meniń ushin,
Mudamı jarıq keshiń,
Sen boldiń sonıń ushin
Ómirdiń álippezi (14-bet).*

Bul qatarlarda shayır ómir álippezi metaforasınan qollanǵan. Álipbe - ilimde hárbir adamnıń sawatin aship, oǵan eń dáslepki bilim nurın quyatuǵın derek sanaladı. Al kórkem sóz sheberi ómir álippezi degende turmisqa tayarlaytuǵın, onıń oylı-báleentine shıdamlı etip tárbiyalaytuǵın jer - bul meniń awılim, degen túsinikti beredi. Sol awıl meni ómirge tayarladi deydi. Qosiqtıń keyingi qatarlarında da metaforalarǵa kózimiz túsedı:

*Awılım - oy sharbaǵı,
Awılım - adaq arbam (15-bet).*

Bunda oy sharbaǵı metaforası arqalı jáne awılin táriypleydi. Ekinshi qatarda bolsa, meni ayaqqa turǵızǵan yaǵníy kamalatqa jetkerip tárbiyalagan - bul meniń awılim degen ugımdı ánlatıw ushin adaq arba metaforasınan paydalanydı.

*Ashshi edi shejiremiz,
Dushshi edi ómir degen.
Dut edi ójiremiz,
Sút edi kewil degen (18-bet).*

Joqarıdaǵı qatarlarda jumsalǵan metaforalar edim, edi sózleriniń dizbeklesip keliwi arqalı jasalǵan. Omirdiń ashshi-dushshısı bolmaytuǵını belgili, al shayır sende ótken máwritlerim



qaytalanbas, altın máwritler edi, degen pikirdi «Dushshı edi ómir degen» qatarları arqalı jetkerip beredi. Al sút edi kewil degen qatarlarında girbińsiz balalıqtığı pák, kir juqpaǵan kewildi sút peneb teńlestirip táriypleydi. Albette qosıq tutas bir metaforalıq usılda berilip, sol arqalı lirikalıq qaharmanniú ishki halatı sáwlelendiriledi.

Sóz sheberiniú «Aral sazları» qosıǵında da metaforalarǵa kózımız tusesi. Ásirese dúnayajúzlik global mashqalani sóz etiwde gáwhar suw metaforasınan orınlı paydalanadı:

*Qumǵa aqqan gáwhar suwdi biyhuwda,
Özine qaratip bursam bolmayma? (32-bet).*

Álbette, qosıqta gáwhar suw metodı kerek jerinde orınlı paydalanılǵan. Bul tek ǵana metafora xızmetin atqarıp, qosıqqa kórkemlik berip sheklenbesten, pútin kompoziciyadaǵı ulıwmalıq pikirdi jetkerip beriw waziyapasın da atqaradı. Óytkeni Aral mashqalasına sebepshi bolǵan másele - suwdıń jetispewshılıgi. Sonlıqtan da ápiwayı suwdı gáwhar menen teńlestirip, qosıqqa ózgesh boyaw beredi.

Júzimde baxıt nuri kúlim qaǵar... (16-bet).

...Qushaq ashıp kewliniń gúlin taǵar

Güllentip Ámiwdárya jaǵaların,

Men turıppan baxittıń biyiginde (46-bet).

Keltirilgen misallarda dóretiwshi tárepinen baxıt nuri, baxıt biyigi metaforaları qollanılǵan. Metafaralar giperbolalıq mánisti de ańlatıp turǵanın kóriwimizge boladı. Bunda baxittıń biyigi degende eń kemissiz baxittıń iyesi, hátteki baxıtlılar ishinde de eń baxıtlı adam degendi túsinemiz. Sonday-aq, júzimde baxıt nuri kúlip tur,-dew arqalı da baxıtlı lirikalıq qaharmanniú sáwlesin kóremiz.

Shayırkıń lirikalarında bunnan basqa da júdá kóp metaforalardı ushıratamız:

Tasıp dáwır júgin, tasıp irisqal,

Abadan elimdi etip gúlistan (54-bet).

Sen qosıqqa baha bermesten burın,

Túsip kór qosıqtıń álippesine (55-bet).

Birinshi misalǵa itibar qaratayıq: onda dáwır júgi metaforası qollanıladı. Bul arqalı sóz zergeri dáwirdıń qıyınhılıqların, zamanniú awırmalıǵın ańlatıw ushın júk sózinen paydalanadı. Ekinshi misalda bolsa qosıq álippesi metaforası qollanıladı. Álipbe sózinen metafora dúzgenligin T.Mátmuratov dórtwiwshılıgında oǵada kóp ushıratamız. Bul shayırkıń jeke stiline tán ózgesheligi deseck te boladı.

Turmıs tasın bir kóterip kórmeseń,

Baxıt kelip basgeneńnen siypamas (64-bet).

Bul qatarlarda turmistiń awırmalıǵın, qıyınhılıqların táriylep beriw maqsetinde tas sózinen paydalangan. Al tas degende bolsa, hárbir adamnıń kóz alǵına awır salmaqlı zat keledi. Solay etip, shayır bul qatarlarǵa da metaforalar járdeminde kórkemlik baǵışlaǵan.

Jaslıq – bir tolqındur qaytip gez bolmas,

Aldın tabılar da, keyin tabılmäs (64-bet).

Bunda jaslıqtı tolqıńga megzetedi. Shinında da, jaslıq kúshli bir tolqıńga megzes. Ol waqıtta hárbir adama kúshlı jiger, ǵayrat bolıp, hámme nársenu bir dem islep taslaǵısı keledi. Jaslıq - adamnıń tolıp-tasıp turatuǵın máwriti. Sóz zergeri mine usı jerde jaslıqtı táriyplew ushın tuwrı sóz tańlaǵan halda metaforadan orınlı paydalangan.

Juwmaqlastırıp aytqanda, T.Mátmuratovtıń «Ashılısıw» toplamındaǵı lirikalarında qollanılǵan metaforalar júda kóphılıktı qurayıdı. Olar lirikalıq qaharmanniú halatın tolıq jetkerip beriw ushın, qosıqtaǵı ótkirlilikti támiynlep, jetkerip berilmekshi bolǵan pikirdiń tásırlılıgin támiynlew maqsetinde avtor tárepinen sheberlik penen qollanıladı da, qosıq qatarlarına sińdirilip jiberiledi. Shayırkıń metaforalardı qollanıwdaǵı jáne bir ózgesheligi sonda, ol qosıqtıń qurılısınan kelip shıqqan halda, forma hám mazmun talaplarına say, ıqshamlıqtı támiynlep, uyqastı dúziw ushın metaforalardan ónimli paydalanıp, sol arqalı az sóz arqalı pútin bir pikirdi qosıqqa siydıra algan.

PAYDALANILĞAN ÁDEBIYATLAR

- Жәримбетов Қ. XIX əsir қарақалпақ лирикасының жанрлық қәсийетлері ҳәм раýажланыў тарийхы. Нөкис, «Билим», 2004.
- Иzzat Султан. Адабиёт назарияси. Тошкент, Ўқитувчи, 1980.
- Мәмбетов К. Әдебият теориясы. Нөкис, Билим, 1995.
- Матмуратов Т. Ашылышыў. Нөкис, “Қарақалпақстан”, 1977
- Оразымбетов Қ. Ҳәзирги қарақалпақ лирикасында көркем формалардың эволюциясы ҳәм типологиясы. Нөкис, Билим, 2004.



SAID AHMADNING "SOBIQ" HIKOYASINI O'RGATISH

*Ortiqova Gulnozxon Shukurjonovna
Oliariq tumani 13-maktab
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
tel: 90-300-91-97
e-mail:igulnozxon@mail.ru*

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyot darslarida Said Ahmadning "Sobiq" hikoyasini o'qitish, hikoyani o'quvchilarga o'rgatishda e'tiborga molik vazifalar xususida so'z boradi

Kalit so'zlar: adabiyot, hikoya, yozuvchi, ko'rgazmali qurollar, dars mashg'uloti

Dars samaradorligini oshirish uchun har bir mavzuga oid elektron ko'rgazmali qurollarning mavjud bo'lishi o'ta muhim omildir. Ko'rgazmali quroq yordamida mavzularni yoritsa, dars maqsadiga erishish oson kechishi bilan birga vaqtan ham ancha tejaladi. Said Ahmadning «Sobiq» nomli ikkinchi hikoyasi achchiq, alamlı kulgidan yiroq. Hajviy, sof humoristik yo'nalishda. Yozuvchi voqeani asar qahramonining tilidan hikoya qilarkan, jamiyatimizda, halol kishilaming xatti-harakatlarida paydo bo'layotgan dabdababozlik nozik yumushlarga chalg'ib, kulgili vaziyatlarga tushib qolishi kabi nuqsonlar ustidan yengil kuladi. Katta maqsadlar yo'lida intilayotgan yaxshi bir mehnatkash insonni asrab-avaylash, uning kuchidan oqilona foydalanish, har bir odam o'z o'rniда bo'lib, o'z vazifasini sidqidildan bajarishi lozimligi kabi masalalar hajviy yo'sinda tasvirlangan vaziyatlar orqali anglashiladi.

Sho'rolar davrining turg'unlik zamonlarida har narsani mafkuraga bog'lash odat tusiga kirgan edi. Hikoya qahramoni ham paxta terishda jonbozlik ko'rsatib, hech kutilmaganda dabdababozlikning nishoniga aylanadi. Eng ilg'or paxtakor deb, asosiy ishini yig'ishtirib, turli kerak nokerak majlis, kengash, yig'ilishlarga borishga majbur bo'ladi. Endi dalaga chiqaman deganda, bir kinochilar, bir rassomlar kelib g'animat vaqtini behuda o'tkazadi. Yozuvchi bu xatti-harakatlaming bema'nilashib ketganini ta'kidlash uchun kulgining mubolag'a, lof kabi badiiy tasvir vositalarini qo'llaydi. Ya'ni, paxtakor qahramon rayon o't o'chirish komandasining pensiyaga chiqayotgan keksa xodimini tabriklashga yuboriladi. Tarvuzni butun yutib, o'yin ko'rsatadigan polvonni qutlashga chiqadi. Oxiri yosh drujinachilar bilan rayon markazidagi somsapazlarni tekshirgani otlanadi. Xullas, yozuvchi kulgili vaziyatni mubolag'li usuli orqali yanada kuchaytirib, o'quvchida shodon qahqaha paydo qiladi va bu bilan jamiyat rivojiga xalaqit berayotgan mayda nuqson, kamchiliklarga e'tiborni qaratadi.

Har ikki hikoyada ham yozuvchi badiiy tilning xalqona, nozik qochirimli, ko'p ma'noli xususiyatlaridan keng foydalanadi.

"Sobiq" hikoyasida ham bugungi kun o'quvchisiga tushunarsiz bo'lgan, o'sha davr ruhini ifodalaydigan so'zlar borki, o'qituvchi ularning izohini, albatta, berishi kerak. Masalan, o't o'chiruvchilar komandasi – o't o'chiruvchilar jamoasi, drujinachilar – tartib saqlash ishida ko'ngilli bo'lib qo'shilgan yosh bolalar, kaloriya – lotincha issiqlik so'zidan olingan bo'lib, bu o'rinda ya'ni hikoyada somsaning quvvati ma'nosida kelgan; stantsiya – bekat, poezdlarning to'xtash joyi, domotdix – dam oluvchilar uyi yoki sanatoriy, bufet – kafe, do'kon, kolxozi – jamoa, mexanizator – paxta mashinasini haydovchi, samovar bu matnda choyxona ma'nosida kelgan, fizkultura komiteti – jismoniy tarbiya qo'mitasi, vistavka – ko'rgazma, oblast-viloyat, apparat – uskuna va h.k. Darslikda Said Ahmad hajviyot ustasi bo'lgani uchun, uning uslubida hajv, kulgi bo'rtib turishini inobatga olib, kulgi haqida nazariy tushuncha berilgan. Nazariy tushunchalar o'quvchilarga tushuntirilib beriladi.

Darsni ko'rgazma asosida, ya'ni taqdimot slaydlari yordamida, o'tishi uchun o'qituvchi darsni tashkil etish usulini mukammal bilishi bilan birga kompyuterda mavjud bo'lgan amaliy dasturlarini o'z ish faoliyatiga qo'llash malakasiga ega bo'lishi shart. Masalan, taqdimot slaydlar yaratish uchun Microsoft Office Word bilan birga Power Point dasturini mukammal o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Masalan, bizning mavzu yuzasidan Said Ahmad ijodi bo'yicha slaydlar taqdimotini berish mumkin. Bunda yozuvchining hayot yo'li, yaratgan asarlari, olgan unvonlari haqida ma'lumot berish kerak. Slaydlarda adibning rasmidan, kitoblari ko'rgazmasidan foydalanish mumkin. Adabiyot o'qituvchisi har qanday yoshdag'i o'quvchilarida o'z fikrini bildirish, mustaqil qarashini bayon etishga kuchli ehtiyoj borligini hisobga olishlari, shundan kelib chiqqan holda adabiy



materiallarning tayyor talqinlarini bermay, matn bilan tanishgan har bir o'quvchining o'z qarashi bo'lishiga imkon qoldirishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunda millat yoshlari har qanday insonning har qanday xatti-harakati haqida o'z to'xtamlariga ega bo'ladiki, bu hol ularning barkamol shaxs sifatida shakllanishlarida ayricha ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf uchun darslik-majmua. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent- 2006. 259-280-betlar.
2. Aripov M.M., Muxammadiev J.U. Informatika. Axborot texnologiyalari. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T., 2005.
3. Ahmedova Sh. Yumor jilolari. Toshkent. 1998.
4. Belinskiy V. Adabiy orzular. T. 1987.- 262 b.
5. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.
6. Bekova N. Interfaol usullar. Toshkent. 2012.



DEVELOPING CROSS-CULTURAL COMMUNICATION IN TEACHING BUSINESS ENGLISH

*Qudratov Kamol Fayzali o‘g‘li
Uzun tuman14-maktab ingliz tili o‘qituvchisi*

Annotation. The cultural competence training is becoming a must favorable. The article makes reference to the cross-culture competence engineering and training through business English programme which produced an educational portal for interactive learning. The results and conclusions are drawn bysurveys and case study research and dedicated to the development of a new strategy of academic applied English programmes. The key contribution of the paper lies on the pedagogical insights of cross-cultural approach in business English.

Key words: intercultural communication;business English; cross-cultural competence; corporate culture; professional integration.

In this articleI investigated how English teachers, who teach students of economic majors may develop their abilities to communicate, negotiate and effectively work with people from other cultures. Intercultural communication looks at how people from different cultures understand one another and work together efficiently. Being an ideal intercultural communicator involves learning the norms, customs, values and beliefs of another culture, being able to recognize how these are portrayed through both verbal and nonverbal communication and successfully incorporate this information into your own communication.

Communication can be defined as the process of receiving, interpreting and responding to messages. Communication is both verbal and nonverbal. Being able to effectively communicate is a highly regarded skill in business. When speakers come from different cultures, they must work to successfully communicate with one another.

There is no one “right” culture and because of this it shouldn’t be expected for one culture to completely conform to another. International Business is expanding. Many companies are going global. Recruitment, sales, management, marketing and workplace environment are all affected by cultures within your organization. It is important to note that a company does not need to be international to have different cultures within it. Any organization with employees from diverse religions, languages or nationality brings different cultures to a company. Misunderstandings can occur when employees are not knowledgeable on intercultural communication. These misunderstandings can result in poor employee moral, low retention, and low company cohesion.

The level of complexity working in an international business environment brings is often unprecedented and is often very demanding. Cultural differences can become amplified and must be embraced to ensure that an organization’s objectives are met and that a work force remains harmonious.

The importance of collaboration skills is heightened when teams and individuals work in a virtual or remote setting, as the loss of frequent opportunities to meet and work face to face mean that working relationships can fracture and break down more easily.

The role of the manager or leader also changes, as they are required to take account of all cultural and social preferences, ensure all team members find common ground and are able to work effectively as a whole despite geographic and time differences. Leading by example is crucial in such situations, the leader or manager must be comfortable with virtual working best practices, such as managing remote workers and virtual communication techniques.

In addition to understanding a country’s culture in general, it is important to address the fact that the local business culture, as a result, may also operate differently to one’s own. These points of consideration represent a growing field of study, into which governments and educational institutions worldwide have invested considerable energy. Successful businesses have also found ways of addressing these issues within their companies.

There are several ways in which organizations may address the challenges of cross-cultural communications in business. Some companies make it a mandate to hire multi-lingual employees from varied cultural backgrounds. Others offer language and culture classes and training to all employees, to ensure that every representative from their company has a unified approach and understanding when dealing with other cultures. Others work with consultants; essentially



experts in intercultural communication, who evaluate a company's ability to operate within the global economy, and offer suggestions on how said operations may be improved.

Many companies find that successful communication on a global level begins with successful communication on the local level. In recognizing the growing value of global trade, it is therefore absolutely essential that every serious business invest considerable energy into communication on each and every level. By creating business models that strive to be current on international events and relationships, and by successfully transmitting that information onto every employee, organizations are ensuring themselves an optimal position in the international trade community.

The ability to communicate, negotiate and effectively work with people from other cultures is vital to international business. Intercultural communication looks at how people from different cultures understand one another and work together efficiently. Being an ideal intercultural communicator involves learning the norms, customs, values and beliefs of another culture, being able to recognize how these are portrayed through both verbal and nonverbal communication and successfully incorporate this information into your own communication.

Communication can be defined as the process of receiving, interpreting and responding to messages. Communication is both verbal and nonverbal. Being able to effectively communicate is a highly regarded skill in business. When speakers come from different cultures, they must work to successfully communicate with one another.

Many companies are going global. Recruitment, sales, management, marketing and workplace environment are all affected by cultures within your organization. It is important to note that a company does not need to be international to have different cultures within it. Any organization with employees from diverse religions, languages or nationality brings different cultures to a company. Misunderstandings can occur when employees are not knowledgeable on intercultural communication. These misunderstandings can result in poor employee moral, low retention, and low company cohesion.

The list of used literature:

1. Brislin R. W. &Cushner K. Intercultural interactions: Cross-Cultural Research and Methodology. Thousand Oaks, London, New Delhi: Sage Publications. 1996. – 120 p.
2. Burnett R. & Ewald H. Business communication. New Jersey: Prentice Hall. 1997. – 150 p.
3. Chapel W. B. Developing international management communication competence. Journal of Business and Technical Communication. 1997, 11 (3). –pp. 281-296



BASHARIYAT TABIATINING IKKI TOIFASI:OQ VA QORA,MA'RIFAT VA
JAHOLAT,ISTIBDOD VA OZODLIK...(ERKIN VOHIDOVNING "RUHLAR ISYONI"
DOSTONI YUZASIDAN)

Raximova Muqaddas Rajabovna
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Xorazm viloyati Bog'ot tumani 3- son maktabi
Raximova Yulduz Rajabovna
onatili va adabiyot fani o'qituvchisi
+998 993485256
Muqaddas.raximova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni orqali bugungi kundagi o'quvchi ma'naviyatini yuksaltiruvchi omillardan biri kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan lavhalar tahliliga bag'ishlandi. Ushbu tahlil jarayonida yozuvchi asarning bosh qahramoni orqali to'g'ri maqsad qo'ya bilishi, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik holatlarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Nazrul Islom, millat, ma'naviyat, mutolaa, ijod, sog'lom muhit, ozodlik, olomon, adabiyot

Adabiyot cheksiz ummon, u sarxad bilmaydi. Unda ko'plab buyuk shaxslar bilan birga kichik havaskorlar ham ijod qiladi. Ijodkorlardan ayrimlarigina adabiyotda tub burilish yasaydi, uni yangilaydi. Bunday daholardan biri, shubhasiz, Erkin Vohidovdir. U o'z asarlari bilan nafaqat O'zbekiston, balki jahondagi boshqa xalqlarning ma'naviy ravnaqiga hissa qo'shgan. Agar inson ilm nuri bilan o'z yo'lini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko'chasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va ma'rifat bilan baquvvat bo'ladi. Ilm va ma'rifatga ega bo'lish har bir millatning jahon miqyosidagi o'rnini belgilaydi. Shu sababdan ham muhtaram Prezidentimiz 2020-yilni "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qildi. Har tomonlama yetuk, ilm-u ma'rifatli, vatan ravnaqi uchun o'z hissasini qo'shadigan barkamol avlodni tarbiyalash, biz pedagoglar oldidagi mas'uliyatli, lekin sharafli burchdir. Kelajak avlod tarbiyasida badiiy adabiyotning o'rni beqiyos. Xalqimizning buyuk farzandi Cho'lpon aytganidek: "Adabiyot yashasa - millat yashar". Darhaqiqat, adabiyotning bosh vazifasi insonlarda yovuzlikka nafrat, ezbilikka muhabbat hissini uyg'otishdan iborat. Ayniqsa, bugungi jadal rivojlanib borayotgan zamonamizda adabiy merosimizga munosabat yanada yaxshilandi. Undan chinakam, betakror ijodiy meros qoldi. Erkin Vohidov XX asr o'zbek dostonchiligining eng vazmin toshi, eng chiroqli porlagan yulduzi, faxri va sharafidir!... „Ruhlar isyoni” doston XX asrning birinchi yarmida yashab o'tgan otashqalb hind shoiri Nazrul Islomning hayotiga bag'ishlanadi. Dostonga uning quyidagi misralari epigraf qilib olingan: „Tug'ilgansan ozod, mudom ozod bo'lib qol!” Bu asarning yaratilishi haqida shoirning o'zi shunday deydi: „Yozuvchi-shoirning vazifasi biror shaxs hayoti, sarguzashtini shunchalik hikoya qilib berishdan iborat bo'lsa, dunyoda yozuvchilikdan oson hunar bo'lmadi. Ijodkor o'z qahramoni hayoti, haqidagi kuzatishlari, o'y-mushohadalarini o'rtaga tashlash kerakku, axir! Mening qahramonim-Nazrul Islom taqdiri bu jihatdan g'oyat boy material berardi” - deb yozadi. Dostonda Vatanining ingliz mustamlakachilaridan ozod bo'lishini orzu qilgan va mana shu yo'lda o'z umri hamda erkini baxshida etgan vatanparvar Nazrul Islomning tutqunlikdagi hayoti, his-tuyg'ulari badiiy tasvirlanadi. Ona yurtida zulm va zo'ravonlik, irqchilik, erksizlikning avjiga chiqishi, mustamlakachilar tomonidan hind xalqi qonining zulukdek so'rilishi, ayovsiz ezilishi, och-nochorligi shoir qalbini junbushga keltiradi. Dostondagi «Isyon qo'shig'i»da Nazrul Islom hind xalqini asriy qullikka qarshi kurashga, o'z ozodligi uchun bosh ko'tarishga da'vat etadi:

So'yla, inson,
So'yla, qadding ko'tarib baland.
Yuksaklikda sening qadring
Himolay monand...
Uyg'onmoqning vaqt keldi,
Bosh ko'tar, uyg'on!..

Ammo bu she'rni eshitgan olomon da'vatkor shoirni xalq tinchini buzuvchi dushmaniga chiqardi. Olomonning o'z shoirini anglab yetmagani, unga ergashmagani mustamlakachilarga



judi qo'l keldi va shoir ozodlikdan mahrum etiladi.

Malomatga qoldi endi

Shoir bitib haq doston.

Hindu uni «jobon» dedi,

«Kofir» dedi musulmon. Dostondagi qator mavzularni yoritishda shoir turli xil afsona hamda rivoyatlardan foydalanadi. Dostonning uchinchi faslidagi «tutqunlik» mavzusida Nazrul Islomning zindondagi o'y-xayollari, insoniy his-tuyg'ulari mohirona va ishonarli tarzda bayon etiladi. Shoир onasini g'am-qayg'uga qo'yanligidan iztirob chekadi. Nazrul Islom o'zini gunohkor hisoblamaydi, agar gunohi bo'lsa, u ham faqat onasining oldidagi farzandlik burchini ado eta olmaganida va xalqini ozodlik sari boshlaganida, deb biladi. Aslida, haqiqat ham shundan iborat.

Onajonim,

Menga bu kun

Sendan o'zga dilxoh yo'q.

Zindondaman,

Bilmam, nechun, Menda zarra gunoh yo'q. Shunday bo'lsa-da, shoir tushkunlikka tushmaydi, ona yurti va o'z xalqining ozodlikka erishishiga ishonadi, mana shu umid unga kuch bag'ishlaydi. Dostonning so'nggi faslida erksevar shoirning va hind xalqining orzusi ro'yobga chiqqanligi tarannum qilinadi. Biroq tutqunlikdagi qattiq qiynoqlar, azob-uqubatlar shoirning bu baxtli kunlar shukuhidan benasib etadi. Erkin Vohidovning «Ruhlar isyonii» dostoni shoir adabiy merosining, umuman, XX asr o'zbek dostonlarining eng sevimli asaridir. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, qalbida vataniga bo'lgan muhabbat cheksiz bo'lgan, insonning faravon hayotini har narsadan ustun ko'radigan insonni qahramon deyish mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Nilufar Rasulova „Adabiyotdan mukammal savol-javoblar”. - Toshkent; Nurafshon ziyo yog'dusi, 2018.
2. Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov Adabiyot 11-sinf darsligi Davlat ilmiy nashriyoti.- Toshkent 2018
3. Boboyev T. "Adabiyotshunoslik asoslari" - T. O'zbekiston 2002.



ASQAD MUXTOR HAYOTIGA BIR NAZAR

*Namangan viloyati Chortoq tumani
27-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Razzoqova Damira Muldaliyevna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bo'lgan Asqad Muxtorning hayoti hamda she'rлari olib berilgan.

Kalit so'zlar: zamon nafasi, qalam, yozuvchi his-tuyg'usi, tarjimon, journalist.

Asqad Muxtor zamonaviy o'zbek adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri sanaladi. U shoir, nosir, dramaturg, tarjimon, jurnalist hamda jonkuyar tashkilotchi sifatida o'zbek adabiyoti va san'atida yorqin iz qoldirgan siymodir. Adib 1920-yilning 23-dekabrida Farg'onan shahrida tavallud topgan.

Aksar adiblar kabi Asqad Muxtor ham badiiy ijodga she'rлar yozish bilan kirib keldi. U mактабда o'qib yurgan kezlaridayoq she'rлar yoza boshlagan edi. O'smirlar gaze-tasida dastlabki mashqlari e'lon qilingan yosh shoir katta matbuotda 1938-yili «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» sahifalarida «Bizning avlod» she'ri bilan paydo bo'ldi. Muvaffaqiyatdan ruhlanib, uni qurshab turgan yuksak adabiy muhit ta'sirida katta ishtiyoy bilan ijodga berildi. 1947-yilda bosilgan «Po'lat quyuvchi» poemasi orqali katta ijodkorlar nazariga tushadi va alqovlar eshitadi. Shundan keyin badiiy ijod uning hayot mazmuniga aylandi va har yili yangi kitobi bosmadan chiqib turdi.

Asqad Muxtor jahon adabiyotining eng sara namunalarini xalqimiz ma'naviy mulkiga aylantirishda astoydil mehnat qilgan mohir tarjimonlardan biridir. Antik adabiyotning sara namunasi bo'lmish Sofoklning «Shoh Edip» fojiasini, G'arbning mashhur dramaturglari Shekspir va Shiller tragediyalari, rus mumtoz adiblari Pushkin, Lermontov, Blok, Mayakovskiy asarlarini va boshqalarni mahorat bilan o'zbek tiliga o'girgan. Shuningdek, Asqad Muxtorning juda ko'p asarlari jahonning qator tillariga, jumladan, rus, hind, urdu, vietnam, xitoy, rumin, ingliz va boshqa tillarga tarjima qilingan. Shunday katta xizmatlari uchun Asqad Muxtor «O'zbekiston xalq yozuvchisi» faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

Asqad Muxtorning she'rлarida joziba, nafosat hamda hayotiy nafas bor. Buni har qanday inson ilg'ay oladi. Bu ifodani "Tug'ilish" she'rida ko'rishimiz mumkin:

TUG'ILISH

Tong oldidan yomg'ir sevalab o'tdi,
Keyin ko'k ochilib, yog'di yulduzlar.
Yerdan hovur ko'tarildi, xuddi
Qimirlagan kabi zimdan ildizlar.
Kimgadir muqaddas bir zum yaqinladi,
Qorovul o'chirdi so'nggi fonarin.
Iyul quyoshining ilk yolqinlari
Yaproqlarga sachrab yonardi.
Yer yosh: soflik jimirlatar etin,
Zoriqqan g'unchalar ochildi bog'da.
Panjaradan oshib chiqib ketdi
Maysalarda yurgan yashil shabboda.
Eshikdan eshikka yugurib yelardi,
Suyunchi so'rardi, suyunchi.
U go'yo taqdirni olddan bilardi,
Go'yo yo'q dunyoning g'ami, kuyunchi.
Iymanibroq turar ota poygakda,
Ko'ksida yulduzi, bir qo'li mayib...
Ichkarida esa oppoq choyshabda
Jahonning umidi yotar jilmayib.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. Т.: «Фан», 2007.
2. 9-синф адабиёт дарслиги Тошкент-«Митти юлдуз»-2019
3. Адабиётдан мукаммал савол-жавоблар- Нилуфар Расулова. Тошкент. “Нурафшон зиё ёгдуси” 2018-йил
4. Qozoqboy Yo‘ldoshev, Begali qosimov, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo‘ldoshbekov//adabi-yot//toshkent – 2013



ERKIN SAMANDARNING "DARYOSINI YO'QOTGAN QIRG'OQ" ROMANIDA METAFORIKLIKNING NAMOYON BO'LISHI

*Sharipova Hulkaroy Umrbekovna
Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi
Telefon: +99894 230 21 12
hulkaroysharipova@mail.ru*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi, shoir va dramaturg Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanini haqida, xususan, romanda e'tibor qaratilgan metaforiklik masalasi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: obraz, obrazlar sistemasi, roman, metaforiklik, individual umumlashma

Badiiy adabiyotning asosiy xos xususiyati borliqni, uning voqeligini obrazlar vositasida aks ettirishidir. Obraz esa badiiyat kashfiyotchisi bo'lgan san'atkor fantaziysi va tafakkurining mahsulidir. Ilmiy adabiyotlarda obraz tushunchasining mohiyati xususida ko'pgina fikrlar keltiriladi. Jumladan, ulardan birida shunday qayd etilgan: "San'atkor badiiy obraz vositasida dunyoni anglaydi, o'zi anglagan mohiyatni va o'zining anglanayotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma'noda obraz adabiyot va san'atning fikrlash shakli, usuli sanaladi". Bunda ko'rinaliki, so'z latofati bilan ish ko'ruchchi adiblar ijodi bevosita obraz bilan bog'liq. Chunki aynan uning vositasida ijodkor asarga singdirajak g'oyani, mazmunni namoyon qila oladi. Bunda adib obrazning turlicha xususiyatiga, ya'ni individual umumlashma sifatida namoyon bo'lishi, ratsional va emotsional birlik sifatida tushunilishi yoki metaforikligi kabilarga ahamiyat qaratadi. Erkin Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida ham badiiy obraz masalasi ijobiliyik kasb etadi. Bu asarda yozuvchi obrazlar sistemasini yaxshi tashkil qila olgan va ularga yuklagan badiiy niyatni to'liqligicha ochib bera olgan. Ammo mazkur asarda e'tiborni tortuvchi boshqa bir jihat mavjud. Bu metaforiklikdir.

Ma'lumki, metaforiklik, yuqorida qayd etilganidek, badiiy obrazning muhim xususiyatlaridan biridir. Bu xususiyat ko'p hollarda she'riy asarlarda namoyon bo'ladi va shoirlarning asosiy badiiy quroliga aylanadi. Jumladan, buni Abdulla Oripov, Xurshid Davron, Abdulla A'zam kabi shoirlar ijodida ko'rish mumkin. Ammo obrazning mazkur xususiyatidan yozuvchilar ham mohirlik bilan foydalana olgan va go'zal badiiyat namunasini yaratgan. Bu xususiyat yuzaga kelishiga ko'ra o'xshashlikka asoslansa-da, keng ma'noga ega. "Ya'ni "metaforiklik" deganda badiiy obrazning bir narsa mohiyatini boshqa bir narsa orqali ochishga intilishi, san'atga xos fikrlash yo'sini tushuniladi. Chinakam san'atkor nigohi mohiyatga qaratilgan bo'lib, u voqelikdagi narsa-hodisalarning barchamizga ko'rinish turgan tashqi o'xshashligi emas, bizning nigohimizdan yashirin ichki o'xshashligiga tayangan holda fikrlaydi". Yozuvchi sifatida Erkin Samandar ham voqelikni obrazlar vositasida aks ettirish barobarida uning aynan shu xususiyatiga e'tibor qaratadi. Adib bunda "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanini bosh qahramonlari va boshqa personajlar ruhiyatini, surati-yu siyratini ochib berishda tabiatning insondan boshqa mavjudotlari obrazini asarga olib kiradi. Yozuvchi romanning asosiy qahramonlari bo'lgan Ganja va Qumrixon hayotini butun tafsilotlari bilan aks ettirish jarayonida voqealar rivoji davomiyligida yana bir obraz – Buva faoliyati bilan bog'liq voqealarini ham sujetga singdiradi. Ijodkor bu orqali o'quvchini metaforiklik tomon yo'naltira boradi, ya'ni asarda paydo bo'lajak yangi obrazlarga hozirlik ko'radi. Asarda tasvirlangan bu jarayon romanning ikkinchi qismida namoyon bo'ladi. Asosiy voqealarini ot obrazi atrofida kechuvchi bu qism Ganja va Qumrixon fojiasi aks ettirilgan birinchi qismga nisbatan ramziylikka ega. Chunki bu qismda insonlar bilan yuz bergen holat aynan otlar hayotida ham ko'rinaldi. Bunda Meliush va Qandim laqabli otlar Ganja va Qumrixon timsoli yanglig' namoyon bo'ladi. Yoshgina farzandlarga ona bo'lgan Qumrixonning ayollik sadoqati bузилиши va xiyonat ko'chasiga kirishi voqeasi Meliush uyurining biyasi Qandim bilan ham sodir bo'ladi. Bunda har bir personaj holati, ichki kechinmalari o'xshash tasvirlanadi. Shuningdek, ayni shu jarayondagi Ganja va Meliush qismati – Qumrixon bilan Qandim o'limiga sababchi bo'lishi ham bir xil edi: "Ganjani uchinchi bor tok urdi. Ko'zlaridan uchqun chiqib ketdi. Pol larza berdi. Shipga borib qadaldi. Oyog'i pol ustida, boshi shipda. Anchagacha esini yig'a



olmadi”! – “Marjonning xarxashasi Meliqushga yoqmadı. Unga umuman hech narsa yoqmay qoldı. Na o’tga bo’ynini cho’zdi, na boshini ko’tarib atrofga boqdi. Ko’zidan toshib chiqqan yosh maysaga tomди”.

Romanda metaforik obraz sifatida keltirilgan yana bir timsol Sorburgutdir. Bu obraz ko‘pgina salbiy xususiyatlarni namoyon qilgani uchun asar yozilgan davr vakillari, ya’ni Sobiq ittifoq mafkurasi namoyondalari, shuningdek, romanning bevosita qahramoni G‘ani Aminov timsoli deyish mumkin. Chunki Sorburgut otlar makon tutgan to‘qayda paydo bo‘lishi bilan u yerni jayronlar tepaligiga aylantirdi. U qurbanlarini (jayronlarni) aynan bir joyga keltirib, suyaklari ustida dam oldi, keyinchalik esa shu joyni o‘z makoniga aylantirdi. Asarda u haqda shunday yoziladi: “*O’z qurbanlari suyagi ustida o’tirishdan lazzat olsa kerak-da, bo’lmasa nega o’tiradi. Jayron tutdi deguncha u yerga keltiradi, tepada o’tirib shoshmasdan yeydi. Bu borishda Jayrontepaning tog‘ga aylanishi hech gapmas. Uning qatlamlari qancha qonga iyilgan bo’ladi. Sorburgutning ichganidan qolgani bu*”. Bu tasvir orqali yozuvchi Sorburgutni emas, balki u orqali Aminovlarni, ularning qilmishi-yu, o‘y-fikrlarini aks ettiradi. Asar yozilgan davr ruhini kitobxonga majozlar vositasida aynan ko‘rsatishga intiladi. “Yopig‘liq qozon” ostida kechgan voqealarga nisbatan o‘quvchida munosabat uyg‘otishni maqsad qiladi. Shu bois asar voqealariga xos va mos tasvirlarni qaytadan kashf etadi. Bu orqali esa bot-bot takrorlangan adolatsizliklarga diqqatni jalb etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq” romani majozda aks etgan haqiqatni va haqqoniylikka yo‘g‘rilgan voqelikni aks ettirgan asardir. Unda badiiy vositalardan mahorat bilan foydalanilgan hamda ajoyib badiiylik yaratilgan.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. IzzatSulton. Adabiyotnazariysi. T.:1986
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T.:2018
3. Эркин Самандар. Файбқушлари. Т.: “Шарқ”, 2009



ALISHER NAVOIYNING "MAHBUB UL-QULUB" ASARINI O'RGANISH

*Siddiqova Kamola Rasuljon qizi
15-sonli məktəb ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Namangan viloyati Namangan shahar*

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lif maktablarida Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarini o'rgatishning bir necha samarali usullari to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar. "Mahbub ul-qulub", usul, ko'rgazmali metod, ikki qismli kundalik, hikmatli so'z, obraz, pandnoma.

Аннотация. В данной статье идёт речь о некоторых продуктивных методах изучения произведения "Махбуб ул-кулуб" Алишер Навои в общеобразовательной средней школе.

Annotation. In this article there is given brief information about several useful teaching methods of Alisher Navoi's "Mahbub ul-qulub" in elementary schools.

Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 6-sinf adabiyot darsligida Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridan parcha berilgan. Asarning atoqli navoiyshunos Porso Shamsiyev tomonidan tayyorlangan tabdili berilgan bo'lsa-da, falsafiy-axloqiy pandnoma, ya'ni bunday didaktik asarni o'zlashtirish 6-sinf o'quvchilari uchun biroz murakkabliklar tug'diradi. Donishmand adibning oltmis yillik umri davomida hayotda ko'rgan kuzatganlari, xulosalari natijasida yaratilgan bu asarni, hali hayotiy tajribalar orttira olmagan yosh o'quvchilar uchun o'zlashtirish qiyinchiliklar tug'dirishi tabiiy hol, albatta. Shu bois asarni ko'rgazmali metoddan foydalanib, obrazli tarzda o'rganish o'quvchilarda ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi, vaqtadan ham unumli foydalanish imkoniyatiga ega bo'linadi, shuningdek, ta'lifni jadallashtirishga erishish mumkin. Qolaversa, o'quvchilar ko'rgan narsalarini ko'proq va uzoqroq esda saqlab qoladilar.

Ma'lumki, "Mahbub ul-qulub" asarini o'rganish uchun ikki soat ajratilgan. Alovida tahlil talab bu asarni o'rganishda dastlab, o'qituvchi tomonidan o'qib tahlil qilib berilishi maqsadga muvofiq. Bunda ko'rgazmali metod bilan bir qatorda "Sayohat" usulidan foydalanish samarali bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga tabiat manzaralari tasvirlangan ikki xil rasm ko'rsatib, darsda xayolan u yerlarga sayohat qilishlarini aytadi. Shu tashkiliy qismning o'zidayoq o'quvchilarda asarni o'qishga yoki tinglashga kuchli ishtiyoq paydo bo'ladi. Rasmlarda tog'lar, shamol, mevali va mevasiz daraxtlar, chinor daraxti, bulut, olov va tutun, chumoli, sichqon, lochin va kalxat, qurbaqa, eshak, arslon, ari va asalari, it singari obrazlar tasvirlanadi. O'quvchilarga rasmda nimalarni ko'rayotganlarini so'rab savollar beriladi. O'quvchilar javoblari to'ldirilib, rasmdagi obrazlar o'qituvchi tomonidan asarni o'qib tahlil qilish davomida bir-bir ko'rsatib o'tiladi. Bu usul o'quvchilar asarni oxirigacha qiziqish bilan tinglashlari hamda asardagi turli obrazlar, hikmatli so'zlar, tashbehlarni yodda saqlashlariga yordam beradi.

Ikkinci soatda mavzu yanada mustahkamlanadi. "Mahbub ul-qulub" asari bo'yicha o'quvchilarning bilimini mustahkamlashda ham ko'rgazmali metodlardan foydalanish mumkin.

Ta'lifning bunday metodlaridan foydalanilganda o'quvchilarning bilish faoliyati ko'rgazmali vositalar yordamida shakllanadigan yoki esga tushiradigan hissiy obrazlarga, tasavvurlarga bog'liq bo'ladi. Ko'rgazmali qurollar bilimlarni tartibga solish va boyitishga, shuningdek, o'quvchilarning fikr yuritish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi.

Bunda avvalo, sinf ikki guruhgaga bo'lib olinadi va har ikki guruhgaga yana birinchi soatda foydalanilgan tabiat manzaralari tasvirlangan ikki xil ko'rinishdagi rasmlar taqdim etiladi. Rasmdagi obrazlar o'qituvchi tomonidan bir-bir ko'rsatib o'tiladi va ularga bu obrazlarning "Mahbub ul-qulub" asari bilan qanday aloqasi borligini aytish topshiriladi. Topshiriq avvalo, o'qituvchi tomonidan bajarilib bir necha misollar keltirilishi mumkin. Masalan, saxovatni Alisher Navoiy hosildor daraxtga qiyoslab shunday yozadi:

"Saxovat insoniyat bog'ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir"

Yoki Navoiy asarda hilmla, ya'ni muloyim tabiatli insonlarni tog'ga, yengil tabiat insonlarni yelga qiyoslaydi:

"Yel, agar ko'kka yetsa ham, baribir, yengil va qadrsiz; tog'; agar tuproqqa botsa ham salobatlidir. Yelning orasida o'tga yoqiladigan xas-xashaklar bor; hilm mazmunida esa, shoh tojiga qadalgudek chog' kabi qizil la'l bor. Bayt:

O'g'irlilik vaznidindur seldin g'amsiz Hiriy tog'i,



Yengillik fartidin barbod erur qomg 'oq yafrog 'i.

Ya 'ni:

Hiri tog 'i og 'ir bo 'lgani uchun uni sel bossa ham tashvishi yo 'q,

To 'zg 'oq o 'simligining yaprog 'i yengil bo 'lgani uchun shamolda barbod bo 'ladi ".¹

Guruqlar shu tarzda navbatma-navbat rasmdagi obrazlarni asar parchasi yordamida izohlaydilar.

Bu usul o'quvchilarni darsga qiziqtirish barobarida, ularni izlanishga, asarni qayta-qayta yodga olishga, eng asosiysi asardagi obrazlar ular ko'z o'ngida butun umr yodda saqlanishiga asos bo'ladi.

"Mahbub ul-qulub" asarini mustahkamlashda "Ikki qismli kundalik" usulidan ham foydalanish mumkin.

Ikki qismli kundaliklar o'quvchilar o'z shaxsiy tajribasi bilan bog'lash, o'zining tabiiy qiziquvchanligini qondirish imkonini beradi. Ayniqsa, o'quvchilar qo'shimcha adabiyotlarni o'qu auditoriyasidan tashqari o'qib chiqish topshirig'ini olganda ikki qismli kundaliklar foydalidir. Masalan, Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarining to'liq matnini o'qib kelish uyga topshirilganda bu usuldan foydalanish mumkin.

Ikki qismli kundalik uchun o'quvchilar yozilmagan qog'ozning o'rtasidan tik chiziq o'tkazib, uni ikkiga ajratishlari kerak. Qog'ozning chap tomoniga ularda asardagi eng ko'p taassurot qoldirgan hikmatli so'zlarni qayd etadilar. O'ng tomonga esa ularga sharh yozadilar.

Yuqorida "Mahbub ul-qulub" asarini o'rganishda qo'l keladigan bir necha samarali usullar keltirildi. O'ylaymanki, bu usullar o'quvchilar asarni a'lo darajada o'zlashtirishlariga, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga, o'z mustaqil fikrlarini erkin bayon etishga, qolaversa, ularda Navoiy shaxsiga yanada ko'proq muhabbat uygotishga xizmat qiladi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov S., Qo'chqorov R., Rizayev SH. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. II qism. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2017.
2. Mavlanov H., Uluqov N., Boynazarov F. Yangi pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent, 2007.
3. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2010.
4. Tolipov O'Q., Usmonboyeva M.H. Pedagogik texnologiya asoslari. –Toshkent, 2003.

¹ Ahmedov S., Qo'chqorov R., Rizayev SH. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik-majmua. IIqism. – T: "Ma'naviyat", 2017. 39-bet.



ALISHER NAVOIYNING "HAYRAT UL- ABROR " DOSTONI HAQIDA

Xajiyev San'atbek Marks o'g'li
Hazorasp tumani 7-sonli maktabning
ona-tili adabiyot fani o'qituvchisi
E-mail: xajiyevsanatbek@umail.uz
Tel:+998(99) 348-79-39

Annotatsiya: Bu maqolada biz Alisher Navoiyning "Xamsa" dostoni va undagi "Hayrat ul-abror" ya'ni ("Yaxshi kishilarning hayratlanishi ") falsafiy-axloqiy dostoni haqida fikr yuritmoqchimiz. Ma'lumki mazkur doston yigirma maqolatdan iborat bo'lib, uning uchinchi maqolati " Salotin bobida" deb nomlanadi Alisher Navoiy dastavval temuriyzoda Husayn Boyqaroni o'zining ma'nан barkamolligi, insoniyligi vaadolatli ish yuritishi bilan insoniylik nuqtayi nazardan ish tutishga davlatni boshqarishga chorlay oladi.

Kalit so'zlar: "Xamsa" "Hayrat ul-abror" dostoni " Shoh G'oziy , Kampir

Ulug' ajdodlarimiz turkiy tilda ijod qilgan millat ruhiyatini til qudrati ila namoyon eta olgan ijodkorlarimiz Yusuf xos Hojib, Alisher Navoiy o'z asarlarida jamiyat, xalq va millat taqdirini hal qiluvchi rahbar qanday fazilatlarga ega bo'lishi lozimligi haqida asrlar osha o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan dasturi amal fikr va g'oyalarni ifoda etganlar. Shu o'rinda g'azal mulkining sultonii Alisher Navoiyning 1483-1485-yillarda yaratgan "Xamsa" asari tarkibiga kirgan "Hayrat ul-abror" ("Yaxshi kishilarning hayratlanishi ") falsafiy-axloqiy dostoni haqida fikr yuritmoqchimiz. Ma'lumki mazkur doston yigirma maqolatdan iborat bo'lib, uning uchinchi maqolati " Salotin bobida" deb nomlanadi Alisher Navoiy dastavval temuriyzoda Husayn Boyqaroni o'zining ma'nан barkamolligi, insoniyligi vaadolatli ish yuritishi bilan insoniylik nuqtayi nazardan ish tutishga davlatni boshqarishga chorlay oladi. " Hayrat ul-abror dostonida "Salotin bobida" (bo'limi) qismida rahbar ma'naviyati haqidagi qarashlarini bayon etadi. Asarda sultonlarning xalq uchun eng mas'ul shaxs ekanini ta'kidlab ,har bir qilingan ishning javobi bu dunyoda bisyor ekanidan ogoh etadi va "Shoh G'oziy haqida hikoya"sin keltiradi. Shoh G'oziy insof-u adolatniinng guvohlikka qo'yilishining o'zi qalbimizni junbushga keltiradi. O'g'lining xunini podshohdan talab qilgan kampirga Shoh G'oziy "Qasos olaman desang, oldingda turibdi,mol dunyoni tanlasang ,oltin-u kumushlarni olgin . O'sha paytlarda men qasddan o'limga buyurmagan bo'lsam ham ixtiyor senda "deya iqror bo'lganda kampir adolatning oldida boshini egdi va o'zjonini ham qurban etishga tayyor ekanini bildirdi. Aynan ushbu maqolada Navoiy bobomizning fikrlariga murojat qilishimizning boisi bugungi kunimizda jamiyatimizda juda katta o'zgarishlar bo'layotgan bir paytda ochig'ini aytish kerak, bilimi yetarli bo'limgan, adolat va haqiqat, millat taraqqiyoti yo'lida kurashmaydigan, uquvsiz rahbarlarni uyg'otish payti keldi allbatta. Muhtaraam Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Taqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak "degan fikrlarida har bir rahbarni insoniylik va adolat tamoyiliga butkul yo'naltirishni nazarda tutganlar. Chunki bugungi kunimizda millatimiz taraqqiyoti, xalqimizning har tomonlama barkamollikka yetishishida eng bilimli, uquvli, fidoyi insoniy va adolatparvar rahbar kerak. Alisher Navoiy ham Shoh G'oziyni bejizga ulug'lamagan. Halol va odamiy haqiqat sohibigina insonlar yuragidan joy oladi. Bu dunyoga kelgan inson o'zgalar mehrini his qilib yashashi baxt emasmi? Insoniylik vaadolatni bundan necha asrlar oldin zabit etgan Alisher Navoiy bobomizning insonparvarlik g'oyalarini o'zimizga singdirib, xalq, millat uchun ezgu ishlar qilish ishqida yonib yashashi baxti, Shoh Go'ziy adl-u insofi barcha rahbarlarga hamroh bo'lsin. Toki "Bu hayot imoratiga " Ezgulik deb atalmish g'ishtni o'rnatib ketish tafakkurimizga jo bo'lsin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiyning "Xamsa" dostoni.
2. Ziyonet sayti.



БАДИЙ АСАРЛАРНИ ЎРГАНИШДА АДАБИЙ ТАҲЛИЛНИНГ ЎРНИ

Ё.Х.ЖЎРАЕВ – ЎзМТДП Ангрен шаҳар кенгаши раиси
Г.С.КУВАШЕВА – Оҳангарон туман 1-умумтаълим мактаби ММИБДЎ

Аннотация – ушбу мақолада мактаб дарслекларида берилган адабий асарларни фалсафий-психологик таҳлил қилиш орқали ўқувчилар онгига етказиш йўллари кўрсатилган. Ўқитувчи асар таҳлилида асарнинг мазмун моҳиятини етказа олиши зарур. Бадиий асарни тушунтиришда тўғри танланган йўл ўқувчини асарни тўлиқ ўқишига ундаиди ва ўқувчи асардан озуқа олади. Зеро бугунги кун ўқувчисини китоб мутолаасига қизиқтириш мушкул вазифа эканлигини англаган ҳолда асарни туб моҳиятига бошловчи йўлларни кўрсата олишимиз керак.

Калит сўзлар – фалсафий-психологик, адабий таҳлил, образлар системаси, бадиий деталь, эпизод тасвири.

Кўйи ва таянч синфларда бадиий асарларни ифодали ўқиши, ҳис қилиш ва тушуниш кўнинмалари ҳосил қилинган бўлса, юқори синфда адабий таҳлил малакасининг таркиб топишига эришиш мумкин. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш усулларидан фойдаланиб бадиий асарларни қамровли ўрганиш ва таҳлил юритиш, муаммоли таҳлил, қиёсий таҳлил малакаси ҳосил қилинади. Шундагина ўқувчиларнинг ижодий фикрлаш қобилиятлари ривожланади, оғзаки ва ёзма нутки ўсади, бадиий диди юксалади, адабий матн устида амалий иш юритиш малакалари таркиб топади, дарс самарадорлигига эришилади.

Умумтаълим мактабларининг ўқувчиларида ДТС талаблари асосида бериладиган адабий билимни ривожлантиришда бадиий асар таҳлили фалсафий-психологик таҳлил орқали ўқувчиларни, бадиий адабиётнинг сехрли олами ичига олиб кириш мумкин. Негаки ҳозирги глобаллашув ахборот технологияси асрида ўқувчиларни китоб мутолаасига ўргатиш анча мушкуллик туғдираётгани ҳеч кимга сир эмас.

Асар қаҳрамонларининг тирик инсон сифатидаги нозик руҳиятини, ёзувчининг ўзликни ва оламни англаш йўлидаги фалсафий қарашларини қалдан ҳис этмаган ўқувчи асарни охиригача мутолаа қилмайди. Асар қаҳрамонлари психологияси, воқеа содир бўлаётган жой тасвири, ёзувчи илгари сураётган эстетик идеал ва бадиий ғоя фалсафий-психологик таҳлил воситасидагина теран англаниши мумкин.

Бугунги кун педагогикасининг асосий вазифаларидан бири ўқувчи мустақил фикрини ўстириш ва тарбиялашдир. Ўқувчи эркин ва мустақил фикрга эга бўлиши, бадиий сўз бойлигининг бойиши бадиий асар мутолаасига боғлиқ. Ўқувчидаги бадиий адабиётга қизиқиши мактаб адабиёт дарсларидан бошланади. Адабиёт дарсларида адабий таҳлилга эътиборнинг қаратилмаслиги ўқувчи мустақил фикри ривожига салбий таъсир кўрсатади. Ҳар бир жумла, ҳар бир муайян матнни очиб берувчи мазмун таҳлили асар гоясини намоён этади.

Ўқувчи асарни таҳлил қиласи экан, унда фикрлаш жараёни ишга тушади. Бу жараён ўқувчидаги мустақил фикрлашни ўстиради.

Ҳар қандай асар таҳлили сарлавҳасидан бошланади. Асарни ўқиши жараёнида унинг руҳига сингиши, воқеалар тасвирининг кўз олдида намоён бўлиши, қаҳрамонлар характери, эпизодларни ҳис қилиш ва кўрган кечирган воқеликдан келиб чиқиб фалсафий мушоҳада этиш орқали мутолаа қилинса, кўзланган мақсадга эришилади. Бу жараёнда асарни ҳис қилиш муҳим аҳамиятга эгадир, чунки қалбан ҳис қилмай туриб бадиий асарни таҳлил қилиб бўлмайди.

Бизга маълумки, адабиёт дарсларида ўқувчи эркин фикри ва бадиий ижодкорлигини текшириш учун ДТС талабига кўра чорак давомида ёзма иш ёзади. Ёзма иш ёзаётган ўқувчи мустақил фикр, бадиий сўз бойлигига эга бўлмоғи зарур.

Адабиёт дарсларида бадиий таҳлилга эътибор бермасдан туриб ўқувчилардан юқори натижага кутиш ноўрин бўлади.

Матн таҳлилини универсал йўли йўқ. Ҳозирги замон фанида эпик ва лирик асарлар таҳлилини қуйидаги компонентларга ажратиш мумкин:

- асар мавзуси (у нима ҳақида?), муаммоси (нима учун?, нега?);
- образлар системаси;



- бадиий деталь;
- эпизод тасвири.

Таҳлилнинг барча компонентлари бир нуқтага жамланиб, ижодкорнинг мақсадини тўлиқ англатади, асар моҳиятини тушуниб этишга йўл кўрсатади.

Асар мавзуси ва муаммоси (Нима учун йўналтирилган? Қандай руҳий ҳолатни юзага келтирмоқда? Асардаги деталлар ёрдамида асар психикаси қандай ёритилган?) таҳлили асарга кириш йўлини очиб беради. Яхши танланган ном ва муаммо ўқувчини мутолаа қилишга ундаиди.

Образлар системаси - адабий қаҳрамонларнинг пайдо бўлиши, уларнинг кечинмалари, бошка образлар билан муносабатлари, ички дунёси (хис туйғуси, хаёли ва х.), ҳаётдаги интилишида намоён бўлади.

Бадиий деталлар ёрдамида қаҳрамонларнинг хулқ атворлари, инсон руҳиятини қаҳрамонлар орқали қўра билиш (баҳтлими ёки баҳтсиз) йўли кўрсатилади.

Эпизод тасвири қаҳрамонлар яшаётган жой, атроф-муҳит, овозлар, ҳаракатлар воситасида асарни хис қилишни енгиллаштиради.

Ҳар қандай лирик ёки эпик асарни мутолаа этиш жараёни адабий таҳлил билан ёнма-ён кетиши керак.

Бадиий асарни ўқиши орқали ўқувчиларда эмоционал ҳиссиёт уйғонади, уни таҳлил қилиш орқали эса фикрлаш қобилияти тараққий этади.

5-синф дарслигида берилган Грузин ёзувчиси Нодар Думбадзенинг «Ҳелладос» ҳикоясида кўтарилиган асосий ғоя ватан меҳри, ватанни севишdir. Асар қарамонларидан бири Янгули ватанни ўз туғилган кўчасида, бирга катта бўлган ўртоқлари мисолида кўради. Унинг отаси ҳам ўз ватанини севади. Ҳикоянинг фожиа билан тугашига сабаб нима эди? Айбдор ким? Янгулими? Отами? Ватанми? Ушбу саволлар орқали ўқувчиларни баҳс мунозара кўчасига бошлиш мумкин. Воқеа айбдорини қидириш воситасида ўқувчиларни ҳикоядаги ҳар бир гап мазмунини; матн мазмунини; ёзувчи маҳоратини илғаш, таҳлил этишга йўналиш кўрсатилади.

Бу асар таҳлилини дарс жараёнида ўйин тарзида ҳам ташкиллаштиrsa бўлади. Мисол учун «Суд» ўйини. Янгули ўлеми сабабини очиш, унинг фожиаси сабабчисини қидириш. Ўйинни суд раиси бошқаради, оқловчилар ва қораловчилар ҳикоядан келиб чиқиб, саволлар орқали воқеани таҳлил қиласди.

Асар психологияси таҳлилига ўқувчиларни қўйидаги саволлар орқали етаклашимиз мумкин:

Янгулининг характери қандай эди? Жамолнинг характери қандай эди? Улар нега дўст бўлиши? Янгулининг Жамолга «Онангни яхши қўраман» дейишига сабаб нима эди? Ҳикояда келтирилган «азроил», «тўда», «сардор», «хоин» сўзлари қандай маънони билдиради? Ўқувчилар ушбу саволларга жавоб қидириб мустақил фикр юритади. Асардаги етакчи қаҳрамонлар руҳияти, маънавий киёфасини таҳлил этишда ўқувчилар ижодкорлигига таяниш ижобий натижага беради. Ўқитувчи улар фикрини тўлдириш билан биргаликда ҳикоя орқали ватанга муҳаббат, дўстлик туйғуларини тарбиялаб боради.

Мақсад Шайхзоданинг «Искандар Зулқарнайн» эртак достони таҳлили.

«Искандар Зулқарнайн» асарининг таҳлили бўйича қилинадиган ишларни қўйидагича кўрсатиш мумкин:

- Искандарнинг психик ҳолати таҳлили;
- сартарошнинг муаммо гирдобидаги ҳолати таҳлили.

Асар бош қаҳрамони Искандарнинг психик ҳолатини ўқувчиларга етказишида унинг нима учун сартарошларни ўлдириши баҳс тарзида ўртага ташланади. «Айбини яшириш учун» деган фикрга келинади. Мана шу ҳолатни тушунтириш орқали

Искандар психологияси очилади. Унинг сартарошларни ўлдириши золимлигидан эмаслиги, шохи борлигини беркитиши учун эканлиги тасдиқланади.

Искандарга шохли нисбати берилиши фалсафий жиҳатдан унинг пайғамбарларга тенгланишидандир. Тарихдан бизга маълумки, рассомлар пайғамбарлар тасвирини чизишида уларни оддий халқдан фарқли жиҳатини кўрсатиш учун шохли тарзида тасвирилашган.

Сартарош Искандарнинг шохи борлигини кўргач, шоҳнинг тазиқидан қўрқиб бу сирни ичига ютади. Асарда келтирилишича:

Дунёда икки кииш



Мудҳии сирни биларди...

Икки кишидан ортиқ одам билган сирнинг сирлиги қолмайди деган донишмандларимиз. Сартарошнинг психик ҳолатини очиш учун, нимага бу сирни сақлаш оғир бўлди деган савол ўртага ташланади. Шундай-буюк Искандарнинг одамлардан ортиқ жиҳати, шохи борлигини, сартарош ичига дард бўлиб тушушидир.

У ичидаги дарддан фориғ бўлиш учун баҳона ўйлаб, далага йўл олади ва бир эски чохга (кудуқقا) дилидаги ҳасратни айтиби:

- Войдод, дунёлар шоҳи

Искандарнинг бор шоҳи!

Ичидаги бор ҳовури чиқиб кетиб енгил тин олибди. Асар шу тарзда ечимиға қараб йўл олади. Бу воқеадан сўнг минг йиллар ўтгач, ошиқ чўпоннинг ўша эски қудук ёнида ўсиб ётган қамишни най қилиб чалиши ва найдан сартарош ноласи эшитилиши орқали, Искандарнинг шохи борлиги дунёга овоза бўлиши билан асар якун топади.

Адабий асарни таҳлил этиш орқали қаҳрамонлар характеристи, уларнинг ўзаро ижтимоий мухитга нисбатан муносабатлари, фикр ва ўйлари аниқланади. Шу тариқа ўқувчилар билими бойитилади, оғзаки ва ёзма нутқи ривожлантирилади.

Аслида, одамни тушиниш гоят қийин, уни бадиий адабиётда акс эттириш янада мушқул. Мактаб адабиёт дарликларидағи мавжуд асарларни ўрганишда, қолаверса, бадиий адабиётимиздаги шоҳ асарлар мутолаасида бугунги кун ўқувчиларига асарни фалсафий-психологик мушоҳада этишни ўргатсак; тарбияли, билимли, руҳан иродали ёшлар келажагига ишонч туғилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Эшонқулов Ж. Руҳий таҳлил методи хусусида. Ўзбек тили ва адабиёти. 1997 йил. 2-сон
2. С.Ахмедов, Б.Қосимов ва бошқалар. 5-синф адабиёт дарслиги. 1-2 қисмлар.-Т.: "Шарқ", 2015 йил.



СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РАССКАЗОВ А.ЧЕХОВА "СТРАХ" И А.КАХХАРА "СТРАХ"

*Максутбекова Умида Артиковна
Г.Ташкент, Учтепинский район
Школа-193 учителя Русского языка
Телефон: +99890 344 80 95*

Аннотация: на материале одноименных рассказов “Страх” Чехова и Каҳхара выявляются типологические и индивидуальные черты, определяющие специфику русской и узбекской прозаических систем. Посредством компаративно – интегративного анализа рассматриваются особенности художественно – мировоззренческого диалога Чехов – Каҳхар.

Ключевые слова: компаративно – интегративный, межлитературный, поликультурная компетентность, мультикультурная личность.

В литературоведении XXI века особый интерес вызывают исследования, обнаруживающие внутренние стыки “диалога культур” в системе разнонациональных литературных общностей. Эти связи и влияния выявляют особенности становления и развития литератур в контексте мировой культуры. В этом плане особый интерес вызывают диалогические отношения между писателем и переводчиком. Специфика и структура подобного диалога усложняется, если переводчик испытывает мировоззренческое влияние и на свое художественное сознание. Диалогические отношения “писатель - переводчик” развиваются в системе “продуцирующее сознание – воспринимающее сознание”

Переводы могут относиться к разряду внешних контактов в случае выполнения информационной функции, а при органичном включении в творческие усилия воспринимающей литературы художественный перевод трансформируется в форму внутреннего контакта.

Именно в форме внутренногоконтакта и развивался на рубеже XIX – XX вековтворческий диалог русского писателя А.Чехова и узбекского писателя, переводчика А.Каҳхара, оказавший концептуальное влияние на развитие жанровых новеллистических тенденций не только в творчестве А.Каҳхара, но и в узбекской новеллистике начала XX века в целом.

Диалогический анализ темы страха в рассказах А.Чехова (“Страх”) и А.Каҳхара (“Страх”) в призме этических и эстетических составляющих (координат, категорий, понятий) позволяет осмыслить специфику художественно – мировоззренческого и эстетического диалога писателей, а также выявить как типологические, так и сугубо индивидуальные черты, определяющие особенности развития жанра в целом и в частности в русской и узбекской прозаических занятий по дисциплине “Сравнительное литературоведение” представляется вполне логичным и оправданным использование многоуровневого компаративно – интегративного анализа художественно – эстетических и мировоззренческих констант писателей, принадлежащих различным национальным межлитературным общностям.

Тема занятия: Тема страха в рассказах А.Чехова “Страх” и А.Каҳхара “Страх”.

Цели занятия: выявить сходство и различие (историко-литературное, мировоззренческое, художественно-эстетическое, собственнотекстовое) творчества А.Чехова и А.Каҳхара в системе сравнительного анализа этих рассказов; доказать логику и возможность спрвнения данных произведений в системе теории “общего типологического ряда” И.Неупокоевой; способствовать пониманию духовново единства и национального своеобразия разнонациональных литератур; формировать поликультурную компетентность.

Задачи: обобщить знания о методах и типах сравнительно-типологического анализа художественного текста в современном компаративном литературоведении; развивать умение анализировать художественно-эстетические, мировоззренческие, этические, психологические и философские составляющие сравниваемых текстов; формировать поликомпетентные походы к исследованию литературноготекста.



Педагогические результаты	
Развивающие	<ul style="list-style-type: none"> • Стимулирование познавательного процесса, активизация критического мышления; • Развитие навыков и умений индивидуально-поисковой активности; • Формирование поликультурной, информационной, читательской и коммуникативной компетентностей.
Воспитательные	<ul style="list-style-type: none"> • Формирование гуманистического мировоззрения; • Воспитание общечеловеческих ценностных ориентаций; • Формированиедиалогического мышления на основе теорий "памяти культур" и "диалога культур"; • Воспитание мультикультурной личности.
Учебно-познавательные	<ul style="list-style-type: none"> • Усвоение логики и динамики межлитературных взаимодействий в системе "мирового литературного процесса"; • Понимание закономерностей развития национальных литератур; • Многоуровневое раскрытие идейно-эстетического содержания художественного текста в системе компаративного анализа; • Актуализация опорных знаний и усвоение новых историко-литературных и теоретических понятий категорий и фактов; • Понимание генетических связей произведения с другими и литературным процессом в целом; • Усвоение методов интегративного и комплексного исследования художественного текста.

Ход занятия: В соответствии с новыми требованиями высшей школы последовательное развитие занятия представлено в системе технологической карты

Тема	Тема страха в рассказах А.Чехова "Страх" и А.Каххара "Страха"
1.1. Технология обучения на семинарском занятии	
Количество студентов: 10-15 чел.	Время – 2 часа
Форма учебного занятия	Семинар по углублению и расширению знаний
Вопросы для обсуждения на семинарах	<p>1. Определение стратегии сравнительно-типологического анализа (параллельного и последовательного типов) при исследовании разнонациональных произведений:</p> <p>а) методология сравнительно-типологического анализа; б) теория "общего типологического ряда";</p> <p>в) интегративность и комплексность в системе компаративного анализа; г) контактно-генетические связи.</p> <p>2. Усвоение специфики соотнесенности художественного воплощения темы страха в рассказах А.Чехова и А.Каххара:</p> <p>а) проблематика творчества писателей; б) особенности их стиля;</p> <p>в) типологическая и контактно-генетическая соотнесенность (эстетическая, тематическая, психологическая и т.д.) типология и дифференциация в понимании и художественном развитии темы страха.</p> <p>3. Особенности художественного воплощения темы страха у А.Чехова и А.Каххара в аспекте компаративного анализа.</p>
Цель учебного занятия:	сформировать целостное представление о значимости творчества А.Чехова и А.Каххара в мировой литературе, осветить и раскрыть прозаическое произведение в системе методологии последовательного (или) параллельного типов анализа.
Методы и техника обучения	Семинар – визуализация, техника обучения сообща, работа в группах, дискуссия
Средства обучения	Учебные пособия, схемы и таблицы, произведения А.Чехова и А.Каххара,визуальные материалы, информационное обеспечение



Формы обучения	Коллективная, фронтальная работа, работа в группе
Условия обучения	Аудитория, приспособленная к работе с ТСО

Литература:

1. www.til.sk.uz
2. Неупокоева.И.О понятии общего типологического ряда //Контекст-1974;-М.. Наука, 1975.
3. Lev Tolstoy haqida haqiqatlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010,



ЁШЛАРДА КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Мухтарам Нархонова,
Тошкент шаҳар Яшнобод тумани 226-мактаб
рус тили фани уқитувчиси

Аннотация: Мақолада Замонавий технология ва воситалар жуда кенг тарқалган бугунги кунда ёшларни, болаларни китоб ўқишига қизиқтириши, уларни мутолаа жараёнига жалб қилиши, китобхонлар сафини янада кенгайтириши, қолаверса ёшлар, болалар китоб ўқишига жон-жсаҳди билан интилиши борасида олиб борилаётган чора-тадбирлар, уларнинг муаммо ва ечимлари ёритилган.

В статье показаны мероприятия, которые проводятся в сегодняшнее время распространения технологий для повышения интереса молодёжи к чтению книг, привлечению их к процессам дискуссий, расширения рядов книголюбов, стремлению молодёжи к чтению книг, способы их решения.

Бугунги кунда XXI аср болаларини тарбиялаш жараёнида нафақат инсонлар, балки қўшимча тарбия воситалари – китоб, газета ва журналлар, информацион технология воситалари ва виртуал ўйинлар, турли кўринишдаги моддий жисмлар яъни ўйинчоқларнинг ҳам роли ортиб бормоқда. Ҳар бир кўринишдаги тарбия воситалари ўзининг мухим ажралмас ўрнига эга бўлиб, болаларнинг шахсий сифатларини шаклланишида, уларнинг онгли ва зехни, ақл-идрокли, мустақил ва тез фикрловчи бўлишида, дунё хақидаги тасаввурларини бойитишида ўзининг самарали натижаларини кўрсатмоқда. Бу борадаги фикрларимизни бугунги кунда гарчи телевидение ва глобал тармоқ ўрнини эгаллашга ҳаракат қилишаётган бўлса-да, лекин ўз аҳамияти ва қадр-қимматини йўқотмаган китоб ва унинг биринчи галдаги маънавий озуқа берувчи восита эканлигини ҳеч ким инкор эта олмайди.

Зеро юртбошимиз Шавкат Мирзиёев айтганларидек "...Бугунги болалар эртанги кун халқقا айланади. Ёшларни китобга қайтаришимиз керак. Ахборот-коммуникация соҳасидаги охириги ютуқларни ўзлаштириш билан бирга, ёшларнинг китоб ўқишига бўлган қизиқишини кучайтиришга, уларнинг китоб билан дўст бўлишига, аҳолининг китобхонлик савиясини янада оширишга алоҳида эътибор қаратиш лозим бўлади".

Давлат раҳбарининг куюнчаклик билан айтган бу сўзлари шунчаки шиорлар, баландпарвоз иборалар эмас. Балки олдимизга кўйилган энг буюк вазифаларимиздан биридир.

Китобхонларда замонавий ахборот технологиялардан фойдаланиб ахборотларга тезлика тўлиқ эга бўлиш эҳтиёжи кучайиб бормоқда. Ахборотлашган жамиятнинг шундай ва шу каби ҳамда бошқа бир қатор кўрсаткичлари, кутубхоналардан ўз технологияларинигина эмас, балки ўз китобхонларига хизмат кўрсатиш даражасини ҳам такомиллаштиришни тақозо қилмоқда.

Электрон технологияларнинг ва телекоммуникация воситаларининг ривожланиши кутубхоналарда нашрларни каталогглаштириш ва электрон каталоглар яратиш жараёнларини янги тамойиллар асосида ташкил қилиш имкониятини яратмоқда.

Аммо кичик ўшдаги китобхонлар ва мактаб ўқувчилари учун китобга олиб борадиган йўллар яқин ва осон бўлиши керак. **"Китобхонлик ва китоб мутолааси"** ни ошириш ва тарғиб қилиш борасида олиб бораётган ишларимиз натижасида айрим камчилик ва нуқсонлар ҳалигача кузатилиб турибди, шу ўринда оғрикли савол туғилади;

Сиз таълим муассасаларида кутубхоналарнинг қаерда жойлашганига эътибор берганмисиз?....

Одатда мактабнинг энг четида, кўримсиз, кимса бормас бир бурчагида бўлади. Ошхона, ўқитувчилар хонаси, спорт зали ҳаммабоп жойида. Аслида эса улар ҳатто мактабнинг орқасида, ҳовлининг бир четида бўлса ҳам топиб боришади.

Нима, китоб егулик, жисмоний машқ ёки ручка-қаламдек зарур нарса эмасми?

Ахир у тарбия, мушоҳадакорлик, маънавий баркамоллик манбаи-ку. Мактабнинг бир бурчагидаги сеҳрли-сирли хонага юрак ютиб бордингиз, балки бу кимсасиз бурчакка келганингиз учун қўрқаётгандирсиз ҳам.

Аммо нимадир сизни илгари чорлайверади. Шунда кутилмаганда меҳрибон бир нигоҳ



сизни қарши олса. У сизга ёшингииздан келиб чиқиб бир неча китобларни таклиф қилса, ўша китоб ҳақида шу қадар қизиқарли ҳикоялар, ўз таассуротларини айтиб берсаки, бутун дунёни унугиб мутолаага берилиб кетсангиз. Сўнгра ҳар куни ўша нурли масканга ошиқсангиз.

Кутубхоначи сиз билан ҳаётий мушоҳадаларини ўртоқлашса, фикрингиз, муносабатингиз билан қизиқса, керак бўлса у билан дардлашсангиз. Ахир у қанчалар кўп китоб ўқиган, дунёқараши қанчалар кенг. Бироқ педагоглардан ташқари ота-оналар ҳам болага қандай китоб олиб беришни билиши керак.

Ота-оналар мажлисларида кузда тутилган масалалардан ташқари, китобхонликни тарғиб қилиш, синфлар кесимида болалар ёшига мос асарлар рўйхати тузилиб, ота-оналарга тарқатилса бўлади. Шу билан бирга, болаларни китоб ўқишига қизиқтириш ва бу қизиқишлирни тўғри ва самарали қондириш бўйича ҳам маслаҳат, тавсиялар берилиши мақсадга мувофиқ. Китобхонликни тарғиб қилишда янги нашр қилинган асарлар рекламасини кенг йўлга қўйиш, мутолаани оммалаштириш бўйича ижтимоий лойиҳаларни амалга ошириш ҳам катта аҳамият касб этади.

Шундай экан бугунги кун мактаб кутубхоналарининг биринчи вазифалари адабиётлар тарғиботига, мутолаа маданиятига қаратилган бўлиши лозим. Китобхонлик маданияти ўқувчига ўқиётган асарини тўлақонли тушуниш, ундан бадиий-эстетик завқ олиш, ёзувчи фикри, асар ғоясини англаш ва баҳолай олиш, бундан ташқари китоб ва кутубхонадан фойдаланиш, маълумотнома-библиографик аппаратидан ўзини қизиқтирган ёки зарур масалаларга доир китобларни топиб олиш ва ундан фойдаланиш йўлларини ўргатади.

Китоб танлаш, уни тез ўқиш, ўқилган китобларни бошқаларга тавсия этиш, авайлаб сақлаш ҳам китобхонлик маданиятининг тарқибий қисмларига киради. «Китобхонлик маданияти» тушунчаси кенг маънода қўлланилади. Хусусан, бу ҳодиса асарни англаш ва уни тушуниш учун китобхондан маълум тайёргарлик ва савияни талаб қиласди. Бу ҳодисанинг моҳияти китобни шунчаки вараклаш ва ундан умумий фойдалана билишдан то ижодий ўқиш, китоб муаллифига ошно бўлиб, унинг асарини чуқур таҳлил қилиб мутолаа қилишгача боради.

Китобхонлик маданиятида адабиёт танлашда юқори дидга эга бўлиш, кутубхоначилик маълумоти ва библиографик билимларга эга бўлиш, китоб билан ишлаш, янги нашрлар, рўзномалардан фойдалана билиш ҳам китобхонлик маданиятини шакллантиришда муҳимдир.

Бундан ташқари олдимиизда турган бир қанча вазифа ва муаммолар шундан иборатки:

1. Болаларга энг яхши совға тариқасида китоб хадя қилиш;
2. Оилавий кутубхона ва унда болалар бурчагини ташкил қилиш;
3. Кутубхона фондини янги ва замонавий китоблар билан тўлдириш;
4. Болалар учун чоп этилаётган китобларнинг шакл-шамойили, дизайни, расмларнинг тузилиши ва жойлашуви, воқеаларнинг ифодали ва тушунарли тасвирланиши, болаларга хос ёрқин ранглардан фойдаланиш, китобларни замонавий инновацион технологиялар асосида ишлаб чиқиш; Болаларга мўлжалланган китоб чоп этишда биринчи навбатда унинг тарбиявий томонларини хисобга олиш керак.

Шу жиҳатдан олиб қарасак, болалар адабиёти уларнинг тарбия ва билим олишида ўз таъсирини кўрсатиши лозим. Болалар адабиётининг асосий вазифаси шу билан кифояланмайди, албатта. Бизга маълумки, болалар руҳияти катталарникидан кескин фарқланади. Уларнинг аксарияти дунёни фақат шодлик ва қувончга тўла, деб тасаввур этади. Шу сабаб болалар адабиёти нашрида оламга ишонч ва умид билан қарашга ўргатувчи, яхшиликнинг ёмонликдан устун келиши, ростлик ёлғонни енгиг ўтгани каби ғояларни ўзида мужассам этган асарлар танлашга алоҳида эътибор қартиш лозим.

5. Телевидение ва радио орқали китоблар ва болалар газеталарини рекламасини йўлга қўйиш; жонли эфирда ёзувчи ва шоирлар билан учрашувлар ташкил қилиш, унда ижодкор болалар ва кутубхоначилар қатнашиши йўлга қўйилса, янада кўпроқ натижаларга эришилиши мумкин.

Зоро мунтазам китоб ўқиш одам миясини ривожлантиради, асаб тўқималари ва бошқа ҳужайраларни ўзаро боғлайдиган толалар хосил бўлишига олиб келади. Бу эса бутун организмнинг фаолиятини яхшилади.

Дарвокеа, китобхонлик маданиятини оширишдан асосий максад –ёшларнинг буш вактларини, айникса хозир, ёзги таътилни мазмунли ташкил этиш, уларни турли салбий



иллатлардан асраб, маънавий дунё карашини кенгайтириш, китобга булган мухаббатини уйготишдан иборатдир.

Китобга мөхр кўйган, китоб оркали дунёни англаган инсон ёмонликдан йирок булади, доим эзгулик хакида уйлади ва савоб ишларни амалга оширишга интилади. Шунинг учун биз устозлар, ота-оналарга ёшларни болаликдан китобга ошно этишимиз, бу борада узимиз шахсий ибрат курсатишимииз лозимдир.

Бизнинг максадимиз, ёшларни Она-ватанимиз хизматига камарбаста буладиган, XXI асрдаги залворли муаммоларни ечадиган хар томонлама етук маърифатли, хозирги давр илми билан куролланган уз даврига муносиб ёшларни тарбиялаб камол топтиришдир.



«ИБН СИНОНИ ҚАЙТА ҚАШФ ЭТГАН ДОСТОН»

*Хуришида Бердиёрова Жамбуловна
Қашқадарёвилояти Косонтумани
95- ИДУМ она тили адабиёт фани ўқитувчилари*

Анотация: Ушбу мақола миллий адабиётимизнинг дурдона асари «Ҳаким ва ажал» асарининг ёзилиши тарихи ҳамда тиббиёт илмининг даҳоси Абу Али Ибн Сино ҳақидаги муаллиф А.Ориповнинг мулоҳазаларини ёритади.

Калит сўзлар: Поэзиямизнинг шох асари, маънавиятимиз хазинаси

Ўзбекистон Қаҳрамони, халқ шоири Абдулла Арипов шундай хотирлайди. «Буюк Шарқ олими Ибн Сино таваллудининг 1000 йиллиги яқинлашиб келмоқда эди. Шароф ака мени чақирилдишлар ва Ибн Сино ҳақида бирор достон ёзишимни маслаҳат бердилар. Мен Ибн Синонинг касб-коридан унчалик хабардор эмаслигимни айтдим. Шунда Шароф аканинг руҳиятида ёзувчилик сифатлари “ярқ” этиб намоён бўлди. У киши буюк олимнинг серқирра фаолияти ҳақида жўшиб гапирилдиш... Соғлигимни суриштирилар-да... Чехословакиянинг Карлови-Вари булоғининг сувини ичишимни маслаҳат бердилар... Карлови-Варининг суви ёқмадими, соғлигим бироз оғирлашди. Қайтиб кетишдан бошқа иложим йўқ эди. Бироқ мен ўзимга ажратилган кенг хонада йиққан материалларим асосида “Ҳаким ва ажал” достонини ёза бошладим. Йигирма кунда уни битказдим... Достон кўлёзмасини... Яшин домла орқали Шароф Рашидовга чиқариб юбордим... Асарим у кишига маъқул бўлибди. Сал ўтмай Марказқўм девонидан... бир мактубни дарҳол олиб кетишмни сўрашди. Мактуб Шароф Рашидовнинг ўз кўллари билан яшил сиёҳда ёзилган эди...” Хуллас, шоирнинг 1980 йилда Ҳамза номидаги Ўзбекистон давлат мукофотига лойик топилган “Ҳаким ва ажал” достони ёзилишига, бевосита Шароф Рашидов “туртки берган”, десак асло хато бўлмас. Чунки, Шароф Рашидов Ўзбекистонда шунча шоирлар бўлишига қарамасдан бўюмушни Абдулла Орипов бекаму-кўст бажара олишига мутлақ шубҳа қилмаган.

Жуда қадим замонларда,

Минг йилча бурун,

Бухоронинг шундоққина Афионасида

*Яшар эди, гоят закий битта ўспирин,
Тенгдошлиари қаторида ҳали расида...*

*Бир нарсада танти эрур доим табиат,
Идрок берса қарамагай усти-бошингга.*

*Неча-неча саройлардан хатлаб ўтиб баҳт
Ногаҳоний Ҳумой бўлиб келар қошингга...*

*Ҳаким деган номи унинг тарқалиб бот-бот,
Не ҳайратки, ҳар учраган тонди күшойин.*

*Келар бўлди энди унга атроф тумонот,
Ҳар беморда унга истак, ҳар согда хоҳии....*

Шароф Рашидов давлат юмушлари билан қанчалик даражада банд бўлишларига қарамай, “Ҳаким ва ажал” достонини синчиллаб, тўлқинланиб ўқиб чиқади. Юрак-юракдан Абдулла Ориповнинг буюк иқтидорини эътироф этади. Бу эътироф Шароф Рашидовнинг шоирга йўллаган эҳтиросли меҳрга йўғрилган мактубида ўз аксини топгандир. “Укам Абдулла Ориповга! – деябошланади мактуб. Ибн Сино шундай бир қуёшки, у минг йиллар тарихини ҳам ёритиб, ҳам иситиб, ҳам безаб турибди. Унинг ҳаёти ва ижоди ҳам умумхалқ маданияти тарихининг мангу қуёшидир.

Бу ҳақда мен кўп ўйладим. Кўп ўқидим... Шу пайтда Сиз ёзган достонни ўқишига мұяссар бўлдим. Жасоратингизга ва меҳнатингизга балли, укам. Қойилман. “Ҳаким ва ажал” достони жонажон адабиётимизнинг жуда ноёб мулки сифатида, поэзиямизнинг шох асари сифатида ўқилади. Бу ижодий зафар билан сизни чин дилдан табрик қиласман. Кам бўлманг, укам. Умрингиз узок, қўлингиз ва дилингиз дард кўрмасин. Ана шундай достонни ўқишига мұяссар бўлганимдан баҳтиёрман.

Эҳтиром билан, Ш.Рашидов. 1980 йил 10 июл”.

Зоро, ё достонни асло шунчаки мутолаа қилиб бўлмайди.



Кўйма сатрларга эътибор қилинг:

Хабар келди Бухоронинг арқидан бир тонг,
Ёш малика хасталаниб ёттармии бехол.
Қолмабди ҳеч қараашмаган табиб, дуохон.
Малика-чи, ҳануз ҳоргин, ҳануз bemажол...
Бамисоли гор оғзида ўсган бир сунбул,
Соя ҳидин уфурарди бу гўзал вужуд.
Хонанишин эди бу қиз, ўй билан машгул,
У ҳаётдан бекинганди, ёлгиз ва маҳдуд...

Достон давомида малика Ибн Синога “Бу ҳам бир табибда”, деган ўйда қараб кўяди. Лекин, буюк табиб маликанинг “дардини” кўзларига инган ҳамли нигоҳларидан англай олади ва:

...- Мен табибман! Фикрат билан иши тутгум лекин,

Дардингизнинг шифоси бор, теккайсиз эрга!...

...- Йўқ, маликам, фақатгина севиб теккайсиз!...

Қаршисида оддий эмас, тийрак кўзли, зукко қалбли инсон – донишманд табиб турганини ҳис қилган малика Ибн Синога боқиб, шундай хитоб қиласди:

- Бухорода сендай табиб бор экан, ажаб...

У буюорди: - Табиб бўлиб қолгунг саройда!...

Унинг ҳар бир сатри қалбингидан жой олади. Сиз достон ичига, таъбир жоиз бўлса, бутунлай сингиб кетганингизни пайқамай қоласиз. Достонда сиз буюк қомусий олим, табобат илмининг султони Ибн Сино билан бирга нафас оласиз, замона зайли сабаб биргаликда, баъзан дарбадарликда, баъзан қувғинда яшайсиз, ижод қиласиз. Тириклик билан видолашаётган Ҳакимга Ибн Синонинг тайёрлаган ва ўзида синааб кўришни истаган ажал аталмиш кулфатга қарши тайёрланган дорининг сўнги шишадагисини оstonага уриб чил-чил қилган Мирзога минг-минг лаънатлар ўқийсиз. Ва албатта, Ибн Синога астойдил қайғурасиз. Шунинг баробарида буюк ватандошингиз билан фахрланишингизга ўзингизни ҳақли санайсиз. Шоир Абдалла Ориповга эса атоқли давлат арбоби, таниқли ёзувчи, халқимизнинг оташқалб фарзанди Шароф Рашидов сингари қойил қоласиз.

Корейс киноижодкорлари томонидан яратилган қўп сериалли «Тангем» филмини барчамиз севиб тамоша қилганимиз бир неча марта. Тангемнинг табиблик қобилиятига тан ҳам берганимиз. Лекин, ўзбек киноижодкорлари дунё тан берган табобат султони, бизнинг юртдошимиз, халқимиз фарзанди эканлигин ҳис этган ҳолда Ибн Сино ҳақида Абдулла Ориповнинг “Ҳаким ва ажал” достони асосида асар яратсалар, жуда савобга қолган бўлардилар. Чунки, тарихи, миллый маънавияти, маърифати минглаб йилларни қамрайдиган халқимиз Ибн Синони қайта кашф этади.

Она тили адабиёт, тарих, Миллый истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар туркумiga кирувчи фанлар ўқитувчилари дарс ҳамда тўғарак машғулотлари жараёнida юқорида қайд этилганларга эътибор қаратсалар, максадга мувофиқ бўлади. Шунда ҳурматли устоз-муаллимларимиз ўқувчилар онгига ҳам Шароф Рашидов, ҳам Абдулла Ориповдек юксак истеъдолларнинг ибратли ҳаёти ва фаолиятини янада чуқурроқ сингдира оладилар.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.А.Орипов Танланган асарлар 4- том. F.Фулом номидагиадабиёт ва санъат нашриёти. 2001- йил. 148- 152- бетлар.

2.А.Орипов «Ҳаким ва ажал» достони .Танланган асарлар 1- том.2000- йил.F.Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.371- 389- бетлар.

3. »Истиқлолни қумсаган сиймо» мактаб ўқувчилари учун вилоят миқиёсида оммалаштирилган намунали дарс ишланма.Муаллиф «Йил методести- 2018» танловининг республика босқичи совриндори Санжар Жумаев



IQBOL MIRZO IJODIDA USLUB VA MAHORAT MUSHTARAKLIGI

*Otamuratova Muyiba O'ktamovna
Urganch davlat universiteti magistranti
Telefon: +998(93)7522722
muyiba.otamuratova@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli ijodkor Iqbol Mirzo she'riyatida uslub va mahorat mushtarakligi o'rganiladi. Shoirning bir qator ijod namunalari tahlili orqali Iqbol Mirzo she'riyatining o'ziga xos qirralari talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: Uslub, mahorat, mavzular ko'lami, badiiyat, mazmun, badiiy tasvir vositalari, poetik obrazlar, peyzaj, muhabbat lirikasi.

O'zbek she'riyatining yetuk namoyondalaridan biri, betakror so'z san'atkori Iqbol Mirzo ijodi yuksak badiiyati, samimiy his-tuyg'ularga yo'g'rilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shoirning "Aytgil do'stim, nima qildik Vatan uchun", "Sizni kuylayman", "Seni bugun ko'rmasam bo'lmas" kabi bir qancha to'plamlarida hali qalamga olinmagan, ohorli mavzular talqiniga duch kelamiz. Shoir bu tushunchalarni butunlay yangicha ifodalaydi. Asarning nechog'lik aslligini badiiy-estetik salohiyatining qay darajada yuqori ekanligini ijodkor tomonidan poetik obrazlar zimmasiga yuklangan yangicha mazmun orqali bilib olishimiz mumkin.

Shoir qaysi yo'nalishda yozmasin, xoh u modern bo'lsin, xoh an'anaviylik yoki oq – sarbast she'rlar bo'ladimi, faqat va faqat to'g'ri yoza bilsa, shuning o'zi kifoya, degan edi bir suhbatda O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo. Shoir "to'g'ri yozish" deganda haqiqat va haqqoniyilikni nazarda tutgan, chunki shoir, avvalo, haqiqat kuychisi bo'lishi lozim! Zero, "tuyg'ular qofiyabozligi" so'zning faqat qadrini tushiradi. Ijodkorning san'atkorligi to'laqonli obrazlarda umuminsoniy dardlarni kuylay olishidadir. Shoir o'z uslubini poetik obrazlarda akslantirar ekan, u qalb kechinmalari-yu ruhiy olamini, qo'liga qalam tutqazgan his-tuyg'ularini syujet va voqeа tarzida; peyzaj yoki tasvir tarzida; kayfiyat va ruhiy holatning shaklini rassomona quyuq ranglarda (bo'rtma obrazlarda) chizish tarzida ifodalashi mumkin. Iqbol Mirzo ijodida shoir shaxsidagi insonparvarlik, to'g'rilik, haq va adolatga, insonga mehr-muruvvat va qadr-qimmat, olivjanoblik va bag'rikenglik namoyon bo'ladi va bu fazilatlar uning qalamiga mansub ko'pgina she'rlardagi obrazlarni ham ichdan nurlantirib turadi. Shoir insondagi ezgu fazilatlarning yanada kamol topa borishi va shu yo'l bilan inson g'ururi, nomusi, sha'ni hamda qadr-qimmatining ulug'lanishini istaydi va shu maqsad bilan qalam tebratadi. Ijodkor shaxsining badiiy obraz bilan birikib ketishi ijodning tabiati, mazmuni, mas'uliyati bilan ham bog'liq. Yaratilgan har bir haqiqiy san'at asari mohiyatan ijodkorning qalb parchasidir. Iqbol Mirzo ijodida muhabbat lirikasi salmoqli o'rinni egallaydi. Shoir bu tuyg'uni goh quvnoq, goh g'amgin tarzda boshqalardan farqli o'laroq, o'zgacha talqinda kuylaydi. Uning she'rlaridan xalqimizga xos bo'lgan donishmandlik va jaydarilik nafasi ufurib turadi. Shoir qalamiga mansub, "Zulfiya", "Kuyganyorda yozilgan she'r", "Tillo uzuk", "Ayyor qiz", "Qiyin bo'ldi", "Bunaqasi ketmaydi", "Pushaymon", "Qizlarxon" kabi she'rlarda lirik qahramon jaydari oshiqning ishq iztiroblari hazilomuz tarzda ifoda qilinsa ham, tub mazmunda uning dardi yaqqol namoyon bo'ladi. Shoirning "Pushaymon" sarlavhali she'ri benihoya go'zal poetik lavhalarga boyligi bilan ajralib turadi.

Eng boy odam men bo'lardim,
Pushaymonдан foyda bo'lsa.
Ko'ngli toshdan tosh dilbarni
Sog'inaman qayda bo'lsa.
O'n beshimda qoldim sevib,
Uyda yurak siqar edi.
U ham ko'lob suvlar sepib,
Yana suvg'a chiqar edi¹.

Yuqoridagi ijod namunasida shoir she'riy misralar orqali "So'nggi pushaymon – o'zingga dushman" naqlining ma'nosini yuzaga keltiradi va pushaymonlarga boy oshiq tilidan so'zlaydi. Banddag'i "Ko'ngli toshdan tosh dilbar" jumlasini berish orqali ijodkor o'ziga xos ohangdorlik

¹ Iqbol Mirzo. Seni bugun ko'rmasam bo'lmas. – Toshkent: "Istiqlol", 2005. – B. 27.



va falsafiy mazmunni ifodalashga erishadi. O'smirlikdagi beg'ubor muhabbatning sirlarini ko'lob suvlar sepib, yana suvgaga chiqadigan qiz va uning istiqboliga oshiqadigan o'spirin yigit kechinmalari timsolida bayon etadi.

Sindirmaydi yillar kimni,
Tuyg'ularni silliqplaydi.
Har ko'rganda yuragimni,
Kapalaklar qitiqplaydi.

Shoir inson qalbineng eng bebaho gavhari bo'lmish muhabbat ham ba'zan taqdir sarkashligidan yillar qa'ridda yashirinib, o'zini namoyon eta olmasligini, ammo hamisha yurakning bir chetida umrga ziyo bag'ishlagan shu'la kabi ko'ksimizni yondirib, miltirab turishini go'zal tarzda ifodalaydi. "Tuyg'ularni silliqlagan yillar" ham bu tuyg'uni butkul so'ndira olmasligiga ishora qiladi. Muhabbat bog'lagan insonimizni har ko'rganimizda his qiladigan tushuniksiz kechinmani shoir "Har ko'rganda yuragimni, Kapalaklar qitiqplaydi" tarzida g'oyatda noziklik va nafislik bilan aniq bayon etadi.

"Iqbol Mirzo she'rlaridagi badiiy topilmalar (qor tashbehida: "Qo'l ushlashib tushar ko'kdan laylakqor"; kuz manzaralari ifodasida: "Ko'pirib boradi qo'ng'ir bulutlar; muhabbat tasvirida: "Muhabbat bu – baxtning surati" kabi) nihoyatda hayotiyligi, lirik qahramon ruhiyati kengliklarini o'zida ifoda etishi bilan alohidalik kasb etadi. Aytish mumkinki, shoirning ishqiy mavzudagi she'rlari oshiq kechinmalarining tabiat holatlariga hamohang ifoda etilishi, tashbeh, tashxis, tajohuli orif, mubolag'ali tasvirlarga boyligi bilan zamонавиј о'zbek she'riyatida yangi sahifalar yarata oldi" ¹.

Iqbol Mirzo ijodida mavzular ko'lami juda keng. Shoир nafaqat ishq-muhabbatni tarannum etadi, balki insoniyatga xos bo'lgan ezgu fazilatlar va qusurlarni, bir vaqtning o'zida inson qalbida yuz berayotgan turfa tuyg'ular silsilasini, shaxs ruhiyatining murakkab holatlarini ham o'z she'rlarida teran aks ettiradi. Uning "Singan odam", "Mehr haqida", "Bachkana kun", "Yigit", "Meros" kabi she'rlarida ana shu umuminsoniy kechinmalar o'z ifodasini topgan. Ijodkorning teran badiiy tafakkuri, obrazlar va badiiy tasvir vositalarini qo'llashdagi yangicha talqini shoir ijodida uslub va mahorat mushtarakligini ta'minlaydi.

Foydalanimanligan adabiyotlar ro'yxati:

1. Iqbol Mirzo. Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?!. – Toshkent: "O'zbekiston", 2014. – 159 b.
2. Iqbol Mirzo. Seni bugun ko'rmasam bo'lmas. –Toshkent: "Istiqlol", 2005. – 43 b.
3. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent, 2007. – 146 b.
4. Quvvatova D. Iqbol Mirzo she'riyatining poetik xususiyatlari. // O'zbek tili va adabiyoti. 2018. № 5 – 45 – 46 b.

1 Quvvatova D. Iqbol Mirzo she'riyatining poetik xususiyatlari. // O'zbektili va adabiyoti. 2018. № 5 – B. 46.



**OMON MATJON ADABIY PORTRETİGA CHİZGILAR
(JUMAGUL JUMABOYEVA TADQIQOTLARI MISOLIDA)**

*Otamuratova Muyiba O'ktamovna
Urganch davlat universiteti magistranti
Telefon: +998(93)7522722
muyiba.otamuratova@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahoratli ijodkor Omon Matjon adabiy portretiga chizgilar beriladi. Shoир ijodini yoritishda adabiyotshunos Jumagul Jumaboyevaning "Omon Matjon" nomli risolasida keltirilgan qimmatli fikr-mulohazalarga tayaniлади.

Kalit so‘zlar: Adabiy portret, ijodiy mahorat, mavzu, adabiy manba, tadqiqot, talqin, fenomen, obraz, tarixiy drama.

O‘zining betakror she’riyati, teran ijodiy mahorati va yetuk tarixiy asarlari bilan kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan ijodkor Omon Matjon faoliyati bir qator ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo‘ladi. Adabiyotshunos Jumagul Jumaboyevaning "Omon Matjon" nomli monografiyasi ham adib ijodiy faoliyatini yoritishga bag‘ishlangan muhim adabiy manba hisoblanadi. 1993-yilda chop etilgan ushbu monografiyada Omon Matjonning ijod yo‘li va mahorati aks ettiriladi. Shu bois bu ilmiy izlanish mahsuli Omon Matjon adabiy portretini yaratish bo‘yicha amalga oshirilgan yirik tadqiqotlar sirasiga kiradi.

"Adabiy portretlar – tanlab olingen yozuvchi yoki shoир, olim yoki munaqqidning har tomonlama – ijodiy, ilmiy, ma’naviy-ruhiy, insoniy mukammal qiyofasini, obrazini yaratish yo‘lidagi izlanishlar mahsuli"¹. Jumagul Jumaboyevaning risolasida Omon Matjon ijodi uning hayot yo‘li bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganiladi. Ma’lumki, adabiy portreti yaratiladigan ijodkor har tomonlama o‘rnak bo‘la oladigan, o‘z ijodi bilan adabiyot ixlosmandlari ko‘ngliga yetib boradigan fenomen shaxs bo‘lmog‘i darkor. Bu esa chinakam iste’dodni talab qiladi. Kitobning kirish qismida muallif o‘z asarlari bilan butun insoniyatga xizmat qilayotgan chinakam ijodkorlar haqida shunday fikr bildiradi: "Ijodkorlar xilma-xil toifalarga bo‘linadilar. Ularning ayrimlarigina ona xalqi tarixida mangu qoladi. Zero, xalq diliga o‘rnashgan ijodkorlar ma’naviy merosining mangulikka daxldorligi shundan. Chunki ular – fidoyilar: o‘z dardida emas, o‘zgalar dardida kuygan, o‘zi yonib, boshqalar yo‘lini, ongini, qalbini yoritib, abadiyatga aylangan siymolar. Ularning asarlari makon va zamonda chegara bilmaydi, hamisha barhayot, hammaga barobar xizmat qiladi"². Muallifning aynan Omon Matjon ijodini tadqiq etib, bu mavzuga oid kitob yaratishining asosiy sababi ham shunda. Darhaqiqat, Omon Matjon ijodi to‘laligicha insonlar qalbini yoritmoq uchun yozilgan. Bu esa ijodkor atalmish umuminsoniy g‘oyalar tarjimonining asl vazifasidir.

Risoladan o‘rin olgan "Mehr chashmasining olmos qatralari" bobida muallif Omon Matjonning hayot va inson tashvishlari bilan yashash, o‘ylash kabi fazilatlarini uning asarlari orqali kashf etadi. Shoирning "Devorlar", "Munojot tog‘i", "Tilsiz narsalar", "Javob", "Yozuvlar", "Uchrashuv". "Ilhom parisiga" she’rlarini tahlil qilar ekan, Omon Matjon ijodining mohiyatiga teran nazar tashlaydi. Ijodkorning dunyo tashvishlaridan larzaga kelgan qalb tug‘yonlarini o‘zida mujassamlashtirgan "Munojot tog‘i"she’rini talqin qilib, unda ifodalangan vijdon pokligi uchun kurashish – bu insoniyat va xalq uchun noloyiq, nojoiz bo‘lgan barcha ishlarning oldini olish bilan barobarligi haqidagi g‘oyani ochib beradi. Shu bilan birga shoир qalbi va vijdonining asarlarda ifodalangani kabi mudom uyg‘oq ekanligini dallillaydi.

Muallif Omon Matjonga xos bo‘lgan uslubiy betakrorlikning badiiy ijod uchun naqadar muhim ahamiyat kasb etishini uning asarlari zamiriga singdirilgan chuqur falsafiy mazmun bilan bog‘liqlikda namoyon bo‘lishini ta‘kidlaydi. Omon Matjon she’riyatiga o‘zgacha joziba baxsh etuvchi yangicha obrazlar va badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanish mahorati Jumagul Jumaboyeva tomonidan keng talqin qilinadi.

Monografiyaning "Tarix sahifalaridagi nur" bobida Omon Matjonning tarixiy mavzularda qalamga olingen "Pahlavon Mahmud", "Beruniy" dramatik dostoni, "Xorazmiyning to‘rt sayohati va sakkiz bashorati" kabi asarlari haqida fikr yuritiladi. Muallif adibning "Pahlavon Mahmud"

¹ Ahmedova Sh. O‘zbek adabiy tanqidchiligi janrlari. T.: "Fan". 2008. – B. 113.

² Jumaboyeva J. Omon Matjon. T.: "Fan". 1993. – B. 5.



dostonida buyuk Pahlavon Mahmud siy whole yaratilishi masalasi alohida to'xtalib, bu asardagi bosh obraz ma'naviyatining, qalbining pokligi bilan o'z farzandlik burchini his qila olishining ustuvorligi, g'ururi va irodasining bukilmasligi bilan ibratlilik ekanligini ta'kidlaydi. Adibning mashhur tarixiy shaxslarning avlodlarga o'mak bo'luvchi xislatlarini yorqin tasvirlash mahoratini e'tirof etadi. Omon Matjon tarixiy asarlarida ko'proq o'zi tug'ilib o'sgan Xorazm diyori tarixiga oid mavzularni qalamga oladi. Muallif adib asarlaridagi bu xususiyatga e'tibor qaratib, uning o'zi kamol topgan qadimiy go'sha tarixini chuqur bilishi va uni haqqoniy aks ettirishdagi salohiyatini yoritib beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Jumagul Jumaboyevaning mazkur risolasi iste'dodli ijodkor Omon Matjonning o'ziga xos ijod yo'lini yoritish va shoir adabiy portretini yaratish yo'lidagi chuqur izlanishlar samarasidir.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedova Sh. O'zbek adabiy tanqidchiligi janrlari. T.: "Fan". 2008.
2. Jumaboyeva J. Omon Matjon. T.: "Fan". 1993.
3. Omon Matjon. Iyomon yog'dusi. T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1995.



BADIY ASARLARDA QUSHLAR OBRAZI (ORNITONIMLAR) VA ULARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Inomjon Mamatov Chortoq tumani
29-maktabning O'zbek tili adabiyoti o'qituvchisi
Telefon: +99894 330 85 85
michurin.85@bk.ru

Annotatsya: Ushbu maqolada milliy mumtoz adabiyotimizning buyuk nomoyondasi hazrat Navoiyning «“Lison ut-Tayr” dostonidagi qushlarga hos fazilatlarni adabiyotimizdagi muhim o‘rnini haqida fikr yoritmoqchimiz.

Kalit so‘zlar: mustaqillik bergen erk, til ozodligi asoschisi, tarixiy asarlar, umumiylitilshunoslik, “Lison ut-Tayr” dostoni.

Uslubiyat tilshunoslikning eng qiziqarli sohalaridan bo‘lib, o‘zbek tilshunosligida badiiy adabiyot tili muammolarini yechishda, badiiy tasviry vositalarini asarlarda namoyon bo‘lish xususiyatlarini tobora oydin tasavvur qilishga ko‘maklashmoqda.

So‘z san’ati, ifoda vositalari haqidagi alohida bir fandir. Badiiy asar tiliga bag‘ishlangan va uslubiyat nuqtai nazaridan bajarilgan ilmiy ishlardan ichida tasviriy vositalar, ma’no ko‘chishining turli yo‘llari tatqiq etilgan tadqiqotlar bizning e’tiborimizni tortadi. Ayniqla metafora, metonimiya, sinekdoxa, o‘xshatish kabi tasviriy vositalarning ma’lum bir ijodkor asarlari tilidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishi ham mas’uliyatlari va qiziqarlidir.

Biz bugungi kichik maqolamizni mavzusini ko‘chimning bir turi bo‘lgan metonimiya ga bag‘ishladik.

Metonimiya – grekcha so‘z bo‘lib, boshqacha nom berish degan ma’noni bildiradi va so‘zlarning ko‘chma ma’nosiga asoslanadi. Agar metaforada bir-biriga o‘xshash narsalar belgilari ko‘chirilsa-da ikki narsa bir-biri bilan qandaydir aloqada bo‘lsa ham, umuman o‘zaro farqlanuvchi narsalari, belgilari chog‘ishtiriladi, ko‘chiriladi.

Metonimiya narsalarning nomini boshqa narsalarga o‘tkazish etti xil ko‘rinishlarga ega ekanligini keyingi boblarda kuzatamiz. Qushlar nomi bilan bog‘liq badiiy tasvir vositalarining shoir she’riyatidanmisollar tahlili bilan isbotlaymiz. Bu borada 50-60 dan ortiq misollarni kartochka qilaman va ularning tahlili maqolada o‘z ifodasini topadi. O‘zbekiston mustaqillikning 27 yillik dovonidan mislsiz muvaffaqiyatlar bilan o‘tmoqda. Bu muvaffaqiyatlarning zalvorli salmog‘i, hech bir istisnosiz, hayotimizning barcha sohalarida – iqtisodiyotda ham, ijtimoiy hayotda ham, ma’rifat- ma’naviyatda ham tarozi pallasini ro‘y-rost bosib turibdi. Ana shundaymuvaffaqiyatlarning eng mustahkamlaridan biri, shubhasiz, shuki, xalqimizning aqliy va ruhiy dunyosining oynasi, dunyolarga bermaydigan bebaho boyligi bo‘lgan, ammo asrlar davomida qizil va qancha ranglardagi istibdod iskanjasida to‘lg‘onsa-da, badiiyatning betakror bo‘stonini bunyod etmoqqa tuganmas kuch topgan tilimiz – o‘zbek tili o‘zining erkin taraqqiyot o‘zaniga hadiksiz va hormay odimlamoqda. Tilimiz qorong‘u kechadan kunduzga ko‘chdi. Istiqlol tufayli, me’mori bo‘lgan Yurtboshimiz tufayli o‘zbek tili o‘z nufuzi va obro‘yini tikladi. Qisqa vaqt ichida o‘zbek alifbosi va imlosi isloh qilindi, o‘zbek tilini ilmiy tadqiq qilish va o‘qitish ishlari mustaqillik davri talablariga javob beradigan darajaga keltirildi. Endilikda mana shu tarixiy o‘zgarishlarni, bu boradagi yutuq va tajribalarni umumlashtirmoq hamda galdegisi ustuvor vazifalarni bajarmoqqa yeng shimarib kerishmoq, jadal harakat qilmoq lozimdir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov O‘zbekistonning 16 yillik mustaqillik taraqqiyot yo‘liga bag‘ishlangan ma’ruzasida shunday degan edi: - “Shuni ta’kidlash kerakki, mustaqillikka erishish davri haqida, eski tuzum inqirozga duchor bo‘lib, sobiq ittifoq parokandalikka yuz tutgan bir paytda mamlakatimizda tobora keskin tus olgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat, o‘zligimizni anglash, toptalgan milliy g‘ururimizni tiklashga qaratilgan intilish kuchayib borgani, Vatanimiz mustaqilligini qo‘lga kiritish qanday sharoitda kechgani haqida yaxlit, yagona va xolis ko‘z bilan qarab baho beradigan jiddiy tahlit-tadqiqot hozirgacha yo‘qligini afsus bilan aytishga to‘g‘ri keladi”

Mana shunday jiddiy tahlil qilinmagan mavzulardan biri – o‘zbek tili va tilshunosligining mustabit tuzum davridagi ahvoli, o‘zbek tilining erkin taraqqiyoti yo‘lida olib borilgan kurashlar, o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va uning qonun bilan mustahkamlanishi, mustaqillik davrida mamlakatimizda muvaffaqiyatlarning eng mustahkamlaridan biri, shubhasiz, shuki, xalqimizning



aqliy va ruhiy dunyosining oynasi, dunyolarga bermaydigan beba ho boyligi bo‘lgan, ammo asrlar davomida qizil va qancha ranglardagi istibdod iskanjasida to‘lg‘onsa-da, badiiyatning betakror bo‘stonini bonyod etmoqqa tiganmas kuch topgan tilimiz – o‘zbek tili o‘zining erkin taraqqiyot o‘zaniga hadiksiz va hormay odimlamoqda. Tilimiz qorong‘u kechadan kunduzga ko‘chdi. Istiqlol tufayli, me’mori bo‘lgan Yurtboshimiz tufayli o‘zbek tili o‘z nufuzi va obro‘yini tikladi

Til odamga tabiat in’om qilgan beba ho ne’mat, uni mahluqot to‘dasidan insoniyat rutbasidagi oliv sinf o‘laroq ayirgan qudratdir. Bu oliv sinfning aql vako‘ngil mulki ayni shu tilga ko‘ra munavvardir. Bashariyatning necha ming yilliklar mobaynida to‘plagan butun aqliy va hissiy tajribalari ayni shu tilga ko‘ra salomat saqlanib keladi. Til faqatgina muloqot quroli emas, u inson ruhiy-ma’naviy dunyosining fikr va betakror tirgagidir. Shuning uchun ham, tilsiz muhabbat, sadoqat, e’tiqod kabi bir qator tushunchalar tirkaksiz qoladi, shuning uchun ham tilga muhabbasiz Vatan, el muhabbatni muallaqlashadi. Buni ulug‘ bobkalonimiz Alisher Navoiy ko‘p va xo‘p ta’kidlagan, uning – “Tilga ixtiyororsiz – elga e’tiborsiz” degan hikmatli so‘zi ayni shu fikrlarning qaymog‘idir. Alisher Navoiyning teran tafakkuri va bepoyon badiiy matn mahsuli bo‘lmish benazir so‘z durdonalarini namoyon etuvchi ulkan qomusdir. Shuning uchun ham, Prezidentimiz aytganidek, “Ona tiliga muhabbat, uni ulug‘lash, beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ong-u tafakkurimizga, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib kelgan”. O‘zbek xalqi o‘z tilini qalbidagi tengsiz gavhar, tabiat in’om qilgan qutlug‘ ne’mat sifatida asrlar davomida ardoqlab, saqlab, uning boyishi, rivoji uchun qayg‘urdi va kurashdi. Hazrat Alisher Navoiyning “Lison ut-Tayr” dostonida qushlar safari timsolida inson kamolotining etti bosqichi haqida so‘z yuritiladi: talab, ishq, ma’rifat, istig‘no, tavhid, hayrat, faqr va fano. Dostonning maxsus bobi “Ma’rifat vodiysining vasfi” deb nomlangan. Bob quyidagi baytlar bilan boshlanadi:

Ma’rifat vodiysin ondin singra bil,
Dashti bepoyonlig‘in nazzora qil.
Kimki bu vodiyg‘a bo‘ldi muttasif,
Topti anda hollarni muxtalif. Vodiyyir yuz tuman ming onda yo‘l,
Ul bu bir kelmay, oningdekkim bu ul.
Ixtilofi juzv ila kull mundadir –
Kim, taraqqiyu tanazzul mundadur.

Ma’rifat vodiysini “dashti bepoyon” ga qiyoslangan hazrat Navoiy unda “holler muxtalif” ekanini ta’kidlar ekan, “vodiyydur yuz tuman, ming onda yo‘l” deya odamlarning ma’rifiy darajasi turlicha bo‘lishiga ishora qildi. Ulug‘ shoirning “juzv ila kull” – bo‘lak va butun, taraqqiy va tanazzul ixtilofi haqidagi fikrlari buni tasdiqlaydi.

Mazkur bob davomida bayon etilishicha, bu vodiyyda “yuz tuman rahrav” (yo‘lovchi) ni ko‘rish mumkin. Pashsha ham, fil ham, jibril ham yo‘lda. Muso-yu, Fira’vn, Mahdi-yu, Dajjol, Ahmad va Abu Jahl ham rahrav. Shunday bo‘lg‘ach, ulug‘ shoir ta’biri bilan aytganda: “Muxtalif bo‘lmay ne bo‘lsin munda ish”. Ushbu mulohazalari tasdig‘i uchun hazrat Navoiy hadis mazmunini keltiradi:

Mundin aytibdur nabu rahbar –
Kim, ulusqa Haq sari bo‘lsa safar.
Istasang yo‘l hasratig‘a addu had,
Xalq anfosi bila teng bil adad.

Ya‘ni haqqa eltuvchi yo‘llar soni xaloyiqning nufuzu bilan barobar. Boshqacha aytganda, ma’rifati darajasiga ko‘ra, har bir odam o‘z yo‘lini to‘g‘rideb biladi. Bu mavzu doirasida ko‘plab fikirlarni yurtish mumkinki, buyuk ajdodlarimizning merosi biz uchun tiganmaz tafakkur va ozuqa beradi.



ADABIYOT DARSLARIDA „MUSTAQIL O'QILGAN ASARLAR MUHOKAMASI“ MAVZUSINI O'TISH

*Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi
25-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani oqituvchisi
Nasriyeva Dilbar Muhiddinovna*

Annotatsiya: Ma'lumki,adabiy ta'lif oldida turgan vazifalardan biri badiiy asarni guruh bilan tahlil qilishdir.O'quvchilarda kitobga muhabbat o'qilgan asarning sir-asrorini bilgandan keyingina shakllanadi.O'quvchi badiiy asardan lazzat tuysa,o'zining zavqini keltirgan tasviriy unsurlarni payqay bilsa , chinakam badiiyat namunasini soxta asarlardan ajrata olish malakasini egallagan bo'lsagina, kitobxonga aylanadi.Chunki biror asarni o'qish jarayonida tuyilgan lazzat o'quvchini boshqa asarlarni o'qishga, ulardan zavqlanishga undaydi.

Kalit so'zlar: O'qituvchi bunday darslar davomida o'z iqtidorini namoyon qilayotgan intiluvchan, o'z mustaqil fikriga ega,ijodkor o'quvchilarni saralab olishi,ularni rag'batlantirishi

Shunday ekan,adabiyot darslarida mustaqil o'qilgan asarlar ustida ishslash mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil qilish o'quvchilarning badiiy adabiyotga mehr-muhabbatini oshirishga xizmat qilishi lozim.Ularning badiiy didini ,kitobxonlik madaniyatini shakllantirishi,mustaql fikrlash qobiliyatini va og'zaki nutqini rivojlantirib,insoniy sifatlarni kamol toptirishi,o'quvchilarni mushohada qilishga chorlashi darkor.Yuqorida maqsadlarni amalga oshirish uchun ushbu dars mashg'ulotini quyidagicha tashkil qilish mumkin. Avvalo chorak boshida o'quvchilarga 5 ta badiiy asar ro'yxati e'lon qilinadi. O'quvchilarga asarni o'qish jarayonida kundalik tutishni taklif qilish mumkin. Kundalikka o'qigan asaridan olgan taassurotlarini yozib borishi ,qahramonlar bilan g'oyibona suhbat qilib ,ularga maktub yozishi,asar sujeti haqidagi mulohazalarini qoralab borishi mumkin. O'quvchilar asarni o'qib bo'lganidan keyin har bir asar asosida 10-15 ta savol tuzishi shart.

Har bir chorak oxirida deyarli barcha sinflarda „Mustaqil o'qilgam asarlar muhokamasi“ mavzusi uchun 1 soat vaqt ajratilgan.O'quvchilar chorak oxirigacha berilgan 5 ta badiiy asarni o'qib bo'lishi va topshiriqlarni bajargan bo'lish lozim.Albatta o'qituvchi darslar davomida buni nazorat qilib borishi maqsadga muvofiqdir.

Bir soat dars davomida 5 ta asarni tahlil qilishning imkon yo'q .Shuning uchun o'quvchilarning xohishiga ko'ra, bahs-munozara uchun 1 ta asar tanlab olinadi.Dastlab tanlangan asarning badiiy qurilishi aniqlanadi.,,Davom ettir “usuli orqali o'quvchilar asar suyeti haqida gapirib beradilar.Bir o'quvchi boshlab beradi ,keyingisi davom ettiradi .Shundan so'ng asar voqealari ,qahramonlar ustida bahs,fikr-mulohazalar daqiqasi boshlanadi .O'quvchilar asardan olgan bilimlari, taassurotlari yuzasidan bahslashadilar.O'qituvchi o'quvchilar fikrini tahlil qilib boradi.

Asar asosida quyidagicha savollar berilishi mumkin:

_O'qigan asaringiz qanday so'zlar bilan boshlanadi?

_Asardagi asosiy g'oya haqida gapiring.

_Asar qahramonlarini sanang. Salbiy va ijobjiy qahramonlarga izoh bering.

_Aynan qaysi o'rinalar sizningcha, ushbu asarning kulminatsiyasi hisoblanadi?

_Asarning yechimi sizni qoniqtirdimi? Va hokazo .

Shu kabi savollarga javob bergen o'quvchilar endi o'rganilayotgan asar haqida o'zlari tuzib kelgan savollarni o'qiydilar.Albatta, savol-javoblar turli munozaralarga boy bo'lishi, tabiiy.Bunda har bir o'quvchi asarni qay darajada tushunganligiga tayanib ,savollarga javob beradi.

Bahs-munozaralar yakun topgach,o'quvchilarni ijodkorlikka undash maqsadida ,ijodkor o'quvchilarni saralash ,ularni rag'batlantirishni ko'zlab qahramonlarga yoki asar muallifiga „NOMA“ usulidan foydalanib, maktub yozish topshirig'i beriladi.Muktublar o'qib ,eshittiriladi.

Darsni mustahkamlash qismida esa „ISTE'DOD“ usulidan foydalanib,o'qilgan asar asosida sahna ko'rinishlari namoyish etilishi yoki „JONLI MULOQOT“usuli orqali bosh qahramon timsolidagi o'quvchini darsga taklif etish, u bilan o'qituvchi va o'quvchilarning savol-javobini tashkil qilish mumkin.

O'qituvchi bunday darslar davomida o'z iqtidorini namoyon qilayotgan intiluvchan, o'z mustaqil fikriga ega,ijodkor o'quvchilarni saralab olishi,ularni rag'batlantirishi boshqa o'quvchilarning



ham „uyg'onishi”ga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,adabiyot darslari davomida o'quvchilarning kitob o'qish madaniyatini rivojlantirish,mushohada yuritish ,matnlarni talqin qilish ko'nikmasini shakllantirish biz o'qituvchilarning asosiy vazifamizgina bo'lib qolmay, kelgusida o'quvchilarning ilmiy ishlar, tadqiqtolar olib borishida ham zamin bo'ladi ,deb o'ylayman.

Adabiyotlar:

1. T. Ziyodova "O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish", T. "Oqituvchi", 2001.
2. 1. Fuzailov S., Xudoybergenova M. Ona tili. №-sinf uchun dasrlik. – Toshkent, O'qituvchi, 2007.
3. Rahmatullaev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Toshkent. –Universitet, 2006.

TADQIQOT.UZ
ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 18-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(8-қисм)

Масъул мұхаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.07.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000